

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUXANDISLIK QURILISH INSTITUTI

R. O. ISMATOV
KORXONADA SIFAT MENEJMENTI TIZIMI
O'QUV QO'LLANMA

5232900-“Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo’nalishi
talabalari uchun

NAMANGAN -2020

O'quv qo'llanmada bozor sharoitida sifat va raqobatbardoshlik, sifat kategoriyasi va sertifikatlashtirish tarixi, sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanish bosqichlari, sifatni boshqarish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi, sifatni boshqarishni xalqaro standartlarini joriy etish, mahsulot sifatini boshqarish tizimi, sertifikatlashtirishning rivojlanish tarixi, mahsulotni sertifikatlashtirish, majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish, standartlashtirish, O'zbekistonda standartlashtirish ob'ektlariga qo'yiladigan talablar, tovarlarni shtrixli kodlash, O'zbekistonda sertifikatlashtirish tizimi va sertifikatlashtirish tartibi, metrologiya xizmati, iste'molchilar xuquqlarini davlat tomonidan ximoyalanishi bilan bog'liq masalalar keng o'rin olgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5232900-“Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish” ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan bo'lsada, undan “Menejment”, “Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti” ta'lim yo'nalishlarida taxsil olayotgan talabalar, shuningdek, o'zining iqtisodiy bilimlarini kengaytirishga, korxonada sifat menejmentini joriy etishga qiziqqan rahbarlar, mutaxassislar va tadbirkorlar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar: **O. Qozoqov** iqtisod fanlari nomzodi, NamMTI
 “Marketing” kafedrasi dotsenti
A. Orifboev O'zbekiston Respublikasi “O'zstandart”
 agentligi Xalqaro munosabatlar” boshqarmasi boshlig'i

MUNDARIJA

	KIRISH.....	9
I BOB.	BOZOR SHAROITLARIDA SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	12
1.1.	Ilmiy texnika taraqqiyoti va yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi.....	12
1.2.	Yaponiyada sifatni boshqarish tajribasi.....	16
1.3.	AQSH firmalarida sifatni boshqarish tajribasi.....	20
1.4.	Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi.....	26
1.5.	Texnologiyalar evolyutsiyasi va sifat siyosati.....	29
1.6.	Bozor munosabatlari va iqtisodiy raqobat.....	31
1.7.	Raqobat sharoitida korxona muvaffaqiyatini ta'minlashda sifatni boshqarish.....	35
II BOB.	SIFAT KATEGORIYASI VA SERTIFIKATSIYALASHTIRISH TARIXI.....	39
2.1.	Sifat tushunchasi va uning tarixi.....	39
2.2.	Sertifikatlashtirishning mohiyati va uning rivojlanishi.....	46
2.3.	Sertifikatlashtirish sohasidagi atama va ta'riflar.....	49
2.4.	Sertifikatlashtirish, muvofiqlik va muvofiqlikni attestatsiyasi.....	51
2.5.	Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish.....	54
III BOB.	SIFATNI BOSHQARISH NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	57
3.1.	Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanish bosqichlari.....	57
3.2.	Sifat nazoratining Teylor tizimi, statistik usullar. Sifatni umumiy nazorat qilish.....	66
3.3.	Total Quality Management (TQM) kontseptsiyasi.....	69
3.4.	Standartlarni vujudga kelishi.....	72
3.5.	Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimi	73
3.6.	Mahsulot sifatini boshqarishning "DJIT" tizimi.....	79
IV BOB.	SIFATNI BOSHQARISHNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH.....	82
4.1.	Sifatni boshqarish tizimi va ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar.....	82
4.2.	ISO 9000 seriyali standartlarning tarkibiy tuzilishi.....	85
4.3.	ISO 9000 seriyali standartlarni joriy etilishining asosiy sabablari.....	90
4.4.	ISO 9000 seriyali standartlarini joriy etish va sertifikatlashga ketadigan harajatlar.....	92
V BOB.	MAHSULOT SIFATI VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI.....	95
5.1.	Mahsulot sifati va sifatni boshqarish tushunchasi.....	95

5.2.	Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari.....	103
5.3.	Mahsulot sifatining ijtimoiy va funktsional ko'rsatkichlari.....	107
5.4.	Mahsulotning sifat darajasini baholash.....	110
5.5.	Mahsulot sifatining shakllanish bosqichlari.....	119
5.6.	Mahsulot sifatini nazorat qilish.....	124
VI BOB.	STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI.....	128
6.1.	Sifatni boshqarishda standartlashtirish.....	128
6.2.	Standartlarni ilmiy tashkil etish asoslari.....	133
6.3.	Sifatni boshqarish tizimida ISO 9000 seriyasidagi xalqaro standartlar...	137
6.4.	Mahsulot sifatini boshqarishda standartlashtirishning ahamiyati.....	143
6.5.	Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari va tamoyillari.....	146
VII BOB.	MAHSULOTNI SERTIFIKATLASHTIRISH.....	151
7.1.	Sertifikatsiya – sifat kafolati.....	151
7.2.	Sertifikatlash tizimining turlari.....	154
7.3.	Ekspert auditorlar.....	158
7.4.	Sertifikatsiyalash tashkilotlari.....	160
7.5.	Sertifikatsiyalash tartibi va unga qo'yiladigan talablar.....	162
7.6.	Sertifikatlashning tashqi savdoga ta'siri.....	167
7.7.	Sertifikatsiya va xalqaro savdo.....	169
7.8.	Milliy sertifikatlashtirish tizimlari.....	175
VIII BOB.	O'ZBEKISTONDA STANDARTLASHTIRISH OB'EKTLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA TOVARLARNI SHTRIXLI KODLASH.....	179
8.1.	O'zbekistonda standartlashtirish ob'ektlariga qo'yiladigan talablar.....	179
8.2.	Mahsulotni standartlashtirish va uning qalbakilashtirilgan mahsulotlar bilan kurashishdagi roli.....	185
8.3.	SHtrixli kodlashtirish.....	186
IX BOB.	O'ZBEKISTONDA SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMI VA TARTIBI.....	191
9.1.	O'zbekistonda milliy sertifikatlashtirish tizimi.....	191
9.2.	Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari.....	194
9.3.	Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va umumiy qoidalari.....	197
9.4.	O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish.....	198
9.5.	Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi	200
9.6.	Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi.....	203
9.7.	O'zbekistonda mahsulotlarni shtrixli kodlashtirish.....	207

9.8.	O'zbekistonda sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar.....	211
X BOB.	O'ZBEKISTONDA SERTIFIKATLASHTIRISHNING TASHKILiy TUZILMASI VA UNING ASOSiy BOSQICHLARI.....	214
10.1.	O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi.....	214
10.2.	Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifasi va funktsiyalari	217
10.3.	Akkreditatsiya markazi davlat unitar korxonasining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari	224
10.4.	SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi davlat korxonasining asosiy faoliyat turlari	226
10.5.	O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi ("UzTest") davlat korxonasining asosiy vazifalari	227
10.6.	Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari va akkreditlangan sinash laboratoriyalari.....	231
10.7.	Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari.....	232
XI BOB.	METROLOGIYA XIZMATI.....	235
11.1.	O'lchovlarga bo'lgan extiyojni paydo bo'lishi	235
11.2.	O'lchov ob'ektlari va vositalari	237
11.3.	O'zbekiston milliy metrologiya instituti davlat korxonasining vazifalari	241
11.4.	Metrologik nazorat va xizmatlar	242
XII BOB.	ISTE'MOLCHILAR XUQUQLARINI DAVLAT TOMONIDAN XIMOYALANISHI.....	248
12.1.	Iste'molchilar xuquqlari va ishlab chiqaruvchi korxona to'g'risidagi axborot turlari	248
12.2.	Ishlab chiqaruvchi va sotuvchining iste'molchi oldidagi majburiyatlari.	252
12.3.	Iste'molchilar xuquqlarini ximoyalashda sud, xuquq-targ'ibot organlarining vazifalari	255
12.4.	Iste'molchilar xuquqlarini ximoya qilish	259
12.5.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining asosiy vazifasi...	261
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	264

	ПРЕДИСЛОВИЕ.....	9
I ГЛАВА.	КАЧЕСТВО И КОНКУРЕНЦИЯ В УСЛОВИЯХ РЫНКА.....	12
1.1.	Научно-технический прогресс и развитие экономики в странах Европы.....	12
1.2.	Японский опыт управления качеством.....	16
1.3.	Опыт управления качеством в фирмах США.....	20
1.4.	Опыт управления качеством в Европе.....	26
1.5.	Эволюция технологий и политика качества.....	29
1.6.	Рыночные отношения и экономическая конкуренция	31
1.7.	Роль управления качеством в обеспечении эффективности предприятия в условиях конкуренции	35
II ГЛАВА.	КАТЕГОРИЯ КАЧЕСТВА И ИСТОРИЯ СЕРТИФИЦИРОВАНИЯ	39
2.1.	Понятие качества и его история.....	39
2.2.	Сущность сертификации и его развитие.....	46
2.3.	Термины и комментарии в отрасли сертификации.....	49
2.4.	Сертификация и аттестация соответствия.....	51
2.5.	Обязательная и добровольная сертификация.....	54
III ГЛАВА.	ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТЕОРИИ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ.....	57
3.1.	Этапы развития теории управления качеством.....	57
3.2.	Контроль качества по системе Тейлора, статистические методы. Общий контроль качества.....	66
3.3.	Концепция Total Quality Management (TQM).....	69
3.4.	Появление стандартов.....	72
3.5.	Комплексная система управления качеством.....	73
3.6.	Система “DJT” в управлении качеством продукции.....	79
IV ГЛАВА.	ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ КАЧЕСТВА.....	82
4.1.	Система управления качеством и международные стандарты серии ISO 9000.....	82
4.2.	Структура стандартов серии ISO 9000.....	85
4.3.	Основные причины внедрения стандартов серии ISO 9000.....	90
4.4.	Расходы, связанные с внедрением и сертифицированием стандартов серии ISO 9000.....	92
V ГЛАВА.	КАЧЕСТВО ПРОДУКЦИИ И СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ.....	95
5.1.	Понятие качества продукции и управление качеством.....	95

5.2.	Качественные показатели продукции.....	103
5.3.	Социальные и функциональные показатели качества продукции.....	107
5.4.	Оценка уровня качества продукции.....	110
5.5.	Этапы формирования качества продукции	119
5.6.	Контроль качества продукции.....	124
VI ГЛАВА.	СТАНДАРТИЗАЦИЯ И КАЧЕСТВО ПРОДУКЦИИ.....	128
6.1.	Стандартизация в управлении качеством.....	128
6.2.	Основы научной организации стандартов.....	133
6.3.	Международные стандарты серии ISO 9000 в системе управления качеством.....	137
6.4.	Значение стандартизации в управлении качеством продукции..	143
6.5.	Методы и принципы оценки экономической эффективности стандартизации.....	146
VII ГЛАВА.	СЕРТИФИКАЦИЯ ПРОДУКЦИИ.....	151
7.1.	Сертификация-гарант качества.....	151
7.2.	Виды систем сертификации.....	154
7.3.	Эксперты-аудиторы.....	158
7.4.	Организации по сертификации.....	160
7.5.	Порядок сертификации и требования предъявляемые к ним.....	162
7.6.	Воздействие сертификации на внешнюю торговлю.....	167
7.7.	Сертификация и внешняя торговля.....	169
7.8.	Системы международной сертификации.....	175
VIII ГЛАВА.	ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К ОБЪЕКТАМ СТАНДАРТИЗАЦИИ И ШТРИХ КОДИРОВАНИЕ ТОВАРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	179
8.1.	Требования, предъявляемые к объектам стандартизации в Узбекистане.....	179
8.2.	Роль стандартизации и сертификации продукции в борьбе с поддельной продукцией	185
8.3.	Штрих-кодирование.....	186
IX ГЛАВА.	ПОРЯДОК И СИСТЕМЫ СЕРТИФИКАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	191
9.1.	Система национальной сертификации а Узбекистане.....	191
9.2.	Этапы проведения сертификации.....	194
9.3.	Порядок сертификации продукции и общие правила.....	197
9.4.	Сертификация продукции в Республике Узбекистан.....	198
9.5.	Оформление и процедура выдачи сертификатов гигиены, ветеринарии и фитосанитарии.....	200

9.6.	Оформление и порядок выдачи сертификата соответствия.....	203
9.7.	Штрих кодирование продукции в Узбекистане.....	207
9.8.	Предприятия, проводящие сертификацию в Узбекистане.....	211
X ГЛАВА.	ОРГАНИЗАЦИОННАЯ СТРУКТУРА И ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ СЕРТИФИЦИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
10.1.	Организационная структура национальной системы сертификации в Республике Узбекистан.....	214
10.2.	Основные задачи и функции научно-исследовательского института стандартизации, сертификации и технического урегулирования.....	217
10.3.	Приоритетные задачи и направления деятельности государственного унитарного предприятия центра аккредитации.....	224
10.4.	Основные виды деятельности центра штрих-кодирования и информационных технологий.....	226
10.5.	Основные задачи государственного предприятия научно-испытательного центра и контроля качества Узбекистан (“UzTest”).....	227
10.6.	Учреждения сертификации однотипной продукции и аккредитированные испытательные лаборатории.....	231
10.7.	Учреждения систем качества и сертификации производства.....	232
XI ГЛАВА.	СЛУЖБА МЕТРОЛОГИИ	235
11.1.	Возникновение потребности в мерах измерения.....	235
11.2.	Объекты и средства меры измерения.....	237
11.3.	Задачи государственного предприятия национального института метрологии	241
11.5.	Метрологический контроль и служба.....	242
XII ГЛАВА.	ЗАЩИТА ГОСУДАРСТВОМ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	248
12.1.	Права потребителей и виды информации, относительно производственных предприятий	248
12.2.	Обязательства производителей и продавцов перед потребителями.....	252
12.3.	Задача судов и правовых органов в защите прав потребителей..	255
12.4.	Защита прав потребителей.....	259
12.5.	Основная задача агентства защиты прав потребителей.....	261
	СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	264

KIRISH

Hozirda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, so'ngi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tadbqiq etish, sifatli raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarning hayotiylik davrini barqaror o'sib borishini ta'minlovchi zamonaviy usullardan keng ko'lamda foydalanishni taqozo etmoqda.

Xozirgi kunda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning halqaro standartlarga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda hal etilgan deb bo'lmaydi. "Xalqaro standartlashtirish tashkilotining 21 ming standartidan atigi 13 foizi mamlakatimizda joriy etilgan, xolos"¹ deb ta'kidlaydi Prezidentimiz SH.Mirziyoev. Bu kamchilik ayniqsa biz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan yengil sanoat, farmatsevtika va qurilish materiallari sanoati kabi iste'mol tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir.

Mahsulot sifati ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdoda dolzarb hisoblanadi. CHunki korxona faoliyatida olinadigan daromad sotilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bog'liqligi barchaga ma'lum. SHu sababli ham mahsulot va boshqaruvning sifatini, ishlab chiqarish va eksportni xom ashyoga asoslanganlik yo'nalishidan yuqori texnologiyali ishlab chiqarish taraqqiyotiga yo'naltirish, "printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil. 15 yanvar.

raqobatbardoshligini ta'minlash"² – makroiqtisodiy strategiyamizning eng muhim omillaridan biriga aylanishi zarurdir.

Globalashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichida milliy xo'jalikning raqobatbardoshlik darajasi global raqobatda muvaffaqiyatli ishtirok etishning asosiy shart-sharoiti hisoblanib, bu ko'rsatkich mamlakatning yuqori texnologiyali, ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatiga yaqindan bog'liq. Pirovard natijada mamlakatning jahon xo'jaligi tizimida o'ziga xos o'rin egallashi bilimlar ishlab chiqarish va uni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni maqsadga muvofiq yo'lga qo'yishga borib taqaladi. Bu esa kadrlar tayyorlashning muntazam takomillashib boradigan tizimisiz mumkin emas. Milliy iqtisodiyotning innovatsion bosqichga o'tishi yangi g'oyalarni ilgari suradigan va ularni amalga oshiradigan yuqori malakali kadrlarga bog'liq bo'ladi. Bir mamlakat doirasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiyot innovatsion rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi ta'lim hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy tarbiya va ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratdi. Zotan, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan barkamol insonni tarbiyalashni talab etadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o'rganishga bo'lgan harakatni, fanni chuqur o'rganishga bo'lgan talablarni ham kuchaytirdi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali faoliyat yuritish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"da. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

uchun muqobil variantlarni to'g'ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muxitini mavjudligi sifat va uni boshqarish muammolariga katta ahamiyat berishga majbur qiladi. Mamlakatimizni kuchli rivojlangan davlatlar qatoriga kirishida raqobat, mahsulot sifatini oshirish dasturlarini ishlab chiqishga sabab bo'ladi. Mahsulot va xizmatlar sifatini baholash uchun ob'ektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Sifat va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Sifatni oshirish-harajatlarni kamaytirib, bozor ulushi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga ko'maklashadi. Yuqoridagilar bo'lajak mutaxassislardan sifatni boshqarish tizimi asoslari sohasiga oid chuqur ilmiy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi.

Yoshlar zimmasida iqtisodiy bilimlarni o'rganish, ularni kundalik hayotga tadbiq etish vazifasi yotar ekan, bu vazifani hal etish ko'p jihatdan ularning kerakli o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganiga bog'liqligi o'z-o'zidan ayon.

SHu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak "Korxonada sifat menejmenti tizimi" fanidan tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanma bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida taxsil olayotgan talabalarda korxonalarda sifatni boshqarishga doir bilimlar majmuini shakllantirishga, sifat tizimi, sertifikatlashtirish, standartlashtirish, xalqaro standartlarga asoslangan sifat tizimini loyihalashtirish, xalqaro standartlar tizimlarini me'yoriy xujjatlari va boshqalarni o'rgatishga mo'ljallangan.

Xalqaro standartlarning amaliy faoliyatga tadbiq etishni rivojlanishi, mahsulot sifatini boshqarish tizimi va uni boshqaruviga qo'yiladigan talabalarning rivojlanib, takomillashib borishi korxonalarda sifat boshqaruvini tashkil etmasdan, muvaffaqiyatga erishib bo'lmasligini ko'rsatdi. CHunki, zamonaviy iste'molchi mahsulotning nafaqat iste'mol xususiyatiga balki, brendiga, qadoqlanishiga, patent, estetik, xususiyatlariga ayniqsa ekologik tozaligiga ham e'tiborini qaratmoqda. Bu holat korxonalardan bozorda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi va yashab qolishi uchun boshqaruv tizimini zamonaviylashtirish va mahsulot sifatini iste'molchi talabiga moslashtirishni talab qilmoqda.

I BOB. BOZOR SHAROITLARIDA SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK

Xurmatli o'quvchi ushbu bobni o'qiganda quyidagi savollarga javob topish zarurligini unutmang:

- *Ishlab chiqarish omillari deganda nimani tushinasiz?*
- *Ishlab chiqarishda texnikaviy tayyorgarlikni tashkil etish qaysi asosiy vazifalarni hal etishga qaratiladi?*
- *Yaponiyada sifatni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
- *AQSH firmalarida sifatni boshqarish tajribasi qanday?*
- *Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi o'zining qaysi jihatlari bilan boshqalardan ajralib turadi?*
- *Texnologiyalar evolyutsiyasi va sifat siyosatini tushuntirib bering?*
- *Bozor munosabatlari va iqtisodiy raqobat nimani anglatadi?*
- *Raqobat sharoitida korxona muvaffaqiyatini ta'minlashda sifatni boshqarishning o'rnini tushuntirib bering?*

1.1. Ilmiy texnika taraqqiyoti va yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi

Inson nimalar yordamida mehnat ashyosi (predmeti)ga o'z ta'sirini o'tkazsa, shu narsalar mehnat vositalari hisoblanadi. Unga birinchi navbatda mehnat qurollari kiradi. Ular quyidagilardan iborat: har xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, qurilmalar va hokazo.

Mehnat qurollarining takomillashib borishi, tabiatga inson hokimlik darajasining o'sishi ishlab chiqarish taraqqiyotining ko'rsatkichi hisoblanadi. Keng ma'noda mehnat jarayonida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etmasa-da, lekin mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish bino va inshootlari, turli axborot vositalari, aloqa kanallari ham mehnat vositalari hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni amalga oshishi uchun ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari qo'shilishi, iste'mol qilinishi zarur.

Ishchi kuchi ishlab chiqarishning shaxsiy omili hisoblanib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va uning birdan bir yaratuvchi elementidir. Ishlab chiqarish vositalari esa ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning har ikkala omili ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'siri natijasida takomillashib boradi. Ishlab chiqarish vositalari va inson mehnati bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birini taqozo etadi.

Ishchi kuchi ishlab chiqarish vositalarini harakatga keltiradi, buning natijasida mehnat jarayoni ro'y beradi. Faqat insongina ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va ulardan foydalanish usullarini aniqlaydi. Xuddi shu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlar tizimida shaxsiy va moddiy omillarning o'zaro bog'liqlikda umumiy yo'nalishini tashkil etadi.

Yangi texnika va texnologiya hech qachon o'z-o'zidan dunyoga kelmaydi, ularni odamlar ijod qiladi. Biroq, ilg'or mehnat vositalari va texnologiyalar ishlab chiqarishda keng tarqalgandan so'ng, ishchi kuchining umumiy holatini yangi talablar darajasiga ko'tarish kerak bo'ladi. SHuni ham ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish jarayoni uning omillarining oddiy yig'indisi emas, chunki ular o'zaro ta'sir qiluvchi murakkab tizimni hosil qiladi. Har qanday bir butun tizim esa uning elementlarining oddiy yig'indisidan sifat jihatidan farq qiladi. Ishlab chiqarishni samarali bo'lishiga texnologiya va boshqarish ta'sir etadi.

Texnologiya ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifoda etgan holda fan yutuqlariga asoslanib, mehnat ashyolariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Insonlar ashyolarning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarini o'rganib, progressivroq bo'lgan texnologiyani joriy qilish natijasida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish sirlarini bilib oladilar, bu esa ishchi kuchiga, uning malakasini oshirishga yangidan yangi talablar qo'yadi. Ushbu jarayon esa ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni doimo takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Hozirgi ishlab chiqarish jarayonida energiya va axborotning ahamiyati oshib boradi. SHubhasizki, qudratli energiya manbalarini o'zlashtirmasdan turib, ishchi kuchi, mehnat buyumlari va vositalarining o'zaro ta'sirini samarali bo'lishiga erishish mumkin emas.

Korxonalarda fan-texnika yutuqlarini joriy etish uchun ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishning texnikaviy, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi mavjud bo'lib, ularni joriy etish natijasi o'laroq, ilg'or texnologik jarayonlar sifatli mahsulotlar tayyorlash imkonini yaratib beradi. Ishlab chiqarish korxonalarida texnologik va tashkiliy tadbirlar fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq qilib, mahsulot ishlab chiqarishda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ijobiy ta'sir qiladi, mehnat, xomashyo va materiallarni kam sarf qilgan holda, yuqori sifatli mahsulotlar yetkazib berishga imkon beradi.

Ishlab chiqarishda texnikaviy tayyorgarlikni tashkil etish quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga qaratiladi:

- eng ilg'or, progressiv texnologik jarayonlarni joriy qilish;
- yangi mahsulotlar ishlab chiqarishning texnologik tizimlarini yaratish, eskilarini esa yangilash;
- yuqori unumli texnologik asbob-uskunalarni tanlash va joriy etish;
- mehnat va ishlab chiqarishni ilmiy darajada tashkil etishning ilg'or shakllarini joriy etish;
- yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlashdan ko'zlangan maqsad ilmiy ishlab chiqarish tsiklini yaratish, ishlab chiqarishning texnikaviy darajasini ko'tarish asosida mehnat unumdorligini oshirish, korxonalarining bir tekisda, uzluksiz va bir me'yorda ishlashini ta'minlashdir.

Ilmiy – texnika taraqqiyoti, Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotining yuksalishi, “Yapon mo''jizasi”ning yuzaga kelishi natijasida ushbu mamlakatlardagi korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning murakkab tizimlari shakllantirila boshlandi. Bu tizimlar tarqala boshlaganda bozor sifatning narxdan muhimligini angladi, natijada Amerika biznesi 70 – 80 – yillarda yuqori sifatli mahsulotlarni past narxlarda bozorga taklif qilgan Yaponiya va Yevropa firmalari tomonidan kuchli raqobatga uchradi.

Sifat bo'yicha mashhur Amerika mutaxassislaridan biri D. X. Harrington 1987 yilda "80 – yillarning yirik urushi harbiy harakatlardan emas, balki sanoat urushidan iborat va butun dunyodagi iste'molchilar bu urushning o'ljasi hisoblanadi. Amerika sanoatiga nafaqat Yaponiya, balki Osiyo va Yevropa tomonidan ham hujum uyushtirilmoqda. Qo'shma SHtatlarda ko'plab mahsulot turlarining takomillashuv darajasi aniqlanmaydi³" deb ta'kidlagan edi.

Usha davrda Rossiyada sifat sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalar keng ko'lamda muvaffaqiyatli olib borilgan. Ular alohida yo'nalishlarda hatto jahon darajasidan bir necha o'n yilga ilgarilab ketgan edi. Lekin amaliyotda sifatni boshqarishning samarali tizimlari faqat harbiy – sanoat komplekslarida (HSK) yaratilgan va tatbiq etilgan edi.

Harbiy sanoat kompleksi (HSK) da sifatni boshqarish sohasidagi yutuqlar yangi mahsulotni yaratish bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalar bosqichida qo'llaniladigan sifatni texnologik ta'minlash usullari, nazorat kartalari orqali sifatni statistik tartibga solish (shu jumladan, avtomatlashtirilgan, maxsus davlat va tarmoq standartlari)ni o'z ichiga oladi. Bunday yutuqlarga mahsulot sifatini boshqarishning birlashgan tizimlari – MSBBT, korxonalar va alohida bo'linmalar faoliyatini boshqarishning kompleks tizimlari (KABFBKT), ta'minotchilar bilan ishlashning shakllari va usullarini kiritish mumkin. Ushbu ishlanmalarning katta qismi amaliyotda dastlab Yaponiya yoki AQSH da emas, balki Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDX) davlatlarining Harbiy sanoat kompleksi (HSK) tarmoqlarida qo'llanilgan.

SHubhasiz, bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatni boshqarishning tashkiliy – iqtisodiy masalalari ko'p hollarda yangicha yondashuvlar asosida hal qilinadi. Biroq orttirilgan tajriba, ilmiy texnika yutuqlari va milliy fan salohiyatidan bu sohada foydalanish nihoyatda foydali xisoblanadi.

³ Харрингтон Д. Х. Управление качеством в американских корпорациях: Сокр. пер. с англ. / Под. ред. Л. А. Конарева. М.: Экономика. 1990. 29 – 30 с.

1.2. Yaponiyada sifatni boshqarish tajribasi

Sifatni boshqarishga Yaponiyaning yondashuvi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega, biroq qiyosiy tahlil uning nazariy qoidalari jahon tajribasi bilan umumiy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Bu kontsepsiya to'liq va to'g'ri tatbiq qilingan ilg'or xorijiy firmalarning sifatni boshqarish tizimlari bir – biriga o'xshash, ularni qo'llash va rivojlantirish mexanizmlarida ham umumiylik mavjud.

Sifatni boshqarishga Yaponiya yondashuvining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- barcha bo'linmalarda mehnat jarayonlari va natijalarini doimiy takomillashtirish;
- mahsulotning sifatini emas, balki jarayonlarning sifatini nazorat qilish;
- nuqsonlarga yo'l qo'yilish ehtimolini bartaraf qilish;
- oldingi operatsiyadan keyingisiga o'tishda yuzaga keladigan muammolarni tadqiq va tahlil qilish;
- “Sening iste'molching – keyingi ishlab chiqarish operatsiyasini bajaruvchi” tamoyilini ilgari surish;
- bevosita ijrochining zimmasiga mehnat natijalarining sifati uchun javobgarlikni yuklash;
- inson omilidan faol foydalanish, ishchilar va xizmatchilarning ijodiy salohiyatini oshirish, “Yaxshi odamga yomon ishlash uyat” maqoliga rioya qilish.

Yaponiya mutaxassislarining fikriga ko'ra, ishni majburiyatlar mantig'ini himoya qilishdan emas, balki ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdan boshlash, hamkorlikdagi izlanishlar, jamoaning qarorlariga tayanish kerak.

Ishchilarni o'qitish ularning bevosita rahbarlari – ishlab chiqarish ustalari (masterlar), bo'lim (uchastka) boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ustalari, bo'lim va tsexlarning boshliqlarini o'qitish 6 kunlik nazariy kurs va 4 oylik amaliy faoliyatdan iborat.

“Nissan Motor” kompaniyasida ishchi xodimlar ish faoliyatining dastlabki 10 yilida o'qitish ishlab chiqarishdan ajralgan holda amalga oshiriladi va bunga

kamida 500 kun sarflanadi. Keyinchalik o'qitish kechqurunlari va dam olish kunlarida bevosita ish joylarida davom etadi. Vaqti – vaqti bilan barcha toifadagi ishlayotganlar, shuningdek, rahbarlar attestatsiyadan o'tkazilib, o'qitish jarayoni yakunlanadi. Mos bo'linmalarning rahbarlari mutaxassislar ishtirokida attestatsiyadan o'tkaziladi. Ishchilarning toifalariga mos ravishda attestatsiyadan o'tkazish 3, 6 oy va 1 yilda bir marta olib boriladi.

Attestatsiya natijalari ish joylariga osib qo'yiladi. Uch martagacha attestatsiyadan o'tishga ruxsat beriladi. Uch marta attestatsiyadan o'tmagan ishchi kasbiy jihatdan ishga yaroqsiz hisoblanadi.


O'qitishning juda muhim foydali samarasi sifat odamlarning o'z ishiga shaxsiy munosabatlarini yaxshi tomonga o'zgartiradi. Yaponiyaliklar sifatning 90 foizi tarbiya, anglanganlik bilan va faqat 10 foizi bilimlar bilan tavsiflanadi, deb o'ylashadi. O'quv dasturlari atigi bu 10 foizini berishi mumkin, lekin ular ishchilarning sifatga munosabatini o'zgartiruvchi kuch hisoblanib, bu munosabat keyinchalik rag'batlantirishlar vositasida doimiy qo'llab – quvvatlanishi kerak.

Yaponiyada mahsulot sifatini boshqarishda sifat to'garaklariga katta e'tibor beriladi. To'garaklar ixtiyoriy shakllantiriladi. Tadqiqotlar to'garaklarga qatnashish va yig'ilishlardagi faollik bilan, sifatning ichki masalalarini hal qilishdagi ixtiyoriylik, mustaqillikda bevosita aloqa mavjudligini ko'rsatdi. To'garaklarning majlisi – ish vaqtida o'tkaziladigan noishlab chiqarish faoliyatining yagona turi hisoblanadi. Majlislar har haftada o'tkaziladi.

Sifat to'garaklarining tsex va zavod konferentsiyalari muntazam o'tkazilib boriladi. Sifat to'garaklarining konferentsiyalari butun kompaniya miqyosida yiliga ikki marta o'tkaziladi. Sifat to'garaklari vakillarining umumiyapon s'ezdlari ham o'tkaziladi. To'garak Yaponiya olimlar va muhandislar birlashmasi (JUSE) da ro'yxatdan o'tgan bo'lsa va “Sifat ustasi va nazorati” jurnalida bu ma'lumot chop etilgan bo'lsa, u holda bunday to'garak rasmiy tan olingan hisoblanadi.

Yaponiya korxonalarida xodimlar uchun “beshta nolъ” nomini olgan sifatni ta'minlashda qatnashish dasturi ishlab chiqilgan. U qisqa qoidalar – maqollar ko'rinishida quyidagicha shakllantirilgan (1.2.1 rasm).

Bu qoidalar ishlab chiqarishni tayyorlash va ishlab chiqarish bosqichlari uchun detallashtirilgan hamda har bir ishchiga yetkazilgan.



1.2.1-rasm. Yaponiya korxonalarida xodimlar uchun “beshta nol” dasturi

Yaponiyada sifatga munosabatning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- boshqaruv va texnologiya sohasida ilmiy ishlanmalarni keng tatbiq etish;
- ishlab chiqarishni boshqarish, tahlil qilish va nazorat qilishning hamma operatsiyalarining yuqori kompyuterlashtirilganlik darajasi;
- insonning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish. Buning uchun ijodiy faoliyatni rag'batlantirish (sifat to'garaklari), o'zining firmasiga sodiqlik ruhida tarbiyalash, xodimlarni tizimli va har tomonlama o'qitish choralari ko'riladi.

70-yillar boshida Yaponiya tovarlarining halqaro bozorni “bosib olishi” boshlandi. Bu “bosish”ning asosiy sabablaridan biri Yapon tovarlarining narxlarini arzonligida edi. Bu baho raqobatiga sezilarli ta'sir qilgan. Lekin hozir ham Yaponiya va Amerikada ishlab chiqarilgan tovarlarning narxлари deyarli baravarlashganda “bosish” muvaffaqiyatli davom etmoqda. Bu muvaffaqiyatning asosida sifati yuqori bo'lgan Yaponiya tovarlarining raqobatbardoshligi (sifat raqobati) yotadi. Masalan, Yaponiyada ishlab chiqarilgan avtomobil o'rta hisobda Amerikada ishlab chiqarilgan avtomobil dan 10 marta kamroq ishdan chiqadi; amerika televizorlarining nosozlik chastotasi yapon televizorlaridan 1,5-2 baravar ortiqroq.

Raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqarish uchun yapon firmalari sifatni boshqarish usullarini muntazam ravishda takomillashtiradilar. Firmalarning ko'pchiligida sifatni boshqarish quyidagi tamoyillar asosida tuzilgan:

- sifat bo'yicha umumfirma siyosatini o'tkazish va uni uzoq muddatga rejalashtirish;
- tovarlarning yangi turlarini ishlab chiqishda yangi tamoyil va usullarni qo'llash;
- firmaning barcha bo'linmalarini qamrab oladigan sifatni ta'minlash tizimini yaratish;
- sifat ustidan nazorat;
- sifatni boshqarish bo'yicha faoliyatni savdo agentlari, savdo firmalari, do'konlarga tarqatish.

Yaponiyada sifatni boshqarishning o'ziga xosligi - firmaning barcha xodimlari bu ishda qatnashishining ixtiyoriyligi, buning ustiga dunyo bozorida raqobat kurashida omon qolishga ko'maklashadigan anglangan ixtiyoriylikdir. Sifatni boshqarishga bunday yondashish “umumiy sifat boshqarishi” degan nom oldi. Uning mohiyati quyidagicha:

- mahsulot sifatini yaxshilashda “sifat to'garaklari”ga birlashib, firmaning barcha xodimlari qatnashishi shart;
- firma rahbariyati sifat darajasini doim diagnostika va nazorat qilishi shart;
- hamma ish o'rinlarida nazoratning statistik usullari qo'llanishi kerak;
- doim sifatni nazorat qilish usullarini barcha darajalarda milliy miqyosda o'rgatish lozim;
- sifatni nazorat qilish usullarini tatbiq etish harakati butun mamlakatni qamrab olishi kerak.

SHunday qilib, Yaponiyada sifatni boshqarish tizimining muvaffaqiyati sifatni nazorat qilish bo'limidagi nazoratchilar harakatlari bilan emas, balki firmaning barcha xodimlarining o'z ish joylarida qilgan harakatlari bilan ta'minlanganligidadir.

1.3. AQSH firmalarida sifatni boshqarish tajribasi

Global sanoat salohiyatining katta qismi yo'q qilingan ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda hamma davlatlarda keng iste'mol mahsulotlarining yuqori tanqisligi kuzatila boshlandi. AQSH ning hududi ikkinchi jaxon urushida to'pga tutilmagan yoki quruqlikdagi janglar maydoniga aylanmagan bo'lsada, sobiq askarlarning uyiga qaytishi natijasida, butun dunyoda o'sgan ehtiyojlarni qondirish uchun AQSH sanoati tez o'sib, muzlatgichlar, televizorlar, avtomobillar va radiopriyomniklarni cheklanmagan miqdorda ishlab chiqara boshlagan.

O'tgan asrning 40-50-yillarida Amerika firmalarida e'tibor faqat rejalashtirilgan hajmda mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati talab darajasidan past edi.

Usha davrda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat darajasining pastligi natijasida mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan katta harajatlar AQSH sanoati uchun jiddiy muammoga aylandi. Amerika firmalarining barcha joriy harajatlarining 20 – 25 foizi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nuqsonlarini aniqlash va bartaraf qilishga sarflandi. Boshqacha qilib aytganda, korxona ishchilarining chorak qismi hech narsa ishlab chiqarishmagan – ular faqat birinchi safar noto'g'ri bajarilgan ishlarni tuzatishgan. Agar bunga korxonadan chetga chiqqan va bozorga kelib tushgan no'qsonli mahsulotlarni ta'mirlash yoki almashtirib berish harajatlarini qo'shadigan bo'lsak, u holda past darajadagi sifat natijasida sarflanadigan umumiy harajatlar, ishlab chiqarish harajatlarining 30 va undan ko'proq foizini tashkil qilgan.

AQSH ning ko'plab mutaxassislari past sifatli Amerika mahsuloti, mehnat unumdorligi va uning raqobatbardoshligi o'sishining asosiy to'sig'i deb baholashgan. Sifat darajasini oshirish yoki mag'lub bo'lishdan boshqa Amerika sanoati uchun muqobil yo'l bo'lmagan.

Sifat muammosini hal qilishda ko'p hollarda Amerika mahsulotini raqobatchilardan himoya qiluvchi turli proteksionistik choralar: tariflar, kvotalar, to'lovlarni izlangan.

Amerika tadbirkorlarining talabi bilan AQSH ma'muriyati Amerikaning avtomobil, po'lat, maishiy elektronika, mototsikllar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilarini himoyalash yuzasidan proteksionistik choralar ko'rgan. Mahsulotning sifati asosiy maqsadga aylangan. Amerikaning yetakchi kompaniyalarida ham sifatga iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish yo'li emas, balki ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish vositasi sifatida qaralgan.

1980 – yillarning boshida AQSHda sifatni boshqarish, sifatni rejalashtirish bilan birgalikda olib borildi va bu sifat xizmatining muhim yutug'i bo'ldi.

O'sha davrda AQSHda E.Demingning ikkita: “Sifat, unumdorlik va raqobatbardoshlik” va “Inqirozdan chiqish” kitoblari nashrdan chiqdi. Bu monografiyalarda “14 qoida” nomi bilan tanilgan E.Demingning falsafasi o'rin olgan bo'lib, ular umumiy sifat (Total Quality) ning asosini tashkil qilgan.

Bu davrga kelib AQSHda sifat muammosi teran anglay boshlangan, sanoatida resurslar, salohiyat, qadr – qimmat va yuqori ish haqi to'lanadigan yuqori pog'ona rahbariyati shakllangan. Mashhur Amerika mutaxassisi A. Feygenbaum sifatga “sifat – evangelizm emas, oqilonlashtirish taklifi va shior ham emas, u hayot tarzidir” deb ta'rif bergan.

Buyurtmachilar (iste'molchilar)ning talablarini qondirish sifat sohasidagi inqilobning negizi hisoblanadi. Konveerdagi har bir ishchi o'zidan oldingi ishchi mahsulotlarining iste'molchisi hisoblanadi. SHuning uchun, har bir ishchining vazifasi navbatdagi ishchini qoniqtirishdan iborat.

Miliy mahsulotning sifatini oshirish masalalariga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tomonidan e'tibor davlatning iqtisodiy rivojlanishidagi yangi yo'nalishga aylandi.

AQSH Kongressi mahsulot sifatini oshirish sohasida erishgan alohida yutuqlari uchun Mal'kol'm Boldridj nomli milliy mukofotni ta'sis etdi, bu mukofot har yili uchta eng yaxshi firmaga topshiriladi. Umumjahon sifat kuni deb belgilangan noyabrning ikkinchi choragida AQSH Prezidenti ushbu mukofotni o'zi shaxsan taqdim qiladi.

1987 yilda sifat bo'yicha mashhur Amerika mutaxassislaridan D. X. Harrington bu davr haqida “80 – yillarning yirik urushi harbiy harakatlardan emas, balki sanoat urushidan iborat va butun dunyodagi iste'molchilar bu urushning o'ljasi hisoblanadi. Amerika sanoatiga nafaqat Yaponiya, balki Osiyo va Yevropa tomonidan ham hujum uyushtirilmoqda. Qo'shma SHtatlarda ko'plab mahsulot turlarining takomillashuv darajasi aniqlanmaydi” deb yozadi.

Usha davr xaqida “Хьюлетт – Pakkard” kompaniyasining prezidenti J. A. Yang “So'nggi yigirma yilda xalqaro bozorda Amerika sanoatining raqobatbardoshligi pasayib ketgan. Tashqi savdo taqchilligining rekord darajasiga yetishi, yuqori texnologik sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosida jahon bozori ulushining qisqarishi, bizning ishlab chiqarish sektorimiz daromadlarining pasayishi, mehnat unumdorligining sust o'sishi va real ish haqi o'sishining mavjud emasligi tushkunlikdan dalolat beradi⁴” deb ta'kidlagan edi.

Oxirgi vaqtda AQSH firmalari sifatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarni qo'lladilar:

- firmaning oliy boshqaruv bo'g'inlarining sifatni ta'minlash tizimida oddiy qatnashishdan tizimni bevosita boshqarishga o'tishi;
- barcha toifadagi kadrlar malakasini oshirishga diqqatni qaratish;
- barcha toifali xodimlar uchun firmada bajarilayotgan ishlar va operatsiyalarga standartlar qo'llash. Bu standartlar ish natijalarini ixtiyoriy baholanishini bartaraf qilishi kerak va “birinchi martadan to'g'ri” hamda “defektlar soni – nol” talablarini amalga oshirilishini ta'minlashi kerak;
- sifatni nafaqat texnikaviy ko'rsatkichlar orqali, balki narx ko'rsatkichlari orqali o'lchash, natijada “sifat narxi” tushunchasi kiritiladi, u o'z ichiga “nomuvofiqlik narxi” va “muvofiqlik narxi”ni oladi.

Mahsulot sifatining pastligi ish unumdorligi va raqobatbardoshlikning o'sishiga asosiy to'g'anoq bo'ladi.

Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun Amerika firmalari zamonaviy sifat

⁴ Харрингтон Д. Х. Управление качеством в американских корпорациях: Сокр. пер. с англ. под. ред. Л. А. Конарева. М.: Экономика. 1990. 29 – 30 с.

tizimiga o'ta boshladilar. U o'z ichiga mahsulotning yuqori sifatiga erishish bo'yicha qator rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni oladi. Bu tizim quyidagi vazifalarni bajaradigan to'qqizta kichik tizimlardan iborat:

- sifat tizimini boshqarish;
- buyum ishlab chiqilishini nazorat qilish;
- sotib olinadigan xomashyo, material va butlovchi buyumlarni nazorat qilish;
- texnologik jarayonni ishlab chiqish va operatsion nazorat;
- mahsulot sifati haqida ma'lumot;
- maxsus tadqiqotlar;
- sifat tavsiflarini o'lchash va nazorat-o'lchash apparaturasi;
- sifatni ko'tarish ishlariga xodimlarni jalb qilish;
- buyurtmachilar bilan aloqa o'rnatish.

Har bir kichik tizim ko'p masalalardan tarkib topgan bo'lib, faoliyatning murakkab turlarida ularning soni 100 dan ortiq bo'lishi mumkin.

Masalalar doirasi qanday bo'lmasin, u sifat tizimini boshqarishning kamida oltita quyidagi elementidan iborat bo'lishi kerak:

- tizim holatini aniqlash va mahsulot ishlab chiqarishning hamma bosqichlarini sinchkovlik bilan tekshirish, uning texnikaviy talablarga mosligini o'z ichiga olgan tahlilni o'tkazish;

- harajatlar bandlari bo'yicha sifat narxini baholash, yaroqsizlikning oldini olish, sifatni nazorat qilish, nosozlik sabablarini bartaraf etish va boshqalar;

- mahsulotning iste'molchilar talablariga mosligini aniqlash;
- mahsulotning texnikaviy talablarga mosligi darajasini aniqlash;
- mahsulotdan foydalanish sharoitlarida ishlashining tahlili;
- mahsulotning bozor talablariga mosligini aniqlash.

Amerikalik mutaxassislarning fikri bo'yicha sifatni boshqarish tizimi qanday mukammal bo'lmasin, muvaffaqiyatning eng muhim sharti firma xodimlari - direktordan tortib bajaruvchigacha - uni to'liq qo'llab-quvvatlashidadir. Sifatni ko'tarish sohasida sezilarli o'zgarishlarga faqat xodimlar va ishlab chiqarish

texnologiyasini o'z ichiga olgan ijtimoiy-texnikaviy tizimlarni qayta tashkil qilish asosida erishish mumkin. Qayta ko'rilgan tizimlar inson omiliga asoslangan bo'lishi kerak.

AQSH firmalari sifatning ikkita tushunchasini tahlil qilishadi: standart (me'yoriy-texnikaviy xujjat)larga mosligi va iste'mol sifati.

Iste'molchi buyum sifatini raqobat qilayotgan buyumlar bilan qiyoslab baholaydi.

Hozirgi kunda tayyor mahsulot sifati haqida qabul sinovlari natijalari va sifatli hamda yaroqsiz mahsulotlarning foiz nisbati bo'yicha xulosa chiqarib bo'lmaydi. Hozirgi asosiy mezon - iste'molchi talablarining qondirilishidir.


Mahsulot sifati xaqidagi haqqoniy axborotni iste'molchilar uyushmalari va jamiyatlari, mustaqil sinov laboratoriyalari, iste'mol tovarlar xavfsizligi komissiyasi, sotib oluvchi davlat organlari va boshqalardan olinadi.

AQSHda sifatni ta'minlash tizimlariga bo'lgan talablar "Mahsulot sifatini ta'minlash tizimlarini yaratish bo'yicha qo'llanma" milliy standarti orqali belgilanadi. Mazkur standart mahsulot xayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifat nazoratini, ya'ni har tomonlama nazoratni nazarda tutadi. U nazoratning to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- yangi mahsulotni ishlab chiqish ustidan nazorat;
- xomashyo, material, jamlovchi buyumlar ustidan kirish nazorati;
- tayyorlash sifati ustidan nazorat;
- istemolchidagi mahsulotga xizmat qilish, sifati ustidan nazorat.

Har tomonlama nazoratni tatbiq etishda Amerika firmalari ikki tamoyilni amalga oshirishga harakat qiladilar:

1. har tomonlama nazorat - har bir xodimning burchi;
2. ko'pincha umumiy javobgarsizlikka olib keladigan sifat haqida umumiy g'amxo'rlikni e'lon qilish emas, balki har bir xodimning o'z ishi sohasida aniq sifat uchun javobgarligi.



1.3.1-pasm. AQSH firmalarida tayyor mahsulot sifatini baholashdagi ustivorliklar

Mahsulot ishlab chiqaruvchilar va savdoning sifat uchun yuridik javobgarligiga katta ahamiyat beriladi. SHuningdek ishlab chiqaruvchi va savdo korxonasi qonunga binoan yaroqsiz mahsulotdan foydalangani tufayli iste'molchi ko'rgan zararni qplashi to'ldirishi kerak. Ular mahsulotning atrof-muhitga qilgan ta'siri va mahsulotning amaliy foydalanishdagi xavfsizligi uchun ham javobgardir.

Sifat sohasida Amerika tajribasini tahlil qilgan holda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini qayd qilamiz:

- matematik statistika usullari orqali mahsulot ishlab chiqarish sifatini qattiq nazorat qilish;
- miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ishlab chiqarishni rejalashtirish jarayoniga e'tibor berish, rejalar bajarilishining ma'muriy nazorati;
- firmani boshqarishni takomillashtirish.

Mahsulotning sifatini muntazam oshirishga qaratilgan choralar AQSH ning Yaponiyadan katta farqlar bilan ortda qolishini bartaraf etdi. Bu o'z navbatida yagona, global bozorga aylanayotgan jahon bozorida raqobat kurashini kuchaytirib yubordi.

1.4. Sifatni boshqarishning Yevropa tajribasi

Agar AQSH va Yaponiyada ko'p yillardan beri sifatni oshirish dasturlari amalga oshirilayotgan, sifat masalalari bo'yicha faol siyosat olib borilayotgan, sifatni uzoq muddatli rejalashtirish bajarilayotgan bo'lsa, Yevropada kamdan – kam istisnoli holatlarda sifatni boshqarish sifatni nazorat qilishdan orta qolishda davom etgan.

Mahsulot sifatini boshqarishda Yevropa usuli shunisi bilan boshqa usullardan farq qilganki, unda doimo mahsulot sifati nazorat ostida bo'lgan. 1980 yillarga kelib Yevropa davlatlarida mahsulot sifatiga nazorat qattiq kuchaytirildi. Aynan shu yillarda ISO - 9000 standartlari yoppasiga tadbiq etila boshlandi. Bunday tadbirlar Yevropa tovarlarini raqobatbardoshligini oshirib yubordi.

SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, G'arbiy Yevropa davlatlarining yagona iqtisodiy siyosat yuritishlari ularni xalqaro bozordagi mavqeini yuksaltirdi.

Evropada tashkil qilingan yagona bozor siyosati tovar va xizmatlar harakatini umumiy koordinatsiyasini keltirib chiqardi.

Evropaning umumiy bozorini tashkil qilish masalalari 1993 yil 1 yanvardan yagona standart asosida tashkil qilinishi rejalashtirilgan edi. ISO - 9000 seriyasiga muvofiq ravishda Yevropaning EN - 29000 seriyalik standartlari tashkil etildi.

Mahsulot va xizmatlarni sertifikatsiyalashga ham katta e'tibor qaratildi.

Evropaning EN - 45000 seriyasiga muvofiq olib borilgan barcha ishlar yuksak sifat darajasini kafolatlash bilan birga millionlab iste'molchilar xuquqlarini ximoyalashga qaratildi.

Evropa bozorlarini halqaro standartlarga mos ravishda ishlashini to'la ta'minlash uchun mahsulot va xizmatlarni muntazam ravishda sertifikatsiyalash bilan birga, xodimlar malakasini oshirishga va texnika - texnologiyani o'z vaqtida akkreditatsiyadan o'tkazishga aloxida e'tibor qaratildi. Bulardan kelib chiqqan xolda ishlab chiqaruvchilar sifat uchun o'z siyosatlarini qattiq yurita boshladilar va ulkan yutuqlarga erishdilar.

Sifat Yevropa davlatlari raqobatbardoshligini oshirish bilan birga quyidagi uch omilni ko'ndalang qilib qo'ydi:

- Yagona iqtisodiy talab (direktivalik);
- Yagona standartlar;
- Yagona nazorat turlari (korxona mahsuloti xalqaro standartlar talabiga javob berishiga ishonch xosil qilish uchun).

1985 yilda standartlarni gormonizatsiyalash maqsadida xavfsizlik va ishonchlilik talabi taklif qilinadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar asosan ISO 9000 va EN - 29000 seriyalik standartlarga asoslangan xolda faoliyat yuritadilar. Yevropa Ittifoqi talablariga mos ravishda hozirgi kunda 16 ta davlat Buyuk Britaniya, SHvetsariya, FRG, Avstriya, Daniya, SHvetsiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Gollandiya, Finlyandiya, Norvegiya, Irlandiya va Italiya ish yuritadi. Uyushmaning asosiy maqsadi kam sarf harajat evaziga yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarib, iste'molchilar talabini to'la qondirishdir.


Uyushmaga a'zo bo'lishni xoxlovchi barcha davlatlarga bir xilda talab qo'yilgan. SHu munosabat bilan Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishni xoxlovchilar eng avvalo zamonaviy texnika va texnologiyalarga e'tibor qaratmoqdalar. Bu yerda kadrlar tayyorlash masalasi ham chetda qoldirilmaydi.

Texnologiya va kadrlar tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli xal qilish maqsadida 1988 yil G'arbiy Yevropadagi 14 ta yirik davlat birlashib "Sifatni boshqarish" fondini tashkil qildilar (EFUK).

Sifatni boshqarish fondi bilan sifat bo'yicha Yevropaning boshqa uyushmalari hamkorlikda ish yuritib sifatga oid turli mukofotlar ham belgilaganlar. Sifat bo'yicha bellashuvni Yevropa usuli o'zining ayrim jihatlari bilan boshqalardan ajralib turadi, ular:

- Barcha ishlarni qonun asosida olib borilishi;
- Sifatni kafolatlovchi va baxolovchi xujjatlar;
- Milliy standartlar talablari va sertifikatlashtirishning qonun va qoidalarini uyg'unlashtirish;
- Mahsulot sifatini boshqarish va sertifikatsiyalash bo'yicha regional tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat qilish.

Uzoq sharq mamlakatlari Yaponiya, Singapur, Gonkong, Tayvan, Janubiy Koreya kabi davlatlar 1950 yillarda juda qaloq bo'lgan, ular, Yevropa va AQSH dagi ishlab chiqarish darajasidan ancha past yurar edi.



1.4.1-chizma. Mahsulot sifat darajasining o'sishi

1970-1980 yillarga kelib ikkinchi jaxon urushi oqibatida aziyat chekkan Yaponiya sifat sohasida barcha rivojlangan mamlakatlarni orqada qoldirib ketdi (1.4.1- chizma).

1.4.1-jadval

Sifatga yondoshuvning xorij tajribalari o'rtasidagi farqlar tahlili

AQSH va Yevropa	Yaponiya
Sifat – narx pasayishiga asoslanadi.	Sifat – nuqsonlarning pasayishiga asoslanadi.
Asosiy maqsad – foyda, sifat va tasodifiy kategoriya.	Asosiy maqsad – sifat, foyda va bularni unutmaslik.
Iste'molchilar sifat bo'yicha ta'minotchilar bilan kelishuvlari lozim.	Sifat bo'yicha iste'molchilar bilan kelishuv lozim.
Sifat sohasida umumiy kelishuv.	Har bir tovar sifati bo'yicha qat'iy siyosat yuritish.

1985 yilda jahonda sotilayotgan mahsulotlarning yarmidan ko'pi Yaponiyaning hissasiga to'g'ri keldi. Yaponiya ayrim mahsulotlar bo'yicha jahonda shunday yutuqlarga erishdiki, dunyo bo'yicha videomagnitafonni 84

foizini, soatning barcha turlarini 82 foizini, kalkulyatorlarni 77 foizini, oshxona buyumlarini 71 foizini, telefon apparatlarini 66 foizini, mototsikllarni 55 foizini, rangli televizorlarni 53 foizini ishlab chiqardi.

1991-1992 yillarga kelib Yaponiyada iqtisodiy krizis boshlandi va bu savdo xajmini pasayishi bilan sifat darajasini kamayishiga ham sabab bo'ldi. Oqibatda Yaponiya, AQSH va Yevropa davlatlari ishlab chiqarish va sifat bo'yicha bir-birlariga tenglasha boshladilar. Bunday o'zgarishlarning asosiy sababi demokratik islohatlar va integrallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Aynan ana shunday integrallashuv natijasida butun dunyoda yagona sifat boshqaruvi siyosati vujudga keldi va uni "Vseobshego upravleniya kachestvom" (TQM), bu "Sifatni har tomonlama boshqaruvi" degan shiorni o'rtaga tashlash bilan boshlangan yangi yo'nalish edi. Aslida esa, mazmunan, mantiqan muloxaza yuritar ekanmiz ular bir-birini inkor etmaydi, aksincha bir-birini to'ldiradi degan xulosa kelib chiqadi.

1.5. Texnologiyalar evolyutsiyasi va sifat siyosati

Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyotining birinchi bosqichi yangiliklar texnologik kompleksining yuzaga kelishi va yoyilishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kompleksning yangi g'oyalari insonning tabiat, mehnat predmetlariga bevosita ta'sir etish funktsiyalarini texnikaga o'tkazishni ta'minladi.

Mahsulotning yuqori sifatini fundamenti bo'lib printsiptial yangi texnologiyalar, yuqori samarali va chiqindisiz jarayonlar, yangi konstruktiv materiallar va boshqalar xisoblanadi.

Yangi texnologiyalardan lazerli va plazmali texnologiyalarni aytsa bo'ladi. Lazerli jixozlar iqtisodning ko'p sohalarida mashinasozlikdan boshlab meditsinagacha qo'llaniladi. Plazmali texnologiya kam uchraydigan metallarni va qimmat kimyoviy ashyolarni olishda, yuqori sifatli pulatlar va maxsus quymalarni ishlab chiqarishda, hamda neftni, gazli kondensatorni qayta ishlashda keng qo'llanilmoqda.

Plazmali qoplash texnologiyasi asboblarni xizmat muddatini uzaytiradi va yeyilishga chidamliligini oshiradi, hamda karroziya bilan kurashda samarali vosita xisoblanadi.

Biotexnologiya ham quyidagi bioximiya, molekulyar biologiya, ginetika, embriologiya kabi ilmiy yo'nalishlarda keng qo'llanilmoqda. Yangi organizmlarni loyixalashga yo'nalgan geninjeneriya rivojlanmoqda. Geninjeneriya usullari qishloq xo'jaligi o'simliklari xosildorligini oshirishga imkon beradi.

Yangi konstruktiv materiallar ichida sintetik polimer moddalar, plastmassalar, kompozitsion va keramika materiallari katta istiqbolga ega. Xozirgi vaqtda polimerlar, shisha tola va shishaplastinkalar, penoshisha, silekatlar, uglerodli tolalar va ugleplastinkalar keng qo'llanilmoqda.

Kompazitsion materiallar asosni (metall yoki nometall) mustaxkam iplar yoki tolalar ko'rinishidagi zichlovchi eliment bilan birikmasidan xosil bo'ladi. Kompazitsion materiallarning farqli xususiyati - talab qilinayotgan xossalarni olish imkoniyatidadir. Komponentlar o'rtasidagi xajmli nisbatni o'zgartirib kerakli mustaxkam, elastikli va boshqa maxsus xossali materiallarni olish mumkin. Kompazitsion materiallar kemasozlikda, aviatsion va kosmik texnikada ishlatilmoqda, kelajakda esa qurilish, transport va boshqa sohalarda ham foydalanish bo'yicha ilmiy, amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ishlab chiqarish sohasida iqtisodiy kategoriya sifatida "sifat" tushunchasining rivojlanishi elektronika sanoati misolida ko'zga yaqqol tashlanadi. O'zining xususiyatiga ko'ra elektronika sifat haqidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirib yubordi.

Mashhur Amerika kompaniyasi IBM Yaponiya tajribasidan foydalangan holda 1980 – yillardan boshlab 100 foiz darajadagi sifat siyosatini olib borishga o'tdi. Ushbu siyosat natijasida mazkur kompaniya 1990 – yillarda superkomp'yuterlarni ishlab chiqarish va sotish yuzasidan AQSH mudofaa vazirligi bilan shartnomalarni imzolashga muvaffaq bo'ldi.

Bu siyosatning asosida sifatni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan harajatlarning o'zaro munosabati yotadi: loyihalashdan ishlab chiqarishga, jihozlarni o'rnatish va

so'ngra ularni ekspluatatsiya qilishga qarab harakatlanishning har bir bosqichida zarur harajatlarni ortib boradi. Ya'ni agar loyihalash bosqichida xatoni bartaraf qilish 1000 so'mni tashkil qilsa, u holda mashinani ishlab chiqarish bosqichida u 10 ming so'mga yetadi, buyurtmachiga yetkazish, montaj qilish va o'rnatish bosqichida – 100 ming so'm, foydalanish bosqichida u 1 mln. so'mni tashkil qiladi.

Milliy mashinasozlik sanoatida sifatni ta'minlash bo'yicha harajatlarni tadqiq qilish xuddi shunday natijalarni ko'rsatmoqda. Ular 1.5.1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarda o'z aksini topgan.

1.5.1- jadval

Mahsulot hayotining bosqichlari bo'yicha umumiy harajatlarning sifat darajasini ta'minlashga ta'siri

Buyum hayotining bosqichi	Umumiy harajatlardagi ulushi (%)	Bosqichning umumiy harajatlarga ta'siri (%)
Tadqiq qilish va ishlab chiqish	1 – 6	60 – 80
Ishlab chiqarish	40 – 45	5 – 10
Ekspluatatsiyalashgacha olib borish	5 – 15	20 – 30
Ekspluatatsiya	40 – 54	15 – 25

Sifatga taktik yondashuv ishlab chiqarish va tayyorlanayotgan mahsulot turlari, talab va taklifning munosabati, mazkur mahsulotning asosiy ishlab chiqaruvchilarining raqobat kurashiga ko'p jihatdan bog'liq. SHunga ko'ra, rejalashtirilgan sifat darajasiga erishish yo'llari va vositalari izlanadi. Boshqa tomondan, bir qator yo'nalishlarda sifatga erishish strategiyasi umumiylik kasb etib boradi.

1.6. Bozor munosabatlari va iqtisodiy raqobat

Bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan belgilardan biri bu iqtisodiy raqobatning mavjudligidir. Bozor munosabatlarining ishtirokchilari - tovar ishlab

chiqaruvchilar⁵ va iste'molchilar o'zlarining iqtisodiy manfaatlariga egadirlar. Bu manfaatlarni yaxshiroq va oqilona qondirish yo'lidagi ularning barcha xatti-harakatlari va intilishlari raqobat kurashi tarzida namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqaruvchilar (tadbirkorlar) o'z tovarlarini yuqoriroq narxda sotib, ko'proq foyda olish uchun kurashadilar, iste'molchilar kamroq harajat qilgan holda o'z manfaatlarini ko'proq qondirishga intiladilar.

Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka asoslangan tizim bo'lgani uchun eng kuchli raqobat kurashi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida bo'lishi tabiiy hol. Chunki har bir tadbirkor o'z mablag'ini ko'proq va tezroq foyda olishi mumkin bo'lgan sohaga kiritishga, ishlab chiqargan tovarini bozorda ko'proq va yuqoriroq bahoda sotishga harakat qiladi. Natijada ham xomashyo bozorida, ham tayyor mahsulotlar bozorida tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kurashi paydo bo'ladi.

Raqobat kurashining ikki xil turi - tarmoqichra va tarmoqlararo raqobat mavjud bo'lib, ularning birinchisi bir xil tovarlar ishlab chiqarish bilan band bo'lgan tadbirkorlar raqobatidir. Tarmoqlararo raqobat esa turli xil tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurashda namoyon bo'ladi.

Endi raqobat kurashining bu ikki turi xususida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Tarmoqichra raqobat o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy taraqqiyotning juda muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bir xil ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatda „sendan men o'taman“ tarzida kurash ketadi. Masalan, odamlarning nonga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondiruvchi tadbirkor-novvoy yoki „Doka-non“ firmasi o'z mahsulotlarini ko'proq sotib, ko'proq foyda olish uchun, avvalambor, nonning sifatini yaxshilashga harakat qiladi. Biroq, o'z-o'zidan ma'lumki, nonning sifati yaxshi bo'lishi bilan uning sotuvi ko'payib qolmaydi. Uning narxi ham haridor uchun ma'qul bo'lishi kerak. SHuning uchun tadbirkor yoki firma yopilayotgan nonning narxini tushirish uchun o'z harajatlarini kamaytirish yo'llarini izlaydi.

⁵ Bundan keyin “tovar ishlab chiqaruvchilar” degan iborani uchratganingizda shuni nazarda tutingki, unga xizmat ko'rsatuvchilar xam kiradi (qulaylik uchun shunday qilindi).

SHunday qilib, tarmoq ichra raqobat tadbirkorlardan bir vaqtning o'zida ikkita muhim vazifa bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Ularning birinchisi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'lsa, ikkinchisi ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani joriy qilish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtira borishdir. Kam hajmda va sifatsiz mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar tez orada bankrot bo'ladi, ya'ni sinadi.

Tarmoqlararo raqobat ham bozor iqtisodiyoti sharoitida shiddatli kechadi. Sarmoya egalari o'z mablag'larini biron-bir soha yoki tarmoqqa yo'naltirishdan oldin u yerdagi foyda me'yori bilan qiziqadi. Tabiiyki, qaysi tarmoqda uning sarmoyasi ko'proq foyda keltirsa, u o'z mablag'ini aynan shu tarmoqqa kiritadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar xo'jalik amaliyotida shunday hollar ham sodir bo'ladiki, tadbirkorlar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdan voz kechib, mutlaqo boshqa tarmoqda ish yurita boshlaydilar. Buning sababi oldin sarmoya kiritilgan tarmoqda foyda me'yorining tushib ketgani va ko'proq foyda olish mumkin bo'lgan boshqa tarmoqning mavjudligidir. Masalan, muzlatgich ishlab chiqaruvchi firma yuqorida ko'rsatilgan holat tufayli konditsioner ishlab chiqarishga, televizor ishlab chiqarayotgan firma kompyuterlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashuvi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ro'y beruvchi raqobat kurashini mukammal, nomukammal va monopolistik raqobatlarga ajratish mumkin.

Mukammal raqobat deganda bir xil tovar va xizmatlar taklif qilinadigan bozordagi raqobat tushuniladi. Masalan, televizorlar bozori, kompyuterlar bozori, un yoki sut mahsulotlari bozori va hokazo.

Raqobatning bu turi quyidagi belgilarga ega:

- bozordagi tadbirkorlarning erkinligi, ya'ni istagan paytda bozorga o'z mahsuloti bilan kira olishi va undan chiqib keta olishi;

- hech kimning bozorda hukmronlik qila olmasligi va boshqalarga tazyiq o'tkazmasligi;

- tovar ishlab chiqaruvchilarning halol va madaniylashgan usullar bilan raqobatlashuvi.

Nomukammal raqobat esa ayrim tovar ishlab chiqaruvchilarning hukmronlik qilishi natijasida boshqalarning iqtisodiy erkinligi cheklangan bozordagi raqobatdir. Bunday sharoitda bozorga hamma ham o'z mahsuloti bilan erkin kira olmaydi. SHuning uchun raqobat kurashi tor doiradagi tadbirkorlar va firmalar o'rtasida sodir bo'ladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining avtomobil bozoridagi raqobatni olaylik. Bu yerda raqobat kurashi „Mercedes-Bens“, „Folksvagen“, BMV hamda „Opel“ avtogigantlari orasida boradi.

O'z tabiatiga ko'ra nomukammal raqobatga yaqin turgan va hatto, uning bir ko'rinishi bo'lgan raqobat ham borki, uni monopolistik raqobat deyiladi. Raqobat kurashining bu turiga xos bo'lgan xususiyat shundan iboratki, u yoki bu tovarlar (xizmatlar) bozorida bittagina firma tanho hukmronlik qiladi. Masalan, Asaka shahrida joylashgan “GM-O'zbekiston” GM mamlakatimizdagi yengil avtomobillar bozorida tanho hukmronlik qiladi va hozircha u bilan bellasha oladigan raqobatchi yo'q. Biroq ushbu korxonaning raqobatchisi yo'q ekan, u kim bilan raqobatlashadi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. To'g'ri, mamlakat ichida u bilan raqobatlashadigan avtokorxona yo'q. Ammo, jahondagi 30 ga yaqin mamlakatda yengil avtomobillar ishlab chiqaruvchi kompaniya va kontsernlar mavjud. O'zbekiston avtomobillar bozorida ular ham qatnashishi mumkin. SHuning uchun Asakadagi zavod, birinchidan, mamlakatlararo, ya'ni xalqaro raqobatda qatnashadi va shu tufayli ishlab chiqarayotgan avtomobillarining raqobatbardoshliligini oshirish uchun kurashadi. Ikkinchidan, u avtomobil tayyorlash uchun zarur bo'lgan butlovchi mahsulotlar bozori hamda mehnat bozoridagi raqobat kurashida qatnashadi.

Raqobat usullarini shartli ravishda madaniylashgan (ya'ni halol) va yovvoyilashgan (g'irrom) usullarga ajratish mumkin.

Halol raqobat kurashi barcha tadbirkorlar tomonidan e'tirof etilgan va tan olingan, umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi usullar orqali kechadi. Tadbirkorlik faoliyatining asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash, ularning narxini tushirish va reklamani kuchaytirish orqali tobora ko'proq iste'molchilarni o'z tomoniga

„og’dirib olish“ kabi vositalar yotadi.

G’irrom raqobat kurashi, odatda, g’ayriinsoniy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bularga boshqa tadbirkorlarning tovarlarini ochiqdan ochiq yoki yashirin holda yomonlash, ularning texnologik yangiliklari va tovar belgilarini o’g’irlash, qo’poruvchilik, josuslik, reket va hattoki, qotillik kabi vositalar kiradi.

Raqobat kurashining g’irrom usuli va vositalari ko’proq bozor iqtisodiyotiga o’tishning ilk davrida uchraydi. Ammo bu rivojlangan mamlakatlar xo’jalik amaliyotida raqobat kurashi faqat halol usullar bilan olib boriladi, degan ma’noni bildirmaydi. Raqobatning g’irrom usullari, afsuski, hamma vaqt va barcha mamlakatlar xo’jalik hayotida uchrab turadi.

1.7. Raqobat sharoitida korxona muvaffaqiyatini ta’minlashda sifatni boshqarish

Mamlakatimizda XX asrning 90-yillariga qadar hukm surgan va ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo’jalik yuritish tizimi davridagi eng katta illatlardan biri, bu-talab bilan taklif o’rtasidagi nomutanosibliklar bo’lib, uning asosiy sababi ishlab chiqarishning bozor talablariga moslashmagani edi. Moddiy ta’minotdagi yetishmovchiliklar, fan-texnika taraqqiyotining pastligi, reklamaning yaxshi yo’lga qo’yilmaganligi, iqtisodiyotni rejalashtirish tizimining takomillashmaganligi, bozorda ro’y berayotgan jarayonlar to’g’risidagi axborotlarning yetarli bo’lmaganligi va boshqa sabablar natijasi o’laroq, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning samaradorligi achinarli ahvolda edi.

Endilikda, bozor iqtisodiyotiga amal qilinayotgan sharoitda, respublikamiz iqtisodiyotida vaziyat tubdan o’zgardi. Bozor munosabatlari talab va taklifga samarali ta’sir o’tkazish, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirish, bu sohada turli mamlakatlarda to’plangan ijobiy tajribani o’rganish va marketing tamoyillarini to’la-to’kis o’zlashtirishni talab qilmoqda.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, bozorga marketing yo’li bilan yondashish va ishlab chiqarishni shu yondashuv asosida tashkil qilish, har qanday firma yoki kompaniya muvaffaqiyatining garovi bo’lib xizmat qiladi.

Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti tabaqalashib, ehtiyojlar o'sib borgani, fan-texnika taraqqiyoti kuchayib, xizmat ko'rsatiladigan sohalar kengaygani va raqobat keskinlashgani sayin marketing strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi, Chunki marketing bozorni har tomonlama tahlil qilish, barcha ijtimoiy va iqtisodiy jihatlardan, jumladan, baholar siyosati jihatidan uni tartibga solish, talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tovar ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish, barcha turdagi xizmatlarni rivojlantirish omilidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning barcha sohalaridagi korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy va eng muhim ko'rsatkichi foyda hisoblanadi. Daromadlar korxona faoliyatiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Rejalashtirish bevosita mehnat jamoalari qo'lga o'tib, rejalar aholining tovar va xizmatlarga, ishlab chiqarishning esa mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olish uchun bir mo'ljal bo'lib qoladi. SHu sababli korxonalarda marketing faoliyati dasturlarini shakllantirishning asosiy qoidalaridan biri ishlab chiqariladigan va bozorda sotiladigan mahsulotning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini birga qo'shib olib borishdan iborat bo'lmog'i kerak.

Haridor muayyan mahsulotning qanday ko'rinishda bo'lishini istaydi, bu mahsulotga qaerda va qancha talab paydo bo'ladi? Bu savollar puxta o'rganilib, har bir muhandisga, konstruktorga va ishlab chiqaruvchiga yetkazilishi lozim. Marketing mahsulotni loyihalash, ishlab chiqarishni rejalashtirish, iqtisodiy tahlil, taqsimot, sotish va sotilgan mahsulotga xizmat ko'rsatish kabi masalalarga ta'sir ko'rsatishi lozim.

Talab va taklif bir qadar nomutanosib bo'lib turgan hozirgi sharoitlarda tovarlarni egasiga yetib boradigan qilib, tejamkorlik bilan ishlab chiqarish va oxirgi iste'molchiga yetkazib berish juda muhimdir.

Bugungi kunda talab va taklifni muvozanatlashtirishga imkon beradigan iqtisodiy omillarni topish zarur. Mulkchilikning turli shaklidagi korxonalar ham, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanadigan kishilar ham ana shundan

manfaatdor.

Marketing bozorni aniq (tayin) tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganishi va shu asosda uzoq muddatli va yillik dasturlarni ishlab chiqishi hamda ularni amalga oshirishi zarur. SHu munosabat bilan bozor ob'ektlari va sub'ektlari degan tushunchalarni farqlamoq zarur.

Bozor ob'ektlari deganda, unga kiritiladigan tovarlar va xizmatlar tushuniladi. Bozor sub'ektlari esa ularni ayirboshlash ishlarida qatnashadigan tovar yetkazib beruvchilar va iste'molchilardir.

Bozor sub'ektlariga ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar (o'quv yurtlari, kasalxonalar va boshqalar) va uy xo'jaliklari (oilalar va shaxsiy iste'molchilar) kiradi.

SHaxsiy iste'molchilar bozorning eng muhim sub'ektlari hisoblanadi. SHular jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlarni sotib oladigan oxirgi haridorlardir.

Korxonalar ham sotuvchilar bo'lib, ham bozorga chiqariladigan tovarlarni yaratish uchun kerakli xomashyolar, ishlab chiqarish vositalari va xizmatlarni sotib oluvchi haridorlar bo'lib maydonga chiqadi.

Bozorning faoliyat ko'rsatib borishi uchun milliy iqtisodiyotning turli sohalari va idoralariga qarashli korxonalar o'rtasida gorizontal aloqalar yuzaga kelishi muhim shart hisoblanadi. Bu aloqalarni boshqarish organlari (vazirliklar, idoralar)ga ega bo'lgan asosiy xo'jalik bo'g'inining vertikal aloqalari to'ldirib boradi. Gorizontal va vertikal aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan taqdirdagina bozor samarali faoliyat ko'rsatadi. Bu aloqalarda qing'irliklar bo'lsa, bozor muvozanati buziladi. Marketing yo'li bilan yondashuv bozorda qaror topgan aloqalarning maqbulligini aniqlashga imkon beradi.

Korxonalarning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mustaqilligi ulardan ishlab chiqarish natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishni ko'zda tutadi. Ba'zi korxonalar javobgarlikni o'z zimmalariga olishdan qo'rqib, xo'jalik yuritishda erkin bo'lishni xohlamaydilar. Bu ularning moliyaviy ahvoli va bozordagi mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Marketing nuqtayi nazaridan fikr qilish, ya'ni unga tayangan holda ish yuritish ko'ngilga tushadigan qo'rquvni bartaraf etadi.

Iste'molchi talabini korxona qay darajada qondira olayotgani haqida, albatta, faqat iste'molchi aniq bir fikr ayta oladi. Buni ular o'sha korxona mahsulotini sotib olishi orqali namoyish etadi. SHuning uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilardan marketing xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish orqali o'z iste'molchilari bilan uzoq muddatli aloqalarni amalga oshirish talab qilinadi.

Marketing iste'molchilardan ishlab chiqarish va savdo korxonalariga uzluksiz axborot kelib turishini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida tovar assortimentini ko'paytirish, uni sotish sharoitlariga zarur o'zgarishlar kiritish, haridorga ta'sir o'tkazish va hokazolar orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish va tashkil etish masalalarining bir jihatini marketing faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari bozor talablari asosida ishlab chiqiladi. Marketing faoliyati orqali ishlab chiqilishi rejalashtirilgan mahsulotning sifatiga bo'lgan bozor talabi o'rganiladi va u ham avvaldan rejalashtiriladi. Marketing tadqiqotini o'tkazadigan mutaxassislar savollar anketasiga mahsulot sifati va narxiga oid savollarni kiritadilar hamda mahsulotni ishlab chiqarishda narx yoki sifat ustunligini belgilaydilar. Agar iste'molchilar pastroq sifatli mahsulotni arzon narxga sotib olishga tayyor bo'lsalar, sifat darajasi bozor talabiga moslashtiriladi.

Mahsulot sifati bozordagi raqobatga bilvosita ta'sir etadi. Bunda sifatni tasdiqlovchi hujjatlar raqobat kurashida tayanch bo'ladi, ammo u mahsulot sifatini belgilangan standartlarga muvofiq kelgandagina amal qiladi. Sifatni tasdiqlovchi asosiy xujjatlar bo'lib, muvofiqlik sertifikatlari va xalqaro standartlashtirish tashkilotining sifat sertifikatlari xizmat qiladi. Bunday sertifikatlarning mavjudligi korxonalarga o'z mahsulotini bozorda raqobatchilarga nisbatan ishonchli sotuvida va eksport qilinishda qo'l keladi. Sifat sertifikatlarining mavjudligi iste'molchilar tomonidan ishlab chiqaruvchi taklif etgan mahsulotga nisbatan ishonch tuyg'usini shakllantiradi. Ayniqsa, xorijiy hamkorlar bilan kelishuvda, dillerlar geografiyasining kengayishida ISO sertifikatlarining o'rni juda ham muxim. Ya'ni, xalqaro sertifikatlar shartnoma tuzish uchun eng muxim xujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi.

II BOB. SIFAT KATEGORIYASI VA SERTIFIKATSIYALASHTIRISH TARIXI

SHu narsani yodingizda tuting, ushbu bob mavzusini o'rganishdan ko'zlangan maqsad- quyidagi savollarga javob topishdir:

- *Sifatga berilgan tushunchalarni izoxlab bering?*
- *Mahsulot sifati qanday omillarga bog'liq bo'ladi?*
- *Sifantni qanday xususiyatlarini bilasiz?*
- *Sertifikatlashtirishning moxiyatini aytib bering?*
- *Sertifikatlashtirish sohasidagi atama va ta'riflarni tushuntiring?*
- *Muvofiqlik va muvofiqlikni attestatsiyasi nimani anglatadi?*
- *Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?*

2.1. Sifat tushunchasi va uning tarixi

Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchi va iste'molchi bir-birini bozorda topishadi ular faoliyati motivatsiyasi moliyaviy yutuqqa va iste'mol samarasini ko'paytirishga asoslanadi. Bunda iste'molchi turli ishlab chiqaruvchilar orasidagi eng yaxshi tovarlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Iste'molchi asosiy figura hisoblangan tarzda o'z xohish-istaklariga mos keluvchi tovar va xizmatlarni xarid qilib ishlab chiqarishni rivojlanish yo'nalishini aniqlaydi.

Sifat - jamiyatdagi mehnatning yuksak samarasi ko'rsatkichi, milliy boylik manbai va eng muhimi, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlardan chiqish omilidir.

Bejizga ko'pgina xalqaro tashkilotlar, ya'ni Yevropa Sifat tashkiloti, ISO standartlashtirish xalqaro tashkiloti tomonidan XXI asrni - sifat asri, deb e'tirof etilmaydi.

Sifatni boshqarish taraqqiyotiga oid masalalarni tahlil qilishimizdan oldin, "sifat boshqaruvi" va "sifat menejmenti tizimi" atamalarining o'zagi bo'lgan "sifat" tushunchasining tub ma'nosini ko'rib chiqaylik.

"Sifat" tushunchasining o'zi serqirra va ko'p o'lchamlidir. Uning mohiyati haqidagi tasavvur esa, inson tafakkuri rivojining turli davrlarida o'zgarib borgan.

Sifatdan foydalanish va uni o'rganish maqsadiga ko'ra, u falsafiy, ijtimoiy, texnik, iqtisodiy, huquqiy va boshqa aspektlarga ega bo'lishi mumkin. Iqtisodiy nuqtai nazardan, iste'mol qilish natijasi, yoki o'rganilayotgan ob'ektning iste'mol qiymati - sifatdir. Bir ob'ektning sifatga ehtiyoji boshqa ob'ektning ehtiyojidan farqlanishi sababli, iste'molchilar sifatni turlicha baholashadi. Iqtisodiy tarafdin esa, sifatning ehtiyojga qanchalik mosligini bilish muhimdir.

Sifat sohasida taniqli bo'lgan Yaponiya va Amerikaning ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish jarayonlarida muhim rol o'ynagan olim Uilyam Edvard Deming sifat - bu iste'molchining nafaqat istagidagi talablarini qanoatlantiruvchi, balki ushbu mahsulotning istiqboldagi holatini ham tasavvur ettira oladigan ko'rsatkichdir deb tushuntiradi. SHuningdek, U.E. Deming sifatni iste'molchilar talablarining qondirilishi bilan bog'lab, "iste'molchi – ishlab chiqarish tizimining eng muhim bo'g'ini. Sifat esa bugungi va keyingi ehtiyojlarni qondirishga qaratilishi lozim", - deb ta'kidlaydi.

Sifat sohasidagi taniqli amerikalik mutaxassis Jozef Juran ta'kidlashicha, sifat – foydalanishga yaroqlilikdir. Bu tushuncha to'rt elementdan, ya'ni:

- mahsulot loyihasi (dizayni)ning iste'molchi tomonidan qabul qilinishi;
- mahsulotning loyihaga mos kelish darajasi;
- mahsulotning spetsifikatsiyalarga mos kelish darajasi;
- mahsulotning arzonligi, chidamliligi, ta'mirbopligi hamda arzon servis xizmatidan iborat.

Sifat masalalari borasidagi yana bir amerikalik yirik mutaxassis, sifatni kompleks boshqarish nazariyasi muallifi, Xalqaro Sifat akademiyasi (MAK) akademigi, sifat bo'yicha Amerika jamiyatining sobiq prezidenti Armand V. Feygenbaum "Sifatni muhandis yoki marketolog emas, balki iste'molchining qarori aniqlaydi. Raqobatli bozor sharoitida sifat to'g'risidagi tasavvur bir joyda to'xtab qolmay, betinim o'zgaradi" deb ta'riflaydi.

Sifat sohasidagi atoqli yapon mutaxassisi Kaom Ishikavani "mahsulot yoki xizmatning sifatini ularning narxidan ayrilgan tarzda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Buyum qanchalik oliy sifatli bo'lmasin, agar qimmat tursa, iste'molchini qondira olmaydi" deb ta'kidlaydi.

Sifat boshqaruvi masalalari bo'yicha amerikalik yirik mutaxassis J. Harrington "sifat bu iste'molchilar o'zlari uchun maqbul deb topgan narxda, mahsulot va xizmatining foydalanishni istashgan vaqtda, ularning talabini qondirish yoki undan-da oshirib qanoatlantirishdir" deb o'z fikrini bildiradi.

Sifat bu - qadriyat, degan yondoshuvga A. Feygenbaum quyidagicha fikr bildirib: Sifat bu -"eng yaxshi" degan mutlaq ma'noni ifoda etmaydi. U, "iste'molchining muayyan shartlariga ko'ra eng yaxshi" degan ma'noni anglatadi deb ta'kidlaydi.

Mahsulotning sifatini uni ishlab chiqarish uchun ketgan harajatdan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi, sifatli mahsulot – bu mutanosib narxda, ma'lum ehtiyojlarni qondiruvchi mahsulotdir.

Sifat – bu spetsifikatsiyalarga muvofiqlikdir. SHunday mahsulotni ishlab chiqarish yoki shunday xizmatlarni ko'rsatish kerakki, ularning o'lchanadigan xususiyatlari raqamlarda ifodalangan aniq texnik talablarni qondirsin. Bunday yondoshuv ikkinchi jahon urushi davridayoq keng tarqalgan edi, negaki o'sha vaqtda harbiy mahsulotlar belgilangan talablarga aniq javob berishi kerak edi. Bir tomondan, bunday talqinni ishlab chiqarish xususiyatiga ega deyish mumkin, chunki bu talablarni muhandislar belgilaydi, buyurtmachilarning talablari esa inobatga olinmaydi. Biroq ko'p mutaxassislar ta'kidlashicha, mijozlarning ehtiyoj va talablari bunday spetsifikatsiyalar uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lmog'i kerak.

Sifat – mijozlar istaklariga muvofiqlik yoki shu istaklarni oldindan ko'ra bilishdir, degan yondoshuv hozirgi kunda keng tarqalgan. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, taniqli mutaxassislarning ko'pchiligi bu yondoshuvni o'z ta'riflarida e'tirof etishgan.

Sifatni boshqarish borasidagi zamonaviy fan asoschilaridan biri bo'lgan Valter SHuhart sifatning ikki jihati mavjudligini ko'rsatib beradi. Birinchi jihati – buyumlar sifati haqida insonning mavjudligiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv

voqe'lik, deb tasavvur qilishdir. Ikkinchisi esa – ana shu ob'ektiv voqe'likka nisbatan munosabatimiz, fikrimiz va hissiyotimiz bilan bog'liqdir. Iste'molchilarning bunday shaxsiy baholari ularning xohishlarini amalda qanoatlantirishini qayd etib, bu muhandislar uchun asosiy e'tibor nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, chunki muhandislar bu baho asosida ishlab chiqariladigan mahsulotning kerakli xususiyatlarini aniqlaydilar deb ta'kidlaydi.

Turli mutaxassislar va tashkilotlarning qarashlaridagi ko'pgina o'xshashliklarga qaramay, sifatning yagona maqbul yoki to'g'ri talqini mavjud emas. Faqat turli mualliflar kontseptsiyalarida mavjud bo'lgan asosiy yondoshuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Sifat – bu qadriyat.
2. Sifat – bu ustunlikdir.
3. Sifat – bu spetsifikatsiyalarga muvofiqlikdir.
4. Sifat – bu mijozlar istaklariga muvofiqlik yoki shu istaklarni oldindan ko'ra bilishdir.

Yuqorida berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, har bir olim va mutaxassislarda sifatga turlicha yondoshuvlar bo'lgan. Lekin ularning o'rtasidagi umumiy, bog'liqlik mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- Iste'molchining ehtiyojini qondirishi;
- Sifatni har bir inson o'z nuqtai nazari bilan tushunishi;
- Mahsulotning fizik xususiyatlari.

Bu fikr va muloxazalarni umumlashtirsak “Sifat – bu qo'yilgan va kutilgan talablarni mahsulotning yig'ilgan tavsiflari orqali qoniqtirishdir” degan xulosa kelib chiqadi.

Iste'molchining kutilayotgan talablarini qondirish va bozorda o'z mavqeiga ega bo'lish ishlab chiqaruvchidan quyidagilarni talab qiladi:

1. Yangi mahsulotlar;
2. Yangi texnologiyalar;
3. Yangi boshqaruv usullari;
4. Yangi unsurlarni tadbiq etish.

Bularni tadbiq etish esa, ishlab chiqaruvchi kompaniya va firmalar orasida raqobatni yuzaga keltiradigan taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Sifat tushunchasini anglab yetish va uni ishlab chiqarishda ta'minlab berish har bir tashabbuskor uchun dolzarb vazifadir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan ko'rinib turibdiki sifat orqali:

- hamma ko'rinishdagi resurslar harajatini muvofiqlashtirish;
- ishlab chiqarishdagi sarf-harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarishni oshirish;
- mahsulotga qo'yilgan hamma talablarni bajarish;
- iste'molchining kutayotgan talabini ruyobga chiqarish;
- iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchining o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni ta'minlash;
- ishlab chiqarish boshqaruvi va xizmat ko'rsatish jarayonlarini doimo takomillashtirish, nafaqat ishlab chiqaruvchini, balki iste'molchining ham talabini to'liq qondirish imkoniyatini beradi.

Mahsulot sifati quyidagilar bilan ta'riflanadi:

- Xizmatga yaroqligi;
- Ishonchligi (xavfsizligi, uzoq muddat foydalanish, saqlash, ta'mirlashga yaroqligi);
- Foydalanish tavsifi;
- Tashqi estetik ko'rinishi;
- Ishlatishdagi qulayligi;
- Sotuvdan oldin va keyingi xizmat ko'rsatish va boshqalar;

Mahsulot sifati ko'p sonli va har-xil texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar omiliga bog'liq. Bu omillarni shartli ravishda 3 ta guruhga bo'linadi:


- material-texnik (ishlab chiqarish asbob-uskunolari, dastgohlar ishlab chiqarishni texnik va metrologik ta'minoti, sinov va nazoratning uslub va vositalari, ishlatiladigan materiallar, bino va qurilmalar);

- inson omili (malakasi, professional bilimi, o'z ishiga bo'lgan qiziqishi);
- ma'muriy (tashkilotning umumiy ishlab chiqarish faoliyatini va qisman sifat boshqaruvini tashkil etish);

Umuman olganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yuqori darajada ushlab turish va ta'minlash – kompleks muammodir.

Faqatgina ilmiy asoslangan holda tizim va kompleksli, bir vaqtda va o'zaro bog'liq bo'lgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy tadbirlar yordamida tez va aniq holatda mahsulot sifatini takomillashtirish mumkin.

Sifat - keng sig'imli, murakkab va universal kategoriya bo'lib, u ko'plab xususiyat va jihatlarga egadir. Sifatning asosiy jihatida mahsulotga iste'molchining qiziqishini uyg'otish bo'lib, ushbu ko'rinishda u ko'plab funktsiyalarni bajaradi.



2.1.1-rasm. Sifat tushunchasini namoyon etuvchi asosiy jihatlari

Qaysi maqsadda foydalanishiga qarab sifat tushunchasini quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: falsafiy, ijtimoiy, texnikaviy, iqtisodiy va huquqiy.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda sifat aniq mazmun va mohiyatga ega bo'lib, boshqalardan farq qiladi. Avvalam bor uning ayrim xususiyatlari va boshqalardan farqi namoyon bo'lishiga qaramay ular o'zaro uzviy bog'liqlikda ekani namoyon bo'ladi. Qolaversa, sifat ko'plab xususiyatlar majmuasidan tashkil topadi, ular cheksiz bo'lishi ham mumkin. Bu esa moddiy manbaalarga va turlicha dunyoqarashlarga asos bo'la oladi.

Sifatning sotsiologik jihatlari muayyan sub'ekt bilan yoki jamiyat bilan bog'liq bo'lib, u iste'molchilar va mahsulot (xizmatlar) orasidagi munosabatdir. Bu yerda sifat kategoriya ko'rinishida namoyon bo'lib talab va taklif qonuniyatlariga javob beradi, hamda iste'molchilarning madaniyati va

daromadlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Sifatning texnik jihatlari o'rganilayotgan ob'ektning miqdor va sifat o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu yerda fizikaviy, elektrokimyoviy va mexanik o'zgarishlar bir turdagi vazifani bajaruvchi mahsulot (moddalar) xususiyati xaqida so'z yuritiladi.

Muxandislik nuqtai - nazardan olinganda o'rganilayotgan mahsulot sifati va xususiyatlari etalonlar bilan taqqoslab o'rganilishini nazarda tutiladi.

Iqtisodiy nuqtai - nazardan olganda sifat - o'rganilayotgan manbaani iste'mol xususiyatlarini va qiymatini namoyon etadi.

Iste'molchilarning bu boradagi fikrlari turlicha bo'lishi - sifat darajasini aniqlashda texnik-iqtisodiy jihatlarni birgalikda tahlil qilishni taqazo etadi va bu tajribani aniqlik darajasini oshiradi.

Sifatning xuquqiy aspektlari me'yoriy texnik xujjatlarda, ularning ishlab chiqish tartibi, tasdiqlash, joriy etish va amalga oshirish, uni ro'yxatga olishdan iborat. Sifat xuquqiy nuqtai nazardan olinganda manbani barcha xususiyatlari yig'indisini belgilangan talablarga to'la javob berishini me'yoriy texnik xujjatlarda o'z aksini topishidir.

SHunday qilib, sifatning zamonaviy talqini qay darajada bo'lmasin, u yuqoridagi yondoshuvlarga asoslanishi lozim. ISO 9000:2000 xalqaro standartining so'nggi tahririda, sifatga lo'nda qilib ta'rif berilgan va unda yuqorida keltirilgan birinchi va to'rtinchi yondoshuvlarni birlashtirishga harakat qilingan. Sifat mahsulot va xizmatlar xususiyatlari yig'indisining talablarga muvofiqlik darajasi, talab esa – aniqlangan ehtiyoj yoki istak deb ifodalanadi.

Fan, texnika va umuman jamiyatda sodir bo'layotgan hozirgi jarayonlarni anglashda sifatning tarixini bilish muhim ahamiyatga egadir. Arxeologiya va unga yaqin fanlar, o'tmishda muhandislik va boshqa faoliyat sohalarida g'aroyib yutuqlar qo'lga kiritilgani haqida dalillar topilmoqda. Bu yutuqlarni yuqori darajadagi sifat va sifat boshqaruvisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Eramizdan avvalgi XVIII asrda Bobil shohi Hammurapi qonunlar majmuini yozib, (arxeologlar tomonidan 1901-1902 yillarda Suzada (qadimgi Messopotamiya hududi) tahminan

tarixi m.o. 1780 yillarda yaratilgan Hammurapi qonunlar qomusi topilgan. Qomusda 282ta qonun bo'lib, ular qora toshli ustunlarga bitilgan), mahsulot sifati uchun javobgarlikka asos solgan. Unda agarda usta uy qursa, ammo uy chidamli bo'lmay, qulab biror odam halok bo'lsa, ustaga o'lim jazosi belgilangan. Bu qonunlar ishlab chiqaruvchini (qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar) o'z ishlab chiqargan mahsulotining sifati uchun javobgarlik tamoyillarini ilk bor ifodalagan. Sifatsiz mahsulot ishlab chiqarilganlik uchun nafaqat moddiy, balki jismoniy jazolash amaliyoti qo'llanilganligi tarixdan ma'lum. Bunga, Petr II ning 1723 yil 11 yanvarda imzolagan farmoni yorqin misol bo'la oladi. Jumladan farmonda, Tula fabrikasi egasi Kornil Beloglazov davlat idoralariga yaroqsiz qurol-aslahalar sotganligi uchun cherkovda ishlashga yuborilishi, ishonchli nazoratchi Frol Fuks yaroqsiz mahsulotga sifat tamg'asini bosganligi uchun Azovga surgun qilingan.

2.2. Sertifikatlashtirishning mohiyati va uning rivojlanishi

Hozirgi vaqtda "sertifikat" degan atamani tez-tez uchratib turamiz. Bu qanday atama deb so'rasangiz turlicha talqin olishingiz mumkin: kimdir uni biror malaka olganlikni tasdiqlovchi hujjat desa, yana kimdir, mahsulotni sifati to'g'risidagi hujjat, ba'zi bironlar esa mahsulotni hududimizga olib kirish yoki olib ketish uchun bojxonaga ko'rsatilishi lozim bo'lgan hujjat deb ta'rif beradi. O'ylaymizki, o'quv qo'llanmaning ushbu bo'limini o'qib chiqqaningizdan so'ng ushbu atamaga albatta aniq va mukammal javob topasiz.

"Sertifikat" so'zining ma'nosini keltirishdan oldin mavzudan biroz chetga chiqamiz.

Ma'lumki, SHarq, jumladan O'zbekistonimiz chet ellarda nafaqat go'zal tabiati va mehnatsevar xalqi bilan, balki o'zining ko'zni qamashtiradigan, rang-barang meva, sabzavot va turli mahsulotlarga serob bozorlari bilan ham mashhurdir. Bundan tashqari, bizning bozorlardagi yana bir o'zgachalik ham bor. Agar rastalar oralab yuradigan bo'lsangiz, sotuvchilar, dehqonlar meva-chevalardan uzatib, totib ko'rishni taklif etishlarini guvohi bo'lasiz (albatta, totib ko'rganlik uchun haq so'ralmaydi). Buni tagida bir ma'no yotadiki, u ham bo'lsa,

mahsulotning sifatiga haridorning o'zi baho bersin, ya'ni, taklif qilinayotgan mahsulot sifati va unga so'ralayotgan narx mutanosib ravishda belgilanayotganligiga o'zi ishonch hosil qilsin.

Qadimdan bizda bir tushuncha bor. Harid paytida savdo mukammal va to'liq bo'lishi uchun uchta tomon ishtirok etishi kerak. Birinchi tomon - oluvchi (haridor), ikkinchi tomon - sotuvchi (tayyorlovchi) va uchinchi - xolis tomon. Uchinchi tomon sotilayotgan buyum yoki mahsulotga qo'yilgan narx ushbu mahsulot ega bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga mutanosib ekanligi to'g'risida kafolat bergan. Bunda uchinchi tomon albatta mahsulot to'g'risida o'zining xolisona fikrini haqqoniy bildiradi olishi, juda ko'p vaqtdan buyon shu faoliyat bilan shug'ullanayotganligi sababli sotilayotgan mahsulotning shu vaqtda va shu bozordagi narxi bir-biriga mos tushushini belgilay oladigan mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Savdoning bu turi asosan katta miqdordagi yoki qimmatbaho harid paytida qo'llanilgan bo'lib, bu holatni hozir ham qoramol, qo'y yoki ot savdolarida uchratishimiz mumkin. O'rtada turuvchi xolis tomon (ularni dallollar deb yuritilgan) savdoni bir muqim bo'lishiga yordam berib, savdo ob'ektiga xos bo'lgan sifat ko'rsatkichlariga tavsif beradi va xolisona baho beradi. Bu shaxsni hozirda ko'p qo'llanilayotgan broker bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq emas, chunki broker sotilayotgan yoki olinayotgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari to'g'risida yetarli baho bera oladigan shaxs sifatida emas, balki sotuvchi tomondan belgilangan narxda mahsulotni sotish yoki sotib olish bilan shug'ullanadi. Biz sertifikatlashirishni tushuntirish maqsadida tanlagan misolimizda savdo tugagandan so'ng sotuvchi tomon o'z savdosidan, oluvchi tomon esa harididan va savdo ob'ektining mavjud sifat ko'rsatkichlaridan ishonch hosil qilib, qoniqish hissiga ega bo'ladi. Bu savdoning yana bir muhim xususiyati - uchinchi xolis tomon sifatida alohida ishonchga va nufuzga ega bo'lgan, rostgo'y shaxslargina ishtirok etishi mumkin. Bizdagi mana shu savdo turi bir necha yuz yillardan beri mavjud bo'lib, chet davlatlarda sertifikatlashtirish deb ataluvchi faoliyatga aynan shu asos solgan bo'lsa ham ajab emas.

Sertifikatlashtirish guvohlik berish, qayd yoki shahodat etish, ishonch bildirish ma'nolarini bildiruvchi lotincha (sertifus) so'zidan olingan bo'lib, kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy hujjatga muvofiqligini uchinchi, xolis va tan olingan tomon tarafidan tasdiqlaydigan faoliyatni bildiradi.

Mahsulotning tug'ri ishlab chiqarilganligini bilish uchun uning me'yoriy xujjatlardagi me'yorlarga mosligini tekshirish zarur. Bunday vazifani sertifikatsiya amalga oshiradi.

Belgilangan me'yorlarga mos kelishini tekshirish uchun sinovlar o'tkazish lozim. Sinovlar texnik operatsiyalar bo'lib, mahsulotning bir yoki bir necha tavsifnomalarini aniqlashdan iboratdir. Sinovlar sinov laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

Me'yorlarga moslik darajasini tizimli tekshirish me'yorlarga mosligini baxolash deyiladi. Sertifikatsiya mahsulotning (jarayonning, xizmatning) berilgan talablariga mosligini isbotlovchi asosiy ishonchli usuli xisoblanadi. Sertifikatsiya jarayonining tashkil etuvchilari, qoidalar, sinovlar va boshqalar qo'yidagi omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillarga standartlash, sifat va bevosita sertifikatsiyaga ta'luqli bo'lgan qonunchilik, sertifikatsiya ob'ektining o'ziga xos xususiyatlari kiradi.

Sertifikatlashtirish deganda kerakli ishonchlilik bilan mahsulotning muayyan standartga yoki texnikaviy xujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan faoliyat tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari buyicha maxsus qumitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning "Sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalar va ularning qoidalari" qo'llanmasiga kirgazilgan.

Xalqaro standartlashtirish tashkilotining qo'llanmasida sertifikatlashtirish atamasining fakatgina izoxlari berilgan:

-sertifikatlashtirish umumiy atama bo'lib, mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlarning sertifikatlashtirishda muvofiqlikni sertifikatlashtirishda uchinchi tomonning qatnashishi tushuniladi;

-sifat tizimini baxolash sohasidagi taraqqiyot sifat tizimini sertifikatlashtirish bo'yicha yangi (ta'minlovchining imkoniyatlariini sertifikatlashtirish) tushunchasini zaruriyatini tug'dirmoqda.

Muvofiqlik atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o'z tarkibiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko'rinishi – muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatsiyalash, muvofiqlikni sertifikatlash belgilaydi.

Muvofiqlik bayonoti deb yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me'yoriy xujjatga to'la-to'kis muvofiqligi xaqida butun mas'uliyatni o'z ustiga olganligini bayon etishga aytiladi. Bu atamani so'ngi vaqtlarda "o'z o'zini sertifikatlashtirish" tushunchasi bilan almashinayotgani qayd qilinmoqda. O'z-o'zini sertifikatlashtirish deganda mahsulot ishlab chiqaruvchi tomon butun ma'suliyatni o'z zimmasiga olgan xolda sertifikatlashtirishni o'zi o'tkazadi va mahsulotning kerakli darajada sifatli ekanligini xaqidagi kafolatini o'z ichiga oladi. Bunday sertifikatlashtirish faoliyatini o'z-o'zini sertifikatlashtirish deb yuritiladi.

Muvofiqligini attestatsiyalash uchinchi tomon tarafidan “sinov laboratoriyasining bayonoti” tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa xujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishga aytiladi.

2.3. Sertifikatlashtirish sohasidagi atama va ta'riflar

Sertifikatlashtirish deganda mahsulot (buyum, tovar) yoki xizmat muayyan standartga yoki texnikaviy shartlarga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot (buyum, tovarning) sifati xaqida iste'molchini ishontiradigan tegishli xujjat-sertifikat beriladi.

Yana bir zarur atamalardan biri “sertifikatlashtirish tizimi” quyidagicha ta’riflanadi: Sertifikatsiyalashtirish tizimi - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o’tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqalariga ega bo’lgan tizimdir.

“Sertifikatsiyalashtirish tizimi” atamasidan tashqari Sertifikatlashtirish sxemasi tushunchasi kiritilib, uni quyidagicha: “Muvofiqlikning sertifikatlashtirilishini o’tkazishdagi uchinchi tomon faoliyatining tarkibi va tartibi” deb ta’riflanadi.

Sertifikatlashtirish jarayoni deganda mahsulot /buyum, mol/ yoki xizmat muayan standart yoki texnikaviy shart talablariga mos kelishini tasdiqlash maqsadida o’tkaziladigan faoliyat tushunilib, ushbu faoliyat natijasida mahsulot /buyum, molning/ o’rnatilgan talablarga iste’molchini ishontiradigan tegishli hujjat - sertifikat beriladi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqilayotgan turli xil mahsulotlar muayyan ko’rsatkichlarga javob berishi kerak. Bu ko’rsatkichlar esa ma’lum belgilangan talablarga muvofiq /mos/ kelishi lozim. Muvofiqlik o’z navbatida mahsulot yoki xizmatlarning ma’lum standartga yoki boshqa me’yoriy hujjatlardagi shu mahsulot yoki xizmatlarga belgilangan ko’rsatkichlarga mos kelishini talab etadi. Muvofiqlikni sertifikatlashtirish mumkin. Xo’sh sertifikatlashtirish tushunchasi nima?

Sertifikatlashtirish tushunchasi birinchi marta Xalqaro standartlashtirish tashkiloti Kengashining sertifikatlashtirish masalalari bo’yicha maxsus qo’mitasi tomonidan ishlab chiqilib, uning “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sinov laboratoriyalarining akkreditlash sohalaridagi asosiy atamalari va ularning qoidalari” qo’llanmasiga kiritilgan.

Muvofiqlik - atamasi mahsulot, jarayon, xizmatga belgilangan barcha talablarga rioya qilishni o’z ichiga oladi. Bunda muvofiqlikni uchta ko’rinishi - muvofiqlik bayonoti, muvofiqlikni attestatlash, muvofiqlikni sertifikatlashtirish degan tushunchalar mavjud. Muvofiqlik bayonoti deb yetkazib beruvchining mahsulot, jarayon va xizmatlarning aniq bir standartga yoki boshqa me’yoriy

hujjatga to'la-to'kis muvofiqligi xaqida butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligini bayon etishiga aytiladi. Muvofiqlikni attestatsiyalashda uchunchi tomon tarafidan "sinov laboratoriyasining bayonoti" tushunilib, ma'lum namuna mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi ma'lum standartlar yoki boshqa hujjatlar bilan muvofiq ekanligini bayon etishiga aytiladi.

Yana bir zarur atamalardan biri "sertifikatlashtirish tizimi" bo'lib, u quyidagicha ta'rif beriladi: Sertifikatlashtirish tizimi - muvofiqlikning sertifikatlashtirish faoliyatini o'tkazish uchun ish tartibi qoidalariga va boshqarishiga ega bo'lgan tizimdir.

Sertifikatlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan quyidagi uchta tushuncha to'g'risida to'xtalib o'tamiz: sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish, sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi va sertifikatlashtirish tizimi a'zosi.

Sertifikatlashtirish tizimidan foydalanish – guvohnoma talabgoriga sertifikatlashtirish tizimining qoidalariga muvofiq berilgan sertifikatlashtirishdan foydalanish imkoniyati tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimida qatnashuvchi – deb ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan, lekin tizimni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmagan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

Sertifikatlashtirish tizimi a'zosi deganda ushbu tizimning qoidalariga binoan faoliyat ko'rsatadigan va tizimni boshqarishda ma'lum darajada ishtirok eta oladigan sertifikatlashtirish qatnashuvchisi tushuniladi.

2.4. Sertifikatlashtirish, muvafiqlik va muvofiqlikni attestatsiyasi

Sertifikatlashtirish tovar, xizmatining yuqori darajasini aks ettiruvchi va uning ma'lum talablariga javob berishi hamda belgilangan sifatga ega ekanligini kafolatlaydi.

Sertifikatlash is'temolchiga mahsulot faqat standart talablariga muvofiq ishlab chiqarilishini kafolatlaydi, lekin u mahsulotni texnik darajasi talablariga mos ekanligini kafolatlamaydi.

Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi, mahsulot yoki xizmat turini xayot uchun xavfsizligini ta'minlash, atrof-muxitni muxofaza qilish, tovarlarni o'zaro almashinuvi va o'rindoshligini ta'minlash, hamda xalqaro savdoda texnik qarshiliklarni olib tashlash, mahsulot va xizmat turlarini raqobatga bardoshliligini oshirish kabi savollarda haridor yoki iste'molchini talab va istaklarini ximoya qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish bo'yicha milliy muassasasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublikada sertifikatlashtirish jarayonini mukamallashtirish va undan foydalanish bo'yicha umumiy siyosatni uyg'unlashuvini ishlab chiqish;
- qonun ishlab chiqaruvchi va uni bajaruvchi xokimiyat organlari hamda tegishli davlat sertifikatsiya organlari bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatish;
- tegishli davlatlar sertifikatsiya organlarini qonun ishlab chiqaruvchi va uni bajaruvchi xokimiyat organlari bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatish;
- sertifikatsiyalash masalalari bo'yicha shug'ullanuvchi chet el va xalqaro tashkilotlarning tegishli organlari bilan o'zaro kelishuv asosida faoliyat ko'rsatish, zarur xollarda O'zbekiston respublikasining ushbu tashkilotlar ishida qatnashishini ta'minlash;
- sertifikatlashtirishning hamma uchun yagona bo'lgan qoida va protseduralarini o'rganish;
- sertifikatsiyalash natijalariga ko'ra tegishli xujjatlarni qayd etish jarayonlarini kuzatish va tekshirish;
- respublika va chet ellik haridorlarni tegishli axborotlar bilan ta'minlash;
- mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar turlariga sertifikatsiyalash bo'yicha barcha savollar O'zbekiston respublikasining "Mahsulot va xizmat turlarini sertifikatlashtirish xaqida"gi qonuniga hamda ushbu qonunga mos keluvchi respublikamizning boshqa qonuniy xujjatlari asosida ko'rib chiqiladi.

Sertifikatlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iboratdir.

- mahsulotni sotish va uning bozorda raqabotbardoshligini ta'minlashni nazorat qilish;

- is'temolchilarni har tomonlama ximoya qilish;
- tayyorlovchilar arizasiga asosan mahsulot sifati ko'rsatkichlarini tasdiqlash.

Sertifikatlashtirish milliy tizimi - sertifikatlashni boshqarish va o'tkazish xuquqlariga davlat ta'sir o'tkazadigan tizimdir.

Mahsulotni sertifikatlash-mahsulotga o'rnatilgan talablarni to'g'ri kelishini tasdiqlash bo'yicha faoliyatdir. Sertifikat belgisi shu mahsulotni davlat standartiga mos kelishini qayd etilgan belgidir.

Respublikamizda sertifikatlashga o'rnatilgan umumiy qoidalar, ishlab chiqarilayotgan loyixalar, sertifikatlash bo'yicha nazorat qilish va shu kabilar "O'zstandart" agentligi tomonidan olib boriladi. Sertifikatlashning ob'ekti bo'lib, mahsulot, xizmatlar va sifat tizimi xisoblanadi.

Sertifikatlash sub'ekti bo'lib-shaxs yoki mahsulotni davlat standartiga mos keladigan xolda sertifikatlashtirishda ishtirok etayotgan shaxs (tadbirkor) xisoblanadi. Sifatni sertifikatlash tizimi jarayoni uchta asosiy bosqichlardan iborat bo'ladi:

- birinchi bosqich-sifat tizimini dastlabki baxolash.
- ikkinchi bosqich-sifat tizimini yakuniy tekshirish va baxolash.
- uchunchi bosqich-sertifikat muddati tugaguncha sifat tizimini sertifikatlashtirish ustidan nazorat qilish.

Sertifikatlashtirish muvofiqlik sertifikati umumiy tushuncha va mazmunida bu jarayonda uchunchi tomonni qatnashishini bildiradi, birinchi tomon-ishlab chiqaruvchi, ikkinchi-iste'molchi.

Muvofiqlikning quyidagi ko'rinishlari belgilangan:

- muvofiqlik to'g'risidagi ariza;
- muvofiqlik attestati;
- muvofiqlik sertifikati.

Muvofiqlik to'g'risida ariza-bu ishlab chiqaruvchini mahsulot va texnologik jarayon xizmatlari ma'lum standart yoki me'yoriy xujjatlarga moyilligi to'g'risidagi arizasidir. Boshqachasiga buni o'z-o'zini sertifikatlash deyiladi.

Muvofiqlik to'g'risidagi ariza-ishlab chiqaruvchi tomonidan xech qanaqa yuridik, administrativ va iqtisodiy mas'uliyatni belgilamaydi.

Muvofiqlik attestati - bu sinov laboratoriyasi tomonidan mahsulot na'munasi ma'lum standartlarga yoki me'yoriy xujjatlarga moyil ekanligi to'g'risidagi arizadir.

Bu vaziyatda standartlar talablariga seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulot emas, balki sinovga taqdim etilgan mahsulot na'munasining muvofiqligi baxolanadi. Sinovlar sertifikatlash tizimi doirasidan tashqarida o'tkaziladi.

Sertifikatlash tizimi milliy, regional va xalqaro darajalarda tashkil qilinadi:

Ma'lum bir mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatlarga tegishli bo'lgan standartlar va qoidalar sertifikatlash tizimining bir ko'rinishini (sxemasini) bildiradi.

Mahsulotning standart talablariga mos kelishini muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi tasdiqlaydi.

Muvofiqlik sertifikati – bu mahsulot, texnologik jarayon va xizmatlar ma'lum standartlar talablariga yoki me'yoriy xujjatlarga moyilligini uchunchi tomon kafolat berishini bildiradi.

Demak muvofiqlik sertifikati uchunchi tomondan berilgan kafolatni bildiradi va belgilangan tashkilliy tizim va qoidalar doirasida o'tkazilgan xolda tan olinadi. Muvofiqlik sertifikati o'zining qoida va tartibiga ega bo'lgan sertifikatlash tizimi doirasida o'tkaziladi.

Muvofiqlik belgisi – bu mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatlar ma'lum standartlarga va me'yoriy xujjatlarga mos ekanligini bildiruvchi, sertifikatlash tizimi qabil qilgan qoidalarga mos va qonun tomonidan ximoyalanganlik belgisidir.

2.5. Majburiy va ixtiyoriy sertifikatlashtirish

Sertifikatlashtirish ikki xil ya'ni, majburiy va ixtiyoriy harakterga ega bo'ladi. Majburiy sertifikatsiya qonunlar va qonuniy aktlar asosida amalga oshiriladi va

tovar (jarayonlar, xizmatlarning), texnik reglamentlar talablariga va standartlarning majburiy talablariga mosligini isbotlashni ta'minlaydi.

Ushbu normativ xujjatlarning majburiy talablari xavfsizlik insonlarning sog'lig'ini ximoya qilish va atrof muxitni muxofaza qilishga qaratilganligi sababli majburiy sertifikatsiyaning asosiy yo'nalishi bo'lib xavfsizlik va ekologiklik xisoblanadi.

Mahsulotni u yoki bu sertifikatlashtirishga oidligi, uni tashqi muxitga, inson salomatligiga ta'siri asosiy me'zon xisoblanadi. Ana shuning uchun tashqi muxitga, inson salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi mahsulotlar albatta, majburiy sertifikatlashtirishga mansub bo'ladi, qolgan mahsulotlar esa sertifikatlashtirilishi ixtiyoriydir.

Majburiy sertifikatlashtirish deganda sertifikatlashtirish xuquqiga ega bo'lgan idora tomonidan mahsulot, jarayon xizmatining standartlaridagi majburiy talablariga muvofiqligini tasdiqlash tushuniladi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirish deganda ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi), sotuvchi (ta'minlovchi) yoki iste'molchi tashabbusi bilan ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan sertifikatlashtirish tushuniladi.

Xozirgi sharoitda rivojlangan mamlakatlar bilan savdoni, mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni, fan va texnikani rivojlanishi uchun hamda chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini yaxshilash, ularni raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish uchun muntazam ravishda sinovlardan o'tkazish extiyoji ortib bormoqda. Sinovlarni ko'pincha uchinchi tomon deb ataluvchi shaxs yoki tashkilot amalga oshiradi. U ko'riladigan masalada qatnashayotgan tomonlar odatda ta'minlovchining (birinchi tomon) va haridorning (ikkinchi tomon) manfaatlarini ximoya qilib, mutlaqo mustaqil ravishda ish ko'radilar.

Uchinchi tomon tarafidan qilinadigan sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchilarining ishonchiga sazovor bo'lmoqda va shu sababli bunday yo'l keng qo'llanilib, keng tarqalmoqda. Turli mamlakatlarda uchinchi tomon tarafidan bajarilayotgan sertifikatlashtirish tizimini tashkil etish amalda, uni turlicha tashkil qilish mumkinligini ko'rsatmoqda: ishlab chiqaruvchi assotsiatsiyalar, yirik

istemolchilar, standartlashtirish milliy tashkilotlari tomonidan, masalan, Frantsiya va Angliyada 60-yillar boshida iste'molchilar tomonidan harbiy maqsadlar uchun elektronika mahsulotlarini sertifikatlashtirish tizimi yaratildi.

Sertifikatlashtirish tushunchasi keng ma'noda uchinchi tomon tarafidan o'tkaziladigan texnikaviy me'yorga, ish uslubiga, qoidaga muvofiqlikni qamrab olgan har qanday tekshiruvdir. SHuning uchun sertifikatlashtirishni tekshiruv deb xisoblab, bosim ostidagi idishlarni, portlash xavfidan ximoyalangan qurilmalarning, atom reaktorlarining va tog' texnikasining ishlatishdagi xavfsizligini ta'minlash uchun texnikaviy nazorat o'rnatuvchi idoralar shartli tekshiruvni amalga oshiradi.

Akkreditatsiya – bu nufuzli idora tomonidan, boshqa bir tashkilot yoki shaxsni rasmiy ravishda aniq ishlarni bajarishda to'la huquqli vakolat berilganligini e'tirof etishidir.

III BOB. SIFATNI BOSHQARISH NAZARIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Mazkur bobni o'qishdan ko'zlangan maqsad, quyidagi savollarga javob topish ekanligini unutmang:

- *Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanishini beshta bosqichini tushuntirib bering?*
- *Sifat nazoratining Teylor tizimini gapirib bering?*
- *Sifatni statistik usullar asosida nazorat qilishni tushuntiring?*
- *TQM kontseptsiyasining shakllanishi o'z ichiga nimalarni oladi?*
- *Standartlarni vujudga kelishining sabablari nimalardan iborat?*
- *Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimi (TQM) to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *Mahsulot sifatini boshqarishning "DJIT" tizimi qanday tizim?*

3.1. Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlanish bosqichlari


Sifatning mazmun-mohiyatini aniqlash borasida turli tushunmovchiliklarning kuchayishiga sabab, uni ham mutlaq ham nisbiy darajada tushunishning mavjudligidir. Kundalik turmushda sifat mutlaq tushuncha sifatida qo'llaniladi. Kishilar uni masalan, qimmat restoranlar(xizmat sifati)ni va qimmatbaho avtomobillar(mahsulot sifati)ni ta'riflashda ishlatishadi.

Sifatni nisbiy tushuncha sifatida ham qo'llash mumkin. Ushbu holatda sifat mahsulot yoki xizmatning belgisi(o'ziga xos xususiyati, atributi) hisoblanmaydi. Sifat to'g'risida mahsulot yoki xizmatning mavjud standartlar yoki unga qo'yilgan talablarga javob berganida gapirish mumkin. Sifat o'z-o'zidan yakuniy natija bo'la olmaydi. U faqatgina uning yordamida yakuniy mahsulotning standartga mosligini aniqlash vositasidir. Sifatni nisbiy tushunishda sifatli mahsulot yoki xizmat qimmat yoki mushkul, chiroyli yoki mujmal bo'lishi shart emas. SHuningdek, u o'ziga xos, oddiy, siyqasi chiqqan va odatiy bo'lmasligi mumkin.

Sanoatni rivojlanishi va ilmiy texnik taraqqiyot natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatiga bo'lgan talablar ham ortib borishi bu tabiiy hol. SHunday ekan, sifat menejmenti ham o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, uning rivojlanish tendentsiyalari hamda bosqichlarini shartli ravishda quyidagicha keltirish mumkin:

- mexanik nazorat (1900 yilgacha);
- usta nazorati(1900-1920 yillar);
- inspeksion nazorat(1920-1940 yillar);
- statistik nazorat(1940-1960 yillar);
- sifatni ta'minlash(1960-1980 yillar);
- umum sifat menejmenti(1990 yildan hozirgi vaqtgacha).


Sanoat va umuman ishlab chiqarish taraqqiyoti sifatni boshqarishga va uni aniqlashga bo'lgan yondashuvlarni o'zgartirib borgan va ushbu tendentsiya kelajakda ham davom etishi kutilmoqda.



3.1.1-rasm. SHuxart-Deming tsikli(PDCA)

Sifatni boshqarish nazariyasining rivojlantirishga amerikalik olimlar SHuxart, Uolter (Walter Andrew Shewhart 1891-1967 va Deming, Uilyam Evards (William Edwards Deming, 1900 — 1993) o'zlarining katta hissalarini qo'shishgan bo'lib, ular o'zlarining mashhur uzluksiz jarayonlarni yaxshilash "SHuxart - Deming TSikli" (PDCA tsikli)ga asos solishgan(3.1.1-rasm.).

PDCA - rejalash (Plan), amalga oshirish (Do), tekshirish (Check), ta'sir qilish (Act), uni turli sohalarda tizimli asosda qo'llashda ushbu soha bo'yicha tizimli faoliyatni samaradorligini oshirishga imkon beradi (3.1.2-rasm).



3.1.2-rasm. Doimiy yaxshilash

U. SHuxart birinchi bo'lib PDCA kontseptsiyasini yaratdi. (1939 y. "Sifatni boshqarishning statistik usullari" asarida. E. Deming SHuxart tsiklini faol targ'ibot qildi va keyinchalik PDCA ni - tsikl PDSA ("study" - o'rganish) modifikatsiya qildi .


1950 yillarda E. Deming Yaponiyada uni qo'llashni taklif qilib Kaydzen tizimini yaratishga olib keldi (3.1.3-rasm).

Kaydzen, kaydzen ([yap.](#) 改善 ;kaydzen; Kaizen;) bu-ishlab chiqarish jarayonlarini, ishlanmalarni, yordamchi biznes-jarayonlarni va boshqaruvni, shuningdek, hayotning barcha jabhalarini to'xtovsiz takomillashtirib borishga yo'naltirilgan yapon falsafasi yoki amaliyotidir.

SHunday qilib, sifat menejmenti quyidagilarni o'zida namoyon etadi:

- barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganlikni;
- qaror qabul qilishning vositalari va usullarini;
- faoliyatning samaraliligini kafolatlovchi usullarini;

- mehnat jarayoni ishtirokchilari sa'i harakatlarini qo'yilgan maqsadlar sari safarbar qilishni ta'minlaydi:



3.1.3-rasm. Deming tsikli asosidagi Kaydzen

“Meni eshitinglar yana besh yildan keyin sizlar G’arb bilan raqobatlashasizlar. G’arbliklar sizdan himoya so’rasmaganlarigacha eshitishni davom ettiringlar”. Ushbu so’zlar umum sifat menejmentining otasi hisoblanmish E.Demingning 1950 yilda Tokio shahrida Yaponiyaning 45 yirik kompaniyalari rahbarlari oldida so’zlagan nuqtida bayon etilgan.

Deming yondashuvining mohiyati quyidagicha: past samaradorlik va yomon sifatning sababi aksariyat hollarda, xodimlarda emas, balki tizimda. SHunday ekan, ishlab chiqarish natijalarini yaxshilash uchun rahbarlarning tizimning o’ziga o’zgartirishlar kiritishlari kerak. Deming o’zining asosiy e’tiborini quyidagilarga qaratgan:

- standartlardan chekinishlar haqida statistik axborotlarni yig’ishning zarurligiga;

- jarayonlar va kompaniya mahsulotlaridagi chetga chiqishlarning kamayishiga;


- chetga chiqishlarning sabablarini izlash, tahlil etish va bartaraf etishga.

Bugungi kundayam Edvard Demingning 14 tamoyillari butun dunyo bo’yicha sifatni boshqarishning asosiy tamoyillari bo’lib hisoblandi.

Deming, Djuran va Isikava g’oyalarini bosqichma-bosqich dastlab Yaponiyada keyinchalik boshqa G’arb mamlakatlarda keng qo’llanila boshlandi.

Bu davrda amerikalik olim A.Feygenbaum tomonidan umum sifat nazorati(TQC) kontseptsiyasi yaratiladi. TQC kontseptsiyasini Yaponiyada qo'llash ommaviylashib ketadi. Bu davrga kelib, hujjatlashtirilgan sifat tizimi paydo bo'ladi va unda nafaqat sifat xizmati mutaxassislarining, balki sifat sohasi uchun butun rahbariyatning mas'ulligi hamda vakolati o'rnatiladi.

Umum sifat nazoratini Feygenbaum iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va distribyuterlar foydasiga bog'liq bo'lgan holda mahsulot sifati va uning narxidagi muammoni hal etishga qodir bo'lgan tizim sifatida tushundi. Feygenbaum sifatni buyumni ishlab chiqarishning yakuniy natijasi sifatida emas, balki uni yaratishning har bir bosqichida ko'rib chiqishni taklif etdi. Mazkur kontseptsiyaga muvofiq sifatning umumnazorat kontseptsiyasi quyidagi tarzda namoyon bo'ladi (3.1.4-rasm):



3.1.4-rasm. Sifatning umumnazorat kontseptsiyasi

Yaponiyada TQCni munosib kutib olindi va professor K. Isikava o'zining ishlarida uni yanada rivojlantirdi. U sifatni menejmentning vazifasi sifatida va sifatni oshirish tadbirlarida barcha xodimlarning ishtirok etishini talab qilgan holda, “iste'molchi–etkazib beruvchi aloqalari” terminini kiritdi.

Filip B.Krosbi sifatni umumiy kontseptsiyasining buyuk allomalaridan biri hisoblanadi. U XX asrning 60–yillarining boshida Germaniyada ko'plab tortishuvlarga sabab bo'lgan “nolъ deffekt” dasturini aniq tushuntirib berdi. B.Krosbi e'tiborni korxonani boshqarish sohasidagi masalalarga qaratdi va asosan

“nolъ deffekt”ga erishishga yo’naltirilgan fikrlash va sifat tushunchasini anglab yetgan tadbirkorlik madaniyatini singdirishni taklif qildi.

Yaponiyada TQC statistik metodlarga e’tibor bergan va personalni sifat to’garaklariga jalb qilgan holda rivojlandi.

Yaponlar uzoq vaqt TQSC yondashuvini undagi “S” statiko ma’nosini beradigan holda ishlatilishni takidlab kelishgan.

Bu bosqichda vakolat, javobgarlik, shuningdek sifat sohasida nafaqat sifat xizmati mutaxassislarini, shuningdek, butun korxona boshqaruvida hamkorlikni o’rnatuvchi xujjatlashtirilgan sifat tizimlari paydo bo’ldi. Ma’naviy rag’batlantirish ortib moddiy rag’batlantirish kamaydi. Jamoa bo’lib ishlash, hamkasblar va rahbariyatni qo’llab turgan lavozimni tan olish, hodimini kelajagi haqida firmaning qayg’urishi takomillashdi. Uning sug’urtasi, oilasiga yordam, sifatli ishni eng asosiy sabablaridan biri deb ko’rsatildi. Yaponiya va Janubiy Koreyada ishchilarni bir necha xaftadan to bir oygacha o’qitishda, shu jumladan mustaqil o’rganishdan ham foydalangan holda, hodimga e’tibor ko’proq ajratila boshlandi.

TQS ni tadbqiq etilishi va asosiy tamoyillarini rivojlantirish bir xilda amalga oshmadi. TQS ning asosiy g’oyalari AQSH va Yevropa davlatlarida ishlab chiqilgan bo’lishiga qaramay, Yaponiya bu sohada ancha ilgarilab ketdi. Natijada, Amerikalik va Yevropaliklar sifatni boshqarish tizimini Yaponlardan o’rganishga to’g’ri keldi. Bunda asosiy e’tibor yangiliklarni tadbqiq qilish jarayoniga qaratildi. Yevropa davlatlarida asosiy e’tibor sifat ta’minot tizimini xujjatlashtirish va uni ro’yxatdan o’tkazish yoki uchinchi tomondan sertifikatlashtirishga qaratila boshlandi. “Etkazib beruvchi-iste’molchi” munosabatlari tizimida ham mahsulotlarni 3-shaxs tomonidan sertifikatlashtirilishi, sifatni boshqarish jarayonlarini nazoratda ushlay boshladi. Bunda shartnomalarda xomashyo, materiallarning sifatiga jiddiy talablar qo’yila boshlandi. Uni bajarish kafolati mas’uliyatni oshirdi.

Sifatni kompleks tizim kabi boshqarishni rivojlantirish bosqichi sobiq Sovet Ittifoqini ham chetlab o’tmadi. Ko’plab milliy tizimlar yaratildi. Ularga:

Saratovda – mahsulotning nuqsonsiz tayorlash tizimi (bezdefektnogo

izgotovleniya produktsii - BIP);

Yaraslavldagi “Avtodizel” birlashmasida – motivesursni oshirish bo’yicha ishlarni ilmiy tashkil etish (nauchnaya organizatsiya rabot po uvelicheniyu motivesursa - NORM);

Ribindagi motorqurilish zavodida – ishlab chiqarish va boshqaruvda mehnatni ilmiy tashkil etish (nauchnaya organizatsiya truda, proizvodstva i upravleniya - NOTPU);

Gorьkovskiyda – “sifat, ishonchlilik, birinchi mahsulotdan resurs” nomli sifat tizimi (kachestvo, nadejnostь, resurs s pervyx izdeliy KANARSPI) misol keltirish mumkin.

BIP tizimi asosiga mehnatni bevosita bajaruvchi tomonidan nazorat qilish qo’yilgan. Ijrochi yaratilgan mahsulot sifati uchun mas’ul bo’lgan.

NORM tizimi dvigatel motivesurslarini rejali, tizimli nazorat qilishni va uni rejalashtirayotgan motivesursni belgilovchi dizel va detallarning uzoq muddatlilik (yashovchanligi), ishonchliligini oshirishi asosida tsiklik o’stirib borishni nazarda tutgan. NORM tizimida sifatni miqdoriy ko’rsatkichlarini rejalashtirish, uni qo’llash, mahsulotning butun hayot tsikli davomida amalga oshirilgan.

NOTPU uchun ishlab chiqarishni, boshqaruvni va mehnatni ilmiy tashkil etish usullaridan majmuaviy foydalanish, korxona bo’yicha va har bir ish joyi uchun texnologiya va texnologik jihozlarni doimiy yangilab borishni takomillashtirish harakterlidir. Korxonaning tsex va uchastkalari miqyosida boshqaruv, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasini miqdoriy jihatdan baholash ishlari ko’rib chiqilgan.

Eng yaxshi tizimlardan biri o’z davridan ancha ilgarilab ketgan KANARSPI tizimi xisoblangan. Unda:

- mahsulot sifatini pasaytirish sabablarini aniqlash, bartaraf etish uchun mahsulotni ishlab chiqarish jarayonidan samarali foydalanish;
- seriya namunasini yaratish jarayonida konstruktorlik va texnologik tajribalarni o’tkazish;
- ishlab chiqaruvchi tashkilot ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotlarning

mahsulotga yangidan ishlov berish jarayonini takomillashtirish va uni ekspluatatsiyasining texnologik darajasini oshirishda faol ishtirok etishi kabi talablar mavjud bo'lib, undan sanoatning ko'plab tarmoqlarida foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Sifatni majmuaviy boshqarishning xususiyati shundaki, avvallari korxonalar tomonidan ko'proq mahsulot ishlab chiqarish hajmi, yetkazish muddati, harajat va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha alohida qarorlar qabul qilingan bo'lsa, bu davrga kelib, mahsulot sifati korxonaning birinchi raqamli harakat rejasiga aylandi va boshqa barcha yo'nalishlar ushbu maqsadga bo'ysundirildi. SHunday qilib, korxona faoliyatini boshqarishning barcha sohalari sifat manfaatlaridan kelib chiqib tashkillashtirildi.

Agar TQC – o'rnatilgan tartiblarni bajarish maqsadida sifatni boshqarish bo'lsa, TQM – maqsadlarni talablar asosida boshqarish hisoblanadi. TQMga iste'molchida mahsulot sifati haqida ishonch qozonuvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi sifatni ta'minlash ham kiritiladi. TQM tizimi doimiy sifatni yaxshilashga, ishlab chiqarish harajatlari kamaytirishga va o'z vaqtida yetkazib berishga yo'naltirilgan majmuaviy tizim hisoblanadi.

TQM ning asosiy g'oyasi rivojlantirishning chegerasi yo'q degan tamoyilga asoslanadi. Sifat doirasida nolb deffekt, nolb noishlab chiqarish harajatlari, o'z vaqtida yetkazish degan maqsadli harakat mavjud.

TQM tizimi sifatni boshqarish usullarining bir-biriga mos keladigan maqsadlaridan foydalanadi. Tizimning asosiy xususiyatlaridan biri muammoni izlash usullarining jamoaviy shakllaridan foydalanish, tahlil qilish va yechish hisoblanadi.

TQMda insonning o'rni va personalni o'qitish masalalari ortib boradi. Bunda motivatsiyaning shunday darajasiga erishiladiki, ishchilar ishga kirishib ketganlaridan mehnat ta'tillarini rad etadilar, ishda ko'p ushlanib qoladilar va ishni uyda ham davom ettiradilar. Yangi ishchilar sinfi paydo bo'ladi. Ta'lim ishchilarni butun mehnat faoliyati davomida uzluksiz qamrab oladi. O'qitish shakllari o'zgarib yanada faollashadi, o'yinlardan, maxsus testlardan, AKT usullaridan foydalaniladi.

O'qitish motivatsiyaning bir qismiga aylanadi, ya'ni yaxshi ta'lim olgan odam o'zini jamoada yaxshi his etadi, lider vazifasini bajara oladi, kar'xerada afzalliklarga ega bo'ladi. Ishchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning maxsus usullari ishlab chiqiladi va foydalaniladi.

Iste'molchi va yetkazib beruvchilarning o'zaro munosabati sifatni sertifikatlash tizimiga, ayniqsa ISO 9000 standartlariga katta ta'sirini ko'rsatdi. Sifat tizimi maqsadli ravishda 9000 seriyali ISO standartlariga asosan qurildi, ya'ni iste'molchi tarafidan talab qilingan mahsulot sifatini ta'minlash, unga korxona ushbu ishlarni amalga oshirishga imkoniyati yetarli ekanligini isbotlash, biroq ISO 9000 seriyali standartlarida iqtisodiy samaradorlik masalalari biroz oqsab qolgan, o'z vaqtida yetkazish qoidalari bo'lmagan.

Ushbu standartlar tizimi barcha masalalarni va vazifalarni qamrab ololmaganligiga qaramasdan uning bozor mexanizmidagi o'rni va mavqei oshib bormoqda.

Sifat sertifikatlari korxonalar uchun ularning turli tender va loyixalarda qatnashishlarida asosiy shartlardan biriga aylandi. Keng qamrovda sifat tizimi sertifikatlarini qo'llanilishi sug'urta ishiga aylandi, ya'ni uning mavjudligi korxonaning ishonchliligidan dalolat beradi.

Beshinchi bosqich. 1990-yillarga kelib jamiyatning korxonalarga bo'lgan ta'siri kuchayib ketdi va natijada korxonalar jamiyat qiziqishlari va manfaatlarini ko'proq o'rgana boshladilar. Bu holat, menejment tizimiga atrof-muhitni muhofaza qilish va mahsulot havfsizligi nuqtai nazaridan xosil bo'lgan talablar o'rnatilgan ISO 14000 seriyali standartlarini vujudga kelishiga olib keldi.

ISO 14000 seriyali standartlar asosida sifat tizimini sertifikatlashtirish ISO 9000 seriyali standartlar asosidagi sertifikatlashtirishdan kam mashhur bo'lmadi. Sifatga insoniy ta'sirlarning o'rni ortdi, o'z xodimlari ehtiyojlarini qondirish korxona rahbarlarining diqqat markazida bo'ldi.

Korporatsiyalarning xususiyatini hisobga olgan va o'z maqsadlarini xalqaro standartlar talablarini kuchaytirish sifatida qo'ygan sifatni boshqarishning korporativ tizimlari vujudga keldi. Ya'ni, AQSHdagi yirik avtomobil

kompaniyalari 1990 yilda (ikkinchi tahriri 1994 yilda ishlab chiqilgan) QS 9000 “Sifat tizimiga talablar” standartini ishlab chiqdilar. Mazkur standart ISO 9001 standartlariga asoslangan bo’lsada, keyinchalik yana boshqa og’ir avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ham uni o’zlari uchun ishlab chiqdilar va unga rioya qila boshladilar.

ISO 14000 va QS 9000 seriyali standartlarni tadbiq etish, shuningdek sifatni rag’batlantirish bo’yicha o’z-o’zini baholash modellarini vujudga kelishi sifat tizimini boshqarishning beshinchi bosqichini asosiy erishgan natijalari xisoblanadi.

3.2. Sifat nazoratining Teylor tizimi, statistik usullar. Sifatni umumiy nazorat qilish

Sifat menejmenti ildizlari ilmiy boshqaruv maktabi “Scientific Management”da 1885-1920 yillarda shakllana boshlagan F.U.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan sifat boshqaruvining ilk usullari, mahsulot ishlab chiqarilganidan keyingi nazorati bilan bog’liq bo’lgan. Teylor tizimida, shablon va kalibr kabi o’lchov asboblari qo’llanilgan edi. Teylor tizimi muvaffaqiyatli ishlashini ta’minlash maqsadida, ilk marta, sifat bo’yicha nazoratchi lavozimini joriy etish zaruriyati asoslab berilgan, mahsulot sifatiga ta’sir etishning shakl va usullari, yaroqsiz mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun jarima solish tizimi ishlab chiqilgan edi. Mazkur yondoshuvning mohiyati shundaki, bunda asosiy e’tibor, yaroqsiz mahsulotlar iste’molchiga yetib bormasligiga qaratilgan.

XX asrning 20-yillarida sifat nazoratining statistik usullari - “Statistical Quality Control” (SQC)ning vujudga kelishi va kelgusi rivojlanishi sifat menejmenti taraqqiyotida muhim davr bo’ldi. 1924 yilda Amerikaning “BEN Telephone Laboratories” kompaniyasining xodimi V.S.Huhart mahsulotlar sifatini kuzatib borishning nazorat kartalarini ishlab chiqadi. Taxminan shu davrda G.F.Dodj va G.G.Roming ilk marta sifatni saralab nazorat qilish jadvallarini yaratishadi. SHu ishlarning barchasi birgalikda, sifat boshqaruvining statistik usullarini vujudga kelishi uchun turtki berdi va bu usullar keyinchalik E.Deming

sharofati bilan Yaponiyada keng tarqaldi hamda shu mamlakatdagi iqtisodiy inqilobga katta ta'sir ko'rsatdi.

Bu usul yaroqsiz mahsulotlarni iste'molchiga jo'natish oldidan aniqlash va konveerdan olib tashlashga emas, balki texnologik jarayon vaqtidayoq unga e'tibor qaratish imkoniyatini berdi. Asosiy e'tibor ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ta'minlashga va ularning variatsiyalarini kamaytirishga qaratildi. Ya'ni, nuqsonlar sababini aniqlash va jarayonlarni boshqarish asosida ularni bartaraf etish asosiy vazifaga aylandi.

Sifatni boshqarish (Quality Control) 1950 - yillarga kelib, sifatga erishish – nafaqat sifat bo'yicha nazoratchi yoki muhandisning, balki har bir korxona xodimining muhim vazifasi ekanligi ayon bo'ldi. Sifat kontseptsiyasi endi nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga, balki butun tizimni yaxshilashga, kompaniyalar rahbariyatining sifat muammolarida bevosita qatnashuviga, kompaniyaning barcha xodimlarini sifatni ta'minlashning asosiy usullariga o'rgatishga qaratiladi. Bu davr birinchi navbatda amerikalik mutaxassislar Deming va Juranning sifat sohasidagi faoliyati bilan bog'liqdir. Sifat nazoratining statistik usullarini tatbiq etishdan tashqari, bu olimlar qo'shgan salmoqli hissa shundan iborat ediki, ular ideal mahsulot o'lchamlariga ta'sir qiladigan, o'sha davrgacha ma'lum bo'lmagan va o'rganilmagan turli omillarning mavjudligini ixtiro qilishgan.

Bu esa sifat to'g'risidagi yangi fan nazariyotchilari va amaliyotchilari uchun kelgusi tadqiqotlarni davom ettirish imkonini bergan. Aynan Deming va Juran birinchi bo'lib sifatni ta'minlashning tashkiliy masalalariga e'tibor qaratdilar, sifat muammolari yechimida rahbariyatning rolga alohida urg'u berdilar. SHunday qilib, XX asrning 50-60 yillarida sifat ishlab chiqarish sohasidan sekin-asta umumiy menejment sohasiga o'ta boshlagan, bunda e'tibor yaroqsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishdan olib tashlashdan xatolarning oldini olishga ko'chgan.

Sifat masalalari rivojlanishidagi ushbu davrning muhim voqeasi - 1956 yilda Sifatni yalpi nazorat qilish– “Total Quality Control” (TQC) kontseptsiyasining vujudga kelishi bo'ldi. Mazkur kontseptsiya kelgusida sifatni boshqarishga tizimli

yondoshuvni boshlab berdi. Uning muallifi – sifat bo'yicha mashhur amerikalik mutaxassislardan biri bo'lgan A.Feygenbaum hisoblanadi. Uning ta'kidlashicha, mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan to'liq ishlab chiqarish jarayoni sifatni belgilaydi. A.Feygenbaum taklif etgan sifatni boshqarish tizimi korxonaning ichki boshqaruviga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. Xususan, tashkiliy tuzilmalar o'zgardi: ilmiy, loyihalash-konstruktorlik, ishlab chiqarish, ta'minot va sotuv bo'linmalari tasarrufida sifatni boshqaruvchi markaziy bo'limlar va tegishli yacheykalar tashkil qilindi.

TQC kontseptsiyasi Yaponiyada ham faol rivojlanib, bunda asosiy ahamiyat statistika usullari qo'llanishiga va xususan, xodimlarni ish jarayoniga "sifat to'garaklari" orqali jalb etishga qaratildi. Kaora Isikava bu kontseptsianing faol tarafdori va targ'ibotchilaridan biri edi. K.Isikava sifat to'garaklari falsafasi ustida izchil ish olib borib, uni tashkilotning barcha xizmatchilari va rahbariyatiga tanishtirdi. SHuningdek, olim birinchi bo'lib E.Demingning sifat falsafasini va A.Feygenbaumning TQC modelini o'zi kashf etgan butun tashkilot doirasida sifatni nazorat qilish tizimiga (Company-Wide Quality Control, CWQC) tatbiq etdi. CWQCning umumiy g'oyasi sifatni boshqarish falsafasining yangi shaklini o'zlashtirgan edi. Bu g'oya keyinchalik TQC kontseptsiyasiga aylanadi. K. Isikavadan tashqari, jahonda sifatni boshqarish nazariyasi va amaliyotiga salmoqli hissa qo'shgan yapon maktabi namoyandalariga Geniti Taguti va Sigeo Singni ham kiritish mumkin.

Yaponiyada sifatni boshqarish usullarining keng joriy etilishi natijasida, XX asrning 60-80 yillari jahon bozorlarida yapon mahsulotlari hukmronligi davriga aylanishiga olib keldi. Yevropa mamlakatlari bozorlarini Yapon mahsulotlari egallashi, sifatni ta'minlash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni kuchaytirib yubordi. Bu tizimlar nafaqat maxsus sifat xizmatlari, balki korxonaning butun rahbariyati sifat uchun birgalikda ishlashi, mas'uliyat va vakolatni o'z zimmasiga olishi zarurligini taqozo etdi. Buyuk Britaniyada 1979 yilda paydo bo'lgan BS 5750 shunday standart bo'lib hisoblanadi. Aynan shu standart keyinchalik ISO 9000 seriyali standartlarni yaratish uchun asos bo'ldi.

SMT va ISO 9000 seriya standartlari rivojlanishiga katta hissa qo'shgan "G'arb maktabi"ning vakili, amerikalik mutaxassis F.B.Krosbi o'zidan oldingi hamkasblaridan farqli o'laroq, sifatni kompleks usulda takomillashtirish muammosini yechish taklifi bilan chiqdi. U sifat tizimini joriy etishning 14 ta qoidasini kashf etdi. ISO 9000 standartlarida bunday yondoshuv (unifikatsiyalash va standartlashtirish) 8 yil o'tgandan keyingina – 1987 yilda qo'llanilgan.

SHunday qilib, bu davrda sifatni yaxshilash va ishlab chiqarish unumdorligining o'sishi o'rtasidagi avvalgi ziddiyat hal etildi. CHunki boshqaruvning yangicha g'oyalari qo'llanishi bir vaqtning o'zida sifatni oshirish va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish uchun imkon berdi. Bunday taraqqiyot ko'p jihatdan J. Juran va A. Feygenbaum tadqiqotlariga bog'liqdir, chunki ular sifat harajatlarini ("cost of quality") asoslash va umuman sifatning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga salmoqli hissa qo'shishgan.

3.3. Total Quality Management (TQM) kontseptsiyasi

XX asrning 70-80 yillarida jahon mahsulot va xizmatlar bozorining rivojlanishi, unda raqobatning keskinlashuvi va proteksionizm siyosatini olib borilishi, sifatni boshqarishning yangi davriga o'tishini taqozo etdi. CHunki, iste'molchini raqobatchilar mahsulotidan ko'ra kamroq qondirgan mahsulot raqobatga dosh berolmay qolgan edi.

Ta'kidlash lozimki, Total Quality Management (TQM) kontseptsiyasi bir vaqtning o'zida shakllanmagan, u sifatni boshqarish taraqqiyotining butun zamonaviy bosqichi davomida shakllanib kelgan. Masalan, sifatni statistik usullar vositasida boshqarish bo'yicha V.SHuhart va E.Deming ta'riflashgan ko'pgina g'oyalar TQMning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. "Malaya entsiklopediya kachestva" muallifi N. Inyatsning fikricha, TQMning birinchi ma'lum bo'lgan modeli (garchi, bu model ilgari bunday atalmagan va nazarda tutilmagan bo'lsada) 1951 yilda Deming Mukofotini ta'sis qilish mezonlariga kiritilgan edi. SHunga qaramay, odatda XX asrning 80-yillarini TQM kontseptsiyasining shakllanishi davri deb hisoblashadi. Masalan, aynan 1983 yilda A. Feygenbaumning "Sifatni

umumiy nazorat qilish” (Total Quality Control, 1983y.) kitobining 40-nashri chop etilgan edi. Feygenbaum bu kitobida TQM (Total Quality Management) “Sifatni yalpi boshqarish” kontsepsiyasiga birinchilardan bo’lib ta’rif bergan. Birinchi bo’lib sifat muammolarining ko’p qamrovli ekanligiga e’tiborni qaratgan “G’arb maktabi” namoyandalari (Filipp Krosbi, Tom Peters, Klaus Meler) TQM kontsepsiyasi shakllanishiga katta hissa qo’shganlar.

Biroq TQMning shakllanish jarayoni shu kungacha ham tugallanmagan. Bu haqda ko’pgina nashrlar ham dalolat bermoqda. Jumladan, Yaponiya olimlar va muhandislar ittifoqining (JUSE) sifat bo’yicha tadqiqotchilar guruhi 1997 yilda ishlab chiqqan TQM Deklaratsiyasi shular jumlasiga kiradi.

Hozirgi kungacha TQM kontsepsiyasining umum qabul qilingan yagona ta’rifi mavjud emas. ISO 8402 xalqaro standartida TQM tashkilotni boshqarishda sifatga qaratilgan, uning barcha a’zolari ishtirokiga asoslangan, iste’molchining ehtiyojini qondirish orqali va tashkilot, shu bilan birga jamiyatning barcha a’zolari foydasini ko’zlab, uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishishga yo’naltirilgan yondoshuv, deb izohlangan.

Panov A.N. tadqiqotida sifatni yalpi boshqarish - faoliyatning barcha yo’nalishlarini qamrab oluvchi boshqaruv tamoyilidir, ya’ni, bunda doimo takomillashib borish maqsadida, barcha xodimlar salohiyatidan imkon qadar ko’proq foydalanish evaziga iste’molchi va jamiyatning ehtiyoj va talablari, shuningdek, tashkilotning maqsad va vazifalari eng samarali tarzda qondiriladi, deb ta’rif beradi.

Sifat sohasidagi boshqaruvning yangi kontsepsiyasida rahbarlik uslubiga, xodimlar malakasiga, ularning xatti-harakatlari motivatsiyasiga va yangiliklarga bo’lgan munosabatiga ulkan ahamiyat beriladi. Korxonaning jamiyatdagi ijtimoiy rolining o’sib borishi, tashkilotchilik madaniyati, ya’ni qadriyatlar tizimi, axloq me’yorlari, mo’ljal va maqsadlar ahamiyatini yanada oshiradi. Xodimlar mehnati yanada ijodiy, yanada mas’uliyatli bo’lib qoldi. Inson resurslaridan oqilona, to’liq foydalanish va ularning ehtiyojlarini ko’proq hisobga olish orqali, TQM

kontseptsiyasi tashkilotlar ichida o'z-o'zini rivojlantirish va malakasini oshirish uchun asos yaratdi.

A.V.Glichevning fikricha, TQMning asl mohiyati - korxona faoliyatining barcha qirralarini, binobarin, barcha xodimlarni sifatni yaxshilash g'oyasi bilan qamrab olish vazifasini qo'yilishidadir.

SHunday qilib, yangi kontseptsiyaaning asosiy e'tibori tashqi iste'molchilarning, ya'ni, ayrim iste'molchilar va butun jamiyatning ehtiyojini qondirish va istagini aniqlashga, shuningdek, ichki iste'molchilarning, ya'ni tashkilot jamoasi a'zolarini qondirishga qaratilgan. Ya'ni, sifatning ijtimoiy yo'nalishi birinchi o'ringa chiqadi.

Bundan tashqari, boshqa manfaatdor taraflar: investorlar, aktsiyadorlar, ta'minotchilarga ham katta ahamiyat beriladi.

1987 yilda ISO 9000 sifat standartlarining birinchi tahririni chiqishi muhim voqea bo'ldi. Bu standartlarda, sifat muammolarini yechish uchun, korxonalaridagi barcha faoliyat turlarini bir butun holda rivojlantirish va muvofiqlashtirishga asoslangan tizimli yondoshuvni qo'llash zarurligiga alohida ahamiyat beriladi. Bu hujjatlar ikkinchi jahon urushidan keyingi sifatni rivojlanishida mavjud bo'lgan ikki yo'nalishning natijasidir. Bir tomondan, bu unifikatsiya va standartlashtirishga intilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, sifatni yalpi va har tomonlama boshqarish tamoyillarini ommalashtirilishidir. ISO 9000 standartlaridan tashqari, TQM strategiyasining kompaniya va tashkilotlar o'rtasida keng ommalashishiga sifat sohasidagi milliy mukofotlar ham xizmat qildi. 1987 yilda sifat bo'yicha Malkolm Boldrij nomli Amerika mukofoti (Malcolm Baldrige National Quality Award) ta'sis etildi. 1992 yilda esa ilk bor sifat bo'yicha Yevropa mukofoti (European Quality Award) topshirildi.

Sifatning aniq kontseptsiyalari tadbirlarining ichiga iste'molchilar talablari bilan birgalikda, korxona bilan qiziquvchi investorlar, hamkorlar va boshqa jamiyat a'zolarining talablari ham bosqichma-bosqich kiritiladi. Bu bilan parallel ravishda menejmentning umumiy kontseptsiyasiga alohida yondoshuv asosida integratsiyalashishga jiddiy tartibda qabul qilinadi. Ya'ni menejmentning umumiy

kontseptsiyasini ham sifat menejmenti kontseptsiyalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu bilan bog'liq holda, korxona ma'muriyatining jarayonga mo'ljallangan ta'siri oshdi. Ya'ni umumiy menejment kontseptsiyasining sifat menejmenti bilan birikuvi korxona rahbariyatini mo'ljalini va mas'uliyatini oshirdi.

“Sifatni majmuaviy boshqarish” (TQM) va “Sifatni majmuaviy boshqarish tizimi” (TQMS) tushunchalari sifat menejmentini rivojlantirish fazasini aks ettiradi.

3.4. Standartlarni vujudga kelishi

Yaponiyada sifatni boshqarishga yondoshuvlarning urushdan keyingi faol rivojlanishi bilan bir vaqtda, Yevropa va AQSHda ham standartlarni ishlab chiqish va qo'llashga katta e'tibor qaratilgan. Qo'shma SHtatlarda dastavval mahsulot sifatini texnik va texnologiya jihatdan nazorat qilishning ba'zi asosiy tamoyillari shakllanib, AQAP (Sifatni ta'minlash borasidagi jamlanma materiallar) nashr etilgan edi. Biroz vaqt o'tgach, bu tamoyillar Yevropada “Harbiy standartlar” NATO, AQAP 100 (Allied Quality Assurance Publication ingl. “ittifoqchilarning sifat kafolatlari nashri”) hujjatlari seriyasi ko'rinishida chop etiladi. Dastlab Buyuk Britaniya AQAPni qabul qilmay, unga ekvivalent bo'lgan uchta mudofaa standarti - DEF STAN 05-21 / 05-24 / 05-29 larni afzal ko'rgan. Pirovard natijada AQAP standartlari DEF STAN standartlari bilan birlashtirilgan. Buyuk Britaniya Mudofaa vazirligining haridlar bo'limi ularni DEF STANS hujjatlar seriyasi ko'rinishida nashr etgani tufayli, ular keyinchalik xususiy tashkilotlarda ham keng tarqaladi.

Bu standartlardan AQAP (Sifatni ta'minlash borasidagi jamlanma materiallar) nomi bilan ma'lum bo'lgan NATO doirasida qo'llaniladigan standartlar seriyasiga asos sifatida ham qo'llanilgan.

Sifat standartlariga zarurat nafaqat harbiy sohada, balki sanoatning boshqa tarmoqlari uchun xam zaruratga aylana boshladi. SHu tariqa BS 4891 va BS 5179 Britaniya standartlari vujudga kelib, ular amaliy jihatdan yo'riqnomaga o'xshash

bo'lib, sifatning talablari sifatida qo'llash mumkin bo'lmagan. Keyinchalik uch qismli yanada takomillashtirilgan BS 5750 standarti ishlab chiqilgan.

Yapon mahsulotlarining Yevropa mamlakatlarini egallashi sifatni ta'minlash tizimlaridan foydalanish bilan bog'liq faoliyatni kuchaytirib yubordi. Biroq, har bir mijoz sifat nazorati tizimiga o'zicha yondashgani sababli, umume'tirof etilgan standartlarni ishlab chiqishga zarurat tug'ildi. Buyuk Britaniyada 1979 yilda paydo bo'lgan BS 5750 shunday standart bo'lib hisoblanadi. Aynan shu standart keyinchalik ISO 9000 seriyali standartlarni yaratish uchun asos bo'ldi.

SHunday qilib, bu davrda sifatni yaxshilash va ishlab chiqarish unumdorligining o'sishi o'rtasidagi avvalgi ziddiyat hal etildi. CHunki boshqaruvning yangicha g'oyalarini qo'llanishi bir vaqtning o'zida sifatni oshirish va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish uchun imkon berdi.

3.5. Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimi

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Deming, Djuran va Isikava g'oyalarini bosqichma-bosqich amalga oshirish bilan tabiiy resurslarga eng kambag'al bo'lgan, ikkinchi jahon urushidan qiyinchilik bilan chiqqan Yaponiya dunyoning eng boy mamlakatlaridan biriga aylandi.

Agarda sifatni ta'minlash modeli metodologik nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, ular tadqiqotlarini ierarxik sxema shaklida namoyon qilish mumkin (3.5.1-rasm).

TQM tarkibiga: sifatni ta'minlash, sifatni umumiy nazorati (sifatni boshqarish), sifat siyosati, sifatni rejalashtirish va sifatni oshirish elementlarini oladi.


Sifat tizimi: sifatni rejalashtirish, boshqarish, ta'minlash va yaxshilashdan iborat.

Sifatni rejalashtirish sifatga qo'yiladigan maqsad va talablarni aniqlash hamda sifat tizimi elementlariga qo'llash faoliyati hisoblanadi.

Sifatni ta'minlash – sifat tizimi doirasidagi barcha rejalashtirilgan va tizimli amalga oshirilayotgan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bularga ob'ekt (mahsulot,

jarayon yoki xizmat) iste'molchi talabini qondirishiga yetarlicha ishonchni tasdiqlash va hosil qilish zaruriyatidan kelib chiqadigan faoliyat turlari kiradi.

Sifatni yaxshilash – bu samaradorlik va natijaviylikni oshirish maqsadida tashkilotlarda amalga oshirilayotgan tadbirlarni va tashkilot hamda iste'molchi foydasi uchun qilinayotgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.



3.5.1-rasm. Sifatni ta'minlash modellarini tadqiq etishning ierarxik sxemasi⁶

O'tgan asrning 70 yillarining oxiri va 80 yillarning boshlarida umum sifat nazoratidan umum sifat menejmenti (TQM) ga o'tila boshlangan. Bu ISO 9000 (1987 yil) standartining paydo bo'lishi bilan boshlangan. Bu hujjat uning metodologik asosini belgilaydi.


⁶ *Manba: <http://studme.org/65664/menedzment/modeli>

Agar TQC – bu oʻrnatilgan talablarni bajarish maqsadida sifatni boshqarish va nazorat qilishni talab qilgan boʻlsa, TQM – bu yana maqsadlar va talablarni boshqarishni ham oʻz ichiga oladi.

Standartlarning yangi versiyasini yaratuvchilar standartga global bozor va sifatni umumboshqarish (Total Quality Management-TQM) kontsepsiyasi talablariga javob beruvchi zamonaviy falsafani va sifat tizimini zamonaviy tushunishni kiritishga harakat qilishdi.

Sifat boʻyicha mutaxassislarning fikricha, sifat tizimi standartlari korxonalarni umumiy boshqarish tizimining organik qismi hisoblanar ekan, shunga muvofiq TQMni korxonalarni zamonaviy boshqarish tizimining organik qismi sifatida qarash lozim.

(Total Quality Management - TQM) Tashkilot rahbariyatining sifatni yaxshilashga qaratilgan faoliyati.



3.5.2-rasm. Sifat menejmenti jarayoni modeli

Kirish ma'lumotlarini oluvchi va ularni chiqishda o'zgartiruvchi har qanday faoliyatni jarayon sifatida ko'rish mumkin. Shunday ekan, har bir tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ko'p sonli o'zaro aloqador, jarayonlarni aniqlash va ularni boshqarish zarur. Samarali boshqarish uchun tashkilotlar o'zlarining bir nechta bo'lishi mumkin bo'lgan kirishlarini va chiqishlarini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ko'pincha bitta jarayonning chiqishi bevosita navbatdagi jarayonning kirishini namoyon etadi. Kengaytirilgan tashkilotlarni, tizimli identifikatsiyalash va jarayonlarni boshqarishni va shunday jarayonlar orasidagi o'zaro xatti-harakatlarni "jarayonga yondashuv sifatida" hisoblash mumkin.

Model kirish ma'lumotlarini aniqlashda iste'molchilar muhim ahamiyat kasb etishlarini belgilab beradi. Tashkilotlar boshqa jarayonlar bilan o'zaro xatti-harakatga kirishda bir vaqtning o'zida moddiy va axborot mahsulotlarini yetkazib beruvchilar va iste'molchilar hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan SMT modeli bir tomondan kirish ma'lumotlarini aniqlashda iste'molchilar sezilarli darajada muhim rol o'ynashlarini ko'rsatishadi. Boshqa tomondan iste'molchilarning qoniqqanligini monitoringi ular talablarining bajarilishini qabul qilish to'g'risidagi axborotlarni baholashni talab etadi.

Umumsifat menejmenti (Total Quality Management - TQM) - Tashkilot rahbariyatining sifatni yaxshilashga qaratilgan faoliyati (ISO 8402:1994)

"Umum sifatni boshqarish" kontseptsiyasini joriy etishdagi asosiy muammolar asosan personalni boshqarish sohasida ro'y beradi. Sifatni takomillashtirish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan har bir tashkilot kamida quyidagi to'rta to'siqqa uchraydi:

1. Personalning yangiliklarga qarshilik qilishiga;
2. Turli darajadagi menejrlarning mahsulot sifati bilan tashkilot faoliyati samaradorligi orasidagi o'zaro bog'liqlarni tushunishlaridagi cheklanishlar.
3. Sifatni takomillashtirishga yondashuvning bir martalik chora-tadbir yoki navbatdagi yangi turdagi kompaniya sifatida qaralishi.

4. Sifatni takomillashtirishga boshqarish sifatida emas balki statistik chora-tadbir sifatida qarash.

Sifatni oshirish jarayonini joriy etish aksariyat hollarda korporativ madaniyatni tubdan o'zgartirishni talab etadi. Bunda asosiy e'tiborni o'rta bo'g'in menejerlariga, ularning malakalariga va TQM kontseptsiyasini qo'llab-quvvatlashlariga qaratish kerak.

Aynan ushbu boshqaruv bo'g'ini xodimlariga oddiy xodimlarni mahsulot sifatini oshirishga jalb etishda, ular tafakkurida ushbu tizimning zarurligini shakllantirishda va mahsulot ishlab chiqarish jarayonini har tomonlama takomillashtirish, nazorat etish, bo'g'inlar orasida teskari aloqalar va xarajatlar samaradorligi bog'liq bo'ladi.

Total Quality management (TQM) tamoyillari xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ning sifat menejmenti talablariga mos keladi.

Sifatning aniq kontseptsiyalari tadbirlarining ichiga iste'molchilar talablari bilan birgalikda, korxona bilan qiziquvchi investorlar, hamkorlar va boshqa jamiyat a'zolarining talablari ham bosqichma-bosqich kiritiladi. Bu bilan parallel ravishda menejmentning umumiy kontseptsiyasiga alohida yondoshuv asosida integratsiyalashishga jiddiy tartibda qabul qilinadi. Ya'ni menejmentning umumiy kontseptsiyasini ham sifat menejmenti kontseptsiyalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu bilan bog'liq holda, korxona ma'muriyatining jarayonga mo'ljallangan ta'siri oshadi. Ya'ni umumiy menejment kontseptsiyasining sifat menejmenti bilan birlashuvi korxona rahbariyatini mo'ljalini va mas'uliyatini oshiradi.

Majmuaviy sifat (total quality TQ) – menejment tizimida insonlarga mo'ljallangan bo'lib, uning maqsadi – mahsulot va xizmat qiymatining doimiy ravishda pasaytirib borish natijasida iste'molchilar ehtiyojini qondirishni uzluksiz oshirib borishdir. TQ umumiy tizimli yondoshuv bo'lib, u yuqori darajadagi strategiyalarning ajralmas qismidir. TQ o'ziga barcha yuqori va quyi hamkorlarni, yetkazib beruvchilar va iste'molchilar tarmog'ini to'liqligicha egallagan holda, barcha bo'limlar funktsiyalarini qo'llab-quvvatlaydi. TQ tashkilot muvaffaqiyatiga

uzluksiz o'zgarishlarga moslashish va ularni o'rganish markazida turadi. Uning falsafiy asosida ilmiy metodlar turadi. TQ o'zida tizimlar, usullar va instrumentlarni jamlagan. TQ tizimi doimiy o'zgarishda bo'lgani bilan uning falsafasi o'zgarmaydi. TQ ning afzalligi individual harakatlar bilan birgalikda jamoa kuchiga tayanadi.

TQM – bu boshqaruvning umumiy filosofiyasi, jami boshqaruv richaglari va uni amalga oshirish uslublaridir. TQM ning tarixan shakllanib borishi va uni korxonada miqdoriy baholashni vujudga kelishi natijasida Yevropada (European Foundation for Quality Management (EFQM)) Yevropa sifat menejmenti fondini vujudga kelishiga olib keldi. SHu bilan birga «Business Excellence» (“Biznesning afzalligi”) kabi ish faoliyatini takomillashtirish modellari paydo bo'ldi. Ular bugungi kunda korxonalar faoliyatiga TQM ning printsiplari, metodlari va erishilgan natijalarini tatbiq etishning tan olingan modellaridan biridir.

TQM – yaponiyada sifat menejmenti mexanizmining markaziy g'oyalaridan biridir. Hammadan avval bunday tizim, mahsulot sifatini milliy taqqoslashlardan qochadi va mahsulotning sifat tavsiflarini pasaytirish natijasida ishlab chiqarish hajmini o'sishini rad etadi.

Mantiqiy nuqtai nazardan TQM bir-birini inkor etuvchi namoyon bo'lganda sifat va samaradorlikni taqqoslashdan qochadi. Ya'ni u ham mahsulot sifatini ham samaradorligini ko'zlaydi. Agar mahsulot samaradorligiga sifatni pasaytirish natijasida erishilsa uni inkor etadi. Bu korxoning haqiqiy strategiyasini va kelajakka bo'lgan ishonchini yanada oshiradi. SHu sababli ham g'arb mamlakatlari firmalari yo yuqori sifatni yoki minimal bozor narxlarini tanlab o'zaro raqobatga kirishadi. Ya'ni raqobat kurashida sifat va narx bo'yicha alohida mahsulotlar yoki firmalar bozorda raqobatlashadi.

TQM ning asosiy kontseptsiyasi – bu korxonalarga sifat javobgarligini to'liq qayta taqsimlashdir.

An'anaviy sifat javobgarligini taqsimlashda sifatni nazorat qiluvchi bo'limlar mahsulot sifatiga javob bergan, ishlab chiqarish tizimi esa mahsulot hajmiga javob

bergan va h.k. Ushbu usul bugungi kunda eskirib qoldi, uni amal qilishi ishlab chiqarish va sifat tizimi o'rtasidagi yirik farqni vujudga keltiradi.

TQM esa mahsulot sifatiga chiziqli yondoshadi. Ya'ni unga oddiy ishchidan korxona rahbarigacha bo'lgan bo'g'in javob beradi. Bunda ishchi konveyrda mahsulot ishlab chiqish jarayonini nazorat qiladi. Agar deffekt yoki brakni sezib qolsa, konveyrni darhol to'xtatadi va bu holatni bartaraf etadi hamda bunga aybdor hodimni familiyasi korxona ishchilariga ko'rinadigan joyga, oshxonaga yoki tsexga ilib qo'yiladi. TQM da bunday psixologik yondoshuvning o'rni yetarli darajada yuqoridir. Bu holat AQSH da tashkil etilganidan so'ng ishlab chiqarish hajmi 15 foizdan 30 foizgacha ko'tarilgan. Ya'ni brak yoki deffekt vujudga kelganda uni bartaraf etish bilan bog'liq vaqt sarfining kamayishi to'g'ridan-to'g'ri mehnat unumdorligiga ta'sir qilgan.

3.6. Mahsulot sifatini boshqarishning “DJIT” tizimi

Mahsulot sifatini boshqarishning “DJIT” tizimi tashkillashning yangi shakli “just in time” bo'lib, u “muddatida ishlab chiqarish” ma'nosini anglatadi. Uning fundamental ma'nosi: “nolъ zapas, nolъ rad etish va nolъ deffekt”.

DJIT ni kengroq tushunilsa, u o'zida ishlab chiqarishning har bir uchastkasiga o'z vaqtida, ular u yerda zarur bo'lganda kerakli detallarni yetkazib berish hisobiga material zaxiralarini kamaytirish texnologiyasini aks ettiradi. Bu texnologiya “o'z vaqtida” deb ham nomlanadi. Bu yerda ortiqcha donishmandlik yo'q. Oddiy aytganda – bu ombordagi buyumlarni bo'shatish va hamkorlar hamda mol yetkazib beruvchilar tomonidan ideal ta'minotni amalga oshirish uchun kurash hisoblanadi.

Masalan Toyota firmasida xomashyo va materiallar zaxirasi uzog'i yarim kun avval yoki 2-3 soat oldin omborga yetib keladi. Amerika avtomobilъ sanoatida esa ushbu ko'rsatkich bir oy yoki 35-40 kunni tashkil etadi.

Ammo DJIT tizimiga o'tish oson ish emas. Bu tizim an'anaviy ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini to'rtta qismiga:

- material-texnik ta'minotni boshqarishga;
- ishlab chiqarish markazini strukturasi;

- “etkazuvchi-iste'molchi” munosabatlariga;
- “boshqaruv-bevosita ishlab chiqarish” munosabatlariga alohida kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Oxir oqibatda DJIT tizimi ishlab chiqarishning har bir bosqichida, ya'ni mahsulotni loyihalashdan boshlab, iste'molchiga kafolatli xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan davrda integratsiya va avtomatlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Buning harakterli tomonlari quyidagilardan iborat:

- Ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtirish
- Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish
- Sifat nazoratini EHMdan foydalangan holda tashkil etish.

DJIT bo'yicha mutaxassislar yuqorida keltirilgan talablarini to'liq bajarilmaganligi uchun uni ishlab chiqarishga tadbiq etmaydilar. Chunki bu tizimni tashkil etishdan olinadigan samaradorlik aniq bo'lishi lozim.

Ombordagi zahiralari ustidan nazorat DJIT ishlab chiqarish usulining eng muhim nuqtalaridan biridir. Yirik seriyali ishlab chiqarish bilan mayda seriyali ishlab chiqarishni almashtirish orqali, qisqartirish va ishlab chiqarishni to'xtatib turadigan har qanday zaxiralarni tugatish bu uslubni tadbiq etishning birinchi qadami bo'lib hisoblanadi. Keyingi muhim qadam – omborda saqlanayotgan detallarni doimiy tartibda kamaytirib borish, yashirin muammolarni aniqlanishi va ombordagi ishlab chiqarish zahiralarni minimallashtirishga kirishish.

Buni qanday amalga oshirish lozim? Bu menejerning qaroriga bog'liq. Bu holda u stanoklarni sozlashga sarflanadigan vaqtdan yo'qotishlarni qisqartirish, stanoklarni ishlashini tezlashtirish yoki jihozlarni o'zgartirishi lozim.

DJIT tizimi kichik seriyali ishlab chiqarishni kuniga mahsulot assortimentini o'zgartirish natijasida rivojlanishiga imkon yaratadi.

DJIT tizimining afzalligi ayniqsa kichik biznes korxonalarida ko'rinadi. Agar bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish tizimini o'zgartirish zarur bo'lsa, uni kam harajatlar bilan amalga oshirish mumkin.

Mahsulot sifatini boshqarishda KSUKP tizimi. Mazkur tizim Sobiq ittifiqda o'tgan asrning 70 yillarida ishlab chiqilgan bo'lib uning asosida standartlashtirish

yotgan. Unga ko'ra ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga davlat standartlari belgilangan va uni kompleks boshqarishga intilgan.

KSUKP tizimini total quoliti menejmentdan farqi uni KSUKP davlat miqyosida belgilangan standartlarga asosan olib borilgan. Unda har bir mahsulotga belgalangan standart uni minimal va maksimal sifat chegaralarini birlashtirib yuborgan. TQMda esa mahsulot sifatiga minimal standart davlat tomonidan ishlab chiqilgani bilan, uni korxona miqyosida boshqarish imkoniyati mavjud bo'lgan. Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda standartlar mahsulotni insonlar hayotiga va ekologiyaga bezarar bo'lsa, ishlab chiqarishga ruxsat beriladi. Ularni sifatini esa iste'molchilar va raqobat hal etadi.

KSUKP tizimida mahsulotning sifati markazlashtirilgan holda boshqariladi va uni o'zgartirish faqatgina davlat aralashuvi bilangina amalga oshiriladi.

IV BOB. SIFATNI BOSHQARISHNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH

Ushbu bobni o'qiganda quyidagi savollarga javob topishga xarakat qiling:

- *Sifatni boshqarish tizimi va ISO 9000 seriyali xalqaro standartlari to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *ISO 9000 seriyali standartlarning tarkibiy tuzilishi qaysi standartlardan tashkil topgan?*
- *Sifatni tizimli boshqarishning tamoyilini tushuntirib bering?*
- *ISO 9000 seriya standartlari mohiyatini asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?*
- *ISO 9000 seriyali standartlarni joriy etilishining asosiy sabablarini ko'rsatib bering?*
- *ISO 9000 seriyali standartlarni joriy etish orqali korxonalar nimaga erishadi?*
- *SMTni joriy etish va sertifikatlashga ketadigan harajatlarga nimalar kiradi?*

4.1.Sifatni boshqarish tizimi va ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar

Sifat menejmenti tizimlarining shakllanishi va rivojlanishi – XX asrda sifatni boshqarish bilan bog'liq g'oyalarni rivojlanishining eng muhim nuqtasiga aylandi. E.Deming “Korxonalar boshqaruvining amaliy tajribasini nazariya yordamida o'rganib chiqmagunga qadar, ularni tushunmasdan takrorlash, befoyda bo'ladi va bu muvaffaqiyatga olib kelmaydi”⁷ deb ta'kidlagan edi.

ISO 9000 seriya standartlarining 1994 yilgi tahririda sifat menejmenti tizimiga, “sifatni yalpi boshqarish uchun zarur bo'lgan tashkiliy tuzilma, usul, jarayon va resurslar yig'indisi” deb ta'rif berilgan. Yangi ISO 9000:2000 standartida sifat menejmenti tizimi “tashkilotga rahbarlik qilish va uni boshqarish uchun zarur bo'lgan sifatni boshqarish tizimi” deb ta'riflanadi.

⁷ Эдвардс Деминг и философия управления качеством. <http://quality.eup.ru/MATERIALY/guru.htm>

A.V. Glichev mahsulot sifatini boshqarish tizimi, bu “kuch va mablag”larni minimal darajada sarflash orqali, iste’molchining ma’lum ehtiyoj va talablari qondirilishini ta’minlovchi xususiyatlarni mahsulotga tadbiq etish maqsadida, mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, undan foydalanish va servis xizmatini ko’rsatishda ishtirok etgan boshqaruv va ijro bo’limlari hamda ayrim shaxslarning o’zaro samarali faoliyatini tashkillashtirish usulidir” deb ta’kidlaydi. Albatta, xorijiy adabiyotlarda sifat tizimlariga berilgan ta’riflar shu fikrlar bilan cheklanib qolmagan.

Sifat menejmenti aniq tamoyil va kontseptsionalarga, ularni xayotga tadbiq etishning amaliy modellariga tayanadi. Eng ko’p tarqalgan sifat menejmenti modeli 9000 seriyasidagi ISO xalqaro standartlar modeli hisoblanadi.

Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO- International Organization for Standardization) – butun dunyo bo’yicha Xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi va qayta ishlovchi tashkilotdir. Standartlashtirish sohasidagi ishlar xalqaro markaz kerakligini taqozo qildi. SHu maqsadda 1926 yili standartlashtirish milliy tashkilotlarining Xalqaro Assotsiatsiyasi (ISA) paydo bo’lib uning tarkibiga 20 mamlakat vakillari kirgan. Lekin ISA ning faoliyati 1939 yili ikkinchi jahon urushi taʼsirida to’xtatilgan.

1946-47 yillari Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tashkil topdi va u qisqacha ISO deb yuritila boshlandi. Bugungi kunda ushbu tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko’rsatmoqda.

Bu tashkilot boshqaruv organi SHvetsariyaning Jeneva shahrida joylashgan bo’lib, o’z faoliyatini 1948-yili boshlagan. Hozirgi kunda 170 ga yaqin davlat milliy standartlashtirish institutlarini o’zida birlashtirgan. U xalqaro standartlarni, shu jumladan, 9000-turkumidagi standartlarni ham ishlab chiqish bilan shug’ullanadi.

To’qqiz ming – ushbu standartga berilgan tartib raqamidir. Standartlar turkumi deb atalishiga sabab, ISO 9000 standartidan tashqari, ISO 9000 “Sifat menejmenti” oilasiga kiruvchi yana ISO 9001, ISO 9004, ISO 9000:2000; ISO 9000:2008; ISO 9000:2015 standartlari ham mavjud.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, dastlab sifatni boshqarish usullarini qo'llash sanoatda keng tarqaldi. Lekin hozirgi vaqtda ISO 9000 xalqaro standartlar seriyasiga muvofiq sifatni boshqarish falsafasi va uni ta'minlash me'yorlari xizmatlar ko'rsatish sohasida – sog'liqni saqlash, turizm, ta'lim va h..k.larda qo'llanilmoqda.

ISO (ISO) ning tashkil etishdan asosiy maqsad - xalqaro miqyosdagi tovar almashinuvida va o'zaro yordamni yengillashtirish uchun dunyo ko'lamida standartlashtirishni rivojlantirishga ko'maklashish hamda aqliy, ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy faoliyatlar sohasida hamdo'stlikni rivojlantirishdan iborat.

ISO 9000 seriyasining birinchi standartlari 1987 yilda nashr ettirilib shundan buyon bir necha marotaba qayta ko'rib chiqildi. Dastavval ular ishlab chiqarishda (o'z-o'zini baholash yoki birinchi tomondan) birinchi navbatda “ichki qo'llashda” rahbarlik sifatida, sifat tizimini yaratish va mustahkamlash uchun kiritildi. SHuningdek, ularning shartnoma xujjatlari sifatida qo'llanilishi, ya'ni buyurtmachi mahsulot yoki xizmatning sifati borasida bir muncha ishonchga ega bo'lishi e'tiborga olindi (ikkinchi tomonni baholash).

Hozirgi kunga qadar 17000 dan ortiq turli xalqaro standartlar ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi nomidan ISO vakili – O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi hisoblanadi. ISO 9000 standartlarining shakllanishi, sifatni boshqarish jarayonlari rivojlanishining mantiqiy natijasi bo'ldi.

ISO 9000 seriya standartlari qabul qilingach, sifatni kompleks boshqarishning ma'lum darajasi belgilab berildi. U sifatni samarali boshqarishni ta'minlab, ISO 9000 seriyali standartlarining barcha zarur elementlari, hamda korxona ixtisoslashuvi uchun qo'shimcha talab etilgan elementlarni ham, uning ish amaliyotiga joriy etilishi kerakligini shart qilib qo'yadi va bu bilan buyurtmachiga sifat kafolatini beradi.

Ushbu standart muvaffaqiyatli biznes yuritishning xalqaro e'tirof etilgan usullarining qisqacha tasnifidir. U muvofiqlik sertifikatini olish uchun bajarilishi zarur bo'lgan minimal talablar shaklida bayon etilgan⁸.

ISO standartlari turkumining universalligi shundaki, ularda mahsulot va xizmatlarning har bir turiga bo'lgan mutlaq o'lchovli me'zonlar qo'yilmaydi (masalan, mahsulotning texnikaviy ko'rsatkichlari talabi). ISO 9000 standartlari turkumi faqat sifat tizimining ishlash metodologiyasini aniqlab beradi, tizim esa o'z navbatida korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatini, boshqacha qilib aytganda – iste'molchilarning talabini yuqori darajada qandirilishini ta'minlaydi.

4.2. ISO 9000 seriyali standartlarning tarkibiy tuzilishi

ISO 9000 standarti, 9000 seriyali ISO standartlaridan qaysi birini tanlash va qanday qilib qo'llash bo'yicha yo'riqnomani o'z ichiga oladi. ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlari ("sifatni ta'minlash modellari" deb ham ataladi) mahsulot hayotiy tsiklining turli bosqichlari uchun mo'ljallangan, sifat tizimiga qo'yilgan me'yoriy talablardan iborat bo'lib, mahsulot ishlab chiqaruvchining sifat tizimini baholashning, shu jumladan, bu tizimni sertifikatlashning me'yoriy bazasi xisoblanadi:

- ISO 9001. To'liq ishlab chiqarish jarayonining sifat tizimi – yangi turdagi mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va sotishdan tortib, tayyor mahsulotga texnik xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi;

- ISO 9002. Loyihalashtirishni o'z ichiga olmagan ishlab chiqarish jarayoni uchun, ya'ni, an'anaviy mahsulotni chiqarish uchun mo'ljallangan sifat tizimi;

- ISO 9003. Faqat tayyor mahsulot nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlarga (ishlab chiqarish jarayoni bunga kirmaydi) mo'ljallangan sifat tizimi, masalan: savdo tashkilotlari va vakolatxonalari;

⁸ ИСО 9001 Разработка, внедрение, сертификация, улучшение системы менеджмента качества. Практическое руководство для специалистов по качеству. С-Петербург. ООО "Издательство Форум Медиа", август 2006 г., 1.3-банд.

ISO 9001 modeli eng umumiy bo'lib, boshqa ikki sifat modellarining ham talablarini o'z ichiga olgan. ISO 9004 standarti sifat tizimiga bo'lgan talablarni izohlovchi yo'riqnomalardan iborat bo'lib, korxonada sifat tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun mo'ljallangan.

SHuni ta'kidlash joizki, 9000 seriyali ISO standartlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilib yangilab borish talab etiladi. Birinchi marta ular 1994 yil iyul oyida qayta ko'rib chiqilgan. Standartlarga kiritilgan o'zgartirishlar 1987 yil standartlari tuzilishiga nisbatan asosiy yondoshuvlarga zid bo'lmagan va sifat tizimlari bo'yicha ilk standartlarni qo'llash borasidagi amaliy tajribani, hamda sifatni boshqarish sohasidagi taraqqiyotni aks ettirgan. Yanada kengaytirilgan 9004 (1,2,3,4) standartlarida esa, dasturiy mahsulotlar, ishlov beriladigan material va xizmatlarning sifatini ta'minlash masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

ISO 9000 seriyali standartlarining yangi tahriri 2000 yil 15 dekabrda rasman nashr etildi. Standartlar 4 ta asosiy to'plamdan iborat:

1. ISO 9000:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Asosiy qoidalar va lug'at” – sifat menejmenti tizimlarining asosiy qoidalari va SMT atamalarini izohlaydi.

2. ISO 9001:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Talablar” – sifat tizimlari uchun minimal zarur bo'lgan talablar majmuini joriy qilib, sertifikatlash va audit maqsadlarida qo'llaniladi.

3. ISO 9004:2000 “Sifat menejmenti tizimlari. Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar” - korxonalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan sifat menejmenti tizimlarini yaratish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalardan iborat.

4. ISO 19011 “Sifat menejmenti tizimini tekshirish va atrof-muhitni himoyalash bo'yicha yo'riqnomalar”.

Standartlarning avvalgilaridan farqi shundaki, endi SMTning talablari korxonalarning turi bo'yicha ajratilmaydi, avvalgi tahrirlardagi ISO 9001, 9002, 9003 standartlari yagona ISO 9001:2000 miqyosida jamlangan.

Standartlarning yangi tahriri sifatni tizimli boshqarishning TQM g'oyalariga yaqin bo'lgan 8 ta tamoyilga (Standartning avvalgi tahririni qo'llaganda, tizimda

shu standartda nazarda tutilgan 20 ta element mavjudligini tekshirish zarur bo'lgan) asoslangan⁹. Ularni har birini qisqacha ko'rib chiqamiz:

Birinchi tamoyil: Iste'molchiga e'tiborni qaratish. Kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlashi avvalo uning buyurtmachilariga bog'liqdir. SHu boisdan har qanday tadbirkorlik faoliyati bozorni tahlil qilish va mijozlarning ehtiyojini o'rganishdan boshlanishi kerak, ana shular asosida mahsulot loyihalashtiriladi va ishlab chiqarishga joriy qilinadi. SHu bilan birga, ideal variant - nafaqat buyurtmachilarning rasmiy talablarini bajarish, balki ularning istaklarini oldindan ko'ra bilishdir.

Iste'molchilarning talablari va tashkilot faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa tomonlar (aktsiyadorlar, ta'minotchilar, davlat organlari, butun jamiyat)ning ehtiyojlariga ham baravar yondoshuvni ta'minlash zarur.

Ikkinchi tamoyil: Yetakchilik. Bu tamoyilni shartli ravishda ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin. Bir tomondan, u bevosita tashkilot rahbarlariga qaratiladi, chunki ular kompaniyalarda sifatni yaxshilashga qaratilgan o'zgarishlarni amalga oshirishda juda muhim rol o'ynaydilar.

Uchinchi tamoyil: Xodimlarni jalb qilish tamoyili; amalda har bir xodimning boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muntazam ishtirok etishini bildiradi. Bunday imkoniyat kishilarda ijodiy mehnatga undaydigan mas'uliyat va ishtirokchilik hissini uyg'otadi, bu esa pirovard-natijada tashkilot samaradorligini oshiradi.

To'rtinchi tamoyil: Jarayonli yondoshuv. 2000 yil tahriridagi ISO 9000 standartlarining jami turkumlari uchun yangi muhim uslubiy o'zgarishlarning mohiyati shundan iboratki, har qanday ishlab chiqarish faoliyati bir jarayondir va bu jarayon turli resurslardan foydalanish va boshqaruv ta'siri orqali, kirish oqimlarini, chiqish oqimlariga aylantiradi. Korxona ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlashi va o'z mahsulotini yaratib, takomillashtirib, uning doimiy sifatini ta'minlab, bu jarayonlarni boshqarishi kerak.

⁹ Басовский Л. Е., Протасьев В. Б. Управление качеством: Учебник. – М.: ИНФРА – М, 2001. –212 с.

O'zbekiston korxonalarida jarayonli yondashuvning qo'llanishi qator qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Bu sabablarning birinchisi – amaldagi boshqaruvning to'g'ri-funksional tashkiliy tuzilmalarning jarayonli yondashuvga mos kelmasligi, avval aytilganidek, faoliyat differentsiyalashgan, yakuniy natijaga qaratilmagan. Ikkinchi sabab – yangi sharoitlarda ishlashga moslashtirilgan rahbariyat tarkibining to'la shakllanmaganligi.

Beshinchi tamoyil: Menejmentga tizimli yondoshuv. Bu tamoyil, tashkilotga o'zaro bog'liq jarayonlar yig'indisi sifatida qarashni talab etuvchi oldingi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Sifat masalalarining yalpi xususiyatini inobatga olib, qo'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan jarayonlarni aniqlash, tushunish va boshqarish korxonaning samaradorligini oshiradi.

Oltinchi tamoyil: Doimiy takomillashuv tashkilotning asosiy maqsadi bo'lib qolishi kerak. Hozirgi sharoitda, bu tamoyilni amalga oshirmasdan, biznesda yetakchi o'rinlarga chiqish mumkin emas. Faoliyat muntazam takomillashib borsa, nafaqat raqobatdosh mavqe saqlab qolinadi, balki sekin-asta zararlarni kamaytirish va shunga mutanosib ravishda, daromadni ko'paytirish imkoni paydo bo'la boshlaydi.

Ettinchi tamoyil: Dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilish. Haqiqiy ma'lumotlar va axborotga asoslanib qabul qilingan qarorlar samarali bo'ladi.

Sakkizinchi tamoyil: Ta'minotchilar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar. Ta'minotchilar o'rtasida o'zaro manfaatli asosda yo'lga qo'yilgan munosabatlar har ikki tashkilotning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

ISO 9000 seriya standartlari mohiyatini ko'rsatuvchi uchta asosiy hususiyat mavjud:

- kompaniya faoliyatining tayyor mahsulot sifatini ta'minlovchi asosiy yo'nalishlariga e'tibor berish;
- faoliyatni tashkil etishga jiddiy yondoshish;
- mahsulot hayotining barcha bosqichlarini qamrab olish.

Birinchi xususiyat sifat menejmentining yuqorida ko'rib chiqilgan sakkizta asosiy tamoyilida ifodalangan.

Ikkinchi xususiyat quyidagicha namoyon bo'ladi: standartlarda "klassik" olimlarning, mahsulotning sifati ishlarning muayyan ijrochilariga emas, balki ishlab chiqarishning umumiy tashkil etilishiga bog'liqligi to'g'risidagi fikrlari amalga oshgan. E.Deming taxminicha, sifat uchun kurashdagi muvaffaqiyatning 94% boshqaruvchilarga va faqatgina 6 % - ishchilarga bog'liq ekan. J.Juran o'zining mashhur 14 tamoyilida, mahsulot sifatidagi kamchiliklarning faqat 15% aynan ish jarayoniga bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Sifat nuqsonlarining qolgan 85% esa - ma'muriyat tomonidan ishlarning yomon tashkil etilishidan hosil bo'ladi deb ta'kidlagan.¹⁰

Uchinchi xususiya, ISO 9000 seriya standartlari negizidagi SMT, mahsulot hayotining bozor ehtiyojlarini aniqlashdan boshlab, to belgilangan talablarni to'liq qondirishgacha bo'lgan barcha bosqichlari hamda jarayonlariga ta'sir etadi. Bu mahsulotning oliy sifati va harajatlarning kamayishi garovidir. ISO 9000 standartlarining dastlabki tahrirlariga qiyoslaganda, mahsulot hayotining o'ziga xos bosqichlari (ilk nomi - "sifat halqasi") 2000 yil tahririda to'ldirildi, aniqlashtirildi va kengaytirildi.

ISO 9000 seriya standartlar jahon iqtisodiyotida hamda bozor munosabatlarini joriy etish yo'nalishida rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim rol o'ynaydi. Ular ishbilarmonlar hamjamiyati uchun sifatning xalqaro umumqabul qilingan tilini shakllantiradi. Ya'ni, ISO 9000 standartlarining jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni va falsafasi, mamlakatlar o'rtasida mahsulot va xizmatlar ayirboshlashni osonlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam berishni asosiy maqsad qilib olgan istalgan xalqaro standartlar falsafasiga mos keladi. ISO 9000 seriya standartlar muayyan mahsulotlar uchun belgilangan me'yoriy talablarning o'rnini bosa oladigan vosita sifatida, savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etishga yordam beradi.

ISO 9000 xalqaro standartlarida ko'pgina mamlakatlarning sifatni boshqarish borasidagi tajribasi to'planib, umumlashtirilgan. Bu hujjatlarning aniq va ravshanligi mazkur tajribani xalqaro miqyosda keng yoyilishiga olib keldi.

¹⁰ Герасимова Г.Э. 14 постулатов Э.Деминга // Стандарты и качество. 1999 №1 с. 20.

4.3. ISO 9000 seriyali standartlarni joriy etilishining asosiy sabablari

ISO 9000 seriyali standartlar bo'yicha sifat menejmenti tizimi (SMT)ni sertifikatlashning asosiy sabablaridan biri – “iste'molchilarning talabi” edi va u shunday bo'lib qoladi. Bu omil ko'p jihatdan sanoat bozoriga taaluqlidir, chunki ISO 9000 sertifikati ta'minotchi hamkorni izlash va keyinchalik u bilan munosabat o'rnatish bilan bog'liq harajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Iste'molchilar bozorida bunday omilning ta'siri uncha sezilarli emas, chunki jismoniy shaxs bo'lmish mijozlarni SMT uchun sertifikatning mavjudligi emas, balki mahsulotning iste'mol xususiyatlari ko'proq qiziqtiradi. Talablar ko'pincha, o'z ta'minotchilariga SMT uchun ISO 9000 sertifikatiga ega bo'lishni shart qilib qo'ygan transmilliy kompaniyalardan chiqadi. Ta'kidlash lozimki, Yevropa va Amerikadagi ba'zi transmilliy kompaniyalar hozirgi vaqtda o'z ta'minotchi hamkorlariga, SMTni mustaqil organ tomonidan majburiy sertifikatlamay, faqat ISO 9000 talablariga muvofiqlashishni taklif qilmoqda¹¹.

Bu omilning qanchalik muhimligini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. M.Boldrij nomidagi mukofotni qo'lga kiritgan jahondagi eng yirik kompaniyalardan biri “Motorola” butun dunyodagi zavodlarida sifat tizimlarini mijozlar talablariga muvofiq sertifikatlayapti.

Xalqaro tanlovlar o'tkazishda hamda davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlarni sotib olishda o'tkaziladigan tenderning kvalifikatsion shartlaridan biri bo'lib, nomzodlarda sertifikatlangan SMT mavjudligi hisoblanadi. Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning hukumat organlari o'z ta'minotchi hamkorlariga ISO 9000 bo'yicha sertifikatlanish talabini qo'yadi. Bunday vaziyat shu bilan bog'liqki, davlat tuzilmalari, birinchidan, sifatli mahsulot va xizmatlar yetkazib berilishidan manfaatdor, ikkinchidan, mahalliy kompaniyalarni o'z raqobatbardoshligini ISO 9000 yordamida oshirishga yo'naltirishi kerak.

ISO 9000 standartlarining asosiy jihati shundaki, SMT joriy etilganda kompaniyaning biznes-jarayonlari barqarorligi, ishonchliligi ortadi. ISO 9000

¹¹ Poksinska B. The state of ISO 9000 certification: a study of Swedish organizations // The TQM Magazine Vol. 14. №5. 2002. pp. 297-306.

standartlari talablariga rioya qilish natijasida, rahbarning aniq yo'riqnomalari, tadbirlar va mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash hisobiga kompaniyalar o'z bo'limlarining o'zaro aloqadagi faoliyatini yaxshilay oladi.

SMTni tatbiq etish, barcha bosqich xodimlarini mahsulotning ichki unumdorligi va sifatini yaxshilash jarayoniga jalb qilishni nazarda tutadi, bu esa xodimlarning kompaniyaga sodiqligida ijobiy aks etadi.

Biznes-jarayonlarini hujjatlashtirish, uslubiy yo'riqnomalar, lavozim vazifalari va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish hisobiga, kompaniyaning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xodimlarning bilimi va malakasi hamda korxonaning samaradorligi oshadi.

Ichki samaradorlikni oshirish xodimlarning yuz berayotgan biznes-jarayonlari uchun mas'uliyatini mustahkamlash, uzluksiz takomillashishga, mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilashga olib keladi. Bu omil ISO 9000 me'yorlari bo'yicha SMTni joriy etish va sertifikatlashga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, ko'p tashkilotlar sertifikat mahsulot sifatini kafolatlay olmasligini anglaydi, shu boisdan ISO 9000 standartlarini sifatni yaxshilash jarayonini boshlash uchun yaxshi bazis deb hisoblashadi. Kanji J.K "ISO 9000 standartlarining muhim xususiyati – uning tuzilishidir. U, qo'llashga qulay bo'lgan tadbirlar, elementlar va talablarning universal majmuini tashkil etadi. SHuningdek, sifatni ta'minlash tizimlarini ishlab chiqish, baholash, qo'llash, belgilash va sertifikatlashning asosini ham ta'minlaydi. SHunday qilib, ISO 9000 talablari TQM madaniyatini o'zlashtirish va sifat bo'yicha milliy mukofotlar mezonlarini qo'llash uchun jiddiy negiz yaratadi¹²," deb ta'kidlaydi.

Agarda ma'lum bir sohada yoki segmentda ishlaydigan kompaniyalar ISO 9000 qo'llamasa, lekin standartlar talabiga mos keladigan SMTni joriy etsa va sertifikatlasa, qo'shimcha raqobat ustunligiga erishishlari mumkin (ayrim hollarda SMT uchun ISO 9000 sertifikati zaif kompaniyalar uchun savdo to'sig'i bo'lib qolishi ham mumkin). Lekin ko'pincha teskari holat yuz beradi, ya'ni korxonalar

¹² Kanji J.K. An innovative approach to make ISO 9000 standards more effective // Total Quality Management. Vol.9. №1. 1998. pp. 67-78.

faqat raqiblaridan orqada qolmaslik uchungina ISO 9000 sertifikatini olishga majbur bo'ladilar.

SHubhasiz, mahsulot sifatini yaxshilash, unumdorlikni oshirish, chiqimlarni kamaytirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish kabi omillar kompaniyaning bozordagi ulushi ortishiga olib keladi.

Korxonalar ISO 9000 talablari bo'yicha SMTni joriy etish va sertifikatlashi uchun zarur bo'lgan sabablarning ko'pligini inobatga olib, ularni tartibga solish va tasniflash variantlarini ko'rib chiqaylik. Sabab bo'luvchi omillarni "ichki" va "tashqi" omillarga bo'lish mumkin.

1. Ichki omillar kompaniyaning samarasi va mahsuldorligini yaxshilash bilan bog'liq. Bularga:

- mahsulot va xizmatlar sifatini yaxshilash;
- ichki jarayonlarni jadallashtirish;
- harajatlarni kamaytirish;
- xodimlar bilan munosabatni yaxshilash;
- axborot almashuvi va tahlili tartiblarini o'rnatish;
- TQM kontsepsiyasini amalga oshirishga tayyorgarlik va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tashqi sabablar kompaniya atrofdagi biznes-muhitga (mijozlar, ta'minotchilar, davlat organlari) bo'lgan ta'sirga bog'liq. Bunda, SMT uchun rasman tasdiqlangan hujjat, ya'ni, sertifikat ana shu ta'sir vositasidir.

4.4. ISO 9000 seriyali standartlarini joriy etish va sertifikatlashga ketadigan harajatlar

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ISO 9000 seriyali standartlarni joriy etish va sertifikatlashga saflanadigan harajatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- hujjatlar tizimini yaratish;
- maslahatchilar xizmatiga to'lanadigan xizmat haqi;

- xodimlarni ISO 9000 seriya standartlari tamoyillariga o'rgatish;
- SMTni joriy etish uchun qo'shimcha xodimlarni yollash;
- ishlab turgan xodimlarning SMTni joriy etishga sarflaydigan vaqtinchalik harajatlari;
- sertifikatsion audit haqi;
- axborot texnologiyalariga qo'shimcha investitsiyalar (ehtimol, yangi dasturiy ta'minotni sotib olish uchun).

SMTni joriy etish va sertifikatlashga ketadigan harajatlarni batafsil ko'rib chiqamiz.

1. Hujjatlar tizimini yaratish SMTni joriy etishda eng ko'p uchraydigan qiyinchiliklardan biridir¹³. Bu ISO 9000 seriya standartlarining avvalgi tahririga ko'proq taaluqli bo'lib, unda sifat tizimining 20 ta element bo'yicha muvofiqligini tasdiqlash kerak bo'lar edi.

2. Maslahatchilar mehnatidan foydalanish asosan kompaniyada SMTning asosiy tamoyillarini kiritish bilan bog'liq. Bu shu bilan izohlanadiki, ISO 9000 seriya standartlarida bu tamoyillarni kiritish usullari namunasi berilmagan va xodimlar standartlarni tushunish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarga duch keladi¹⁴. Standartni to'g'ri tushunmaslik, noto'g'ri talqin qilish tashkilotda sifatni boshqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Xodimlarni ISO 9000 standartlariga o'rgatish ko'p harajatlarni talab qiladi. Bu masalaga kam e'tibor qaratilsa, xodimlar yoki SMTni joriy etilishiga loqaydlik bilan qaraydilar, yoki unga hatto to'sqinlik qilishlari ham mumkin. SMTni joriy etish va sertifikatlashning muhim qiyinchiliklaridan biri – xodimlarning uyushib ishlamasligi hisoblanadi.

4. Hujjatlarni yuritishdan tashqari, SMT talablari va tamoyillarini amalga oshirish uchun ham qo'shimcha xodimlar jalb etilishi mumkin.

¹³ Mezher T., Ramadan H. The costs and benefits of getting ISO 9000 certification in the manufacturing sector in Saudi Arabia. *Quality Assurance*. №6 1999. pp. 107-122.

¹⁴ Lee-Peng Tan. ISO 9000: The answer for total quality management implementation? The Malaysian case. // *Total Quality Management*. Vol.12. №2. 2001. pp. 223-229.

5. Xodimlarning vaqtinchalik harajatlari bu SMTni muvaffaqiyatli joriy qilish va sertifikatlash uchun zarur to'lovdir. SMT butun korxona faoliyatiga ta'sir etishini inobatga olib, har bir xodim faoliyat samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash uchun u yoki bu darajada umumiy ishga jalb etiladi.

ISO 9000 seriya standartlari talablariga muvofiq SMTni ishlab chiqish jarayoni vaqtning katta davrini o'z ichiga olishi sababli, mazkur omil sertifikatlashning harajatli jihatini ko'rib chiqishda o'ta muhim sanaladi. Turli korxonalarning tajribasini ko'rsatishicha, ro'yxatga olish jarayoniga odatda 12 oydan 18 oygacha vaqt sarflanadi.

6. Sertifikatsion audit uchun to'lov SMT uchun ISO 9000 sertifikatini olish bilan bog'liq harajatlarning eng ko'zga tashlanadigan qismlaridan biri. Uning narxini belgilovchi asosiy omillar: kompaniya miqyosi, sertifikatlash o'tkazilayotgan mamlakat, sertifikat beruvchi organning nufuzi hisoblanadi

V BOB. MAHSULOT SIFATI VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMI

Eng qiziqarli mavzulardan birini yorituvchi ushbu bobni o'qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

- *Sifat menejmenti tizimining zamonaviy korxonalarni boshqarishdagi ahamiyati nimalardan iborat?*
- *Mahsulotning sifat darajasi deganda nimani tushunasiz?*
- *Sifatning integral ko'rsatkichi nimani anglatadi?*
- *Sifatni ta'minlash omillariga nimalar kiradi?*
- *Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari qanday ko'rsatkichlardan tashkil topadi?*
- *Mahsulot sifatining ijtimoiy va funktsional ko'rsatkichlari deganda qaysi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi?*
- *Mahsulot sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullarini bilasizmi?*
- *Mahsulot sifatining shakllanish bosqichlarini izohlab bering?*
- *Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar uni shakllanishida qanday rol o'ynaydi?*
- *Mahsulot sifatini nazorat qilishni qanaqa turlarini bilasiz?*

5.1. Mahsulot sifati va sifatni boshqarish tushunchasi

Sifat tushunchasini anglab yetish va undan iste'molchi yoki ishlab chiqaruvchi sifatida samarali foydalanish unga berilgan ta'riflarni diqqat bilan o'rganishni talab qiladi. Chunki, sifatga berilgan ta'riflar ko'p va xilma-xil bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular o'zgarib boradi. Ayniqsa, sifatga bo'lgan iste'molchilarning dunyoqarashi mahsulotlar takomillashib borgan sari o'zgarishda davom etmoqda.

Mahsulot sifati deb, mana shu mahsulotga nisbatan qo'yilgan xalq ehtiyoji talablarini qondirilish darajasi, ularning xossa xususiyatlari, tashqi ko'rinishi, ishlatilishining qulayligiga aytiladi.

Sifat ko'plab tasodif, maxalliy va sub'ektiv omillar ta'sirida aniqlanadi. Bu omillarni sifat darajasiga ta'sirini yo'qotish uchun sifatni boshqarish tizimi kerak.

Sifatni boshqarish quyidagi tushunchalar bilan bog'liq: tizim, muxit, maqsad, dastur va boshqalar.

Tizim boshqaruvchi va boshqariluvchiga farqlanadi. Boshqariluvchi tizim korxonalarni (firma va boshqalar) boshqarish har xil darajalari bilan ko'rsatilgan.

Boshqaruvchi tizim sifat menejmentini yaratadi va ta'minlaydi. Zamonaviy adabiyotlarda va amaliyotda quyidagi sifat menejmenti kontseptsiyalari qo'llaniladi:

- sifat tizimi;
- sifatni boshqarishga asoslangan menejment tizimi;
- sifatni umumiy boshqarish;
- sifatni ta'minlash;
- sifatni boshqarish;
- sifatni statistik nazorati;
- sifatni ta'minlash tizimi;
- mahsulot kafolati;
- umumiy ishlab chiqarish menejmenti;
- ilg'or ishlab chiqarish tajribasi;
- ishlab chiqarish resurslarini boshqarish tizimi;
- "biz uylamoqdamiz" tizimi;
- "ma'lum shaxslarning uylanishi";
- tashqi muxitni saqlash sohasida sifatning umumiy menejmenti;
- ishlab chiqarishni umumiy ta'minlash;
- jarayonlarni integrallangan menejmenti;
- sifat va ishlab chiqarishni to'la (umumiy, total) boshqarish;
- sifatning integrallangan menejmenti;
- to'xtovsiz yaxshilanishlarni kiritish tizimi;
- sifatni to'la qayta shakllash;
- sifat tizimining menejmenti.

Sifat menejmentining boshqa kontseptsiyalari ham bor. Biz ularning bir qismini, lekin sifatni boshqaruv ob'ekti sifatida tushunish uchun muximini

keltirdik. Keltirilgan kontseptsiyalar, sifatning har xil muammolarini yechish uchun SMT (sifat menejmenti tizimi) metodologiyasida qo'llaniladigan, har xil usullar ma'nosini aks ettiradi.

Sifat uchun menejment ob'ekti sifatida menejmentning hamma tarkibiy qismlari xos (rejalashtirish, taxlil, nazorat).

Sifatni zamonaviy menejmenti sifatni boshqarish bo'yicha konsultantlar dasturlari bo'yicha, yirik chet el korporatsiyalar tomonidan bajarilgan tadqiqotlar natijalarida asoslanadi. Buni "Хьюлетт-Пакард" kabi mashxur firmalar tajribasida ko'rishimiz mumkin. Yetakchi firmalar ishini yaxshilashda asosiy omil bo'lib quyidagi yo'nalishlar xisoblandi:

- yuqori bo'g'in raxbariyatini qiziqtirilishi;
- ish sifatini yaxshilash bo'yicha yig'ilishni tashkil qilish;
- ishni yaxshilash jarayoniga butun raxbariyat tarkibini jalb qilish;
- jamoa qatnashuvini ta'minlash;
- individual qatnashuvni ta'minlash;
- tizimlarni takomillashtirish bo'yicha guruxlarni tuzush (jarayonlarni moslashtirish guruxlari);
- etkazuvchilarni chuqurroq qiziqtirish;
- boshqarish tizimining ishlash sifatini ta'minlash;
- ishni yaxshilashni qisqa muddatli rejalarini va uzoq muddatli strategiyasini loyixalash va amalga oshirish;
- xizmatlarni rag'batlantirish tizimini tashkil qilish.

Ayniqsa, boshqarish tizimini ishlash sifatini ta'minlash kabi yo'nalishni belgilash lozim. Sifatni boshqarish bo'yicha konsultantlar sifat va puxtalik bo'yicha xizmatlar kuch va resurslarni, muammolarni aniqlash va xatolarni to'g'rilashga katta e'tibor qaratishadi. Bu tizim xatolarga qaraydi va profilaktik tadbirlar, hamda, ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan bo'limlar o'rnini inobatga olmaydi.

Sifat bo'yicha yetakchi konsultantlardan biri F. Krosbi rag'batlantirish tizimini muximligiga e'tibor qaratadi. Xodimlar xizmatlarini tan olish va ularni

yuqori natijalarga intilishlarini rag'batlantirish, zamonaviy sifat menejmentining tarkibiy qismidir.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagigi operatsiyalar (ta'sirlar) dan iborat:

- sifatni boshqarish dasturini ishlab chiqish va uni ko'tarilishini rejalashtirish;
- mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi ixtiyoriy boshqariluvchi jarayon holati to'g'risida axborotni olish va taxlil qilish;
- sifatni boshqarish bo'yicha natijalarni qabul qilish va ob'ektga boshqaruvchi ta'sirni tayyorlash;
- boshqaruvchi ta'sirlarini berish;
- boshqaruvchi ta'sirlar tomonidan kelib chiqqan, mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini o'zgarishi to'g'risida axborotni olish va taxlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishning printsiptial sxemasi 5.1.1- rasmda keltirilgan.

Mahsulot sifati to'g'risidagi ma'lumot bir nechta kanallar bo'yicha keladi (teskari bog'lanish). Printsiptial sxemada ikkita asosiy kanal ko'rsatilgan:

- birinchi kanal mahsulotni yaratish va tayyorlash darajasida ishlaydi (korxona-tayyorlovchida sifat nazorati);
- ikkinchi kanal iste'mol sohasida joylashgan, mahsulot sifati to'g'risida ma'lumotni uzatadi.


Belgilangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko'rsatkichlarning qiymatlarini aniqlash va ularni asos buluvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ishlarning yig'indisi mahsulot sifati darajasini baxolash deb ataladi. Mahsulot sifatining darajasini baxolash uchun mahsulotlar ikkita turkumga bo'linadi:

- foydalanishda sarflanadigan mahsulot;
- o'z resursini sarflaydigan mahsulot;

Mahsulot sifatining ko'rsatkichlar nomenkulaturasini tanlab olishni asoslash quyidagilarni inobatga olgan xolda amalga oshiriladi:

- mahsulotni ishlatilishidagi sharoitlarni va vazifasini;
- iste'molchilar talablarining taxlilini;

- mahsulot sifatining tavsiflanuvchi tarkibini va tuzilshini;
- sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan asosiy talablarni.



5.1.1- Rasm. Sifatni boshqarishning printsipial sxemasi

Mahsulotning amaldagi sifati to'g'risidagi ma'lumot sifatning rejalashtirilgan ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Bu omillarni texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiyga bo'lish mumkin.

Texnik omillarga texnologik jixozlar, asboblari, uskunalar va nazorat vositalarining holati, boshlang'ich materiallar, xomashyo va tarkibiy qismlarning sifati, texnik xujjatlarning holati va sifati va boshqalar kiradi.

Tashkiliy omillar guruxiga:

- ishni reja davomiyligi va ritmliligi;
- jixozlarning xizmat ko'rsatishi va ta'miri;

- material, tarkibiy qismlar, uskunalar, asboblari, nazorat vositalari va texnik xujjatlar bilan ta'minlanganlik;

- mehnatni ilmiy tashkil etish, ishda ovqatlanish, dam olishni rejalashtirish va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy omillarga: mehnatga xaq to'lash shakli; oylikni kattaligi; yuqori sifatli mahsulot va ishga rag'batlantirish, brak mahsulot ishlab chiqarganligi uchun maoshidan ushlab qolish; mahsulot tannarxi va baxo, mahsulotning sifat darajasi va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy omillar guruxiga: kadrlarni tanlash, taqsimlash va ko'chirish; malaka oshirishini tashkil etish; ilmiy-texnik yangiliklarni yaratish, yashash-xujalik sharoitlari, jamoadagi o'zaro munosabatlar va psixologik iqlim va boshqalar kiradi.

Boshqaruvni ixtiyoriy tizimi, uning ishlashi bo'yicha samaradorligi aniqlanuvchi, boshqaruv kriteriyalariga ega. Bizning xolda mahsulot sifati, yuqorida aytilgandek, qo'llanilishiga mos ravishda ma'lum ehtiyojlarni qondiruvchi xossalari yig'indisi bilan harakterlanadi. Mahsulot sifatini boshqarish masalasidan kelib chiqib bu xossalarni boshqarish kriteriyalari qilib qabul qilish mumkin.

Ko'rsatilgan kriteriyalar texnik kategoriyalarga qaraydi va ulardan keng foydalaniladi. Lekin ular xususiy kriteriyalardir. Ularda sifatni yaxshilanishiga erishiladigan harajatlari baxosi yo'q. Busiz mahsulot sifatini boshqarish tizimining ishlashi samaradorligini baxolash mumkin emas. SHuning uchun sifatni boshqarishda mahsulotning texnik va iqtisodiy xossalarni jamlovchi, kriteriyalardan foydalanish kerak.

Sifatning integral ko'rsatkichi deganda ekspluatatsiya qilishda yoki iste'mol qilishdagi foydali samarani uni tayyorlashga (ishlab chiqish va tayyorlash) va ishlatishdagi harajatlarga nisbati tushuniladi

$$K_I = \frac{E}{Z_S + Z_E},$$


bu yerda: E – mahsulotni ishlatishdagi foydali samara;

Z_S – mahsulotni yaratishga ketgan harajatlari;

Z_E – mahsulotni ishlatishga ketgan harajatlar.

Sifatning integral ko'rsatkichi ham, foydali xossalar o'sishi (E ni oshishi) ham, foydali xossalarni ko'rsatilgan o'sishiga sarflanadigan harajatlar kattaligiga ($Z_S=Z_E$ ni oshishi) ga ta'sir etadi.

Odatda sifatning integral ko'rsatkichi vaqt o'tishi bilan oshadi, chunki xossalar mahsulotni texnik takomillashtirish va uning modifikatsiyasi yo'li bilan yaxshilanadi, harajatlar esa mahsulotni yaratish va ishlatishda mehnat maxsulдорligini o'sishi xisobiga pasayadi.



5.1.2 rasm. Harajatlarni mahsulot sifati darajasiga bog'liqligi

1 – mahsulotni tayyorlashga harajatlar; 2 – ekspluatatsiya jarayonidagi harajatlar; 3 - yig'indi harajatlar.

Tabiiy xol, sifatning integral ko'rsatkichini pasayishi mumkin emas. Agar pasayish kuzatilsa, ishlab chiqarish tizimini, mehnat, material va energiyani minimal harajatlarda iste'molchini to'la qondiradigan, modernizatsiyalangan yoki yangi mahsulot chiqishini ta'minlovchi, yuqoriroq darajadagiga o'tkazish kerak. Bunda sifatning integral ko'rsatkichi maksimal bo'ladi.

Ko'pgina xollarda iste'molchilar talablarini qondiruvchi, ekspluatatsiya yoki iste'molda talab qilinayotgan samarani ta'minlovchi, mahsulotni ishlab chiqarish kerak. Bunday mahsulot, uni tayyorlash va ekspluatatsiya harajatlari yig'indisi minimal bo'ladigan, sifatning optimal darajasiga ega bo'lishi kerak. Bu, insonlar yashash faoliyatini va xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan, mahsulotga ta'sir qilmaydi. U sifatning maksimal darajasiga ega bo'lishi kerak.


Sifat darajasini oshirganda mahsulotni tayyorlashga harajatlar avval sekin o'sadi (5.1.2 rasm. 1 egri chiziq), chunki ishlab chiqarish berilgan talablarni oson yengadi. Keyinchalik sifat darajasini oshishi bilan harajatlar tez o'sadi. Oxir oqibatda shunday chegaraga erishiladiki, harajatlar cheksizlikka intiladi. Bu xolda jixozlar ham, ishchilar ham sifatni oshira olish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

SHu vaqtning o'zida sifat darajasini oshirishda mahsulotni ekspluatatsiya jarayonida harajatlar pasayadi (2 egri chiziq). Oldin ular tez, so'ng esa sekin pasayadi. Bu yerda ham chegaraga erishiladi, mahsulotni ekspluatatsiyasida sifat darajasini o'sishi harajatlarni pasayishiga keltirmaydi.

Yig'indi harajatlarga kelsak, sifat darajasi oshganda ular oldin pasayadi va optimal darajada minimal qiymatga erishiladi.

So'ng sifat darajasi optimaldan katta bo'lganda yig'indi harajatlar o'sadi. CHegarada ular cheksizlikka intiladi.

Mahsulot sifati ilmiy izlanishlarda, konstruktorlik va texnologik loyixalarda o'rnatiladi, tayyorlashda yaratiladi, ekspluatatsiyada amalga oshiriladi.



5.1.3-rasm. Mahsulotning hayotiylik tsikli va sifat boshqaruvi o'rtasidagi bog'liqlik

Mahsulot sifatini joriy qilish, ta'minlash va saqlab turishning asosiy bosqichlarini tavsiflovchi "sifat sirtmog'i" mavjud. Bu bosqichlar:

- Mahsulotga bo'lgan talablar, uning texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko'rish (marketing tadqiqotlari);
- Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hisobga olib, sifat darajasini shakllantirish, me'yoriy-texnikaviy xujjatlarni tayyorlash;
- Ishlab chiqaruvchi korxona imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Sifatli xomashyo, material, butlovchi buyumlar bilan moddiy - texnikaviy ta'minlash;
- Ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish. Jihoz, uskuna va asboblarni ta'minlash;
- Tegishli me'yoriy - texnikaviy xujjatlar va standartlarga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarish;
- Texnikaviy nazorat va sinash, tayyorlash sifatini baxolash;
- Tayyor mahsulotni sotish, mahsulotni saqlash, tashish va sotish jarayonlarida uning sifatini saqlab qolish;
- Tayyor mahsulotni montaj qilish va unda foydalanish, xizmat qilish va ta'mirlash, sifatini ta'minlash, iste'molchini mahsulot sifati bilan qoniqqanligini baxolash;

SHunday qilib, mahsulot sifatining optimal darajasiga erishish birinchi darajali muximlikdagi masaladir. Bu sifatni boshqarish tizimining bosh maqsadlaridan biri.

5.2. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari

Mahsulot sifatini baholash va uni oshirish uchun sifat darajasini baholash zarurdir. Mahsulot sifatini miqdoriy jihatdan baholash bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sohasiga kvalimetriya deyiladi.

Mahsulot sifatini baholash bosqichlarining mazmuni va ularning har birida bajariladigan ishlarning hajmi, unda qo'yilgan maqsadga bog'liq bo'ladi.

Baholashdan maqsad-sifatning qaysi ko'rsatkichlarini tanlash, ularning qiymatini qanday aniqlikda o'lchash, buning uchun zarur vositalar, baholash

natijalarini shaklini ifodalash va ko'rsatkichlarni qayta ishlash mumkinligini ko'rsatishdan iboratdir.

Mahsulotning xossa va xususiyatlari ham miqdoriy, ham sifat jihatdan tavsiflanishi mumkin. Sifat tavsiflari - bular, mahsulotning zamonaviy moda yo'nalishiga, dizaynga, ranglarga mos kelishi va boshqalar bo'lishi mumkin.

Mahsulotning bir yoki bir necha xossa xususiyatlarining miqdoriy tavsifiga sifat ko'rsatkichi deyiladi. Sifat ko'rsatkichlarini tanlash – mahsulot sifati tarkibiga kiruvchi, uning sifat darajasini baholashga imkon beruvchi xususiyatlarini miqdoriy tavsifi nomlarini aniqlashdir.

Ishlatish sohasi ko'rsatkichi, mo'ljallangan vazifani bajarish va ishlatish sohasini ko'rsatish uchun, asosiy funktsiyalarini aniqlovchi, mahsulot xossalarini harakterlaydi. Ularga maxsuldorlik, manyovrlik, o'tuvchanlik, quvvat va boshqa ko'rsatkichlar kiradi.

Ishlatish sohasi ko'rsatkichlari loyixalash bosqichida o'rnatiladi va ishlab chiqarish bosqichida amalga oshiriladi. Ma'lum miqdorda ular texnologik tayyorgarlik bosqichiga ham bog'liq, masalan, tayyorlash va ishlov turida materialni ishlatish koefitsienti, demak, material sig'imgai ham bog'liq.

Ishonchlilik ko'rsatkichlari puxtalik, uzoqmuddatlik, ta'mirlanish va saqlanish xossalarini harakterlaydi.

Puxtalik ko'rsatkichi ob'ektning ma'lum vaqt ichida yoki qandaydir ishdan so'ng ishlash qobiliyatini saqlash xossasini harakterlaydi. Ularga puxta ish, nosozlikka ishlov va boshqa extimol ko'rsatkichlari kiradi.

Uzoq muddatlik ko'rsatkichi o'rnatilgan texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda chegaraviy holatga yetguncha ob'ektni ishlash qobiliyatini saqlash xossalarini harakterlaydi. Ularga o'rta (kapital) ta'mirlar orasidagi resurslar, ishlash muddati, ruyxatdan chiqarishgacha resurs va boshqalar kiradi.

Ta'mirlanish ko'rsatkichlari buzilishni oldini olish va uning sabablarini aniqlash hamda ta'mirlash yo'li bilan ularni yo'qotishda buyum xossalarini harakterlaydi. Bu ko'rsatkichlarga joriy va kapital ta'mirlar hamda texnik xizmatning o'rtacha operativ davomiyligi kiradi.

Puxtalikning ko'rilgan ko'rsatkichlari loyixalash bosqichida ma'lum aniqlik bilan xisoblanadi. Ularning har xil qiymatlari buyumni ishlab chiqarish bosqichlarining ko'plab omillariga va ma'lum miqdorda ishlab chiqarishning texnik tayyorgarlik bosqichiga bog'liq.

Saqlanish ko'rsatkichlari ob'ektni ishlash qobiliyati holatini yoki mahsulot va materiallarni saqlash davomida, yoki tashishdan so'ng ishlatishga yaroqli holatini saqlash xossalarini harakterlaydi. Ularga o'rtacha saqlash muddati kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Ergonomik ko'rsatkichlar "inson-buyum" (inson-mashina) tizimini harakterlaydi va shu buyum bilan ishlashda ishlab chiqarish va ro'zg'or jarayonlarida ta'sir qiluvchi gigienik, antropometrik, fiziologik va psixologik kabi inson xossalarini kompleksini xisobga oladi. Ularga shovqin darajasi, titrashlar, xavoning maksimal harorati, changni maksimal miqdori va x.k. kiradi.

Sifatning gigienik ko'rsatkichlariga harorat, shovqin va titrash darajasi, changlanganlik va gazlanganlik, radiatsiya miqdori va boshqa shunga o'xshash ko'rsatkichlar kiradi.

Antropometrik ko'rsatkichlar inson tanasi va uning a'zolarini shaklini buyum va uning elementlariga mos kelishini harakterlaydi. Bunday ko'rsatkichlarga dastaklar, tugmacha va pedallar shakli, ularning joylashishi, o'tirgichlarning shakli va joylashuvi, kabina gabaritlari, eshik va lyuk o'lchamlari va x.k. kiradi.

Fiziologik va psixofiziologik ko'rsatkichlar buyum va uning qismlarini insonning kuch va tezlik imkoniyatlariga mos kelishini, uning sezgi a'zolarini, ko'rish, xidlash, sezish, eshitish, tam – o'ziga xosligi va imkoniyatlarini harakterlaydi.

Psixologik ko'rsatkichlar insonning psixologik o'ziga xosligi va imkoniyatlariga buyumni mos kelishini, "inson-buyum-muxit" tizimida axborot almashuvchanlikni harakterlaydi.

Sifatning ergonomik ko'rsatkichlari loyixalash bosqichida o'rnatiladi va ishlab chiqarish bosqichida amalga oshiriladi.

Estetik ko'rsatkichlar shaklni ratsionalligi, kompozitsiya butunligini va mahsulot ishlab chikarilishini bajarilganligini harakterlaydi. Bu guruxga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin: stilni mos kelishi, modaga mos kelishi, xajm-fazoviy tuzilishi, rang koloriti, qismlarni bajarish tozaligi, firma belgilarini aniq bajarish va x.k.

Texnologiklik ko'rsatkichlar ishlab chiqarishni tayyorlash va mahsulotni ishlatishga texnologik tayyorlashda material, mehnat vositasi va vaqt sarfini optimal taqsimlanishini, mahsulot xossalarini harakterlaydi. Texnologiklikni asosiy ko'rsatkichlari: mahsulotni tayyorlashning sermehnatliligi va tannarxi.

Texnologiklikni quyidagi ko'rsatkichlar harakterlaydi:

- buyum va uning elementlarini zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlariga mos kelish darajasi;

- konstruksion materiallarning ratsional ishlatish;

- ishlab chiqarishni progressiv texnologik usullarini, tipli texnologik jarayonlarni qo'llash imkoniyatlari va x.k.

- texnologiklik ko'rsatkichlarini yaxshilashning yakuniy natijasi bo'lib, mehnat maxsuldorligini oshirish, tannarxni pastaytirish va ekspluatatsion harajatlarni kamaytirish xisoblanadi.

Transportabillik ko'rsatkichlari ishlatish va iste'molsiz, mahsulotni fazoda ko'chirish (transportirovkalash)ga moyillikni harakterlaydi. Bu ko'rsatkichlarga transportirovkalashga mahsulotni tayyorlashning o'rtacha davomiyligi, transport vositasiga mahsulotni yuklashning o'rtacha davomiyligi, transport vositasidan foydalanish koefitsienti kiradi.

Patent-xuquqiy ko'rsatkichlar mahsulotda qo'llanilgan texnik yechimlarni yangilash darajasini, ularning patent sofligi va saqlanganligi, hamda mamlakat va chet elda mahsulotni qiyinchiliksiz harid qilish imkoniyatini harakterlaydi.

Ayniqsa mahsulotning patent qobiliyatligi va patent sofligi muxim ko'rsatkich xisoblanadi.

Ekologik ko'rsatkichlar mahsulotni ekspluatatsiya va iste'mol qilishda xosil bo'luvchi tashqi muxitga zarar darajasini harakterlaydi. Bu ko'rsatkichlarga atrof muxitga zararli moddalarni tashlash extimoli va darajasi kiradi.

Xavfsizlik ko'rsatkichlari xizmat ko'rsatuvchi personalga mahsulotdan foydalanishda uning xavfsizligini harakterlaydi. Xavfsizlik ko'rsatkichlariga to'xtovsiz ishlash extimoli, qurilmalarning ishlash vaqti, buyumning elektr tokini o'tkazuvchi qismlarining mustaxkamligi, tormozlashda o'rtacha to'xtashi, statistik mustaxkamlik burchagi, obzorlik va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda mahsulotning (tovar) sifati, loyixalash bosqichida qabul qilingan, texnologik tayyorgarlik va ishlab chiqarish bosqichlarida amalga oshiriladigan har xil sifat ko'rsatkichlarining yig'indisi bilan harakterlanadi.

5.3. Mahsulot sifatining ijtimoiy va funktsional ko'rsatkichlari

Mahsulot sifatining ijtimoiy va funktsional ko'rsatkichlari uning ijtimoiy-zaruriy ehtiyojlarga javob bera olishi va turli guruh iste'molchilari uchun ijtimoiy ahamiyatini tavsiflaydi.

Bu ko'rsatkichlarga tovarlar ishlab chiqarishning ijtimoiy zaruriyati, tovarning optimal assortimentga mos kelishi, ma'naviy eskirish va boshqa ijtimoiy samara ko'rsatkichlari kiradi.

Tovar ishlab chiqarishning ijtimoiy zaruriyati ko'rsatkichi mana shu tovarga nisbatan aholining qondirilmagan talabi hajmining zarurligini ifodalaydi. Tovarga nisbatan qondirilmagan talabning zarurlik darajasi, aholining shu tovarlarga nisbatan ta'minlanganlik darajasi bilan tavsiflanadi.

Masalan, oyoq kiyimlar bog'cha yoshidagi, maktab yoshdagilar, qiz bolalar, o'g'il bolalar, ayol yoki erkaklar oyoq kiyimlariga bo'linadi.

Tovarning optimal assortimentiga mos kelish ko'rsatkichi uning shu turdagi mahsulotlar assortimenti tizimida foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

Ma'naviy eskirish ko'rsatkichi mavsum va moda yo'nalishlarini o'zgarishi yoki yangi sifatli mahsulotning yaratilishi bilan mahsulotni ma'naviy eskirishini ko'rsatadi.

Yondosh ijtimoiy samaralar ko'rsatkichlari deb mazkur guruhga kiruvchi tovarlarni ommaviy ishlab chiqarish, haridorlarning tovarlarni harid qilishlariga ta'sirini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga aytiladi. Masalan, mazkur guruhga kiruvchi tovarlarni ishlab chiqarilganda, boshqa yondosh guruh tovarlariga nisbatan bo'lgan talab keskin o'zgarishi mumkin.

Kiyimlarga nisbatan modalarning o'zgarishi, kiyinish madaniyatining o'zgarishi bosh kiyimlarga nisbatan bo'lgan talabni o'zgartirishi mumkin.

Mahsulot sifatining funktsional ko'rsatkichlari ularning foydalanish maqsadlariga mos kelishini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondira olish darajasini tavsiflaydi. Bu ko'rsatkichlar asosiy funktsiyalarining bajarilishini takomillashtirish ko'rsatkichi, universallik ko'rsatkichlari va yordamchi operatsiyalarni bajarishni takomillashtirish ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Asosiy funktsiyani bajarishni takomillashtirish ko'rsatkichlari iste'molning foydali samarasini, mahsulotning iste'molchilar tomonidan foydalanilganda ma'lum ehtiyojni qondirish darajasini ko'rsatadi.

Universallik ko'rsatkichi mahsulotning o'z o'rniga qarab ishlatilishi bilan bir qatorda, kishilar uchun foydali boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yordamchi funktsiyalarning bajarilishini takomillashtirish ko'rsatkichi mahsulotni "inson-mahsulot-tashqi muhit" tizimida asosiy va yordamchi faoliyatlarini bajarishning yondosh bosqichlarida: tashish, o'rnatish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, saqlash va boshqa bosqichlarida mahsulotni o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi.

Ishonchlilik ko'rsatkichi mahsulotning iste'mol yoki ekspluatatsiya vaqtida yaroqli holda bo'lishini ko'rsatadi. Bunga to'xtamasdan ishlashi, uzoqqa chidamliligi, ta'mirlanuvchanlik, saqlanuvchanlik kabi ko'rsatkichlar kiradi.

To'xtamasdan ishlash ko'rsatkichi mahsulotning ma'lum vaqt davomida to'xtamasdan ishlatilish mumkinligini ko'rsatadi.

Uzoqqa chidamlilik ko'rsatkichi xizmat ko'rsatish muddati davomida uzluksiz ishlashi mumkinligini ko'rsatadi.

Ta'mirlanuvchanlik ko'rsatkichi mahsulotning realizatsiya qilish jarayonida ba'zi mayda kamchiligini tuzatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ajralib turuvchanlik ko'rsatkichi mahsulotga nisbatan jamiyatda shakllangan estetik dunyo qarashlarini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich mahsulotni boshqa analogik mahsulotdan ajralib turishini, davr talabiga, zamon talablariga, moda yo'nalishlariga javob berish darajasini ko'rsatadi.

Tashqi ko'rinishining ratsional bo'lishi mahsulotni funktsional - konstruktiv mohiyatining to'g'ri ifodalanishini, mahsulotni tayyorlash va ekspluatatsiya qilishning ob'ektiv sharoitlariga mos kelishini tavsiflaydi.

Kompozitsiyasini to'liqligi mahsulot qismlarini organik bog'liqligini, uning boshqa ansambllariga ham mos kelishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar mahsulotni modellashtirishda turli ranglarni o'zaro aloqada qo'llashda, konstruksiyalash ishlarini badiiy tasvirlashda, to'liq kompozitsion yechimga erishishda badiiy vositalardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.

Mahsulotni ishlab chiqarishning mukammal va tovar ko'rinishining stabil bo'lishi mahsulotning estetik jihatdan tashqi ko'rinishiga ta'sir ko'rsatadi. Uni ishlab chiqarishda tashqi ko'rinishining mukammal, firma belgilarining aniq, informatsion material va hujjatlarning to'liq bo'lishi, mahsulotni tashqi ko'rinishiga zarar yetkazmaslik uchun uni o'rash-joylash ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilganlik darajasini ko'rsatadi.

Iste'molning xavfsizligi ko'rsatkichi mahsulotni ekspluatatsiya yoki iste'mol qilish, montaj, xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash, ortish va tashishda kishilarning xavfsizligini ta'minlovchi xususiyatlarini tavsiflaydi. Iste'molning xavfsizligi ko'rsatkichiga misol qilib, kishilarning ma'lum vaqt davomida xatarsiz ishlashi ehtimoli; himoya moslamalarining ishlatilishi va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Ekologik ko'rsatkichlar mahsulotni ekspluatatsiya qilishda yoki iste'molda atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishini xisobga olish, atrof muxitga ishlab chiqarish chiqindilarini chiqishini cheklash, biologik resurslardan oqilona

foydalanish, ularni saqlash, atmosferani ifloslanish darajasini pasaytirishni ta'minlashi kerak.

Ekologik ko'rsatkichlarga, atrof muhitga chiqayotgan chiqindilarning tarkibi, mahsulotni ekspluatatsiya qilish va iste'molda, ortish, tashishda, saqlashda zaharli gazlar chiqishini misol qilib keltirishimiz mumkin.


Iqtisodiy ko'rsatkichlar - bu tajriba namunalarni tayyorlash va sinovdan o'tkazishga ketgan harajatlar, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, texnik ob'ektlarni ekspluatatsiya qilishdagi harajatlar va boshqalar.

Sifat ko'rsatkichlari fizikaviy ko'rsatkichlar singari o'lchamga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasliklari mumkin. Sifat ko'rsatkichlarining miqdoriy tavsifi deganda ma'lum birliklardagi ularning o'lchamalari tushuniladi.

Masalan, mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan mehnat sarfi mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bo'lib, ishchi-soatlarda ifodalanadi.


5.4. Mahsulotning sifat darajasini baholash

Sifatning maqbul darajasi – bu sifat, harajatlar, narx, tannarx va foyda o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi mahsulot sifati ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Sifatning maqbul darajasini aniqlashda ishlab chiqarish va sifatni oshirish bilan bog'liq omillar tahlili muxim o'rin tutadi. Sifatning maqbul darajasini quyidagi 5.4.1. va 5.4.2-rasmlar orqali yanada chuqurroq o'rganish mumkin.



5.4.1-rasm. Sifatning maqbul darajasini birinchi ko'rinishi

5.4.1-rasmda tannarx va narx o'rtasidagi bog'liqlikni mahsulot foydasiga ta'siri yordamida maqbul sifat darajasiga erishish yo'nalishi ko'rsatib o'tilgan. Unda Q_1 va Q_2 mahsulot sifatiga sarflanadigan harajatlarni o'zgarishi evaziga foyda miqdorini ham o'zgarishini anglatadi. Q_0 esa mahsulot sifatini ma'lum bir darajasida foydani maksimal bo'lishini ko'rsatib beradi. Ya'ni sifatning maqbul darajasi bo'lib hisoblanadi.



5.4.2-rasm. Sifat va harajat o'rtasidagi bog'liqlik

Mazkur misolda mahsulot tannarxi va narxini o'sishi sifatni o'sishiga proporsional tarzda bog'langan. Lekin iste'molchilar yuqori narxli mahsulotlarni sotib olgandan ko'ra, o'z ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotni arzonroq sotib olishni istaydilar. SHuning uchun, mahsulot sifati, tannarxi va narxini maksimal oshirib borgan bilan, bozor talabini qondira olmaslik ham mumkin. Korxonaning marketing strategiyasida ushbu masalalar batafsil ko'rib chiqilishi zarur.

5.4.2-rasmda sifat va harajat o'rtasidagi bog'liqlik ikkinchi yondoshuv bilan ko'rilgan. Sifat darajasi oshib borganda mahsulotni ishlab chikarish uchun qilinayotgan harajatlal boshida sekin oshadi (1-egri chiziq), chunki ishlab chikarish berilgan talablarni osonlik bilan bajaradi. Keyinchalik, sifat darajasi o'sishi bilan harajatlal keskin oshib ketadi. Oxiri shunday chegaraga yetib boradiki, harajatlal cheksizlikka intiladi. Bu holda na jihozlar, na ishchilar sifatni oshirish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

SHu bilan bir vaqtda sifat darajasi oshganda mahsulotdan foydalanishdagi harajatlal kamayadi (2-egri chiziq). Boshida ular keskin, keyinchalik asta-sekin

kamayib boradi. Bu yerda ham sifat darajasi oshishi bilan mahsulotdan foydalanishda harajatlar kamayishiga olib kelmaydigan chegaraga yetib kelamiz.

Yig'indi harajatlarga kelganda (3-egri chiziq), ular sifat darajasi oshishi bilan boshida kamayib boradi va sifatning maqbul darajasida minimal bo'ladi.

Undan keyin, sifat darajasi maqbuldan yuqorilaganda yig'indi harajatlar oshadi. Oxirida ular cheksizlikka intiladi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot tannarxini kamaytirishga intilib, ayrim xollarda mahsulot sifatini pasaytirib yuboradi. Bu holda mahsulotdan foydalanish jarayonida iste'molchining harajatlari oshib ketadi. SHuning uchun ishlab chiqaruvchining sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qiziktirish maqsadida, chiqarilayotgan mahsulotdan foydalanish harajatlarini unga yuklab qo'yish kerak.

Mahsulot sifatini maqbul darajasiga erishish birinchi darajali muxim masaladir. Bu-sifatni boshqarish tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.

Sifatni ta'minlashda harajatlar kal'kulyatsiyasining quyidagi usullari farqlanadi:


1. Sifatga harajat kal'kulyatsiya usuli mahsulot sifatining o'ziga sarflangan harajatlarni aniqlashga asoslangan. Bu harajatlarni ichki va tashqi turlarga bo'lishga qaratiladi. Bunda mahsulotni deffekt va braklarini kamaytirishga ichki va tashqi harajatlar hisobga olinadi. Ya'ni harajatlar kal'kulyatsiya qilinayotganda profilaktika, baholash va deffektni hisobga oladi. Profilaktika va baholash uchun harajatlar foyda keltiradi, deffekt uchun harajatlar esa zarar hisoblanadi.

2. Jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan harajatlar kal'kulyatsiyasi usuli har bir jarayonga muvofiq va nomuvofiq keluvchi qiymatlar tushunchasiga asoslangan.

– Muvofiqlik qiymati – bu mavjud jarayonlarni to'xtamasdan ishlatish, iste'molchilarning barcha talablarini qondirish maqsadida qilingan harajatlar. Bu harajatlar deffekt va braklar bo'lmagan sharoitda sifatni yaxshilash uchun amalga oshiriladi.

– Nomuvofiqlik qiymati – mavjud jarayondagi xatoliklar uchun harajatlar. Bu harajatlar sifatni yaxshilash uchun yoki deffektlarni kamaytirish uchun amalga oshiriladi.

3. Sifatning pastligi sharoitida yo'qotishlarni aniqlash usuli. Mazkur yondoshuvda sifatning pasayishiga olib kelgan sabab sifatida ichki va tashqi hamda material va nomaterial yo'qotishlarga, ya'ni sifat nazoratiga, ishlab chiqarishning asosiy harajatlariga, defekt natijasidagi yo'qotishlarga, ishlab chiqarishning jami harajatlariga asosiy e'tibor qaratiladi.



5.4.3-rasm. Mahsulot sifatida harajatlar hisobi

Mahsulot sifati qanday degan savolga javob berish uchun bir turdagi mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini ikkinchisi bilan taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida qaysi mahsulotning sifati yuqori ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. (5.4.3-rasm)

O'lchash usuli texnik o'lchov asboblari yordamida olingan ma'lumotlarga asoslangan. O'lchash usuli yordamida mahsulotning og'irligi, bo'yi, e'ni, o'lchami kabi parametrlarini aniqlash mumkin.

Hisoblash usuli nazariy yoki empirik bog'lanishlar yordamida olingan ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan. Bu usuldan loyiha bosqichida mahsulotlarning og'irligini, unumdorligini, quvvati, chidamliligi kabi ko'rsatkichlarni aniqlashda qo'llaniladi.

Organoleptik usul – sezgi organlari ko'rish, eshitish, sezish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan. Organoleptik usuldan qandolatchilik mahsulotlari, tamaki mahsulotlarining sifatini baholashda, gazlamaga berilgan ranglarning tiniqligini, gullarning shaklini, poyafzal mahsulotlari, tikuvchilik

mahsulotlarining tashqi ko'rinishi, ko'zga tashlanuvchanligini baholashda qo'llaniladi.

Qayd etish usuli ma'lum voqeliklar, predmetlar yoki harajatlarning, masalan, sinov paytida sinovdan o'tolmagan mahsulotlar sonini hisoblash yo'li bilan olingan ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan.

An'anaviy usul – muassasalar va korxonalarining maxsus eksperimental va hisoblar bo'limlaridagi mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi (ularga ixtisoslashgan laboratoriyalar, poligonlar, sinov stendlari va boshqalar kiradi).

Ekspert usulida mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini baholash mutaxassis ekspertlar guruhi, ya'ni dizaynerlar, degustatorlar, tovarshunoslar va shu kabilar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy usul mahsulotning haqiqatdagi yoki potentsial iste'molchilariga tayanadi. Iste'molchilarning fikri to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, so'rovlar o'tkazish yoki maxsus so'roq anketalari orqali, ko'rgazmalar, konferentsiyalar va boshqalar orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot sifati darajasini aniqlash uchun differentsial, kompleks va aralash usullardan foydalaniladi.

Differentsial usul aniq buyumning sifat ko'rsatkichlarini, uning etalonining analitik ko'rsatkichlari bilan solishtirishdan iborat. Bu xolda sifatning nisbiy ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$q_i = \frac{P_i}{P_{iB}},$$

Agar sifat ko'rsatkichi P_i kamayishi bilan yaxshilansa, bu yerda P_{iB} – etalonning i-chi birlik ko'rsatkichi. $q_i > 1$ da ko'rilayotgan mahsulotning i-chi xossasining sifat ko'rsatkichi etalonidan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Kompleks usul sifatning umumlashgan ko'rsatkichlaridan foydalanishni nazarda tutadi. U mahsulot sifati darajasining bir ma'noli raqamli baxolash imkonini beradi

$$Q = \frac{P}{P_B},$$

Bu yerda: P va P_B – tekshirilayotgan mahsulot va etaloning umumlashgan sifat ko'rsatkichlari.

Sifat darajasini aralash usulda baxolashda mahsulot xossalari yig'indisini aloxida guruxlarga bo'linadi va ular uchun sifatning kompleks darajasini aniqlanadi.

Umuman olganda baxolashni xossalar guruxini kompleks sifat darajalari bo'yicha va aloxida xossalarni birlik sifat darajalari bo'yicha bajariladi.

Aralash usulda mahsulot sifatini baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. Sifatning birlik ko'rsatkichlarini bir qator guruhlarga birlashtiriladi. Guruhlar bo'yicha sifatning kompleks ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Mahsulot sifatini baholashda quyidagi tushunchalarni bir-biridan farqlash muhim ahamiyatga ega:

- Mahsulotning sifati ko'rsatkichi deb uning sifatini belgilovchi bir yoki bir necha xossa-xususiyatlarning miqdoriy tavsifiga aytiladi.

- Mahsulotning belgisi – uning barcha xususiyat va holatlarining sifat va miqdoriy tavsifidir.

- Mahsulotning parametri – uning belgisi bo'lib, barcha miqdoriy xususiyat va holatlarni ifodalaydi.

- Mahsulot sifatining birlik ko'rsatkichi deb, uning biror xossa yoki xususiyatini ifodalovchi ko'rsatkichga aytiladi. Mahsulot sifatining birlik ko'rsatkichiga misol qilib, gazlamalarning havo o'tkazuvchanligi, cho'ziluvchanligi, chidamliligi kabi xususiyatlarini keltirishimiz mumkin.

- Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichi deb, uning bir necha xossa xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlarga aytiladi. Mahsulot sifatining kompleks ko'rsatkichiga tortilgan o'rtacha qiymat ko'rinishida aniqlangan ko'rsatkichni misol qilib keltirishimiz mumkin:

$$K_o = \sum_{i=1}^n K_i Z_i$$

bu yerda: K_1 - mahsulotning xususiyatining ko'rsatkichi.

$Z_I - K_i$ ko'rsatkichning ulushini ifodalovchi koeffitsient.

2. Guruhlar bo'yicha aniqlangan kompleks ko'rsatkichlar hamda alohida ajratib ko'rsatilgan, muhim ahamiyatga ega bo'lgan birlik ko'rsatkichlar, taqqoslash asos qilib qabul qilingan ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Odatda, o'lchash yo'li bilan mahsulot sifatining birlik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Huquqiy-patent va iqtisodiy ko'rsatkichlar, mahsulotning bir tekisdaligi ko'rsatkichi, standartlash va unifikatsiyalash, hisoblash orqali amalga oshiriladi. Hisoblash yo'li bilan, yuqorida aytib o'tganimizdek, sifatning kompleks ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin.

Sifat ko'rsatkichlarini taqqoslashni intervallar shkalasi yoki nisbatlar shkalasi orqali ham ifodalash mumkin. Sifat ko'rsatkichlarini taqqoslashda ko'rsatkichlar dinamikasining tavsifi ham e'tiborga olinadi.

$$\frac{P_i}{P_{ibba}} \quad \check{eku} \quad \frac{P_{ibba}}{P_i}$$

Texnikaviy daraja – mahsulotni texnikaviy takomillashtirishning nisbiy tavsifi bo'lib, mana shu mahsulot turini takomillashtirishda fan-texnika yutuqlarini tavsiflovchi, mahsulot sifatini belgilovchi eng asosiy xossa-xususiyatlarining yig'indisiga aytiladi.

Texnikaviy darajani baholash - mahsulotning jahon, mintaqa, milliy yoki tarmoq darajasiga javob berishini o'rganishdan iborat. Bu vazifa mahsulotning texnikaviy darajasi ko'rsatkichini bazis namuna ko'rsatkichi bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Taqqoslash asosi qilib qabul qilingan bazis namuna – bu baholanayotgan mahsulot analoglari guruhidan ajratilgan va fan-texnikaning ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtiruvchi mahsulot namunasidir.

Baholash natijasida mahsulotni quyidagi uchta darajadan biriga kiritiladi:

- Jahon darajasidan yuqori;
- Jahon darajasiga javob beradi;
- Jahon darajasiga javob bermaydi.

Baholash natijalaridan:

- ✓ yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarishda
- ✓ Texnikaviy topshiriqqa (TT) kiruvchi shartlarni asoslab berishda;
- ✓ Normativ xujjatlarga (NH) kiruvchi shartlarni asoslab berishda;
- ✓ Mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish to'g'risidagi qarorni qabul qilishda;
- ✓ Mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlash yoki almashtirishning maqsadga muvofiqligini asoslab berishda;
- ✓ Mahsulotni eksporti yoki importi bo'yicha muloxazalarning shakllanishida foydalaniladi.

Mahsulotning texnikaviy darajasini baholash bosqichlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

A. Baholash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar nomenklaturasini aniqlash: Ko'rsatkichlar nomenklaturasi bir turdagi mahsulot namunalarini, ya'ni bir xil nomdagi va bir xil maqsadda foydalaniladigan mahsulot namunalarini taqqoslashni ta'minlashi zarur.

Baholovchi ko'rsatkichlar baholanayotgan namunani bazis namuna bilan bevosita taqqoslash uchun va iste'mol xususiyatlarini, ishonchlilik, havfsizlik, ekologik hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash uchun qo'llaniladi.

B. Analoglar guruhining shakllanishi va ko'rsatkichlarining ahamiyati: Analoglar guruhiga kiritilganlarning hammasi va baholanayotgan mahsulot ishlatilish maqsadlari va qo'llanish sohasiga ko'ra mos bo'lishi, ya'ni bir xil guruhlovchi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak.

Guruhlarga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishga joriy etilayotgan mahsulotni baholashda – baholanayotgan mahsulotni ishlab chiqarish davrida jahon bozoriga kelib tushishi kutilayotgan ilg'or hamda eksperimental namunalar;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotni baholashda – ko'rsatkichlarining qiymati ularning hujjatlari yoki sinov natijalari asosida o'rnatilgan, jahon bozorida sotilayotgan namunalar.

V. Analoglar guruhidan bazis namunalarni ajratish: Bazis namuna sifatida baholanayotgan ko'rsatkichlar qiymati bo'yicha barcha analoglarni ketma-ket jufti, taqqoslash usuli bilan analoglar guruhidan bazis namuna sifatida eng yaxshilari ajratib olinadi.

Bazis namunalarni analoglarni jufti bilan taqqoslash usulida ajratish quyidagicha amalga oshiriladi:

- agar analog jami baholovchi ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa analoglardan qolishmasa, ya'ni birorta ham ko'rsatkich bo'yicha boshqa analogdan farq qilmasa, boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ustun bo'lmasa, u namuna sifatida tan olinmaydi va keyingi taqqoslash ishlarida foydalanilmaydi;

- agar birinchi analog ba'zi ko'rsatkichlari bo'yicha ustun bo'lsa, boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha esa ikkinchi analog ustun bo'lsa, bunda analoglarning ba'zi ko'rsatkichlarining qiymati bir-biriga mos kelsa, ikkala analog ham boshqa analoglar bilan keyingi taqqoslash ishlarini bajarish uchun qoldiriladi.

Analoglarni jufti bilan taqqoslash natijasida har bir baholovchi ko'rsatkichlar to'plamida qolganlardan ustun bo'lgan analoglarga qoladi. Bu analoglar bazis namunalari hisoblanadi.

G. Baholanayotgan namunani bazis namuna bilan taqqoslash – bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda mahsulotni va uning ko'rsatkichlari qiymatlarini xalqaro standart ko'rsatkichlariga havfsizlik ko'rsatkichi, ekologiya ko'rsatkichi va boshqa ko'rsatkichlarni ham inobatga olgan xolda mos kelishi tekshiriladi. Ushbu shartlardan birortasiga javob bermaydigan mahsulot jahon bozori darajasiga javob bera olmaydi. Yuqoridagi shartlar bajarilsa, ikkinchi bosqichga o'tiladi.

Ikkinchi bosqichda baholanayotgan mahsulotni har bir bazis namuna bilan baholash ko'rsatkichlarining qiymati bo'yicha, uni jufti bilan taqqoslash usuliga ko'ra solishtiriladi.

Mahsulotning texnikaviy darajasini baholashning ushbu bosqichlarini amalga oshirish yakuniga ko'ra mahsulot yuqoridagi 3 ta guruhdan qaysi biriga kiritish mumkinligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

Baholanayotgan mahsulotning analoglari bo'lmagan hollarda, agar mahsulot mualliflik guvohnomalari yoki patentlari bilan himoyalangan yangi texnik yechimlar bilan tavsiflansa, u jahon darajasiga javob beradigan hisoblanadi.

Ishning yakunida qo'yilgan maqsadlar va olingan natijalarga bog'liq xolda mahsulotni ishlab chiqarishga qo'yish, ishlab chiqarish va takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun taklif va muloxazalar tayyorlanadi.

5.5. Mahsulot sifatining shakllanish bosqichlari

Sifat boshqaruvida mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillar alohida o'rganiladi. Sifat ko'pgina tasodifiy, mahalliy va sub'ektiv omillar ta'siriga bog'liq. Bu omillarni sifat darajasiga ko'rsatadigan ta'sirini oldini olish uchun sifatni boshqarish tizimi zarur. Bunda ayrim uyushmagan va tasodifiy harakatlar emas, balki sifatning tegishli darajasini saqlab turish maqsadida mahsulotni yaratish jarayoniga muntazam ta'sir qilish choralari majmuasi zarur bo'ladi.

Sifatga ta'sir qiluvchi tasodifiy omillar sifatni rejalashtirishda ko'zda tutilmagan, korxonada bir necha yillardan buyon sodir bo'lmagan voqea-hodisalarning rivoji natijasida mahsulot sifatini o'zgarishiga olib keladi. Ularga yong'inlar, ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlar, avariylar yoki mol yetkazib beruvchilar bilan bog'liq tasodifiy hodisalar kiradi. Sifat boshqaruvida bunday hodisalarni oldindan boshqarishni imkoni yo'q. Chunki ular kutilmagan vaqtda vujudga keladi va sodir bo'ladi. Uni bartaraf etish uchun sifatni rejalashtirish jarayonida qo'shimcha variantlarni topib, bunday vaziyatga tayyor turishga yoki ular bilan bog'liq tavakkalchilikni diversifikatsiya orqali kamaytirishga harakat qilish kerak bo'ladi. Masalan, korxonada yong'in chiqishini oldini olish uchun barcha xodimlarni shu masalada qayta o'qitib, kerakli yong'in qarshi vositalarni shay holatda saqlab turish zarur. Yoki binolar qurilayotganda ularning sifati zilzila oqibatida buzilishini e'tiborga olib, zilzilaga qarshi uskunalar yasab, binoning zilzilabardoshligi oshiriladi. Bu ham sifatni tasodifiy omillar ta'siri natijasida pasayib ketishini oldindan boshqarish bo'lib hisoblanadi.

Mahsulotning sifatiga ta'sir etuvchi mahalliy omillarga mahsulot ishlab chiqaruvchining geografik joylashuvi, ishlab chiqarish sharoitlari, jamiyatning korxonaga nisbatan munosabati, korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning milliy, diniy qadriyatlar asosida ishlab chiqarilishi kabilar kiradi. Masalan, go'sht mahsulotlaridan kolbasa mahsulotining sifati cho'chqa yog'idan foydalanganda mol yog'idan foydalanganga nisbatan yuqori bo'ladi. Ammo Respublikada cho'chqa yog'ini iste'mol qilish milliy va diniy qadriyatlarga to'g'ri kelmaganligi bois, mol yog'idan foydalaniladi. Agar sifatni oshirish maqsadida ishlab chiqaruvchi cho'chqa yog'idan foydalansa, uni hech kim sotib olmaydi. Bu ham mahalliy sharoitni sifatga ta'siri hisoblanadi.

Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi sub'ektiv omillar qatoriga inson faoliyati natijasida mahsulot sifatini o'zgarishi tushuniladi. Ushbu omil qolgan omillarga nisbatan eng muxim sanaladi. Chunki, mahsulot sifatiga boshqa ishlab chiqarish omillariga nisbatan inson ko'proq ta'sir qiladi. Agar ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etayotgan ishchining malaka darajasi past yoki niyati yomon bo'lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini eng zo'r xomashyodan foydalanib ham yaxshilab bo'lmaydi. Aksincha, bu vaziyatda harajatlar ortadi. Masalan, malaka darajasi past ishchiga eng yaxshi xomashyoni berib mahsulot tayyorlash vazifasi yuklansa, u brak yoki deffektlar sonini ortiradi yoki mahsulotni noto'g'ri qadoqlaydi. Agar malakasi yuqori bo'lgan ishchiga eng sifati past xomashyodan mahsulot tayyorlash vazifasi yuklatilsa, u undan sifatli mahsulot ishlab chiqara oladi. Bu xuddi osh tayyorlashga kirishgan oshpaz va uning yordamchisiga o'xshaydi. Yaxshi oshpaz past navli guruchdan ham sifatli osh tayyorlay oladi. Uning yangi yordamchisiga eng zo'r guruchni bersangiz ham adashadi.

Korxonada ishlab chiqilayotgan mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni yana boshqa turlarga ham bo'lib o'rganish mumkin. Bu omillarni texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy turlarga ajratish mumkin 5.5.1-rasm.



5.5.1-rasm. Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarning turkumlanishi

Texnikaviy omillar guruhi:

- texnologik jihozlar, uskunalar, asbob va nazorat vositalari holati;
- dastlabki materiallar, xomashyo va jamlovchi buyumlar sifati;
- texnikaviy xujjatlar va boshqalar holati va sifatidan iborat.

Tashkiliy omillar guruhiga:

- ishning muntazamligi va bir maromdaligi;
- jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash;
- material, butlovchi buyumlar, uskunalar, asboblari;
- nazorat vositalari va texnikaviy xujjatlar bilan ta'minlanganlik;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish; ishda ovqatlanish, dam olish va boshqalar

kiradi.

Iqtisodiy omillar guruhi:

- mehnatga haq to'lash shakli;
- ish haqining miqdori;
- yuqori sifatli mahsulot va ish uchun mukofatlash;
- yaroqsiz mahsulot uchun maoshdan chegirib qolish;
- mahsulot tannarxi va narxi;
- sifat darajasi va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy omillar guruhi:

- kadrlarni tanlash, joylash va ish joyini o'zgartirish;

- malaka oshirishni tashkil qilish;
- ilmiy-texnikaviy ijod va ixtirochilik;
- turar-joy, maishiy sharoitlar, jamoadagi o'zaro munosabatlar, psixologik muhit va boshqalardan iborat.

SHu bilan birga, shartli ravishda sifatga ta'sir etuvchi omillarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

- material-texnik (ishlab chiqarish asbob-uskunolari, dastgohlar ishlab chiqarishni texnik va metrologik ta'minoti, sinov va nazoratning uslub va vositalari, ishlatiladigan materiallar, bino va qurilmalar);

- inson omili (malakasi, professional bilimi, o'z ishiga bo'lgan qiziqishi);
- ma'muriy (tashkilotning umumiy ishlab chiqarish faoliyatini va qisman sifat boshqaruvini tashkil etish);

Umuman olganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yuqori darajada ushlab turish va ta'minlash – kompleks muammodir.


Faqatgina ilmiy asoslangan holda tizim va kompleksli, bir vaqtda va o'zaro bog'liq bo'lgan texnik, tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy hamda ijtimoiy tadbirlar yordamida tez va aniq holda mahsulot sifatini mukammallashtirish mumkin.

SHu sababli, sifat boshqaruvini rejalashtirilayotganda, unga ta'sir qiluvchi har bir omilni diqqat bilan o'rganish va uni e'tibordan qochirmaslik lozim. Sifatni boshqarishda ko'plab korxonalar tizim va dasturlardan foydalanadi. SHu bilan birga, ushbu tizim aniq olingan maqsadga asoslanadi.

Sifatni boshqarish tizimi – bu sifatni rejalashtirish, tartibga solish va nazorat qilishning majmuasi hisoblanib, u o'z ichiga me'yoriy-huquqiy yo'riqnomalarni ham oladi.

Mahsulot sifatining zarur darajasini ta'minlash uchun mahsulotning “hayot tsikli”ni davom ettirmoq zarurdir.

Hayot tsikli – bu yaratish jarayonining o'zaro bog'liqligi va mahsulotni ishlatilishi yoki unga ehtiyojni tugaguncha dastlabki talablarni shakllanishidan uning holatini asta-sekinlik bilan o'zgarib borishidir.



5.5.2-rasm. Mahsulot tayyorlashning umumiy sxemasi.

Hayot tsiklining birinchi darajasini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: tekshirish va tayyorlash (ishlash); tayyorlash (yasash) va realizatsiya qilish (pullash) va muomalaga chiqarish; ekspluatatsiya qilish. (5.5.2-rasm.).

Hisoblab chiqilgan bosqichlarni bosqichlarga, jarayonlarga bo'lish mumkin. Mahsulotlar sifatini bir xilda doimiy ta'minlash hayot tsiklida yuzaga keladigan ko'p omillarga bog'liqdir. Ularni quyidagicha tasavvur qilish mumkin.

Mahsulotni tekshirish va tayyorlash bosqichining maqsadi – yangi mahsulot sifatiga perspektiv talablarni, konstruktorlik va boshqa turdagi texnik qarorlar hujjatlarini shakllantirish, realizatsiyaning bu talablarini ko'proq iqtisodiy yo'llar bilan ta'minlash.

Amerikalik mutaxassislarning baho berishicha, agar sifatni ta'minlashning hamma o'lchamlarini 100 foiz deb qabul qilinsa, unda 75 foizi konstruktiv qarorga, loyihalash, maket va tajriba namunasi asosida qayta ishlash, izlanishga, 20 foizi - ishlab chikarish jarayoniga, 5 foizi esa - mahsulotni tamomila qabul qilishga to'g'ri keladi.

Mahsulotni tayyorlash GOST 15.001 “Tayyorlash sistemasi va mahsulotlarni ishlab chiqarishga qo’yish” bilan muvofiq holda quyidagilarni ko’zda tutadi:

- texnik vazifalarni tayyorlash;
- texnik va normativ hujjatlarni tayyorlash;
- mahsulot namunalarini sinash va tayyorlash;
- tayyorlash natijalarini qabul qilish.

Texnik vazifa (TV) mahsulot tayyorlash uchun boshlang’ich asosiy hujjat hisoblanadi. Unda mahsulotga texnik – iqtisodiy talablar, qaytarish tartibi va tayyorlash natijalarini qabul qilish ko’rib o’tiladi.

Etalon - namuna asosida mahsulotni ishlab chiqarishga qo’yish, ishlab chiqarish va saqlashda tasviriy-estetik ko’rsatkichlari bo’yicha ishlab chiqaruvchida mahsulot yoki tovarlar partiyasining sifatiga da’vo va reklamatsiyalarning oldini olish maqsadida taqqoslash uchun saqlanadi.

Mahsulotni ishlab chiqarishga qo’yish to’g’risidagi dalolatnomaning tasdiqlanishi, qabul qilish komissiyasining tasdiqlagan qarorini tayyorlash tamomlanganligini, texnik vazifa harakati to’htatilganligini va mahsulotni ishlab chiqarishga ruxsat berilganligini bildiradi.

Mahsulotni oluvchi korxona mahsulotlar partiyasi tarkibida etalon – namuna nusxasini kirish nazoratini amalga oshirish uchun berilishini talab qilishi mumkin.


Nusxa yorlig’i tasviriy – texnik kengash yoki boshqa shaxs tomonidan etalon nusxa muvofiqligi haqida yozma holatda tasdiqlangan bo’lishi kerak.

5.6. Mahsulot sifatini nazorat qilish

Mahsulot sifatini nazorat qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi: haqiqatda mahsulotning holati to’g’risida ma’lumotlar olish (uning miqdoriy va sifat belgilari to’g’risida), olingan ma’lumotlarni oldindan o’rnatilgan texnik shartlar bilan taqqoslash, ya’ni ikkilamchi ma’lumotlarni olish. Haqiqatdagi ko’rsatkich, normativ shartlarga mos kelmagan hollarda nazorat ob’ektiga normativ shartlardan chekkalanishni yo’qotish maqsadida boshqaruv ta’sirini amalga oshiriladi.

Boshqarilayotgan ob'ekt to'g'risida ma'lumotlar to'plash maqsadida sifatni nazorat qilishning zaruriyligi GOST 15467-79 da "Mahsulot sifatini boshqarish – mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorlash, ishlab chiqarish, ekspluatatsiya yoki iste'mol sohasida mahsulot sifatini muntazam nazorat qilish va sifatga ta'sir qiluvchi omillarni maqsadga yo'naltirilgan ravishda boshqarish orqali zaruriy sifat darajasini o'rnatish, ta'minlash va saqlab turishdan iboratdir" deb ko'rsatilgan.

Nazoratning asosiy tushunchalari GOST 16.501-81 da ko'rsatib o'tilgan. Nazorat turlarining klassifikatsiyasi 5.6.1-rasmda keltirilgan. Sifat muammosining murakkabligi korxonada mahsulot sifatini boshqarishga kompleks yondoshishni talab qiladi.



5.6.1-rasm. Mahsulot sifatini nazorat qilish turlarining klassifikatsiyasi

Yirik korxonalarda sifatni nazorat qilish tizimiga mahsulotni ishonchlilik ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat qilish, mahsulotning tajriba namunalarini, maketlarni tekshirish bo'linmalari kiradi.

Nazorat funktsiyalariga bevosita o'lchov vositalaridan, elektron, kompyuter qurilmalaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydigan, ularning holatini nazorat qiladigan ishlab chiqarishni metrologik ta'minlash ham qo'shilib ketadi.

Nihoyat, dasturlarni tayyorlash va kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish, ularni motivlashtirish va rag'batlantirish sifat masalalarining muvaffaqiyatli yechilishi uchun zarurdir. Hamma korxonalar ham sifatni to'liq boshqarish imkoniyatiga ega emas. Kichik korxonalar, odatda, maxsus maslahatchi, injiniring firmalarining xizmatidan foydalanadilar, sifat bo'yicha muhandis bo'lishi bilan cheklanadilar.

Zamonaviy texnikaviy nazoratning asosi bo'lib matematik-statistik uslublar hisoblanadi. Mahsulot sifatini boshqarish ikkita usulda ta'minlanishi mumkin: mahsulotni yaroqli va yaroqsizga ajratish bilan va texnologik aniqlikni oshirish yo'li bilan.

Sifat har bir loyiha va har bir jarayonning asosi bo'lishi kerak. Unga faqat nazorat orqali erishib bo'lmaydi. Asosiy e'tibor nazoratga qaratilgan sifatni boshqarish – bu sifatni boshqarishning eski uslubidir. Boshqarishning asosida xatolar takrorlanishini oldini olish yotadi.

Sifatni kompleks boshqarishning mohiyati sifatni boshqarishdan va har bir yangi mahsulotni ishlab chiqarishda sifatni ta'minlashdan iborat. Sifatni boshqarishni tadbqiq qilish va amalga oshirishda Yaponiya firmalari “eng avvalo sifat” tamoyili bo'yicha rahbarlik qiladi.

Sifatni ta'minlash deb, iste'mol talablarini to'la qondirish, undan uzoq vaqt foydalanish va iste'molchi sifatni kafolatlashiga aytiladi. Sifatni ta'minlash tayyorlovchi va buyurtmachi orasida shartnomani eslatadi. Sifatni samarali ta'minlash uchun yuqori rahbarlik quyidagi bo'limlarni: ilmiy tadqiqot, rejalashtirish, ixtirochilik, ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatishlarni o'z ichiga olgan qattiq siyosatni belgilashi kerak.

Yaponiyada sifatni ta'minlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda:

1. Nazoratga asoslangan sifatni ta'minlash.
2. Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishga asoslangan sifatni boshqarish.

3. Asosiy e'tiborni yangi xildagi mahsulotlarni ishlab chiqishga qaratilgan sifatni boshqarish.

G'arbda asosiy e'tibor nazoratni kuchaytirish orqali sifatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, maxsus bo'limlar tashkil qilinib, ularga keng huquqlar berilgan, shuning uchun ishlab chiqarish xodimlari orasida nazoratchilar salmog'i juda yuqori. Yaponiyada nazoratchilar 5 foizni, ba'zi firmalarda esa 1 foizgachani tashkil qiladi. Sifatni boshqarish bilan sifatni nazorat qilish yoki texnik nazorat bo'limi shug'ullangan. Ammo nazoratchilar ortiqcha hodimlar bo'lib, firmadagi umumiy mehnat unumdorligini pasaytiradi, chunki ular xech narsa ishlab chiqarmaydilar. Xozirgi vaqtda Yaponiyada ishlab chiqarishning har bir bo'g'ini sifatni ta'minlashga javob beradi, texnika nazorati bo'limining burchi mahsulotni iste'molchi yoki rahbar sifatida tekshirishdir.

Sifatni ta'minlash va xatolarni oldini olishda har bir firma sifatni ta'minlovchi dasturni rivojlantirish uchun quyidagi chegaralarni belgilashi mumkin:

- nuqsonlarning tashqi ko'rinishini bartaraf qilish;
- to'g'ridan-to'g'ri sabablarni bartaraf qilish;
- eng birlamchi sabablarni bartaraf qilish;

Umumiy ko'rinishdagi sabablarni bartaraf qilish, boshqarishni takomillashtirish va muhim standartlarni qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq. Nazorat qilish uchun har bir firmada texnologik kartalar tuzilib, u hammaga ko'rinarli joyga osib qo'yiladi. Unda buyumni ishlab chiqarish muddati, donalab ishlab chiqarish vaqti, operatsiyalar ketma-ketligi va me'yoriy ishlab chiqarishni boshlanishi ko'rsatiladi hamda nazorat shakllari belgilanadi.

VI BOB. STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI

Ushbu bob mavzusini o'rganishdan maqsad, quyidagi savollarga javob topish ekanligini yodingizdan chiqarmang:

- *Standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?*
- *Standartlashtirishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
- *ISO 9000 seriyasidagi standartlar qaysi standartlardan tashkil topgan?*
- *Sifatni boshqarish tizimining maqsadlarini bilasizmi?*
- *Respublikamiz sanoat korxonalarida SMTni joriy etilishi va ularga beriladigan imtiyozlar xaqida gapirib bering?*
- *Korxonalarda qo'llanilayotgan standartlarni qanaqa turlarini bilasiz?*
- *Respublikamiz milliy iqtisodiyoti tarmoqlarida foydalaniladigan standartlar xaqida nimalarni bilasiz?*
- *Mahsulot hayot tsiklining barcha bosqichlarida standartlashtirish qanday vazifalarni bajaradi?*

6.1. Sifatni boshqarishda standartlashtirish

Odatda biz “standart asosida” degan iborani ko'p ishlatamiz. Ko'pchilikda standart o'zi nima? degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Standart – bu ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarda eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har xil turlariga va natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qonun – qoidalar, tavsiflar, talablar va usullar belgilangan hamda tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy xujjatdir.

Standartlar fan, texnika va tajribalarning umumlashtirilgan natijalariga asoslangan hamda jamiyat uchun yuqori darajadagi foydaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Davlat standartlari mahsulotni ishlab chiqarish va uni ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida, yangi mahsulotlarni yuqori sifatli turlarini yaratish va ularni

o'zlashtirishni tezlatishga, ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga yo'naltirilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi buyumga o'z vaqtida yuqori sifatli loyixa - konstruktorlik xujjatlarini berish, yangi mahsulotlarni berilgan sifat ko'rsatkichlariga asosan tayyorlashni va kerak bo'lsa, mahsulotni ishlab chiqarishdan olib tashlashni ta'minlaydi.

Standartlashtirish mahsulot muomilada bo'lganida, sotish bosqichida uni joylashtirishda yaxshi tartib va sharoitlar yaratishga, yuklashga, joylashtirishga, to'g'ri saqlashga, buyumni transportda tashish, tarqatish talablarini sotuvchi tashkilotlarga belgilab beradi.

Standartlashtirish deganda mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umumiy va ko'p marta tadbqiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yunaltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat tushuniladi. Bu faoliyat standartlarni va texnik talablarni ishlab chiqishda, nashr etishda hamda tadbqiq etishda namoyon bo'ladi. Standartlashtirishning muxim natijalari odatda mahsulot, jarayon va xizmatlarning belgilangan vazifaga mos kelishi, savdodagi to'siqlarni bartaraf etish hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashishda namoyon bo'ladi.

“Standartlashtirish ob'ekti” tushunchasini keng ma'noda ifodalash uchun “mahsulot, jarayon, xizmat” iboralari qabul qilingan bo'lib, buni har qanday materialga, tarkibiy qismlarga, asbob-uskunalariga, tizimlarga, ularni mosligiga, qonun-qoidasiga, ish olib borish uslubiga, vazifasiga, usuliga yoki faoliyatiga keng darajada daxldor deb tushunmoq lozim.

Standartlashtirish har qanday ob'ektning muayyan jixatlari bilan cheklanishi mumkin. Masalan, oyoq kiyimga nisbatan yondashiladigan bo'lsa, uning katta-kichikligi va pishiqligini aloxida standartlashtirish mumkin.

Standartlashtirish ob'ekti sifatida xizmat – xalqqa xizmat qilishni, korxona va tashkilotlar uchun ishlab chiqarish xizmatini o'z ichiga oladi. Standartlashtirishning boshqa ob'ektlari faoliyatining biriktirilgan sohalarida O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi

“O’zstandart”, O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Sog’liqni saqlash vazirligi, Mudofaa vazirligi, O’zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan belgilanadi.

Odatda xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlashtirish idoralari mavjud. Xalqaro standartlashtirish faoliyatida barcha mamlakatlarning tegishli idoralari erkin xolda ishtirok etishi mumkin.

Mintaqaviy standartlashtirish deganda Dunyo miqyosida birgina jug’rofiy yoki iqtisodiy mintaqaga qarashli mamlakatlarning tegishli idoralari uchun erkin xolda ishtirok etishlari mumkin bo’lgan standartlashtirish tushuniladi.

Milliy standartlashtirish – bu muayyan bir mamlakat doirasida o’tkaziladigan standartlashtirish faoliyatidir.

Standartlashtirish har xil faoliyat turlari va uning natijalariga tegishli qoidalar, umumiy qonun - qoidalar yoki tavsiflarni o’zida qamrab olgan me’yoriy xujjat xisoblanadi.

“Me’yoriy xujjat” atamasi standartlar, texnik shartlar, shuningdek umumiy ko’rsatmalar, yo’riqnomalar va qoidalar tushunchasini ham o’z ichiga qamrab oladi.

Standartlashtirish maqsadlari ko’p qirrali bo’lib, ular asosan quyidagilardan iborat: uyg’unlashtirish (har xillikni boshqarish), qo’llanishlik, maslashuvchanlik, o’zaro almashinuvchanlik, sog’liqni saqlash, xavfsizlikni ta’minlash, tashqi muxitni asrash, mahsulotni ximoyalash, o’zaro tushunishlikka erishish, savdodagi iqtisodiy ko’rsatkichlarni yaxshilash va boshqalar.

Standartlashtirishda “mahsulotning o’z vazifasiga muvofiqligi” deganda mahsulot, jarayon yoki xizmatning belgilangan sharoitlarda muayyan vazifalarni bajarish qobiliyati tushuniladi.

Moslashuvchanlik deganda ma’lum sharoitlarda belgilangan talablarni bajarish uchun salbiy ta’sir ko’rsatmasdan mahsulotlarning birgalikda ko’llanishga yaroqliligi tushuniladi.

O’zaro almashinuvchanlik - bir xil talablarni bajarish maqsadida bir mahsulot (jarayon, xizmat)dan foydalanish o’rniga boshqa bir mahsulot (jarayon, xizmat)dan

faoydalanishga yaroqliligidan iborat. Har xillikni boshqarish (unifikatsiyalashtirish) yoki birxillashtirish deb, muayyan extiyojni qondirish uchun zarur bo'lgan eng maqbul o'lchamlarni yoki mahsulot, jarayon va xizmat turlarini tanlashga aytiladi.

Standartlashtirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- mahsulot, ish va xizmatlarning (keyingi o'rinlarda "mahsulotlar" deb yuritiladi) insonlarning xayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof - muxit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilarning va davlatning manfaatlarini ximoya qilish;

- mahsulotlarning o'zaro bir-birini o'rnini bosishini va bir-biriga monandligini ta'minlash;

- fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, axoli va xalq xo'jaligining extiyojlariga muvofiq xolda, mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini oshirish;

- barcha turdagi resurslarni tejashga, ishlab chiqarishni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;

- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyixalarni amalga oshirish;

- tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulotda vaziyatlar yuzaga kelishi xavfini xisobga olgan xolda, xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlash;

- iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namenklaturasi va sifati to'g'risidagi to'liq va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash;

- mudofa qobiliyatini va safarbarlikka tayyorgarlikni ta'minlash;

- o'lchashlarning yagonaligini ta'minlash;

- ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, bajaruvchi) mahsulot sifati to'g'risidagi ma'lum qilgan ko'rsatkichlarni tasdiqlash.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iste'molchi va davlatning manfaatlari yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul talablarni qo'yish;

- davlat, respublika fuqorolari va chet el extiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy xujjatlar tizimini va uni ishlab chiqarish qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek xujjatlarni nazorat qilish;

- standart talablarining sanoati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro, milliy va mintaqaviy standartlari talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;

- bir-biriga moslikning barcha turlarini (konstruktiv, elektrik, elektromagnitli, informatsion, dasturli va boshqalar), shuningdek mahsulotning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash;

- parametrik va turlar o'lchovi qatorlarini, tayanch konstruksiyalarni, buyumlarning konstruktiv jixatdan bir xil qilingan modullashgan bloki tarkibiy qismlarini aniqlash va qo'llash asosida uyg'unlashtirish;

- mahsulot, uning tarkibiy qismlari, xom-ashyo va materiallar ko'rsatkichlari va tavsiflarining kelishib olinishi va bog'lanishi;

- material va energiya sarfini kamaytirish, kam chiqimli texnologiyalarni qo'llash;

- mahsulotning ergonomik xossalariga talablarning a'elgilanishi;

- metrologik me'yor, qoida, nizom va talablarning belgilanishi;

- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan keng foydalanish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;

- xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi extiyojlarini qondirgan xolda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini mamlakatimiz standartlari va texnik shartlari tariqasida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;

- texnologik jarayonlarga talablarni belgilash;

- mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlik qilish ishlarini tashkil etish;

- texnik-iqtisodiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish tizimini yaratish va joriy qilish;

- sinovlarni me'yoriy-texnik jixatdan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baxolash va nazorat qilish.

Mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish tartibini ko'rib chiqayotganda korxonalar o'z oldilariga qo'ygan quyidagi maqsadlariga ega bo'lishi kerak:

1. Mahsulot sifatining bozor talabi va aniq haridor talabiga muvofiq kelishi;
2. Mahsulotning sotib olish, yetkazib berish va foydalanish harajatlari yig'indisini kamaytirish;
3. Haridor istagan muddatga yetkazib berishni amalga oshirish;
4. Korxonaning bozorda yuqori mavqeini yaratish va korxonaning mustahkam hamkor sifatida tasdiqlaydigan dalillarni keltira bilish.

Jahon tajribasi nafaqat amaldagi sifatni boshqarish tartibini umumiy belgilarini, balki har birida qo'llanishi mumkin bo'lgan tamoyil va usullarni vujudga keltirdi. Hozirgi vaqtda kontseptual farqlarni o'z ichiga olgan sifatni boshqarish tartibini uch darajasini ajratish mumkin:

- 9000 seriyasidagi ISO standarti talablariga muvofiq tizimlar.
- umumfirma sifatni boshqarish tizimi (TQM umum sifatni boshqarish-Total Quality Menejment).
- Milliy me'zon va sifat bo'yicha halqaro (regional) mukofot va diplomlar tizimi.

Sifatni boshqarish tartibi – korxonada amal qilayotgan, foydali texnik, boshqarish usullarini o'z ichiga olgan, insonlar va mashinalarning o'zaro munosabatini eng yaxshi va eng qulay usullarni ta'minlagan sifat uchun qilingan harajatlarni tejash hamda ma'lumotlarni berishni o'zida namoyon qilgan kelishilgan ish ko'rilishidir.

6.2. Standartlarni ilmiy tashkil etish asoslari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab umumjahon rivojlanishida standartlar, standartlashtirish masalalari, birinchi navbatda, mahsulot va xizmatlarni, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlash, savdo-iqtisodiy va ilmiy texnikaviy hamkorlikda texnik to'siqlarni bartaraf etish va eng

muximi ichki va tashqi bozorga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini hamda raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan samarali vositaga aylandi.

O'zbekiston respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etishni muvofiqlashtirish va ularning ma'lum darajada olib borishni quyidagi idoralar tomonidan amalga oshiriladi;

- tarmoqlararo yo'nalishda belgilangan mahsulot bo'yicha "O'zstandart" agentligi;

- qurilish va qurilish sanoati, loyixalash va konstruksiyalash ishlari bo'yicha – O'zbekiston respublikasi qurilish vazirligi;

- tibbiy yo'nalishdagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlari, dori-darmonlar va respublika sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibida inson uchun zararli moddalar miqdorini tartibga solish bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ;

- tabiiy resurslardan foydalanishni yo'lga qo'yish, atrof muxitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muxofaza qilish sohasi bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi;

- mudofa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida - O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi.

Respublikamizda "O'zstandart" agentligi, Qurilish, Sog'liqni saqlash, Mudofaa vazirliklari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi milliy iqtisodiyot tarmoqlarida standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya bo'yicha respublika standartlarini ko'rib chiqadilar, tasdiqlaydilar, ularning qo'llanish muddatini tuzadilar, bekor qiladilar hamda unga o'zgartirishlar kiritadilar.

Rivojlangan davlatlar tajribasi standartlashtirish ishlarining yuqori sifatli va samarali bo'lishini ta'minlash uchun, ularni ishlab chiqish bosqichida quyidagi majburiy tamoyillarni bajarish shartligini ko'rsatmoqda:

1. Tizimlilik tamoyili. Texnik taraqqiyot va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining o'sishi insonlar mehnati, mehnat vositalari hamda mehnat predmetlarini

birlashtiruvchi ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan tizimli yondashuvni taqozo qiladi.

Tizim deganda, ko'zlangan maqsadga maksimal samaradorlik va eng kam harajatlar bilan erishishni ta'minlaydigan, o'zaro bog'langan elementlar to'plamining faoliyati tushuniladi. Elementlar tizimining miqdoriy aloqalari determinatlashgan yoki tasodifiy bo'lishi mumkin.

Tizimga kiruvchi o'zaro bog'langan elementlar majmui ularni turli darajalarda ierarxik bog'liqligini o'rnatishga imkon beruvchi tuzulmasini hosil qiladi.

2. Komplekslik va optimal chegaralanish tamoyili. Standartlarni ishlab chiqishda standartlashtirishning yakuniy ob'ektiga ta'sir etuvchi barcha asosiy elementlarni e'tiborga olish kerak. Standartlashtirish ishlarini mehnat sarfini qisqartirish uchun asosiy ob'ektga unchalik ta'sir ko'rsatmaydigan omillar e'tiborga olinmaydi. Standartlashtirishda moddiy va moddiy bo'lmagan o'zaro bog'langan elementlar kompleksiga talab va tavsiflar tizimi ko'rib chiqiladi.

3. Standartlarni optimallashtirish va progressivlik tamoyili. Standartlar tomonidan o'rnatilgan ko'rsatkichlar, me'yorlar, tavsiflar va shartlar fan, texnika va ishlab chiqarishning jahon darajasiga javob berishi kerak. Ular standartlashtirilayotgan ob'ektlarning rivojlanish yo'nalishlarini e'tiborga olishi shart.

4. Standartlashtirilayotgan mahsulotning bog'liqligini ta'minlash tamoyili. Mahsulotlar ekspluatatsiya qilish ko'rsatkichlari bo'yicha bir-birini o'rni bosishini ta'minlashga imkon beruvchi bu tamoyil kompleks standartlashtirishda, shuningdek mahsulotlarni standartlashtirishda, texnik shartlarni ishlab chiqishda asosiy o'rin tutadi.

5. Standartlarning o'zaro bog'liqlik tamoyili. Umumtexnikaviy va tarmoqlararo standartlarning ko'p sonli, turli-tumanligi ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'rnatishni taqozo etadi. Kompleks standartlashtirish usuli ushbu tamoyilning muhimligi va samaradorligining yaqqol misolidir. SHuningdek,

standartlashtirish sohasida qo'llaniladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi ham muhimdir.

6. Standartlarni ishlab chiqishning ilmiy-tadqiqot tamoyili. Standartlarning loyihalarini tayyorlash va muvaffaqiyatli tadbiiq etish uchun, faqatgina amaliy tajribani keng umumlashtirishgina emas, balki maxsus nazariy, eksperimental va tajriba konstruktorlik ishlarini ham amalga oshirish zarurdir. Bu tamoyil barcha standartlarga tegishlidir.

7. Ustivorlik tamoyili. Odatda tipik birlashmalar va detallarning tipi va o'lchamlari, shuningdek boshqa parametrlari ishlab chiqarishning turli tarmoqlari uchun bir vaqtda standartlashtiriladi. SHuning uchun bunday standartlar parametrlari bo'yicha katta diapazonni egallaydi.

SHu tamoyilga ko'ra rezbalarning metrik qadami va diametri qatori, normal burchaklar qatori va boshqalar tuziladi. Bundan tashqari mahsulot tiplari, tip o'lchamlari, parametrlarini qo'llashga ruxsat etiladigan zaruriy minimumga keltiradigan chegaralangan tarmoq standartlarini ham yaratish tavsiya etiladi.

8. Dinamika tamoyili. Iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadida standartlashtirish ob'ektlarining texnika taraqqiyoti shartlariga javob beradigan darajada bo'lishi uchun, ularni vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish zarur.

9. Minimal moddiy harajatlar ulushi. To'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarida moddiy sarf harajatlarni ulushi 65-80 foizni tashkil etadi. SHuning uchun ham mahsulot birligiga ketadigan xom-ashyo sarfini qisqartirish muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotlarni standartlashtirishda xom-ashyo sarfi ulushini qisqartirishga imkon beradigan ilg'or texnologiyani tadbiiq etish, eng maqbul bichish kartalarini qo'llash, mahsulotning uzoqqa chidamlilik, ta'mirlanuvchanlik xususiyatlarini yaxshilash moddiy harajatlar ulushini qisqartirishga imkon beradi.

Zamonaviy standartlashtirishning nazariy asosi bo'lib ustuvor sonlar tizimi hisoblanadi.

Ustuvor raqamlar deb yangidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning parametrlari qiymatlarini belgilashda boshqa raqamlarga nisbatan afzallikka ega bo'lgan raqamlarga aytiladi.

Ustuvor raqamlar qatorlari quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:

- ishlab chiqarish va ekspluatatsiya shartlariga javob beradigan chegarani ratsional tizimini aks ettirishi;
- sonlarning ortib yoki kamayib borishi cheksiz bo'lishi;
- har bir qatorning barcha o'ninchi darajali yoki kasr qiymatlarini kiritish;
- oddiy va oson eslab qoladigan bo'lishi.


6.3. Sifatni boshqarish tizimida ISO 9000 seriyasidagi xalqaro standartlar

Sifatni boshqarish bo'yicha milliy standartlar qator davlatlarda XX asrning 70-yillaridan boshlab qo'llanib kelinmoqda. Ular birinchi navbatda aviatsiya, kosmonavtika, harbiy texnikalarni ishlab chiqarish kabi muhim tarmoqlarda loyihalashtirish va ishlab chiqarish bosqichlarida sifatni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi va qo'llanilmoqda.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot International Organization for Standardization ISO (ISO Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) - Xalqaro standartlarni ishlab chiquvchi tashkilot xisoblanib, u 25 ta mamlakatning milliy standartlash tashkilotlari tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning 1946 yildagi qaroriga asosan tashkil topgan. U hozirgi kunda 160 dan ortiq davlatlar a'zolari asosidagi nodavlat tashkiloti (har bir davlatdan bir tashkilot) xisoblanadi. Uning markaziy kotibiyati Jeneva shahrida joylashgan. U o'z faoliyatini 1947 yilda boshlagan. Bu nufuzli tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tarkibida faoliyat ko'rsatib, rivojlanib kelmoqda.

ISO 9000 - ISO xalqaro standartlar seriyasi bo'lib, korxonalarda sifatni boshqarish tizimini tartibga soladi. (Sababi: u jahon standartlari darajasidagi mahsulot ishlab chiqarish uchun yagona sifatni ta'minlash tizimi). "ISO" – atamasi brend hisoblanib, yunon tushunchasida "teng" degan ma'noni bildiradi va u tarjima qilinmaydi.

ISO ning maqsadi: Xalqaro tovar ayirboshlashni jahon miqyosida yengillashtirish, shuningdek, intellektual, ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy faoliyat sohasidagi hamkorlikni kengaytirishdan iborat.



6.3.1-rasm. ISO 9000 seriyasidagi standartlar kompleksining tuzilishi

Standartlashtirish va sifatni ta'minlash tizimini qo'llash sohasidagi milliy tajribaga asoslanib, 1987 yilda ISO 9000 seriyasidagi birinchi 5 ta standart ishlab chiqildi, hamda sifatni ta'minlash sohasi MS ISO 8402 dagi tushunchalar va ularni ta'rifi bo'yicha lug'at tayyorlandi.

ISO 9000 seriyasidagi standartlar quyidagi standartlardan tashkil topgan:

ISO 9000 “Sifatni umumiy boshqarish va sifatni ta'minlashda standart tanlash va qo'llash bo'yicha boshqaruv ko'rsatmalari”;

ISO 9001 “Sifat sistemasi. Loyihalash, ishlab chiqarishga tayyorlash, ishlab chiqarish, montaj va xizmat ko'rsatishda sifatni ta'minlash modeli”;

ISO 9002 “Sifat sistemasi. Ishlab chiqarish va montaj qilishda sifatni ta'minlash modeli”;

ISO 9003 “Sifat sistemasi. Yakuniy nazorat va sinov jarayonlarida sifatni ta'minlash modeli”;

ISO 9004 “Sifatni umumiy boshqarish va sifat sistemasining elementlari. Boshqaruv ko'rsatmalari”.


1994 yilda ISO/TK 176 ISO 9000 seriyasidagi standartlarni qayta ko'rib chiqishni yakunlandi.

Standartlarni qayta ko'rib chiqishda ishchi guruhlar bozor talablariga muvofiq holda quyidagi vazifalarni bajarishni maqsad qilib qo'ydilar:

- Standartlarda ularni qo'llashning ilg'or amaliy tajribalarini aks ettirishni ta'minlash;
- Standartlarning muvofiqligi va stabilligini ta'minlash;

- Ularning katta-kichikligi, qaysi tarmoqqa tegishli ekanligi, qanday mahsulot ishlab chiqarilishidan qat'iy nazar, kompaniyalar tomonidan standartlarning qo'llanishiga imkon berish.

Keyinchalik ISO 9000 seriyasidagi standartlarga o'zgarishlar kiritildi va ISO 9001, ISO 9002, ISO 9003 standartlari qayta ko'rib chiqildi. ISO 9004 standartlariga kamroq o'zgarishlar kiritildi. Masalan, “Sifat halqasi” tushunchasi “Mahsulot hayot tsiklining tipik bosqichlari” tushunchasi bilan almashtirilib, “Texnikaviy yordam va xizmat ko'rsatish” bosqichidan keyin qo'shimcha “sotilgandan keyingi faoliyat” qo'shildi. Hozirgi kunda oltinchi bo'lim “Sifat sistemasining moliyaviy aspektlari” deb ataladi va moliyaviy ma'lumotlar elementlarini namoyon va tahlil qilish uchun ma'lumotlar to'plashning turli usullarining qisqacha tavsifi bilan to'ldirilgan.




6.3.2-rasm. Sifatni boshqarish tizimi

Rivojlangan davlatlarda sifat tizimi bo'lmagan korxona yoki firma bilan ishlab bo'lmaydi. Chunki birinchidan hech qanday kafolat yo'q, ikkinchidan esa siz shartnoma tuzganigizda ham, siz bilan ishlovchi boshqa sub'ektlar bundan boxabar bo'lganlarida ularning sizga nisbatan ishonchlari kamayishi mumkin. Shu sababdan sifat tizimlariga nixoyatda jiddiy ahamiyat berishimiz kerak.

ISO 9000 seriyasidagi to'ldirilgan standartlar 1994 yil iyulida nashr qilindi. Hozirgi kunda bu standartlar rus tiliga tarjima qilingan.

Sifatni boshqarish tizimi (CBT)ning maqsadi – mahsulotlar yoki xizmatlar sifatini ta'minlash va iste'molchilar tomonidan kutilayotgan sifatga moslashtirish, ya'ni iste'molchilarning talablarini aniqlash va qondirish, sifatga bilvosita va bevosita ta'sir qiluvchi, o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlarni boshqarish, mahsulot hajmini oshirishga erishish.



6.3.3-rasm. Sifatni boshqarish tizimini joriy etish orqali erishiladigan natijalar

Sifatni boshqarish tizimi (CBT)ning asosiy vazifasi – har bir mahsulotni nazorat qilish emas, balki shunday qilish kerakki ishlab chiqarishda xatolar yuzaga kelmasligi (sifatsiz mahsulot) va nuqson kelib chiqmasligini ta'minlash zarur.

- Jarayonlarni aniqlash va ularga bo'lgan talablarni belgilash;
- barcha xodimlarni malaka oshirishga jalb qilish;
- mas'uliyat, vazifa va vakolatlarni belgilash).
- Ma'muriy bo'linmalar ishi samaradorligini oshirish, infratuzilmani optimallashtirish va mahsulot/xizmatlar tannarxini pasaytirish;
- Xodimlarni korxonaning maqsad va vazifalari haqidagi tushunchasini oshirish;
- Xodimlar intizomi va saviyasini oshirish, ularni ishdagi natijalari bo'yicha javobgarlik hissi va shaxsiy natijalari evaziga mehnat unumdorligini oshirish;

- Davlat buyurtmasini olish uchun raqobatchilarga nisbatan manfaatli holatda bo'lish;

Sifatni boshqarish tizimini tadbiq etish korxona va muassasalarning iqtisodiy holatini mustaxkamlash, ularni eksport soloxiyatini kengaytirishda muxim ahamiyatga ega. Tobora kuchayib borayotgan raqobat sharoitida iste'molchilarning, ayniqsa haridorlarning mahsulotlar va xizmatlarga qo'ygan talablari ortib boradi.



6.3.4-rasm. ISO 9001standarti bo'yicha SMT tomoyillari


Respublikamizda ISO 9000 xalqaro standartlari asosidagi sifat menejmenti tizimini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, xalqaro standartlar talabi asosida sertifikatlangan korxonalar jaxon bozorida unumli faoliyat ko'rsata oladilar.

Xozirgi kunda respublikamizda 10598 ta sanoat korxonalarida, jumladan 1653 ta yengil sanoatda, 3586 ta oziq ovqat sanoatida, 756 ta neft va kimyo

sanoatida, 1376 ta qurilish materiallari sanoatida, 506 ta metal va mashinasozlikda va boshqa sohalardagi korxonalarda 2691ta menejment tizimlari joriy etilgan (6.3.5-rasm).

Respublikamiz sanoat korxonalarida ISO seriyalari bo'yicha joriy etilgan 10878 ta menejment tizimlaridan, 10072 tasi ISO 9001 Sifat menejmenti tizimi, 108 tasi ISO 14001 Ekologik menejment tizimi, 267 tasi ISO 22000 Oziq ovqat xavfsizligi menejment tizimi, 74 tasi ISO 50001 Energiya menejment tizimi va 154 tasi 18001 OHSAS Sog'liq va sanoat xavfsizligi menejment tizimini tashkil qiladi.

Sanoat korxonalarida joriy etilgan menejment tizimlari




6.3.5-rasm. Respublikamiz sanoat korxonalarida ISO standartlariga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini joriy etilishi¹⁵

2020 yilning 5 oyi davomida (1 iyun xolatiga) respublikamizda yengil sanoatda 8 ta, oziq ovqat sanoatida 11 ta, neft va kimyo sanoatida 3 ta, qurilish mollari 7 ta, metal va mashinasozlikda 2 ta va boshqa sohalarda 33 ta, jami 64 ta sifat menejmenti tizimlari joriy etildi.

Ulardan ISO seriyalari bo'yicha joriy etilgan 68 ta menejment tizimlaridan, ISO 9001 Sifat menejmenti tizimi 59 ta, ISO 14001 Ekologik menejment tizimi 2 ta, ISO 22000 Oziq ovqat xavfsizligi menejment tizimi 6 ta va ISO 50001 Energiya menejment tizimi 1 tani tashkil qiladi (6.3.6-rasm).

¹⁵ www.standart.uz

2020 yil 1 iyun xolatiga sanoat korxonalarida joriy etilgan sifat menejmenti tizimlari



6.3.6-rasm. Respublikamiz sanoat korxonalarida 2020 yil 5 oyi davomida (1 iyun) xolatiga sifat menejmenti tizimlarini joriy etilishi

Xozirgi vaqtda mamlakatimiz iqtisodiyotni modernizatsiyalash, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirilib, milliy iqtisodiyotimiz tarmoqlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Bu jarayonlarning jaxon iqtisodiyotiga integratsiyasi davridagi va kelgusidagi rivoji uchun xalqaro tajribani, xususan, sifat boshqaruvi sohasidagi tajribani inobatga olish zarur, bu esa ISO 9001:2000 asosidagi SMTdan foydalanishni kengaytirishga ko'mak beradi.

6.4. Mahsulot sifatini boshqarishda standartlashtirishning ahamiyati

Standartlashtirish - mahsulot sifatini yaxshilashda davlat tashkiliy-texnikaviy siyosatini amalga oshirish imkonini beradi va mamlakat milliy iqtisodiyotini boshqarishning barcha sohalarida hamda mahsulot hayot tsiklining xamma bosqichlarida sifatni boshqarishning ilmiy-uslubiy birligini ta'minlaydi.

Tarmoqlararo sifatni boshqarish hayot tsiklining barcha bosqichlari va boshqaruv funksiyalari bo'yicha ishlab chiqilgan davlat standartlari asosida amalga oshiriladi. Bu standartlarda milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyatida mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha umumiy reglamentatsiya beriladi: sifat bo'yicha terminlar, tushunchalar, sifatni baholash, sanoat mahsulotini attestatsiyadan o'tkazish, sifatni boshqarishning kompleks tizimini yaratish va boshqalar.

Tarmoq ichida sifatni boshqarish davlat standartlari va texnikaviy shartlarga, shuningdek tarmoq xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari faoliyatining uzviyligini ta'minlash maqsadida standartlarni chegaralash yoki ularni rivojlantirishga asoslanadi.

Korxona yoki firmada standartlashtirish ishlab chiqarishning o'ziga xos tomonlarini: mahsulot turini, seriyalilikni, texnologik jarayonning o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olishi kerak. Korxonada standartlashtirish mahsulot sifatini boshqarishda tarmoq hamda tarmoqlararo sifatni boshqarish bilan uzviyligini ta'minlaydi.

Mahsulot hayot tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarishni amalga oshirish uchun sifatni boshqarish tizimining tashkiliy, texnikaviy hamda uslubiy asosi bo'lib xizmat qiladigan standartlar va texnik shartlar kompleksi zarur.

Mahsulot xayotiy tsiklining tadqiqot o'tkazish va loyihalashtirish bosqichida standartlashtirish yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

- mahsulotning, shuningdek, xom ashyo, yarim fabrikatlarning sifat tavsiflarini kompleks standartlash asosida tayyor mahsulotning sifatiga nisbatan shartlari o'rnatiladi;
- mahsulotning ishlatilish maqsadlari va shartlariga bog'liq holda mahsulot sifatining yagona ko'rsatkichlari tizimi aniqlanadi;
- optimal sifatni ta'minlash uchun me'yorlar, shartlar va mahsulotni loyihalash usullari ishlab chiqiladi;
- ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, mahsulot ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, iste'mol va ta'mirlashning samaradorligi, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning muhim sharti sifatida unifikatsiyalashtirish darajasini oshirish ta'minlanadi.

Standartlashtirishni tadbiq etish, texnologiyani ishlab chiqish jarayonini yaxshilash va jadallashtirishga, ishlab chiqarishning texnikaviy va tashkiliy darajasini oshirishga imkon beradi va sifatning muqimligini ta'minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bosqichida davlat standartlari mahsulot ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish, ishlab chiqarishni tayyorlash, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, ishlab chiqaruvchilar bilan buyurtmachilar o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish orqali yangi, yuqori sifatli mahsulotlarni yaratish va o'zlashtirishga qaratilgan.

Muomala va sotish bosqichida standartlashtirish mahsulotni o'rash-joylash, joydan-joyga tashish, omborxonalarda saqlash ishlarining yaxshi yo'lga qo'yish shartlarini belgilashga qaratilgan.

Iste'mol va ekspluatatsiya bosqichida standartlashtirish mahsulotni ishlatishga, ta'mirlashga (shu jumladan kafolatli) nisbatan yagona shartlarni o'rnatadi, ekspluatatsiya bosqichida mahsulotning sifati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va tahlil qiladi, ta'mirlash va xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi, mahsulotni ekspluatatsiya qilish harakatlarini qisqartirib, undan foydalanish samaradorligining ortishiga imkon beradi.

Sanoat mahsulotini attestatsiyadan o'tkazishda standartlar tizimi, uni ob'ektiv baholash uchun zarur bo'lgan sifat ko'rsatkichlari ro'yxatini va o'tkazilish tartibini o'rnatadi.

Mahsulot sifati muammosining hal etilishi metrologik ta'minlanish darajasiga bog'liq. Mamlakatimiz bo'ylab o'lchamlarning yagona va ishonchli bo'lishini ta'minlash uchun rivojlangan etalon bazasi yaratilgan, o'lchamlar yagonaligini ta'minlovchi standartlar tizimi ishlab chiqilgan.

Standartlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichining o'ziga xos tomonidan biri alohida standartlarni ishlab chiqishdan kompleks standartlashtirish dasturiga o'tishdir.

Standartlashtirish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tipi va tipoo'lchamlari nomenklaturasini tartibga soladi. Seriyali va ommaviy ishlab chiqarishda odatda, konstruksiyasi, sifat ko'rsatkichlari, o'lchami standartlashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Mahsulotga nisbatan standartlarning bekor qilinishi uni ishlab chiqarishdan olib tashlanganligini bildiradi.

Kompleks standartlashtirish usuli agregatlashtirish tamoyilini keng qo'llashga imkon beradi, xom ashyoga, materiallarga, komplektlovchi buyumlarga, texnologik jarayonga, dastgohlarga, o'lchov asboblari va boshqa mahsulot sifatini ta'minlovchi ob'ektlarga nisbatan o'zaro bog'langan shartlarni qo'yadi.

Standartlashtirish natijasida mahsulotlar nomenklaturasining qisqarishi ixtisoslashtirishning rivojlanishiga, korxonalarning tarmoqlar hamda tarmoqlararo kooperatsiyalashuvining chuqurlashuviga imkon beradi.

Unifikatsiyalangan va standartlashtirilgan agregatlar va mashinalar elementlarini qo'llash, mehnat unumdorligini va ularni loyihalashtirish sifatini oshiradi. Bunda loyihalashtirish ishlariga ketadigan harajatlar qisqaradi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona tizimini joriy etilganda standart asbob va aslaxalardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarishni tayyorlash muddati qisqarib, harajatlar kamayadi.

Xulosa qilib aytganda, standartlashtirish mahsulot sifatini oshirishda yagona davlat tashkiliy texnikaviy siyosatini amalga oshirish imkonini beradi va mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini boshqarishning ilmiy-uslubiy birligini ta'minlaydi. Korxona miqyosida standartlashtirish sifatini boshqarishda tarmoq hamda tarmoqlararo standartlashtirish bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi.

6.5. Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorlikni baholash usullari va tamoyillari

Iqtisodiy rivojlanishning bugungi bosqichida standartlashtirish ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlantirish va uni samaradorligini oshirishda texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Standartlashtirish – tarixan moddiy va ijtimoiy sohalarni, juda ko'p turli ob'ektlarni chegaralash faoliyati sifatida yuzaga kelgan.

SHuni ta'kidlash kerakki, u tartibga solish faoliyati sifatida juda ko'p ob'ektlarni qamrab oladi. Bunday hollarda standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki samaradorlik ko'pchilik aspektlarning jumladan:

◆ standartlashtirishning kelgusi rivojlanish alternativalarini baholash, ya'ni makro darajada standartlashtirish muhim masalalarni yechimini belgilaydi;

◆ standartlashtirishni ba'zi takrorlanadigan jarayonlar, voqealarni tartibga solishda foydalanishning maqsadga muvofiqligi;

◆ standartlashtirish ob'ektlarining tavsiflarini tanlash va optimallashtirish masalalarini yechishda, standartlashtirish ob'ekting optimal parametrlari to'plami variantini tanlash;

◆ boshqaruv tsiklining turli bosqichlarida standartlashtirish tomonidan amalga oshirilayotgan boshqaruvni baholash;

◆ standartlashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari orasida iqtisodiy resurslarni ratsional taqsimlash.

Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, mahsulotni standartlashtirish, uni sifatini oshirish bo'yicha ishlarni bajarishda yagona hisoblanadigan bir qator umumiy tizimlarga asoslanadi. Ularning birligi fan-texnika taraqqiyotini joriy etishning aniq shaklini ifodalaydi, shuning uchun standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligi fan-texnika taraqqiyoti iqtisodiy samaradorligining yoki yangi texnika samaradorligining bir qismidir.

Umumiqtisodiy yondoshuvning zarurligi standartlashtirish samaradorligini baholashni amalga oshirishni butun mamlakatimizning iqtisodiy manfaatlariga qaratishni taqozo qiladi. Standartlashtirishning umumiqtisodiy samaradorligini aniqlash – bu loyihalash, tayyorlash, muomala va iste'mol bosqichlarida standartlashtirish natijalarini e'tiborga olgan holda respublikamiz iqtisodiga uning ta'sirini aniqlashdir. Iqtisodiy samaradorlikni maksimal qiymati standartlashtirilayotgan ko'rsatkichlar nomenklaturasini, bu ko'rsatkichlarning qiymatlarini, parametrlar qatorini tanlash va sinovlar o'tkazish usullarini optimallashtirishda standartlashtirish va unifikatsiyalash masalalarini hal etishda kriteriya bo'lib xizmat qiladi.

Umumiqtisodiy manfaatning ustuvorligi alohida standart yoki standartlar tizimining samaradorligini baholash butun mahsulotning hayot tsikli davomida amalga oshirilishi kerakligini bildiradi. Agar standart umumtexnikaviy yoki

tashkiliy-uslubiy bo'lsa, u holda uning samaradorligini baholash umumiy iqtisodiy manfaatlar asosida amalga oshirilishi kerak.

Ayrim ishlab chiqarish zvenolarida samara olinishining salbiy bo'lishi mumkinligi ular tomonidan standartlashtirish ishlarini amalga oshirishda manfaatdorlik masalalarida qiyinchilik tug'diradi.

Standartlarning bir necha variantda bo'lishi – ular orasidan eng yaxshisini tanlab olish uchun zaruriy manbadir. Umumiy iqtisodiy yondoshuvning joriy etilishi alohida standartlar variantlaridan umumiy iqtisodiy nuqtai nazardan tanlash imkoniyati mumkinligiga tayanadi.

Iqtisodiy samaradorlik – xususiy optimallashtirish uslubi sifatida o'zining barcha imkoniyatlaridan standartlar loyihalarining ko'p variantli emasligi sababli foydalana olmaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan loyihalar samarasiz, faqatgina tavsiya etilgan parametrlarini hisobga olish faoliyatidan iborat bo'lib qoladi.

Yana bir muhim aspekt – standartlarni joriy etganda, faqatgina ulardan qo'llanilgan holatlarda emas, balki ular ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan sohalarida ham ularni joriy etishning asosiy hamda yondosh oqibatlarini iloji boricha to'liqroq hisobga olishning zaruriyligidir.

Standartlashtirishning iqtisodiy samaradorligini hisoblaganda standart mahsulotning butun hayotiy tsikli bo'yicha - loyihalash, tayyorlash, muomala va iste'molda qanday oqibatlarga olib kelishi hisobga olinadi.

Loyihalash bosqichida loyihalash ishlari hajmi, mahnat sarfi, loyihalash muddatlarining quyidagi omillar hisobiga qisqarishi hisobga olinadi:

- loyiha – konstruktorlik ishlarini tashkil etishni yaxshilash;
- standart texnik hujjatlashtirishning takroran ishlatilishi;
- standart shartli grafik tasvirlarning qo'llanishi;
- nusxa ko'chirish ishlari hajmining qisqarishi;
- texnikaviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar hajmining qisqarishi;
- standartlarga to'liq mos kelgan holda loyihalarni qayta ishlashga ketgan harajatlarning qisqarishi;

➤ yangidan chiqarilayotgan texnikaviy hujjatlashtirishni muhokama qilish va tasdiqlashga ketgan vaqtning qisqarishi.

Ishlab chiqarish bosqichida iqtisodiy samaradorlikni hisoblash uchun quyidagilar aniqlanadi:

- ❖ material sarfining qisqarishi;
- ❖ jarayonlar mehnat sarfining qisqarishi;
- ❖ unifikatsiyani;
- ❖ fond sig'imining qisqarishi;
- ❖ yoqilg'i va elektr energiyasi harajatlari ulushining qisqarishi;
- ❖ mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi hisobiga mahsulot birligiga to'g'ri keladigan shartli o'zgarma harajatlari ulushining qisqarishi.

Muomala va iste'mol bosqichlarida iqtisodiy samarani hisoblash uchun iste'molchi harajatlarining qisqarishini hisobga olinadi. Bunda quyidagilar aniqlanadi:

- mahsulotning texnikaviy darajasini va sifatini oshirish;
- mahsulotni yuklash, tashish va saqlash harajatlarini qisqartirish;
- bitta standart mahsulot birligi bilan bir nechtasini almashtirish zarurligi;
- buyumlarning xizmat ko'rsatish muddatlarini uzaytirish;
- buyumlarning ishonchlilik ko'rsatkichlarini oshirish;
- yoqilg'i, energiya, yordamchi materiallar sarfi ulushini qisqartirish;
- xizmat ko'rsatuvchi personal sonini kamaytirish;
- ta'mirlash ishlari qiymatini kamaytirish.

Umumiqtisodiy yondoshuv tamoyili samaradorlikni hisoblashda mamlakatimiz iqtisodi uchun yagona bo'lgan kapital qo'yilma samaradorligi me'yoridan, ya'ni ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan mehnatdan foydalanishni taqozo qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi aniqlanish davriga ko'ra quyidagicha farqlanadi:

- yillik;
- standartlashtirilgan mahsulotni ishlab chiqarish yillari bo'yicha;

- standart amalda bo'lgan muddat uchun;
- standartlashtirilgan mahsulotning butun xizmat ko'rsatish muddati va uni ishlab chiqarilgan barcha yillar uchun.

Integral samara yangi mahsulotning natijaviy ko'rsatkichlarini yanada to'laroq tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblashda juda ko'p sonli omillarni yillar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmini, har yili ishlab chiqarilgan mahsulotning xizmat ko'rsatish muddatini, vaqt o'tishi bilan samaraning o'zgarishini hisobga olish kerak. Umuman olganda integral samara ko'rsatkichi yangi mahsulot ishlab chiqarilishi to'g'risida qaror qabul qilinayotganda barcha omillarni umumlashtiradi.

VII BOB. MAHSULOTNI SERTIFIKATLASHTIRISH

Ushbu bob mavzusi ham o'ta qiziqarli bo'lib, uni o'rganish jarayonida quyidagi savollarga javob topish zarur:

- *Sertifikatlashtirish deganda nimani tushunasiz?*
- *O'z - o'zini sertifikatlashtirish to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *Muvofiqlik sertifikatlash nima anglatadi?*
- *Uchinchi tomondan sertifikatlashning turlarini tushuntirib bering?*
- *Ekspert auditor kim va uning vazifalari nimalardan iborat?*
- *Sertifikatlash tizimining tashkiliy tuzilishi va uning vazifalari xaqida nimalarni bilasiz?*
- *Sertifikatlash tartibi va unga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering?*
- *Sertifikatlash tashqi savdoni rivojlantirishda qanday rol o'ynaydi?*
- *Sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar xaqida nimalarni ayt olasiz ?*
- *Milliy sertifikatlashtirish tizimlarini tushuntirib bering?*

7.1. Sertifikatsiya – sifat kafolati

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sertifikatlashtirish sohasida juda katta ishlar amalga oshirildi va hozirgi kunda ham bu sohaning rivojlanishi, xalqaro miqyosda tan olinishi ustida "O'zstandart" agentligi tomonidan e'tiborli ishlar amalga oshirilmoqda. Binobarin, 1992 yil mustaqillikning ilk yillaridayoq Vazirlar Mahkamasi huzurida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish Davlat markazi ("O'zdavstandart") va keyinchalik, 2002 yilda, ushbu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida mustaqil "O'zstandart" agentligiga aylantirilishi Hukumatimiz tomonidan bu sohaga berilayotgan ahamiyatning mahsuli sifatida qarash mumkin. Davlatimiz tomonidan sertifikatlashtirish ishlarini tashkillashtirish, uni tartibga solish va bu sohaning qonuniy asosini yaratish maqsadida 1993 yilda "Mahsulot va

xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini qabul qilinishi, uni amalga oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi yuqoridagilarning yaqqol isbotidir.

Sertifikatlashtirish so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "tug'ri ishlab chiqarilgan" degan ma'noni bildiradi. Mahsulotning tug'ri ishlab chiqarilganligini bilish uchun, uning me'yoriy xujjatlardagi talablarga mosligini tekshirish zarur. Bunday vazifani sertifikatlash amalga oshiradi.

Sertifikatlash – bu mahsulotni muayyan talablarga, aniq standart yoki texnik shartlarga javob berishini tasdiqlovchi xujjatdir.

Mahsulotni belgilangan me'yorlarga mos kelishini tekshirish uchun sinovlar o'tkazish lozim. Sinovlar texnik operatsiyalar bo'lib, mahsulotning bir yoki bir necha tavsifnomalarini aniqlashdan iboratdir. Sinovlar sinov laboratoriyalarida amalga oshiriladi.

Me'yorlarga moslik darajasini tizimli tekshirish - m'yorlarga mosligini baxolash deyiladi. Sertifikatsiya mahsulotning (jarayonning, xizmatning) berilgan talablariga mosligini isbotlovchi asosiy ishonchli usul xisoblanadi.

Sertifikatlash jarayonining tashkil etuvchilari, qoidalar, sinovlar va boshqalar qo'yidagi omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillarga standartlash, sifat va bevosita sertifikatsiyaga ta'luqli bo'lgan qonunchilik, sertifikatsiya ob'ekting o'ziga xos xususiyatlari kiradi.

Mahsulotni sertifikatlash mahsulotga muvofiqlik sertifikati berish orqali uning tegishli standartlar va texnik xujjatlarga javob berishini tasdiqlashdir.

Sertifikatlash (muvofiqlikni sertifikatlash) umumiy tushuncha bo'lib, mahsulotni, texnologik jarayonlarni va xizmatlarni sertifikatlashda uchinchi tomonning (bir tomon – ishlab chiqaruvchi, ikkinchi tomon – iste'molchi) ishtirok etishini nazarda tutadi. ISO da muvofiqlikning 3 ta ko'rinishi belgilanadi:

- muvofiqlik xaqida ariza;
- muvofiqlik attestatsiyasi;
- muvofiqlik sertifikatsiyasi;

Muvofiqlik xaqida ariza – bu ishlab chiqaruvchining arizasi bo'lib, unda sertifikatlash tashkilotlaridan tashqarida ishlab chiqarilgan mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatlarning ma'lum standartlarga yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjatlarga javob berishini ishlab chiqaruvchi tomonidan tasdiqlovchi xujjatdir. Buni o'zini-o'zi sertifikatlash deb ham ataladi.

O'zini-o'zi sertifikatlash g'oyasi ilgaritdan aniq, masalan, qadimdan ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotni tamg'alash uni yuqori sifatligiga tasdiq bo'lardi. Lekin tegishlilik to'g'risida ariza ta'minlovchini (ishlab chiqaruvchini) xech qanday yuridik, ma'muriy yoki iqtisodiy javobgarligini nazarda tutmaydi. Faqat alohida davlatlarning o'zlari chiqarayotgan mahsulot xaqidagi aniq ma'lumotni ko'rsatish vazifasi kabi holatlarni nazarda tutadi.

Muvofiqlik attestatsiyasi – bu ma'lum mahsulot namunasi ma'lum standartlar yoki me'yoriy-texnik xujjatlarga javob berishi to'risida uchinchi tomon, sinov laboratoriyasining arizasidir. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar seriyasining muvofiqligiga baxo berilmaydi, balki sinov o'tkazish uchun yuborilgan mahsulot namunasining sifatigagina kafolat beriladi.

Muvofiqlik sertifikatsiyasi – ishlab chiqarilgan mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatlarning ma'lum standart va me'yoriy texnik xujjatlarga javob berishiga uchinchi tomonning bergan kafolatidir.

SHunday qilib, muvofiqlik sertifikatsiyasi uchinchi tomon orqali kafolatlanadi va o'rnatilgan qonunlarga muvofiq tashkiliy tizim chegarasida amalga oshirilgandagina tan olinadi. Bunda uchinchi tomon seriyali ishlab chiqarilgan mahsulotlarning standartlar shartiga absolyut jixatdan emas, balki ma'lum ishonchlilik darajasi bilan javob bera olishini tasdiqlaydi. Ushbu ishonchlilik darajasi mahsulotning o'rnatilgan shartlarga muvofiqligini ta'minlovchi ishlar xajmiga bog'liq xolda turlicha bo'lishi mumkin. Ishonchlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar xajmi shunchalik katta bo'ladi.

Muvofiqlik sertifikatsiyasi sertifikatlash tizimi chegarasida amalga oshiriladi. Tizim chegarasida sertifikatsiyalash yagona qonunlar asosida amalga oshirilishi

kerak. Sertifikatlash tizimlari 3 ta darajada: milliy, regional va xalqaro darajada yaratilishi mumkin.

Ayrim mahsulot turi, texnologik jarayon yoki xizmatlarga nisbatan sertifikatlash tizimini ifodalovchi sertifikatlash sxemalari mavjud.

Mahsulotning standart shartlariga javob berishi muvofiqlik sertifikati yoki muvofiqlik belgisi bilan tasdiqlanadi.

Muvofiqlik sertifikati - mahsulot texnologik jarayon yoki xizmatlar tegishli standart yoki me'yoriy xujjatlarga mos kelishini tasdiqlovchi, sertifikatsiyalash tizimi qoidalariga muvofiq berilgan xujjatdir.

Muvofiqlik belgisi – bu qonun tomonidan ximoyalanadigan belgi bo'lib, sertifikatsiyalash tizimi qoidalariga ko'ra foydalanilib, mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatlar tegishli standartlarga javob bera olishini kafolatlaydi.

Muvofiqlik sertifikati va belgisi ham tuzilishiga ko'ra, ham mazmuniga ko'ra sertifikatlash tizimi tomonidan o'rnatilgan shartlarga javob berishi kerak. Ular amaldagi qonunlarga ko'ra beriladi.

SHuni aytib o'tish lozimki, sertifikatlash iste'molchiga faqat mahsulotni standartlarning talablariga to'la muvofiq tayyorlanganligiga kafolat beradi. Lekin u erishilgan dunyo darajasiga muvofiq mahsulotni yuqori texnik darajasiga kafolat bermaydi.

7.2. Sertifikatlash tizimining turlari

Yuqorida aytib o'tilganidek, sertifikatsiya o'z-o'zini sertifikatlash va uchinchi tomon orqali sertifikatlashga bo'linadi.

O'z - o'zini sertifikatlashda muvofiqlik sertifikatlari tayyorlovchilar tomonidan beriladi. Ularda, korxonani nomi, mahsulotning sertifikatlashga tegishli bo'lgan tavsiflari ro'yxati, qabul qilingan mahsulotlar partiyasini tartib raqami, shuningdek mana shu mahsulotga nisbatan amaldagi me'yoriy-texnikaviy xujjatlar ko'rsatiladi.

O'z - o'zini sertifikatlash quyidagilarga asoslanadi:

➤ mahsulotga nisbatan aniq va to'liq ma'lumotlarning (standartlar, texnik shartlar va boshqa me'yoriy texnikaviy xujjatlarning) bo'lishi;

➤ korxonada sifatni nazorat qilishni tashkil etishning yuqori darajasi: materiallar va yarim fabrikatlar, texnologik jarayonning barcha bosqichlari, tayyor mahsulot, uni o'rash-joylash bo'yicha;

➤ ishlab chiqaruvchilar tomonidan muvofiqlik arizasiga ko'ra mahsulotning standart shartlariga va boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjatlarga javob berishiga to'liq mas'uliyatni, javobgarlikni tan olish. Bunda yuridik yoki administrativ mas'uliyat emas, balki iste'molchilar oldidagi ma'naviy mas'uliyat, sifatning nomuvofiqligi sababli bozorda o'z mahsulotiga nisbatan talabni yo'qotib qo'yish xavfi mas'uliyati nazarda tutiladi. Umuman olganda firmaning nufuzi uchun javobgarlik nazarda tutiladi.

O'z - o'zini sertifikatlash AQSH, Kanada, Germaniya, Gollandiya va boshqa ko'pgina davlatlarda keng tarqalgan. Bu davlatlarda ko'p xollarda ishlab chiqaruvchi korxona maxsus o'rash, joylash ishlarini amalga oshirish yoki mahsulotning milliy standartlarga javob berishini tasdiqlovchi sertifikatlar berish orqali uning sertifikatlashtirilganligini ko'rsatadi.

O'z - o'zini sertifikatlashdan farqli ravishda uchinchi tomon orqali sertifikatsiyalashtirish be'taraf tomon orqali amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha ISO tarkibidagi qumita tomonidan tayyorlangan xujjatda uchinchi tomon tarafidan amalga oshiriladigan sertifikatlashtirishning sakkizta turi berilgan bo'lib, ular mahsulot sifatini aniqlash va ta'minlash ishlarining xajmiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. 1-5 turlar mahsulot namunalarini umumiy xolda nazorat qilishga asoslanib, ishlarining xajmiga ko'ra bir-biridan farqlanadi, 6-8 turlari o'zaro bog'lanmagan va 1-5 turlariga ham bog'liq emas (7.2.1-jadval).

Birinchi turi. Bu tur bilan faqat mahsulot namunalari standartlar talablariga muvofiqligini maxsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkaziladi. Bu xildagi sertifikatlashtirishda sinovga taqdim etilgan namunani belgilangan talablarga muvofiqligi tasdiqlanadi xalos. Bu yo'l o'zining soddaligi va unga ko'p

harajat talab qilinmasligi tufayli milliy va xalqaro savdo munosabatlarida muayyan darajada tarqalgan.

7.2.1- jadval.

Uchinchi tomondan sertifikatlash turlari

Sertifikatsiya turi	Korxonalar attestatsiyasi	Korxonalar da sinov nazoratini tashkil etishni baxolash	Sinov markazlarida namunalarni tipovoy sinovlari	Mahsulot sifatining kelgusi nazorati		
				Savdodan olingan namunalarning sinovi	Ishlab chiqarishdan olingan namunalarning sinovi	Sifatni ta'minlanish hida funktsiyalash tirilgan tizimini kuzatish
1	-	-	+	-	-	-
2	-	-	+	-	-	-
3	-	-	+	-	-	-
4	-	-	+	-	-	-
5	+	-	+	+	+	+
6	+	+	-	-	-	-
7	-	-	Tanlovda 100%	-	-	-
8	-	-	100%	-	-	-

Ikkinchi turi. Bu turda mahsulotning namunalari mahsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkazilib, so'ngra uning sifatini savdo shaxobchalaridan vaqti-vaqti bilan olinadigan namunalarning asosida nazorat qilib boriladi. Bu usul taqdim etilgan namunalarning sifatini baxolash bilan seriyali ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini ham baxolash imkonini beradi. Bu usulning afzalligi uning soddaligidir. Uning kamchilligi esa nazorat sinovlari natijasiga ko'ra, agar mahsulotning standart talablariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda ham, baribir uni savdo shaxobchalaridan chiqarib tashlash imkoniyati bo'lmaydi yoki uni chiqarib tashlash uchun birmuncha qiyinchiliklar tug'iladi.

Uchinchi turi. Mahsulot namunalarini mahsus tasdiqlangan sinov tashkilotlarida o'tkazish, so'ngra sotuvchi yoki iste'molchiga yubormasdan turib vaqti-vaqti bilan namunalarning tekshiruvini nazorat qilishga asoslanadi. Ikkinchi turdan farqlanuvchi tomoni shuki, mahsulot savdo shaxobchalariga tushmasdan turib, sinov nazorati o'tkaziladi va standartga nomuvofiqligi aniqlansa, mahsulotning iste'molchiga jo'natilishi to'xtatiladi.

Turtinchi turi. Mahsulot namunalarini xuddi 1-3-turlardagidek sinovdan o'tkazishga assoslangan bo'lib, so'ngra savdo shaxobchasidagi hamda ishlab chiqarishdan olingan namunalarning tekshirish nazoratini vaqti-vaqti bilan o'tkazish orqali, mahsulotning sifati xisobga olinadi. Bu xolda mahsulot ishlab chiqarilib bo'lingandan so'ng, uning ishlab chiqarilishiga ma'lum harajatlar bo'lgandan keyin standart talablariga muvofiqligi aniqlanadi.

Beshinchi turi. Bu tur mahsulot namunalarini tasdiqlangan sinov tashkilotlarida sinovdan o'tkazishga va mahsulot ishlab chiqarishning sifatini baxolashga asoslangan bo'lib, savdo shaxobchasida va ishlab chiqarishda namunalar sifatini nazorat qilib boriladi. Bu sertifikatlashtirish usuli faqat mahsulotning sifatini nazorat qilibgina qolmay, balki korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini kerakli darajada bo'lishini ham nazorat qiladi. Tabiiyki, korxonada mahsulot sifatini ta'minlashda, tizimni baxolanishida uning me'zonini aniqlash muxim ahamiyatga ega. Ushbu usul sanoati rivojlangan mamlakatlarda hamda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlarida eng ko'p tarqalgan. Birinchi-turtinchi turlarga qaraganda bu eng murakkab va nisbatan qimmatroq turadigan sertifikatlashtirish turi bo'lib, uning afzalligi iste'molchi mahsulot sifat darajasini yuqori ekanligiga ishonch xosil qiladi, bu esa asosiy me'zon xisoblanadi.

Oltinchi turi. Faqat korxonadagi mahsulotning sifatini ta'minlash tizimini baxolashni o'tkazishga mo'ljallangan. Bu usul ayrim vaqtda korxona-tayyorlovchini attestatsiyalash deb ham yuritiladi. Bu xil sertifikatlashtirishda faqat korxonaning belgilangan sifat darajadagi mahsulotni ishlab chiqarish qobiliyati baxolanadi.

Ettinchi turi. Mahsulotning har bir tayyorlangan qismidan sinovlarga tanlab olishga assoslangan. Tanlab olingan mahsulotlarning sinov natijalariga qarab tayyorlangan mahsulot qismini transport vositasiga yuklash uchun qaror qabul qilinadi. Bu xildagi sertifikatlashtirish uchun tanlanmaning xajmi aniqlanishi lozim, bu esa tayyorlangan mahsulot qismining katta-kichikligiga, maqbul bo'ladigan sifat darajasiga bog'liq. Qabul qilingan qoidaga asosan tanlanmani to'plash vakolatlangan sinov tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu xil sertifikatlashtirish turi statistik usulni qo'llash bilan bog'liqdir.

Sakkizinchi turi. Bu har bir tayyorlangan, ayrim buyumning standart talablariga muvofiqligini sinovlar o'tkazib aniqlashga assoslangan. Bu sertifikatlashtirish usulida yuqoridagi turlarga qaraganda ta'minlovchining mas'uliyati ancha yuqori. Tabiiyki muvaffaqiyatli sinovlardan o'tgan buyumlarga sertifikat yoki muvofiqlik belgisini oladi. Bu usul mahsulotga nisbatan yuqori va qat'iy talablar qo'yilganda ishlatilishga asoslangan yoki mahsulotdan foydalanish jarayonida standart talablarga mos kelmasligi, iste'molchiga katta iqtisodiy zarar yetkazganida qo'llaniladi. Bu xil sertifikatlashtirish qimmatbaxo metallardan va qotishmalardan tayyorlanadigan buyumlarda ko'proq qo'llaniladi. Bundan asosiy maqsad qimmatbaxo metallarning belgilangan miqdorini, tarkibini va buyumning tozaligini tekshirishdir.

Sertifikatlashtirish tizimlarini boshqaruvchi idora muayyan turdagi mahsulot sifatining nazoratini tashkil etish, standartlarga rioya qilishni majburiy talab etish, iste'molchi va savdo talablarini e'tiborga olib, mamlakatdagi amalda bo'lgan qonunlar va me'yoriy xujjatlar asosida o'z ishini tashkil etadi.

Sertifikatlashtirish idorasi sinovlarni o'tkazish, korxonadagi va savdo shaxobchasidagi mahsulotning sifatini nazorat qilish hamda uni tashkil qilish va shunga o'xshash ishlarni bajarib uchinchi tomon vazifasini bajaradi.

7.3. Ekspert auditorlar

Sertifikatlashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga faol qatnashuvchi shaxs bu ekspert-auditoridir. U odatda sifat tizimlarini, ishlab chiqarishni va mahsulotni

sertifikatlashtirishda sinov laboratoriyalarini akkreditlashda va boshqa ishlarda qatnashishi mumkin.

Ekspert-auditor deb, sertifikatlashtirish sohasidagi muassasa va korxonalar faoliyatini baxolash va nazorat qilish xuquqiga ega bo'lgan attestatlangan shaxsga aytiladi.

Ekspert-auditor sifatida "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda attestatlangan fan, sanoat, maishiy xizmat, institutlar va boshqa tashkilotlarning vakillari hamda belgilangan xujjatlar bilan ishlashda yetarli chuqur bilimga ega bo'lgan xususiy shaxs ham bo'lishi mumkin.

Ekspert-auditor quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahsulot, jarayon, xizmatlarni, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, jarayon va xizmatlarning tavsiflarini hamda sertifikatlashtirilgan sifat tizimlarini va ishlab chiqarishning turg'unligini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditatsiyalashtirish idoralari, sinov laboratoriyalarini (markazlarini) va ularning faoliyatini nazorat qilish;
- sertifikatlashtirishda tavsiyalar berish.

Ekspert-auditor o'z faoliyatini sertifikatlashtirish milliy idorasi, bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish idoralari, sifat tizimlarini va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish doirasida amalga oshiradi.

Ekspert-auditor quyidagi muayyan talablarga javob berishi lozim:

- oliy ma'lumotli va sertifikatlashtirish sohasida yetarli bilimga ega bo'lib, faoliyati sertifikatlashtirishning ma'lum turi buyicha attestatlangan bo'lishi kerak;
- oliy uquv yurtini tamomlagandan so'ng kamida 5 yillik amaliy ish stajiga ega bo'lishi, shundan kamida 3 yili standartlashtirish, metrologiya, sinovlar, sifatni boshqarish va taminlash sohalarida ishlagan bo'lishi kerak.

Ekspert-auditor chuqur bilimli, tadbirkor bo'lmog'i lozim. U sohalar bo'yicha quyidagilarni:

- Respublika sertifikatlashtirish milliy tizimining qoida va tartiblarini;

- sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazish bo'yicha tegishli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi va me'yoriy xujjatlarni tushunishi;
- sertifikatlashtirish va akkreditatsiyalash bo'yicha asosiy ishlar mazmunini;
- sertifikatlashtirish va akkreditatsiyalash bo'yicha iqtisodiy va xuquqiy asoslarni;
- mamlakat ichidagi va chet ellardagi sertifikatlashtirish va akkreditatsiyalash tajribasi;
- sertifikatlashtirish, metrologiya va sifat tizimlarining asoslarini;
- tekshiruv o'tkazish va sifatni boshqarishning statistik usullari bo'yicha bilimlarni mukammal egallagan bo'lishi shart.

Ekspert-auditor taxlil qilish, mantiqiy asoslash, o'zining fikrini qattiq va asoslangan xolda ximoya qilishlik, ijodiy qobiliyatga va murakkab vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish xususiyatlariga, xaqqoniy, mas'uliyatli, printsiptal ravishda xayrixox, odobli va o'zini tuta bilishlik kabi shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak. Ekspert-auditor tekshiriladigan ob'ektning xodimlari bilan aloqada bo'lishi va kerakli xujjatlar bilan tanishish, ma'lumot uchun har qanday qo'shimcha ma'lumotlar talab qilish(sertifikatlashtirish maqsadlari uchun), tizimda amaldagi me'yoriy-uslubiy xujjatlarni takomillashtirish bo'yicha o'z taklifini berish, sertifikatlashtiriluvchi mahsulot, jarayon, xizmatlar, sifat tizimi va ishlab chiqarish bo'yicha rejalarni tuzatish yuzasidan o'z fikr va muloxazalarini bildirish xuquqiga ega.

7.4. Sertifikatsiyalash tashkilotlari

Sertifikatsiyalash tizimining murakkabligiga qarab uchinchi tomon turli tashkilotlarning bo'lishi nazarda tutiladi. Sertifikatsiyalash tizimining birinchi turida keltirilgan namunalarni faqatgina tipik sinov o'tkazilganda, faqat bitta sertifikatsiyalash tashkilotiga ega bo'lish yetarlidir. SHu bilan bir vaqtda 5-turda sertifikatsiyalash tashkiloti bilan bir qatorda standartizatsiyalash va nazorat qilish tashkilotlarini ishtirok etishi ham talab qilinadi.


```
graph TD; Q[Qonun chiqaruvchi soha] --> S[Sertifikatlash tashkiloti]; SSV[Savdo sohasi] --> S; SSM[Iste'mol sohasi] --> S; S <--> MB[Standartlash bo'yicha milliy tashkilot]; S <--> M[Xizmat milliy metrologik]; MB --> N[Nazorat qilish tashkiloti]; S --> N; S --> SL[Sinov laboratoriyalari]; M --> SL; N --> IK[Ishlab chiqaruvchi korxona]; SL --> IK; SSM --> IK;
```

The diagram illustrates the certification process flow in the Republic of Uzbekistan. It shows the interaction between legislative, trade, and consumer sectors, standardization and metrology organizations, the certification body, control and testing organizations, and the manufacturing enterprise.

Sertifikatlash tashkiloti tizimga va uning faoliyatiga boshchilik qiladi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Sertifikatlash tashkilotlarining asosiy funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- 161

- sertifikatlanadigan mahsulotlar ro'yxatini yurgizish;
- sertifikatlanayotgan mahsulotning sifati to'risidagi baxs va munozaralarni ko'rib chiqish.

Uchinchi tomon orqali sertifikatlash tizimlari quyidagi holatlarda tuzilishi mumkin:

- ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalarida;
- mahsulotning asosiy iste'molchilari yoki iste'molchilar guruxi qoshida;
- standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlarda;
- yuqori xalqaro nufuzga ega xususiy tashkilotlarda;
- keng savdo shoxobchalariga ega bo'lgan yirik savdo tashkilotlarida;

Sertifikatlash tizimining muxim tarkibiy elementi bo'lib, korxonada sifatni ta'minlash tizimi faoliyatini nazorat qiluvchi tashkilot xisoblanadi. Bundan tashqari, u sertifikatlash tashkilotlari laboratoriyalarida sinovni tashkil etishni vaqti-vaqti bilan nazorat qilishni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sertifikatlash – bu mahsulotning ma'lum standartlarga yoki texnik shartlarga muvofiqligini xujjatlar bilan tasdiqlashdir.

7.5. Sertifikatlash tartibi va unga qo'yiladigan talablar

Mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun sertifikatlash tashkilotiga ariza-deklaratsiya va unga qo'shimcha xujjatlarni taqdim etadi. Tegishli arizani qabul qilgan sertifikatlashtirish tashkiloti xujjatlarni ko'rib chiqib, sertifikatlashga oid talablarga mos kelishi to'g'risida qaror qabul qiladi, uni qaysi tartibda va kimlar tomonidan o'tkazilishi belgilaydi.

Tanlangan namunalar Milliy sertifikatlash tizimining akkreditlangan sinov laboratoriyalarida sinovdan o'tkaziladi. Lozim bo'lsa sertifikatlashtirish tashkiloti tajribalar o'tkazish uchun usulubiy ko'rsatmalar ishlab chiqishni tashkil etadi.

Sertifikatlash tartibi quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishdan iborat:

- Sertifikatsiya o'tkazish uchun qaror va ariza deklaratsiya berish;

- Sertifikatsiyalashtiriladigan mahsulotlardan tajribalar o'tkazish uchun namunalar olish. Me'yoriy xujjatlar bo'yicha namunalar olish miqdorini belgilash.
- Mahsulot yoki ishlab chiqarishni sertifikatsiyalashtirish turini tanlash;
- Olingan natijalarni taxlil qilib, muvofiqlik sertifikatini berish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Davlat standarti ro'yxatidan mahsulotni o'tkazib, muvofiqlik sertifikatini berish;
- Xalqaro sertifikatlash tashkilotlari tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlarini tan olish;
- Sertifikatsiyadan o'tgan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarining barqarorligini nazorat qilish;
- Sertifikatsiya natijalarining axboroti;
- Noroziliklarni ko'rib chiqish.

Sertifikatlangan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari barqarorligini tekshiruv nazorati, shu mahsulotni ishlab chiqarish jarayoniga sertifikat bergan tashkilot tomonidan maxsus reja asosida amalga oshiriladi. Zarur xollarda betaraf mutaxassislarni tekshiruv nazoratiga jalb etish mumkin. Tekshiruv nazorati natijalariga ko'ra sertifikatsiyalash tashkiloti muvofiqlik sertifikatini yoki muvofiqlik belgisini quyidagi xollarda bekor qilishi yoki to'xtatib qo'yishi mumkin.

- me'yoriy texnik xujjatlardagi talablar o'zgarsa;
- mahsulotning tarkibi va tuzilishi o'zgarsa;
- tashkilot yoki ishlab chiqarish texnologiyasi o'zgarsa;
- sifatni ta'minlovchi tizim, texnologiya, sinash uslublari o'zgarsa.

Tekshiruv nazorati tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilingunga qadar, muvofiqlik sertifikatini berish to'xtatib turiladi. SHu muddatda ham axvol o'zgarmasa, muvofiqlik sertifikatini bekor qilinadi. Bundan tashqari sertifikat berish yoki muvofiqlik belgisini qo'yish quyidagi xollarda ham bekor qilinadi:

- mahsulotda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilib bo'lmasa;
- ishlab chiqaruvchi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarmay qo'ysa;

- ishlab chiqaruvchi sertifikatni vaqtincha to'xtatib qo'ygandan keyin muddatni uzaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmasa;

- mahsulotni ishlab chiqarish to'xtatilgan bo'lsa.

Sertifikatsiyalashtirish tashkiloti bu xaqda rasmiy axborot beradi va mazkur mahsulot ishlab chiqarish sertifikatini davlat ro'yxatidan chiqaradi. Axborot bilan ta'minlash sertifikatsiyalash tashkiloti ishtirokchilari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazish tartibi quyidagilardan iborat:

– Mijoz o'rnatilgan tartibda sertifikatlashtirish tashkilotiga buyurtma-ariza taqdim qiladi;

– Sertifikatlashtirish tashkiloti arizani ko'rib chiqib qaror qabul qiladi;

– Sertifikatsiyalashtirish tashkiloti mutaxassisi topshirilgan xujjatlarni tahlilini o'tkazadi;

– O'rnatilgan tartibda mutaxassis mijoz ishtrokida ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni saqlash sharoitlarini o'rganib chiqadi;

– Texnologik jarayonda qo'llaniladigan o'lchov vositalarining holati ko'zdan kechiriladi;

– Tayyor mahsulotni to'pidan mijoz ishtrokida mutaxassis namunalar tanlaydi va namunalar tanlash va identifikatsiya dalolatnomasi tuziladi;

– Tanlangan namunalar sinov laboratoriyasiga topshiriladi;

– Mijoz bilan sertifikatsiyalash organi o'rtasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha shartnoma tuziladi;

– Sinovdan o'tkazilgan va me'yoriy xujjatlar talablariga javob beradigan mahsulotga, ishlab chiqarish uchun muvofiqlik sertifikati rasmiylashtiriladi;

– Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovi o'tkazilgandan so'ng, muvofiqlik sertifikati mijozga beriladi.

Mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagi xujjatlar taqdim etiladi:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ xujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- Mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarning ilova xujjati (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi.

CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish tartibi:

- Mijoz o'rnatilgan tartibda deklaratsiya – ariza topshiradi;
- Sertifikatlashtirish organi deklaratsiya arizani ko'rib chiqib qaror chiqaradi;
- O'rnatilgan tartibda sertifikatlashtirish organi mutaxassisi mijoz ishtrokida mahsulotni to'pini identifikatsiyasini o'tkazadi;
- O'tkazilgan sertifikatlashtirish ishlari uchun mijozga to'lov shartnomasi rasmiylashtiriladi;
- Olingan xujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish organi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi;
- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovini o'tkazilgandan so'ng, muvofiqlik sertifikatini mijozga beriladi.

CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish uchun taqdim etiladigan xujjatlar:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy xujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- Mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarning ilova xujjati (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi;
- CHet el muvofiqlik sertifikatini (chiqaruvchi, bergan sertifikatlashtirish organi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi).

Mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish uchun buyurtmachilar tomonidan taqdim etiladigan xujjatlar:

- Buyurtma – ariza;
- Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga tegishli me'yoriy xujjat nusxasi;
- Gigiena sertifikati va sinov bayonomalari nusxasi;
- Mahsulot yorlig'idan nusxa.

Quyidagi ishlar davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi:

- sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollarini, uni o'tkazish qoidalari va tavsiyalarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;
- xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan birgalikda ishlar o'tkazish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqishda qatnashish;
- sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlarni olib borish;
- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini olib borish ishlari.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Har qanday mahsulot me'yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq ekanligini tasdiqlash uchun, u yuridik va jismoniy shaxsning tashabbusi bilan ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o'tkazilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni “O’zstandart” agentligi belgilab qo’ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

7.6. Sertifikatlashning tashqi savdoga ta’siri

Xozirgi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalar o’z mazmun-mohiyatiga ko’ra har qanday davlat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatuvchi omilga aylanib qoldi. SHuning uchun xo’jalik aloqalarini xalqaro miqyosda integratsiyalashuvini kengaytirish va chuqurlashtirishga berilayotgan e’tibor tobora kuchayib bormoqda.

XX asrning so’nggi yillarida jahonning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotidagi tub sifat o’zgarishlarining kuchayib borishi, xalqaro munosabatlarning hozirgi bosqichida quyidagi xususiyatlarni belgilab berdi:

Birinchidan, xalqaro ayirboshlashning tarkibiy tuzilishi sezilarli darajada o’zgardi: mamlakatlar mahsulotlar ayirboshlashdan tashqari turli xil xizmatlar, moliya kapitali, ishchi kuchi, fan-texnika axborotlari, yangi texnologiyalar, boshqaruv usullari va boshqalar bilan faol savdo-sotiq olib borishga o’tidilar.

Ikkinchidan, kapitalni chetga chiqarilishining ko’payishi va mamlakatlar o’rtasida ayirboshlashning kengayishi zamonaviy xalqaro iqtisodiy aloqalarni mamlakatlararo uyg’unlashuviga olib keldi. Bunday xususiyat o’z faoliyatini bir qancha davlatlar hududida amalga oshiradigan transmilliy korporatsiyalar (TMK) va transmilliy banklar (TMB) sonining ko’payib borishida o’z aksini topdi.

Uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning hozirgi bosqichida yana bir muhim xususiyat namoyon bo’ldi, ya’ni ayirboshlashda mamlakatlar tutgan o’rnini qayta taqsimlash jarayoni sodir bo’lmoqda.

Xalqaro savdo – bu turli davlat milliy xo’jaliklari o’rtasidagi tovar va xizmatlarning ayirboshlash jarayonidir. Xalqaro savdo qadimdan mavjud bo’lsada, faqat XIX asrga kelib, ya’ni deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar xalqaro savdo aloqalarida ishtirok eta boshlashi bilan jahon bozori shakliga kirdi.

Sertifikatlashtirish davlatlar o’rtasidagi xalqaro savdo munosabatlarini yengillashtiradi, mahsulotni import qilinayotgan davlatlarda qayta sinovdan

o'tkazish, tashish harajatlari qisqaradi. Yagona xalqaro standartlar birliklariga amal qilishga asoslangan xalqaro sertifikatsiyalash tizimlarini joriy etilganda, ish yanada osonlashadi.

Ammo, ko'pchilik davlatlarda sertifikatlashtirish milliy chegaralari kiritilgan. Natijada sertifikatlashning milliy qoidalari, sinovlarni o'tkazish tartibi va natijalarni ifodalashda farq yuzaga keladi. SHuning uchun ham milliy sertifikatsiyalash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro savdodagi nomuvofiqlikni yo'qotish ko'pchilik xalqaro tashkilotlarning diqqat markazidadir.

SHu bilan bir qatorda sertifikatlash va standartlashning milliy qoidalaridagi farqlar, shuningdek, ayrim mahsulot turlariga nisbatan qo'yilgan talablardagi ob'ektiv farqlardan ba'zi mamlakatlarda proteksionistik maqsadlarda, ya'ni chet ellik ishlab chiqaruvchilarga bu mamlakatlarning bozoriga kirib kelishlarining yo'lini yopish yo'lida ham foydalanmoqdalar.

Masalan, birorta mamlakat mahsulotning shunday tavsiflarini joriy qilgan standartni qabul qiladiki, boshqa mamlakatlardan uni import qilish juda qiyin bo'ladi, yoki umuman ilojisi bo'lmaydi. Agarda bu chora ta'sir qilmasa, import qilingan buyumlarning sinovini o'tkazish uchun murakkab ma'muriy protseduralar qo'llanadi. Ichki bozorga xorijiy buyumlar kirishini kamaytirish uchun standartni qo'llashning keng tarqalgan yo'llariga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

- standart orqali buyumlar ma'lum konstruksiyali bo'lishi haqida ko'rsatma berish;
- ma'lum materiallarni qo'llash;
- buyumning birorta tavsifiy miqdorini boshqa mamlakatlarda joriy qilingan miqdordan oshirib yuborish (masalan kafolat muddatini) va hokazo.

Bunday proteksionizm xaqida GFRning ulgurji va tashqi savdo Birlashmasining Prezidenti Gans Xaytvich "O'z iqtisodiyotini mavxum zararli raqobatdan saqlab qolish harakatida xokimlik milliy organlari o'zlarini juda ijodkor ko'rsatadilar. Umumiy bozor mamalakatlarida hozirni o'zida 900 dan ortiq savdo aloqalariga bevosita to'siq bo'ladigan davlat texnik reglamenti amalda

mamlakat sanoatini og'ir raqobatdan saqlab qolish uchun standartlarni kundalik maqsadlar bilan bog'laydilar" deb ta'kidlagan edi.

Bir qator xollarda proteksionist qarorlar jamiyat bosimi ostida qabul qilinadi. Bunday xukmronlik qarorlari (ba'zan ularni texnik reglamentlar deb atashadi) mahsulotlarga aniq texnik talablarni o'z ichiga oladi hamda ishlatish uchun zarur hisoblanadi.

Xalqaro savdo diskriminatsiyasi sertifikat siyosati milliy tizimi to'g'ridan to'g'ri chet el firmalarida tayyorlanadigan mahsulot sertifikat siyosati imkoniyatini yo'q qilganda o'rinli bo'ladi. Sertifikatsiyadan yuz o'girish ko'proq importchi-mamlakatda mos keluvchi milliy standartning yo'qligi bilan izoxlanadi.

CHet el tovarlari diskriminatsiyasi uchun ularning sertifikat sinovlariga narxni milliy ishlab chiqaruvchilar narxiga nisbatan ko'tariladi. Natijada sertifikat olish uchun yuqori narx ko'p xollarda mahsulot eksportini iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo'yadi.

7.7. Sertifikatsiya va xalqaro savdo

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, sertifikat siyosati, ko'p xollarda chet ellik raqobatchilarga nisbatan proteksionistik siyosat sifatida qo'llanadi. SHunga qaramasdan sertifikat siyosati asosiy maqsadi – bu xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Tabiiyki, bu maqsadni amalga oshirish uchun tegishli xalqaro kelishuvlar zarur. Bu borada "Tokio raund" (1979 y.) muzokaralarida imzolangan GATTning savdodagi texnikaviy to'siqlar haqidagi bitim e'tiborga sazovor.

Bitim uni imzolagan davlatlar o'rtasida savdo aloqalarida proteksionizm va diskriminatsiyani cheklash uchun qo'yilgan birinchi qadamdir. U GATT ga kiruvchi davlatlarga quyidagi majburiyatlarni yuklaydi:

Texnikaviy reglament va standartlarni proteksionistik maqsadlarda qo'llamaslik, ularni ishlab chiqishda amaldagi xalqaro standartlarni e'tiborga olish;

Milliy sinov markazlari va mahsulotni sertifikatlash tizimlariga boshqa davlatlar ishtirokchilarini ruxsatnoma bilan diskriminatsiya qilmaslik;

Ishtirokchi mamlakatlar tovarlariga standartlar va texnikaviy reglamentlarni joriy etish bo'yicha milliy tartibni yaratib berish;

Ishtirokchi mamlakatlar davlat tashkilotlari tomonidan mahsulotni sinovdan o'tkazish natijalarini, kelishuvga qo'l qo'ygan boshqa tashkilotlar va muvofiqlik belgilarini tan olinishini ta'minlash;

Ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida milliy standartlashtirish va sertifikatsiyalashtirish bo'yicha ma'lumotlarni o'zaro almashuvini amalga oshirish.

Bitim milliy standartlar, texnikaviy reglamentlar, sertifikatlash qoidalarini xalqaro standartlar va ko'rsatmalar bilan moslashuviga imkon beradi. Bu esa mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini yaxshilashga, uning eksport salohiyatini oshirishga sharoit yaratadi. Umuman olganda Bitim ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Bitimni bajarilishini nazorat qilish GATT qo'mitasiga topshirilgan. U Bitimning amalga oshirilishini nazorat qiladi, ekspertlar guruxi yordamida tortishuvlarning xal bo'lishiga, maslaxatlar, kelishuvlar o'tkazishga imkon yaratadi. Undan tashqari, qo'mita bitimni amal qilish doirasini kengaytirish va undagi qoidalar mazmuniga aniqlik kiritish haqida takliflar beradi. Qo'mita kotibiyati vazifasini GATT kotibiyati bajaradi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha bir nechta xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Ular ichidan Xalqaro elektrotexnika qo'mitasi (XEQ), elektrotexnika buyumlarini (ETB) sertifikatlashtirish ikki tomonlama ahamiyatga ega:

- birinchidan, elektrotexnika buyumlarining ishlab chiqilgan har bir partiyasini me'yoriy-texnikaviy xujjatlarga muvofiqligi sinaladigan yakkayu-yagona xalqaro tizim;

- ikkinchidan, unda sobiq sovet ittifoqining elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarining ishtirok etishi.

Xalqaro elektrotexnika qo'mitasining (XEQ) sertifikatlashtirish tizimini maqsadi, elektrotexnika buyumlariga yagona talablarni joriy qilish yo'li bilan,

ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoga, mahsulotlar sifatini baholash va sinash ishlariga ko'maklashishdir.

Bu tizim ishtirokchilaridan birida ishlab chiqarilgan mahsulot, boshqa ishtirokchi mamlakatlarda ham qayta sinovlar o'tkazmasdan bir xil maqbul bo'lishi uchun zarur.

Dastlab Xalqaro elektrotexnika qo'mitasi Amerikada ishlab chiqarilgan elektrotexnika buyumlarini diskriminatsiya qilish uchun tuzilgan, chunki Amerikada ishlab chiqarilgan elektrotexnika buyumlari G'arbiy Yevropada ishlab chiqarilgan elektrotexnika buyumlaridan raqobatbardoshliroq edi. Keyinchalik Xalqaro elektrotexnika qo'mitasida dunyo miqyosida Elektrotexnika buyumlarini sertifikatlashtirish masalasi ko'tarildi.

Elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqaruvchi har qanday korxona, xalqaro elektrotexnika qumitasi tizimi doirasida o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish xuquqini beradigan litsenziya olishi mumkin. Buning uchun u vakolatli milliy tashkilotga kelgusida elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqarishga asos buluvchi, umumiy va guruxiy-texnikaviy shartlar nomlari ko'rsatilgan buyurtmani taqdim etishi kerak.

Bunda korxona milliy nazorat xizmati vakillariga elektrotexnika buyumlarini ishlab chiqaradigan bo'limlarga, agar ular tijorat nuqtai nazardan sirli bo'lmasa, kirish imkoniyatini ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning sirli bo'limlari korxona bosh nazoratchisi kuzatuvi ostida bo'lishi kerak. U korxona va nazorat xizmati o'rtasida bog'lovchi zveno bo'ladi.

Bosh nazoratchini asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- milliy nazorat xizmati bilan aloqani ta'minlash;
- qabul qilingan elektrotexnika buyumlarining partiyalari sifati uchun javobgarlik;
- nazorat o'lchashlar va sinovlar hisobini yuritish, ular natijalarini milliy nazorat xizmatiga uzatish;
- qabul qilingan buyumlar partiyalarini muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash uchun javobgarlik;

- ishlab chiqarilgan partiyalar sinovlari protokollarini to'g'ri rasmiylashtirish;

- Elektrotexnika buyumlarini qo'shimcha sinash va nazorat o'tkazish uchun javobgarlik.

Xalqaro elektrotexnika qumitasi (XEQ) tizimi doirasida sertifikat olgan ishlab chiqaruvchi korxona bosh nazoratchi va milliy nazorat xizmati ishtirokida buyumlar sifati ustidan nazoratni tashkil qilishi shart. Har bir partiyani qabul qilish me'zonlari mazkur elektrotexnika buyumlarini turiga qo'yiladigan texnikaviy shartlar orqali joriy qilinadi.

Xalqaro elektrotexnika qumitasi (XEQ) tizimi qoidalariga binoan qabul qilingan elektrotexnika buyumlarining partiyalarini muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash va ularga muvofiqlik sertifikatlarini berish, bosh nazoratchining bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi. Uzoq muddat saqlangan elektrotexnika buyumlarining partiyalarini jo'natishdan oldin, ular qayta sinovlardan o'tkaziladi.

Mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatning qonunchiligiga asosan ro'yxatga olingan muvofiqlik belgisi, yopishqoq tasma yoki buyum uchun qo'llanadigan boshqa materialga qo'yiladi. Belgi yoniga quyidagi ma'lumotlar beriladi:

- milliy nazorat xizmatiga havola;
- korxonaning attestatsiyalanishi haqida guvohnomaga havola;
- nazorat partiyasiga havola.

Elektrotexnika buyumlarining qabul qilingan partiyalariga berilgan muvofiqlik sertifikatida quyidagilar aks etadi:

- Korxona nomi va manzili;
- Korxonaning savdo belgisi;
- Buyumning katalog bo'yicha to'la nomi va kodi;
- Nazorat partiyasining raqami;
- Buyumning mazkur turiga qo'yilgan texnikaviy shartlar;
- Milliy nazorat xizmatining nomi;
- Sertifikat bergan vakolatli shaxs imzosi;

- Ishlab chiqaruvchi korxona attestatsiyalanganligi haqida guvoxnomaning raqami;

- Buyum qabul qilingan sana;

- Sertifikat berilgan sana.

Elektrotexnik buyumlarni xalqaro sertifikatlashtirish tizimi, 1926 yilda Norvegiya, SHvetsiya, Gollandiya va Germaniya davlatlarining vakillari tomonidan elektrotexnika buyumlari xavfsizligi bo'yicha talablar va ularni qabul qilish qoidalarini ishlab chiqishga qaror qilganlarida yaratilgan.

1960 yilda eletrotexnika mahsulotlarini sertifikatsiyalash bo'yicha qumita tashkil etildi va u elektrotexnika buyumlarini sertifikatlashtirish qoidalarini ishlab chiqdi. Xalqaro savdoni osonlashtirish va o'tkaziladigan sinovlar hajmini kamaytirish maqsadida, sinov protokollari asosida berilgan sertifikatlarni ishtirokchi mamlakatlar tomonidan o'zaro tan olishga ko'maklashadigan SV sertifikatsiyalash tizimi ta'sis qilindi.

1973 yilda SV tizimi doirasida elektr jixozlar muvofiqligining yagona belgisini qo'llash qoidalari qabul qilindi. Mazkur tashkilot elektr jixozlarining qaysi turlariga muvofiqlik belgisini berilishini belgilaydi.

Sertifikatlash tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar sertifikatlashtirish faoliyatini boshqaradigan qo'mita (SERTIKO) boshchiligida ISO doirasida olib boriladi.

Uning faoliyat ko'rsatish doirasi quyidagicha belgilangan:

- sertifikatlashtirishning milliy va mintaqaviy tizimlari, mahsulotdan foydalanish va uning boshqa tavsiflarini joriy qiladigan standartlar talablariga muvofiqlik belgilarini keng, o'zaro tan olishga qaratilgan vositalarni qo'llash;

- milliy yoki mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini proteksionistik maqsadlarda qo'llashning oldini olish yoki cheklash uchun tegishli bitimlar tuzishning qoida va protseduralarini ishlab chiqish.

SERTIKO da quyidagi ishchi guruxlari tuzilgan:

- terminologiya bo'yicha;

- sinov protokollari shakli bo'yicha;

- sinov laboratoriyalari o'tkazadigan tajriba sinovlari bo'yicha;
- huquqiy javobgarlik masalalari bo'yicha;
- ISO ga muvofiqlik belgisi bo'yicha;
- Korxonalardagi sifatni ta'minlovchi tizimlarni baxolash usullari bo'yicha.

SERTIKO "Uchinchi tomon sertifikatlashtirish tizimlari tegishli standartlarga oid printsiplar to'plami" qo'llanmasini ishlab chiqdi. U sertifikatlashtirish milliy va mintaqaviy tizimlarini boshqa tizimlar bilan muvofiqligi va ularda boshqa mamlakatlarning ishtirok etishi nuqtai nazaridan tashkil etish tamoyillarini belgilaydi.

SHuningdek milliy va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini yaratishda ular iloji boricha ISO ning xalqaro standartlariga asoslanishi kerak. Bunda bu standartlar muvofiqlikni sertifikatlashtirish bo'yicha quyidagi talablardan tashkil topgan bo'lishi zarur:

- sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot tavsiflari darajasini aniq belgilash;
- sinash va o'lchashning aniq va qayta tiklanadigan usullaridan foydalanish;
- standartlarga mahsulot sifatini ta'minlovchi tizimlarga bo'lgan talablarni kiritish;
- texnika va texnologiyalarni rivojlanishiga ko'maklashadigan shartlar.

Qo'llanma yaratilayotgan tizimlarda hech qanday to'siqsiz hamda diskriminatsion shartlarsiz barcha mahsulot ishlab chiqaruvchilar qatnashishini nazarda tutadi.

Qo'llanma mahsulotning barcha ishlab chiqaruvchilarini yaratilayotgan tizimlarda hech bir diskriminatsion shartlarsiz ishtirok etishini ta'minlashning zaruriyligini nazarda tutadi.

U milliy sertifikatlashtirish tizimlarini o'zaro tan olish yo'li bilan sertifikatlashtirish vositalari orqali xalqaro savdoni rivojlanishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sertifikatatsiya davlatlar o'rtasidagi savdo munosabatlarini osonlashtiradi, import qilinayotgan davlatlarda mahsulotni qayta sinovdan o'tkazish ishlariga ketadigan harajatlarni qisqaradi.

7.8. Milliy sertifikatlashtirish tizimlari

Sanoati rivojlangan davlatlarda sertifikatatsiyalash o'tgan asrning 20-30-yillarida paydo bo'ldi. Keyinroq Yaponiya, Hindiston, Yugoslaviya va boshqa davlatlarda eksport qilinadigan mahsulotlarning sifatini oshirish maqsadida Milliy sertifikatatsiyalash tizimlari tuzila boshlandi.

1981 yildan boshlab Frantsiya xukumati 18 ta milliy tashkilotni sertifikatlashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida tan oldi, ularning ichida eng nufuzligi "AFNOR" muxim ahamiyat kasb etdi.

1983 yilda mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini bir necha ming xil mahsulotlar ishlab chiqaradigan 2000 ta korxona olgan. Muvofiqlik belgisi bilan chiqarilgan mahsulotning umumiy xajmi 40 mlrd. frankka yetgan.

Frantsiyada NF belgili milliy sertifikatlash tizimi sertifikatatsiya tizimlariga uchinchi tomondan yondashadi va quyidagilarni nazarda tutadi:

- ishlab chiqaruvchi korxonalar buyurtma berishini;
- korxonalarning sifatini ta'minlovchi tizimlarini baholashni o'tkazishni;
- mahsulot namunalarini sinovdan o'tkazishni;
- mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beradigan sertifikat yoki litsenziyalarni berishni;
- ishlab chiqarish yoki savdo doirasidan olingan mahsulotni davriy nazorat qilish hamda korxonalarda nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Germaniyada standartlarga muvofiqlik belgisi (DIN) 1920 yil nemis standart instituti tomonidan ta'sis qilingan. U mahsulotning barcha turlariga (namunalar sinovini o'tkazish va ishlab chiqarishni nazorat qilishning maxsus tartibiga ega bo'lgan gaz jixozlari, suv bilan ta'minlash jixozlari va boshqa ayrim mahsulotlar bundan istisno) tarqalgan.

DIN standartlari muvofiqlikni sertifikatlashtirish tizimi mahsulotning 110 guruxini qamrab olgan. Unga mahsulotni DG-WK (mahsulotni tamg'alash nemis assotsiatsiyasi) belgisi bilan tamg'alash uchun 15000 dan ortiq litsenziya berilgan. Bu sertifikatlashtirish tizimida amaldagi qoidalarga rioya qilish majburiyatini olish sharti bilan xorijiy yetkazib beruvchilar ham ishtirok etishlari mumkin.

Germaniyada muayyan bir mahsulotni sertifikatlash tizimlari ham mavjud, misol uchun, elektrotexnika va elektron jixozlarni sertifikatlash tizimi DIN VDE bilan hamkorlikda elektrotexnika, elektronika va aloka sohalarida milliy standartlar ishlab chiqilmoqda.

Germaniyada har xil maqomga ega bo'lgan ko'pgina sertifikatlash tizimlari o'z-o'zini sertifikatlash, 4 va 5 tizim chegaralarida uchinchi tomondan sertifikatlash tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Buyuk Britaniyada ham bir necha milliy sertifikatlash tizimlari faoliyat ko'rsatadi. Bular ichida Britaniya instituti tomonidan yaratilgan BSI tizimi eng yirik xisoblanadi. Bu tizim aloxida milliy standartga tegishli belgiga egadir. Mahsulotni sertifikatsiyalash tartibi Frantsiya va Germaniyadagi tartib bilan bir xil.

BSI ruxsatisiz korxonalar mahsulotlarini o'zgartirishlari mumkin emas. Mahsulot tarkibidagi o'zgarishlar bir necha tajribalardan so'ng, QUAD ruxsati bilan kiritiladi. Litsenziyaning muddati bir yil, keyin esa uning muddati uzaytirilishi kerak.

Britaniya tizimi 250 dan ortiq milliy standartlarni qamrab oladi, milliy va xorijiy firmalarga mingdan ortiq litsenziyalar berilgan. BSI muntazam ravishda sertifikatsion mahsulotlar ro'yxatini chop etadi hamda haridorlar uchun qo'llanma nashr etib boradi, unda har bir milliy standart bo'yicha berilgan sertifikat haqida ma'lumot beriladi.

AQSHda, Garbiy Yevropadan farqli ravishda, sertifikatlash qoidasi yoki sertifikatsiya bo'yicha birorta milliy tashkilot yo'q. Har hil ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari va xususiy kompaniyalar uchun yuzlab tizimlar mavjud. Xuddi shunday holat standartlashtirishga ta'luqli, ya'ni standartlarni har hil statusga ega bo'lgan yuzlab tashkilotlar ishlab chiqadi. SHuning uchun mavjud bo'lgan

sertifikatsion tizimlar uchun umumiy kriteriyalarni yaratish bo'yicha harakatlar qilinmoqda. SHu maqsadda sinov laboratoriyalarining milliy akkreditatsiya tizimi yaratilgan va sertifikatsion tizimlarni registratsiya qilish tizimlari yaratilmoqda.

AQSHda Sug'urta kompaniyalar milliy laboratoriyasi, Amerika gaz sanoati korxonalari laboratoriyasi, Nebraska shtatidagi qishloq xo'jaligi texnikasini sinash markazi qoshida yaratilgan sertifikatlashtirish tizimlari katta obro'ga ega. Ular bilan bir qatorda 2000 dan ortiq tijorat sinov laboratoriyalari mahsulotning keng assortimentini standart talablariga muvofiqligini sinash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Sertifikatlashtirishni amalga oshiriladigan standartlar sifatida Amerika standartlar instituti UL standartlari, yong'indan saqlash Milliy assotsiatsiyasi standartlari va boshqalar xizmat qiladi. AQSHda me'yoriy xujjatlar talablarini xisobga olmagan xalqaro standartlar va boshqa mamlakatlarning standartlari sertifikatsiya o'tkazish uchun qabul qilinmaydi, ya'ni import qilinadigan mahsulotning ma'lum diskriminatsiyasi mavjud.

Yaponiyada 1949 yilda mamlakat olimlari va muxandislari uyushmasi qoshida sifatni nazorat qilish muammosini o'rganish bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan. O'tgan asrning 60-yillarining oxirida esa mamlakatda ishlab chiqarishda sifat nazorati to'la hajmda tatbiq etilgan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- korxona barcha bo'linmalari va hamma xodimlari ishtirok etadigan mahsulot sifatining to'la nazorati;
- sanoat tarmoqlari bo'yicha mahsulot sifati nazorati sohasida o'qitish;
- sifat to'garaklari faoliyati;
- sifat nazoratining statistik usullarini qo'llash;
- sifat g'oyalarini targ'ibot qilish bo'yicha milliy kompaniya.

Yaponiyada sertifikatlashtirishga yapon tovarlarining yuqori sifat darajasini ta'minlash va jahon bozorida ular raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida qaraladi.

Sanoat standartlashtirish qonunida mahsulotni yapon industrial standartlari JIS talablariga muvofiqligi belgisi bilan tamg'alash ko'rsatilgan. U mamlakatda sanoat standartlarini ommalashtirishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, hamda firmalar darajasida sifat nazorati usullarini tarqalishiga ko'maklashadi.

JIS belgisidan foydalanish xuquqini sanoatning tegishli tarmoq vazirliklari beradi. Muvofiqlik belgisi ikki "A" va "V" shaklda bo'ladi, ular mahsulot va texnologik jarayonlarni milliy standartlarga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llanadi.

Xukumat JIS belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va texnologik jarayonlar sifatini kafolatlaydi.

1980 yilgacha xorijiy ishlab chiqaruvchilarga JIS belgisini qo'llash man etilar edi. Keyinchalik xorijiy yetkazib beruvchilar yapon ishlab chiqaruvchilari bilan bir qatorda sertifikatlashtirish protsedurasida qatnashish xuquqiga ega bo'ldilar.

JIS moslik belgisi bilan bir qatorda Yaponiyada ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi va baliq mahsulotlari uchun JAS belgisi qabul qilingan. U oziq-ovqat, qishloq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini moslik markirovkasi va standartlash Qonuni asosida kiritilgan.

Sertifikatlash tizimlari Yaponiya iqtisodiyoti tarmoqlarini mashinasozlik, elektrotexnika, kimyoviy sanoat va boshqa hamma sohalarini qamrab oladi. 1983 yilning mart oyida Yaponiya va chet el ishlab chiqaruvchilari uchun markalangan mahsulotni ishlab chiqarish xuquqini beradigan 16000 va 20000 mos ravishda litsenziyalar berilgan.

Xozirgi vaqtda sanoati rivojlangan mamlakatlarda sertifikatlash jarayoni hamma jabxalarga kirib bormoqda. Buni quyidagi ikki omil bilan izoxlanadi:

- iste'molchiga mahsulot sifatining mustahkam darajasini kafolatlashga intilish;

- tashqi va ichki bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Agar raqobatchilardan biri u chiqargan mahsulot sertifikatlashdan o'tganligini ma'lum qilsa, boshqa raqobatchi firmalar shu on bunday chora-tadbirlarni bajarishga majbur bo'ladilar.

VIII BOB. O'ZBEKISTONDA STANDARTLASHTIRISH OB'KTLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA TOVARLARNI SHTRIXLI KODLASH

*Eng qiziqarli mavzulardan birini yorituvchi ushbu bobni o'qiganda,
quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:*

- *Standartlarni qanday turlari va toifalarini bilasiz?*
- *Xizmatlarni standartlashtirish deganda nimani tushunasiz?*
- *Qalbaki mahsulotlar bilan kurashishda standartlashtirish va sertifikatlashning roli to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *SHtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?*

8.1.O'zbekistonda standartlashtirish ob'ektlariga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

- xalq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi);
- qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalashda - O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi;
- tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar, shu jumladan dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika sohasida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan, shu jumladan import bo'yicha yetkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar mavjudligini aniqlash masalalarida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;
- mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorgarligini ta'minlash, mudofaa ahamiyatiga molik mahsulotlar sohasida - O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi amalga oshiradi.
- tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida -

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida standartlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va nashr etadi.

“O'zstandart” agentligi O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

- xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;
- O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari;
- tashkilotning standartlari;
- xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari.

Davlat yagona uzluksiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi.

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi “O'zstandart” agentligi tomonidan belgilanadi.

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalar va normalar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalar va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini “O'zstandart” agentligi va davlat boshqaruvining boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar hamda ularga kiritilgan o'zgartishlar “O'zstandart” agentligi organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. ”O'zstandart” agentligi organlarida

ro'yxatdan o'tkazilgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning davlat fondiga kiradi.

Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi. Mahsulot, atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki xavfsizligini, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rioya etishi uchun majburiydir.

Mahsulot va texnologiyalarning ma'lum bir turlari yoki faoliyati turlarini standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek kursatilgan obektlar yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) standartlashtirish ishlarini o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida 31 ta Texnikaviy qo'mitasi (TQ) mavjud.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ob'ektlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilab beruvchi me'yoriy-texnik hujjatlarning quyidagi toifalari belgilangan:

- davlat standartlari (GOST);
- tarmoq standartlari (TST);
- respublika standartlari (RST);
- korxonalar standartlari (KST);
- jamoat birlashmalari standartlari (JST);
- texnik shartlar (TSH);
- xalqaro standartlar (ISO/MEK)
- mintaqaviy standartlar;
- davlatlararo standartlar;
- milliy standartlar.

Davlat standartlari (GOST) tarmoqlararo talab etiladigan mahsulot, ishlar va xizmatlar uchun ishlab chiqiladi. Ushbu toifa standartlarini O'zbekiston Respublikasi "O'zstandart" agentligi qabul qiladi. Standartlarda majburiy talablar ham, tavsiyaviy talablar ham o'z aksini topadi.

Tarmoq standartlari (TST) muayyan tarmoq mahsulotlariga nisbatan ishlab chiqiladi. Ularning talablari davlat standartlarining majburiy talablariga, shuningdek tarmoq uchun belgilangan xavfsizlik qoidalari va me'yorlariga zid kelmasligi kerak. Tarmoq standartlarini O'zR GOST talablariga mos kelishi uchun javobgar bo'lgan davlat boshqaruvi organlari (masalan, vazirliklar) qabul qiladi.

Respublika standartlari (RST) "O'zstandart" agentligi va mahsulotning biriktirilgan guruhlariga bo'yicha tegishli vazirliklar va idoralar bilan korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotning alohida turlari uchun belgilanadi.

Korxonalar standartlari (KST) korxonalarning o'zlari tomonidan ishlab chiqilib, qabul qilinadi.

Jamoat birlashmalari standartlari (ilmiy-texnikaviy jamiyatlar, muhandislik jamiyatlari va b.). Ushbu me'yoriy hujjatlar mahsulot, jarayonlar yoki xizmatlarning printsiplial yangi turlari, sinovlar o'tkazishning ilg'or usullari hamda ishlab chiqarishni boshqarishning noan'anaviy texnologiyalari va usullari uchun ishlab chiqiladi.

Standartlashtirish qoidalari (Q) va standartlashtirish yuzasidan tavsiyalar (T) o'z xususiyatiga ko'ra uslubiy mazmundagi hujjatlarga mos keladi. Ular hujjatlar me'yorlarini muvofiqlashtirish, qabul qilingan tarmoqlar, jamoat va boshqa tashkilotlar standartlari to'g'risidagi axborotni "O'zstandart" agentligiga taqdim etish, korxonada standartlashtirish xizmatini tashkil etish tartibiga, GOST majburiy talablariga amal qilinishi ustidan davlat nazoratini o'tkazish qoidalari va tashkiliy xususidagi boshqa masalalarga taaluqli bo'lishi mumkin.

Texnik shartlar (TSH) korxonalar va xo'jalik faoliyatining boshqa sub'ektlari tomonidan standartni yaratish maqsadga muvofiq bo'lmagan hollarda ishlab chiqiladi. Bir marta yetkazib beriladigan, kichik partiyalarda ishlab chiqiladigan mahsulot hamda badiiy hunarmandchilik asarlari TSH ob'ekti bo'lishi mumkin.

Xalqaro standartlar (ISO/MEK) xalqaro standartlashtirish tashkilotlari tomonidan savdodagi texnik to'siqlarni olib tashlash, ya'ni mahsulot, xizmatlarga nisbatan qo'yiladigan talablarni xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirish uchun ishlab chiqiladi.

Mintaqaviy standartlar mintaqaviy standartlashtirish organlari tomonidan ishlab chiqiladi. Masalan, YeOKK (Evropa sifatni nazorat qilish tashkiloti) ana shunday tashkilot hisoblanadi.

Milliy standartlar milliy standartlashtirish organlari, masalan, “O’zstandart” agentligi tomonidan ishlab chiqiladi. Milliy standartlar faqat O’zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi.

Davlatlararo standartlar MDHga a’zo bo’lgan mamlakatlar uchun majburiy.

Standartlarning quyidagi turlari mavjud:

- asosiy standartlar;
- mahsulot uchun standartlar;
- ishlar va jarayonlar uchun standartlar;
- sinovlar o’tkazish, nazorat qilish, tahlil qilish usullari uchun standartlar;
- texnik shartlar.

Asosiy standartlar, o’z navbatida, quyidagi turlarga bo’linadi:

- umumiy texnikaviy standartlar;
- tashkiliy-uslubiy standartlar.

Sifatni aniqlash, belgilash atamalari, sifat ko’rsatkichlari nomenklaturasini reglamentlovchi umumiy texnikaviy standartlar, standartlashtirish ob’ektining axborot nuqtai nazaridan mosligini, uning bir xil ma’noda tushunilishini ta’minlash funksiyasini bajaradi.

Mahsulot uchun standartlar mahsulotga nisbatan qo’yiladigan talablarni reglamentlaydi va quyidagi turlarga bo’linadi:

- umumiy texnik talablar standartlari;
- umumiy texnik shartlar standartlari;
- texnik shartlar standartlari.

Umumiy texnik talablar va umumiy shartlar standartlari mahsulotni ishlab chiqish, iste’mol qilish va uning muomalada bo’lishi (undan foydalanish) bo’yicha bir xil mahsulotlar guruhiga nisbatan qo’yiladigan har tomonlama talablarni belgilaydi.

Mahsulot parametrlari va (yoki) o'lchamlari, xillari, markalari, assortimenti, konstruksiyasini reglamentlovchi standartlar, mahsulotning unifikatsiyasini va bir-birining o'rnini bosa olishni ta'minlovchi xil-o'lcham va parametr qatorlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Texnik shartlar standartlari bir xil mahsulotlar guruhiga nisbatan emas, balki muayyan ishlab chiqariladigan mahsulotga nisbatan qo'yiladigan talablarni reglamentlaydi.

Sinovlar o'tkazish, nazorat qilish, tahlil qilish usullari uchun standartlar sinovlar o'tkazish usullariga, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishga, mahsulotni sertifikatlash chog'idagi sinovlarga nisbatan qo'yiladigan talablarni reglamentlaydi.

Texnik shartlar – bu tarmoqqa bo'ysingan me'yoriy hujjat bo'lib, ushbu mahsulot uchun GOSTni joriy etishda vaqtinchalik ahamiyatga ega.

Standartlashtirish iste'molchilar huquq va manfaatlarining davlat tomonidan himoyalinishini amalga oshirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xizmatlar sifati e'lon qilingan xizmat ko'rsatish sinfi uchun belgilangan standartlar, ko'rsatkichlar, talablarga mos kelishni tekshirish orqali tasdiqlanadi. Bunda hamma vaqt xavfsizlik eng asosiy talab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, standartlashtirish – bu:

a) mahsulot, ishlar va xizmatlarning atrof muhit, inson hayoti, salomatligi, mol-mulki uchun xavfsizligini;

b) fan, texnika va texnologiyaning rivojlanish darajasiga muvofiq mahsulot, ishlar va xizmatlar sifatini;

v) o'lchovlarning yagonaligini;

g) barcha turdagi resurslarning tejalishini;

d) xo'jalik ob'ektlarining xavfsizligini;

e) mamlakatning mudofaaga qodirligini ta'minlash maqsadida me'yorlar, qoidalar va tavsiflarni belgilash faoliyati.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonuni xizmatlar sohasida standartlashtirishning rivojlanishiga turtki berdi. Majburiy sertifikatlash "O'zstandart" agentligi tomonidan tanlangan asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunga qadar xizmatlar sifatiga nisbatan qo'yiladigan talablarni me'yoriy huquqiy hujjatlarda hamda idoraviy va ishlab chiqarish hujjatlarida belgilanar edi.

Xizmatlar sohasida qo'llaniladigan ko'p sonli qonun osti hujjatlar (qoidalar, yo'riqnomalar va h.k.) sertifikatlashning asosiy me'yoriy bazasiga aylana olmadi – majburiy talablarga ega bo'lgan davlat standartlariga ehtiyoj paydo bo'ldi. SHunday qilib, mamlakatimizda boshlangan majburiy sertifikatlash xizmatlar sohasida standartlashtirish ishlariga turtki berdi.

8.2. Mahsulotni standartlashtirish va uning qalbakilashtirilgan mahsulotlar bilan kurashishdagi roli

Hammamizga ma'lumki, iste'molchi deyarli har qanday tovar bozorlarida xilma-xil qalbaki (sohta) tovarlarga duch keladi. Bunda nosog'lom raqobat tufayli mahsulot ishlab chiqaruvchining ham, haridorning ham huquqlari paymol qilinadi.

Ayrim baholarga ko'ra, xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish umumiy hajmida qalbakilashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish xajmi, kiyim-bosh va poyabzallar ishlab chiqarishda 40 foizgacha, parfyumeriya, kosmetika va sintetik kir yuvish vositalarida – 50 foiz, baliq va go'sht konservalarida – 35 foiz, sari yog' va margarinda – 40 – 45 foiz, vino-arog mahsulotlarida 60 foizgacha yetadi. Natijada yetakchi mahalliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar– tovar belgilari egalari har yili ko'radigan zararlar 1,5 milliard AQSH dollaridan ko'proqni tashkil qiladi. Qalbakilashtirishning bir necha asosiy usullari aniqlangan:

1. Ochiq soxtakorlik (qalbakichilik), ya'ni tashqi shaklni va savdo rusumini qalbakilashtirish. Tovlamachilikning mazkur usuli plastinkalar, audio va video kassetalar, kompakt-disklar bilan savdo qilishda tez-tez uchrab turadi.

2. Taqlid qilish – mashhur ishlab chiqaruvchining rusumi ostida sotish. Bunday qalbakilashtirish keng iste'mol qilinadigan tovarlar (tikuvchilik

mahsulotlari, soatlar va h.k.) uchun xos. Bunday tovarlar narxi, qoidaga ko'ra, haqiqiy (asl) tovarlar narxidan ancha arzon bo'ladi, bu odatda haridorni, ayniqsa tajribasiz yoki boshqalarning zaifligidan foydalanib boylik ortiruvchi haridorni o'ziga jalb qiladi.

Standartlashtirish va sertifikatlash sifatsiz tovarning bozorga kirib kelishiga va iste'molchiga yetib borishiga to'siq qo'yadi.

Tovar bozorlarini qalbakilashtirilgan mahsulotlardan himoyalash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- sertifikat va muvofiqlik belgisining mavjudligini va haqiqiylikni nazorat qilish (muvofiqlik belgisining golografik himoyasini ishlab chiqish va yupqa plyonka texnologiyasini qo'llash);

- tovarda (yoki uning o'ramida) kosibchilik sharoitida qiyin qalbakilashtiriladigan unsurlarning mavjudligi;

- tovarlarni firma savdo nuqtalari orqali bozorga olib chiqish;

- ishlab chiqaruvchi, savdo qiluvchi va vositachi tashkilotlarning qalbaki mahsulotlarni sotganlik uchun javobgarlik darajasini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilar huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi Qonunida belgilangan tartibda muvofiqlik belgisi bilan markalanmagan, sertifikatlanishi shart bo'lgan tovarni (shu jumladan import qilinadigan tovarni) sotish taqiqlanadi.

Muvofiqlik belgilarining qo'llanilishini nazorat qilish bilan qonuniy asosda muvofiqlik belgisini identifikatsiyalash uchun maxsus texnik qurilmalar bilan jihozlangan hududiy ma'muriy organlar shug'ullanishlari kerak.

8.3. SHtrixli kodlashtirish

Ba'zan biron mahsulot harid qilganimizda uning ko'rinarli joyida yoki etiketkasida har xil qalinlikdagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan shakllarni ko'rishimiz mumkin. Ularga shtrix-kod nomi berilgan. Xush, shtrix-kodlar nima va qachon paydo bo'lgan?

SHtrix-kodlarni mahsulotlarga nisbatan tadbqiq etish g'oyasi ilk bor XX asrning 30 yillarida AQSHning Garvard biznes maktabida yaratilgan, undan amalda foydalanish esa bir necha o'n yillardan so'ng, ya'ni, 60 yillarda boshlangan. SHtrix-kodlardan dastlabki foydalanuvchilar temir yo'lchilar bo'lib, ular bu usul orqali temir yo'l vagonlarini identifikatsiyalashgan. Mikroprotsessor texnikasining tez sur'atlarda rivojlanishi 1970 yillardan boshlab shtrix-kodlardan keng foydalanish imkonini yaratdi. 1973 yil AQSH da mahsulotning Universal Kodi (IPC) qabul qilinib, 1977 yildan boshlab esa Yevropada Kodlash Tizimi YeAN (European Article numbering) ta'sis etildi va xozirda undan nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham keng foydalanilmoqda.

SHtrix-kod ketma-ket almashinib keluvchi qora (shtrix) va oq (probel) rangli, turli qalinlikdagi chiziqlardan iborat bo'lib, bu chiziqlarning o'lchamlari standartlashtirilgan. SHtrix-kodlar maxsus optik qurilmalar - skanerlar yordamida o'qishga mo'ljallangan. Uning vositasida, mikroprotsessorlar orqali shtrixlar raqamlarga dekodeylanib, mahsulot haqidagi ma'lumotlar kompyu'terga uzatiladi.

Ko'pgina iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda mahsulotning o'ramida (upakovkasida) shtrix-kodning bo'lishi majburiy sanaladi. Aks holda savdo tashkilotlari mahsulotdan voz kechishlari mumkin. Bu xalqaro savdoga ham tegishlidir. Ushbu tizimning iqtisodiy jihatdan samaradorligi mahsulotning 85% foizdan ko'pi kodlashtirilganda yaqqol nomoyon bo'ladi. Bundan tashqari, mahsulotga nisbatan bo'lgan talab va extiyojlarni shakllantirish, jamlash, hisobga olish, mahsulotni kelish-ketishini hisob qilib borish va xujjatlarni rasmiylashtirishda, hamda mahsulotlarni saqlash va sotuvdagi nazoratlarni amalga oshirishda alohida o'rin tutadi.

Asosan YeAN (European Article numbering) ning ikki kodidan ko'proq foydalaniladi: 13 razryadli va 8 razryadli raqamli kodlar. Bunda eng ingichka shtrix birlik sifatida olinadi. Har bir raqam (yoki razryad) ikki shtrix va ikki probeldan iborat bo'ladi (8.3.1-rasm).

Dunyoda ishlab chiqariladigan tovarlarga qo'yiladigan shtrix kodlar
(faqat birinchi uchta raqam ya'ni mamlakat kodi)

kod	davlatlar	kod	davlatlar	kod	davlatlar
00-09	AQSH, Kanada	570-579	Daniya	750	Meksika
387	Bosniya-Gertsegovina	590	Polsha	754-755	Kanada
400-440	Germaniya	594	Ruminiya	759	Venesuela
450-459	Yaponiya	599	Vengriya	760-769	SHveytsariya
460-469	Rossiya	600-601	Janubiy Afrika	770	Kolumbiya
479	Qirg'iziston	603	Gana	773	Uragvay
471	Tayvan	608	Baxreyn	775	Peru
474	Estoniya	609	Mavrikiy	777	Boliviya
475	Latviya	611	Marokash	779	Argentina
476	Ozarbayjon	613	Jazoir	780	CHili
477	Litva	616	Keniya	784	Paragvay
478	O'zbekiston	618	Kot-D Ivuar	786	Ekvador
479	SHri-Lanka	619	Tunis	789-790	Braziliya
480	Filippin	621	Suriya	800-839	Italiya
481	Belorussiya	622	Misr	840-849	Ispaniya
482	Ukraina	624	Liviya	850	Kuba
484	Moldova	625	Iordaniya	858	Slovakiya
485	Armaniston	626	Eron	860	Serbiya va CHernogoriya
486	Gruziya	628	Saudiya Arabistoni	865	Mongoliya
487	Qozog'iston	629	BAA	867	SHimoliy Koreya
489	Gogkong	640-649	Finlyandiya	884	Kambodja
500-509	Angliya	690-695	Xitoy	885	Tailand

520	Gretsiya	700-709	Norvegiya	888	Singapur
528	Livan	729	Isroil	890	Hindiston
529	Kipr	730-739	SHvetsiya	893	Vyetnam
530	Albaniya	740	Gvatemala	899	Indoneziya
531	Makedoniya	741	Salvador	900-919	Avstriya
535	Malta	742	Gonduras	930-939	Avstriya
539	Irlandiya	743	Nikaragua	940-949	Yangi Zelendiya
540-549	Belgiya, Lyuksemburg	744	Kosta-Rika	955	Malayziya
560	Portugaliya	745	Panama	958	Makao


EAN assotsiatsiyasi turli davlatlar uchun kodlar ishlab chiqqan bo'lib, ushbu kodlardan foydalanish uchun markazlashgan tarzda litsenziyalar tavsiya etadi. Masalan, Gretsiya - 520, Rossiya - 460-469, BAA - 629, Braziliya - 789-790 va boshqalar. 8.3.1-jadvalda davlatlarning litsenziya asosida olingan kodlari keltirilgan.

Tayyorlovchi korxonaning kodi har bir davlatda tegishli organlar tomonidan tuziladi. Odatda, bu kod beshta raqamdan iborat bo'lib, davlat kodidan keyin keladi. Mahsulot kodi tayyorlovchi tomonidan tuziladi va u ham beshta raqamdan iborat bo'ladi. Bu kodning rasshifrofkasi standart emas, u mahsulotga taalluqli bo'lgan muayyan xususiyatlarni (belgilarni) yoki faqat tayyorlovchining o'zigagina ma'lum bo'lgan va shu mahsulotning qayd etish tartib raqamini ifodalashi ham mumkin.

13 razryadli kodning tarkibida quyidagi kodlar ko'rsatiladi:

- davlat kodi ("davlat bayrog'i");
- korxona (firma) — tayyorlovchi kodi;
- mahsulotning kodi;
- nazorat soni.

Nazorat soni YeAN ni algoritmi bo'yicha kodni skaner vositasida to'g'ri o'qilganligini tekshirish uchun xizmat qiladi.



8.3.1-rasm. 13 razryadli YeAN kodi

EAN-8 kodi uzun kodlarni belgilab bo'lmaydigan kichik o'ramlar uchun mo'ljallangan. YeAN-8 kodi quyidagi kodlar tartibidan iborat:

- davlat kodi (“davlat bayrog’i”);
- korxona (firma) - tayyorlovchi kodi;
- nazorat soni.

Ba’zan, tayyorlovchi korxona kodining o’rniga mahsulotning qayd etish tartib raqami keltirilishi ham mumkin.

Raqamlar qatori skaner uchun emas, balki haridorlar uchun mo'ljallangan. Talabgor (haridor) uchun ma'lumot faqat mahsulot tayyorlangan davlatni bildirish bilan chegaralanadi, chunki davlat kodi maxsus nashrlarda va ma'lumotnomalarda keltirilib turadi yoki ma'lumot ba'zalarida va banklarida saqlanishi mumkin. To'liq shtrixli kod tashqi savdo tashkilotlariga yoki savdo ob'ektlariga mahsulotning aniq kelib chiqish rekvizitlarini bilish, kerak bo'lsa mahsulotning kontrakt (shartnoma) talablariga mos kelmaydigan paramaetlari va ko'rsatkichlari borasida aniq manzilga raddiya yoki norozilik bildirish imkoniyatini yaratadi.

IX BOB. O'ZBEKISTONDA SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMI VA TARTIBI

Ushbu bob mavzusi ham o'ta qiziqarli va xozirgikunda dolzarb bo'lib, uni o'rganish jarayonida quyidagi savollarga javob topish zarur:

- *O'zbekiston milliy sertifikatlashtirish tizimini tushuntirib bering?*
- *O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining qaysi turlaridan foydalaniladi?*
- *Sertifikatlashtirish tartibi va bosqichlari to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi to'g'risida nima deya olasiz?*
- *Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi qanday?*
- *Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibini tushuntiring?*
- *CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish qanday amalga oshiriladi?*
- *O'zbekistonda mahsulotlarni shtrixli kodlashtirish to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *O'zbekistonda sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar va ularni vazifalarini bilasizmi?*

9.1. O'zbekistonda milliy sertifikatlashtirish tizimi

Sifatni boshqarish tizimlarini sertifikatlashtirish tovar va xizmatlar sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Tovarlarni sifati doimiy tarzda nazorat qilib boriladi. Tovarlarning yoki xizmatlarning sifatini baxolashda ularning sifat ko'rsatkichlarini me'yoriy xujjatlardagi me'yorlarga mosligi tekshiriladi. Tovarlarni sifatini baxolashda organoleptik (inson) va laboratoriya (fizik, kimyoviy) mikrobiologik tekshirish usullaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida sifatni nazorat qilish va boshqarishni mamlakat miqyosida O'zbekiston Respublikasi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya "O'zstandart" agentligi tomonidan amalga oshiradi. Bundan tashqari

mamlakatimizda 90 ga yaqin sertifikatlashtirish va 300 ga yaqin sinov laboratoriyalari faoliyat ko'rsatmokda.

O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tartibi bir xil turdagi mahsulotning har bir turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan qayd etiladigan sertifikatlashtirish qoidalariga muvofiq keluvchi tartibda amalga oshiriladi.

Mahsulotning tashqi tavsifnomalari va dizaynini o'zgarishi sertifikatlashtirish jarayonida ilgari tekshirilgan xavfsizlik tavsifnomalariga ta'sir etmasa, u xolda zamonaviylashtirilgan mahsulot uchun qo'shimcha sertifikatlashtirish o'tkazilmaydi. Mahsulotning xavfsizligi bo'yicha majburiy tavsifnomalari standartlashtirish bo'yicha mos ravishdagi normativ xujjatlar bilan aniqlanadi.

Majburiy sertifikatlashtiriladigan va shunga muvofiq muvofiqlik deklaratsiyasi bilan tasdiqlanadigan mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi.

Sertifikatlashtirish qoidaga ko'ra ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich "O'zstandart" agentligida akkreditatsiya qilingan sanitariya nazorati organlari tomonidan gigienik sertifikatni rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi. Bunda zaruriyatga qarab davlat veterinariya nazorati organlari va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatidan veterinar va fitosanitar xulosalarni olish zarur bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyati sub'ekti bunda gigienik sertifikatni olish uchun ariza bilan bir qatorda belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tgan sertifikatlashtirish organlariga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza berishga xaqlidir. Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyati sub'ekti mos xoldagi xulosalarni olish uchun veterinar va fitosanitar organlariga murojaat qilishga xaqlidir.

Ikkinchi bosqichda sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikatini berish amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan berilgan yozma arizaga muvofiq ravishda sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha agentlik xizmatlarini ko'rsatishi va davlat sanitariya nazorati organlari, davlat

veterinariya nazorati organlari, o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati hamda tabiatni muxofaza qilish davlat organlaridan zarur bo'lgan barcha xulosalarni olishga xaqlidir.

Bunda majburiyatni hamda namunalarni to'g'ri tanlash va ularni muttasaddi davlat organlariga berish buyicha ma'suliyatni sertifikatlashtirish organlari o'z zimmlariga olishadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligida deklaratsiyalashtirilgan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati barcha zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etilgan kundan boshlab ishlarning murakkablik darajasi, mehnattalabligi va o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish tizimining quyidagi sertifikatlashtirish turlari amalga oshiriladi:

- majburiy sertifikatlashtirish;
- ixtiyoriy sertifikatlashtirish.

Majburiy sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan maxsus ro'yxatga kiritilgan, ishlab chiqariladigan, olib kiriladigan va olib chiqiladigan, sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar kiradi.

Yuqoridagi ro'yxatga, fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulkining xavfsizligini, atrof muhitni muhofaza qilish, o'zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlikni ta'minlash bo'yicha me'yoriy hujjatlarda talablari belgilangan, mahsulotlar yoki xizmatlar kiritiladi. Bu ro'yxatdan tashqari Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan Qonunlarga va Prezident farmonlariga asosan ma'lum xizmatlar va mahsulotlar uchun ham xuddi shunday talablar qo'yilishi mumkin.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishga O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, hamda xukumat qarorlariga asosan ro'yxatga kiritilmagan xizmatlar yoki mahsulotlar kirishi mumkin, bu vaqtda ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi

yoki iste'molchilar (keyinchalik-so'rovchi) tashabbusi bilan ixtiyoriy tartibda sertifikatlashtirilish o'tkaziladi.

9.2. Sertifikatlashtirishni o'tkazish bosqichlari

Milliy sertifikatlash tizimi doirasida sertifikatlashtirish ishlari buyurtmachi tomonidan tanlangan sertifikatlashtirish turi bo'yicha aniqlangan tizim doirasida olib boriladi. Sertifikatlashtirish tartibi va uning o'rnatilgan qoidalari mavjud bo'lib, sertifikatlashtirishning asosiy bosqichlari, uning ob'ekti va turlariga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas jarayondir. Buni quyidagi beshta asosiy bosqichga bo'lishimiz mumkin:

1. Sertifikatlashtirishga ariza.
2. Sertifikatlashtirish bo'yicha qaror qabul qilish.
3. Sertifikatlashtirish ob'ektini muvofiqligini o'rnatilgan talablar bilan baholash.
4. Muvofiqlikni baholash natijalarini tahlili va uni rasmiylashtirish.
5. Sertifikatlashtirish ob'ekti ustidan inspeksiya nazorati.

Mahsulotlarni uzluksiz ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish ishlarini o'tkazish tartibi quyidagilardan iborat:

- Mijoz o'rnatilgan tartibda sertifikatlashtirish organiga buyurtma-ariza taqdim qiladi;
- Sertifikatlashtirish organi(idorasi) arizani ko'rib chiqib, qaror qabul qiladi;
- Sertifikatlashtirish organi mutaxassisi topshirilgan xujjatlarni tahlilini o'tkazadi;
- O'rnatilgan tartibda mutaxassis mijoz ishtirokida ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni saqlash sharoitlarini o'rganib chiqadi;
- Texnologik jarayonda qo'llaniladigan o'lchov vositalarining holati ko'zdan kechiriladi;
- Tayyor mahsulotni to'pidan mijoz ishtirokida mutaxassis namunalar tanlaydi va namunalar tanlash va identifikatsiya dalolatnomasi tuziladi;
- Tanlangan namunalar sinov laboratoriyasiga topshiriladi;

- Mijoz va sertifikatlash idorasi o'rtasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha shartnoma tuziladi;

- Sinovdan o'tkazilgan va me'yoriy xujjatlar talablariga javob beradigan mahsulotga, ishlab chiqarish uchun muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi;

- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovi o'tkazilgandan so'ng, mijozga muvofiqlik sertifikatini beriladi.

Mahsulotni to'pi bo'yicha sertifikatlashtirish ishlarini tartibi:

- Mijoz o'rnatilgan tartibda deklaratsiya – ariza topshiradi;

- Sertifikatlashtirish organi deklaratsiya arizani ko'rib chiqib qaror chiqaradi;

- O'rnatilgan tartibda mutaxassis identifikatsiyani o'tkazib mahsulotni to'pidan mijozni ishtrokida namunalar tanlaydi va namunalar tanlash dalolatnomasini tuzadi;

- Tanlangan namunalar sinov laboratoriyasiga topshiriladi;

- Mijoz va sertifikatlash organi o'rtasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha shartnoma tuziladi;

- Sinovdan o'tkazilgan va me'yoriy xujjatlar talablariga javob bergan mahsulotni to'piga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiriladi;

- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovi o'tkazilgandan so'ng, mijozga muvofiqlik sertifikatini beriladi.

Mahsulotni sertifikatlashtirish uchun taqdim etiladigan xujjatlar:

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy xujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);

- Mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);

- O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarning ilova xujjati (tovar-transport yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi.

CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish tartibi:

- Mijoz o'rnatilgan tartibda deklaratsiya – ariza topshiradi;

- Sertifikatlashtirish organi deklaratsiya arizani ko'rib chiqib qaror chiqaradi;

- O'rnatilgan tartibda sertifikatlash organi mutaxassisi mijoz ishtrokida mahsulotni to'pini identifikatsiyasini o'tkazadi;

- O'tkazilgan sertifikatlashtirish ishlari uchun mijozga to'lov shartnomasi rasmiylashtiriladi;

- Olingan xujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish organi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi;

- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovini o'tkazilgandan so'ng, mijozga muvofiqlik sertifikatini beriladi.

Quyidagi ishlar davlat tomonidan moliyaviy ta'minlanadi:

- sertifikatlashtirishni rivojlantirishning istiqbollari, uni o'tkazish qoidalari va tavsiyalarini ishlab chiqish;

- sertifikatlashtirish sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

- xalqaro (mintaqaviy) sertifikatlashtirish tashkilotlari ishida qatnashish hamda chet el milliy sertifikatlashtirish organlari bilan hamkorlikda ishlash;

- sertifikatlashtirish yuzasidan xalqaro (mintaqaviy) qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni ishlab chiqish jarayonlarida qatnashish;

- sertifikatlashtirish yuzasidan umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot ishlari va boshqa ishlar olib borish;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etilishi ustidan hamda sertifikatlangan mahsulot ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini olib borish.

Tayyorlovchilarning (tadbirkorlarning, sotuvchilarning, ijrochilarning) majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya etishlari ustidan davlat tekshiruvi va nazoratini "O'zstandart" agentligining davlat inspektorlari, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda amalga oshiradi.

Sertifikatlangan mahsulot, sifatni boshqarish tizimlari, ishlab chiqarish, akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalari (markazlari), sertifikatlashtirish

organlari ustidan nazorat yo'sinidagi tekshiruvni sifat bo'yicha ekspert-auditorlar "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Ixtiyoriy sertifikatlashtirishni "O'zstandart" agentligi belgilab qo'ygan tartibda akkreditatsiya qilingan yuridik va jismoniy shaxslar amalga oshirishga haqlidir.

9.3. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi va umumiy qoidalari

Bir turdagi mahsulotlarning har bir turi bo'yicha sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladigan sertifikatlashtirishning tegishli qoidalari bilan belgilanadi.

Sertifikatlashtirish davomida ilgari tekshirilgan xavfsizlik bo'yicha tavsifga ta'sir etmaydigan mahsulotning dizayni yoki tashqi tavsiflari o'zgarishi zamonaviylashtirilgan mahsulotga qo'shimcha sertifikatlashtirish o'tkazilishiga olib kelmaydi. Mahsulot xavfsizligi bo'yicha majburiy tavsiflar standartlashtirish bo'yicha tegishli normativ hujjatlarda belgilanadi.

Sertifikatlashtirishni amalga oshirish qoidaga ko'ra, ikki bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich bir vaqtning o'zida, zaruriyatga ko'ra, veterinariya va fitosanitariya xulosalari tegishli ravishda davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida rasmiylashtirilgan holda "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazorati organlarida gigienik sertifikat rasmiylashtirilishini o'z ichiga oladi. Bunda tadbirkorlik faoliyati sub'ekti:

- gigienik sertifikatni rasmiylashtirish uchun ariza bilan birgalikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlariga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish yuzasidan ariza berishga;

- zarurat bo'lganda tegishli xulosalar olish uchun veterinariya va fitosanitariya nazorati organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqlidir.

Ikkinchi bosqich - sertifikatlashtirish organlari tomonidan muvofiqlik sertifikati berishdir.

Sertifikatlashtirish organlari tadbirkorlik sub'ektlarining yozma arizasiga muvofiq davlat sanitariya nazorati organlarida, davlat veterinariya nazorati va o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlarida, shuningdek ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi organlarida sertifikatlashtirishni o'tkazish va barcha zarur xulosalarni olish yuzasidan agentlik xizmatlari ko'rsatishga haqlidir.

Bunda namunalar tanlab olinishi, shuningdek ular to'g'ri tanlanganligi va tegishli davlat organlariga taqdim etilishi uchun sertifikatlash organlari javob beradilar.

Ko'rsatib o'tilgan xizmatlarga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga belgilanadi.

9.4. O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iyuldagi № 318-sonli "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga binoan, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mudofaa vazirligi, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi, manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- chetdan keltirilayotgan mahsulotlardan akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar tomonidan sinov o'tkazish uchun namuna olishning cheklangan me'yorlarini belgilash;

- akkreditatsiya qilingan idoralar va laboratoriyalar o'rtasida sinovlarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida sinovlar turlarini belgilash;

- o'zlariga qarashli akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda mahsulotlarni sinovdan o'tkazish xizmatlariga tariflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida (uning hududiy bo'linmalarida) oldindan deklaratsiya qilish.

Muvofiqlik sertifikatlari mavjudligini tekshirish faqat majburiy tartibda sertifikatlanadigan mahsulotlarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi :

1. Ariza beruvchi zarur hollarda gigienik xulosa olish uchun, hududiy sanitariya nazorati organiga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi.

Hududiy davlat sanitariya nazorati organi belgilangan tartibda joyga borgan holda laboratoriya sinovlari o'tkazish uchun mahsulotlardan namuna oladi va ob'ektni tekshiradi.

1a. CHorva mahsulotlari uchun hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) veterinariya xizmati organiga buyurtmanoma jo'natadi.

1b. Veterinariya xizmati organi uch kun muddatda hududiy sanitariya nazorati organiga veterinariya xulosasini yoki xulosa berishni rad etishga sabab bo'lgan aniq qonun hujjatlari me'yorlarini ko'rsatgan holda yozma javob yuboradi.

Veterinariya xizmati organi 20 kungacha izolyatsiyalash-cheklash (karantin) choralarini belgilash huquqiga ega. Bunda veterinariya xulosasini berish tartibi karantin muddati tugagunga qadar to'xtatib turiladi.

1v. O'simlik mahsulotlari uchun hududiy sanitariya organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan kundan keyingi kundan kechikmasdan tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat xizmati organiga buyurtma jo'natadi.

1g. O'simliklar karantini davlat xizmati organi ikki kun muddatda fitosanitariya xulosasi yoki salbiy xulosa beradi.

2. Laboratoriya sinovlari, shuningdek veterinariya hamda fitosanitariya xulosalaridan ijobiy natija olinganda, hududiy sanitariya nazorati organi ariza beruvchiga gigienik xulosa beradi.

3,4. Ariza beruvchi o'z xohishiga ko'ra, tashkilot va ishlab chiqaradigan mahsuloti shtrixli kodda foydalaniladigan tovar kodini olish uchun "EAN O'zbekistan"ga murojaat qilishi mumkin.

5. Ariza beruvchi muvofiqlik sertifikatini olish uchun sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organga zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi. (Ariza gigienik xulosa olish uchun beriladigan ariza bilan bir vaqtda berilishi mumkin).

6. Sertifikatlash bo'yicha akkreditatsiya qilingan organ 15 ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda muvofiqlik sertifikatini yoki aniq qonun hujjatlari me'yorlarini ko'rsatgan holda yozma rad javobini beradi.

9.5. Gigienik sertifikatni, veterinariya va fitosanitariya xulosalarini rasmiylashtirish va berish tartibi

Gigienik, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya sertifikatlari (xulosalar) sertifikatlashtirilayotgan mahsulotlarga me'yoriy hujjatlarda tegishli ravishda gigienik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik me'yorlar va talablar mavjud bo'lgan taqdirda rasmiylashtiriladi.

Gigienik sertifikatni olish uchun talabgor davlat sanitariya nazoratining hududiy organiga ariza bilan murojat qiladi.

Yuqorida keltirilgan qaror talablariga asosan sertifikatlashtirishga ariza berilganda ishlab chiqariladigan, sertifikatlashga taqdim qilinayotgan mahsulotga me'yoriy hujjatning nusxasi ilova qilinishi kerak (Davlatlararo standart - DS, O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti – O'zDSt, Texnik shartlar - TSH; ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlari uchun - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan texnologik yo'riqnoma va retseptura).

CHetdan olib kelinadigan mahsulotga gigienik sertifikat olish uchun:

– O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga kelganlik to'g'risidagi belgi qo'yilgan holda tovarga ilova qilinadigan hujjatlarning nusxalari;

– ishlab chiqaruvchining kelib chiqish mamlakati sertifikatini (tovarning kelib chiqishi to'g'risida ishonchli axborot mavjud bo'lmagan taqdirda) nusxalari taqdim etiladi.

Ilgari sertifikatlanmagan (sinalmagan) maxsus qo'llaniladigan biologik aktiv moddalar yoki oziq-ovqat xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish texnologiyalarining oziq-ovqat qo'shimchalari qo'llash bilan bog'liq ishlab chiqarishni tashkil etishda yoki mahsulotlarni chetdan keltirishda davlat sanitariya nazoratining hududiy organi tegishli ruxsatnoma olish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ruxsatnoma berish uchun ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Laboratoriya sinovlarini o'tkazish harajatlari qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha to'lov undiriladi.

Taqdim etilgan hujjatlar o'rganib chiqilgandan keyin davlat sanitariya nazoratining hududiy organi tomonidan belgilangan tartibda joyning o'ziga borib laboratoriya sinovlari o'tkazish va ishlab chiqarish ob'ektini saqlash shart-sharoitlarini tekshirish uchun mahsulot namunalari tanlab olinadi. Mahsulotlarni gigienik ko'rsatkichlarni aniqlash uchun sinash O'zbekiston Respublikasi Milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya qilingan davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari laboratoriyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Agar mahsulot kelib chiqishiga ko'ra hayvonot yoki o'simlik dunyosiga tegishli bo'lgan taqdirda, davlat sanitariya nazoratining hududiy organi ariza beruvchidan hujjatlar olingan sanadan keyingi kundan kechikmay veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berish bo'yicha vakolatli organlarga murojat qiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi davlat veterinariya nazoratining tuman (shahar) organlari yoki o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmati organlari tomonidan beriladi.

Davlat veterinariya nazorati organi 20 kungacha bo'lgan muddat bilan belgilangan tartibda ajratib qo'yish-cheklash tadbirlari (karantin) belgilashi

mumkin. Bunda veterinariya xulosasi berish tartibi karantin muddati tamom bo'lgunga qadar to'xtatib turiladi.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi tayyorlash va berish muddati uch ish kunidan oshmasligi kerak.

Veterinariya yoki fitosanitariya xulosasi berilganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadigan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha to'lov undiriladi.

Veterinariya va fitosanitariya xulosalari olinishini hisobga olgan holda gigienik sertifikatni rasmiylashtirish va berish muddati tegishli sinov metodlari uchun normativ hujjatlarda nazarda tutilgan muddatlarga qarab belgilanadi.

Gigienik sertifikat berish ishlarini amalga oshirish harajatlarini qoplash uchun davlat sanitariya nazoratining hududiy organlari O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadigan va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida deklaratsiyalangan tariflar bo'yicha to'lov undiriladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotga gigienik sertifikatning amal qilish muddati - 3 yil. CHetdan olib kelinayotgan mahsulotga gigienik sertifikat mahsulotning yaroqlilik davriga, yaroqlilik muddatiga ega bo'lmagan mahsulotga esa - muddati ko'rsatilmasdan beriladi.

Gigienik sertifikat ariza beruvchiga davlat sanitariya nazoratining hududiy organi rahbarining imzosi bilan beriladi, u ushbu organning muhri bilan tasdiqlanadi, unga sinovlar protokoli nusxalari ilova qilinadi.

Agar gigienik sertifikatlashtirish bilan bir vaqtda mahsulotning fitosanitariya yoki veterinariya normalari va qoidalariga muvofiqligi sinovdan o'tkazilgan taqdirda, ariza beruvchiga tegishli xulosalar ham beriladi.

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari hamda hujjatlar to'liq turkumda taqdim etilmasligi gigienik sertifikat berish rad etilishi uchun asos hisoblanadi, bu haqda davlat sanitariya nazoratining hududiy organi qonunchilikning aniq me'yorlarini ko'rsatgan holda ariza beruvchiga yozma shaklda ma'lum qiladi.

9.6. Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish tartibi

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish sertifikatlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish organini arizachi tomonidan mustaqil tanlanadi.

Ariza beruvchiga istalgan vaqtda, sertifikatlashtirish organlari esa birinchi talabga ko'ra quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

a) muvofiqlik sertifikati majburiy tartibda bo'lishi kerak bo'lgan mahsulot turlarining ro'yxati yoki ro'yxatidan ko'chirma;

b) akkreditatsiya qilish sohasiga taaluqli bo'lgan bir turdagi mahsulotni sertifikatlash qoidalari;

v) sertifikatlashtirish bo'yicha xizmatlar narxlari (tariflari) preyskuranti;

g) davlat vakolatli organida akkreditatsiya qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sertifikatlashtirish organi ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalarini taqdim etganlik uchun nusxalarni tayyorlash harajatlaridan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lov undirishga haqlidir.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga ariza bilan murojaat qiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi;
- mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- gigienik sertifikat nusxasi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish uchun quyidagilar taqdim etiladi:

- CHetdan olib kelinayotgan mahsulotga me'yoriy hujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- gigiena sertifikatining nusxasi;
- mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga yetib kelganligi to'g'risida belgi qo'yilgan tovarning ilova hujjati nusxasi.

Sertifikatlashtirish maqsadida sertifikatlashtirish organlariga standartlash bo'yicha rasmiy, "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar nusxalari taqdim etiladi, boshqa hollarda, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun, tasdiqlanmagan nusxalardan foydalanilishi mumkin.

Arizada nazarda tutilgan taqdirda, sertifikatlashtirish organi sertifikatlashtirish ishlarini gigienik sertifikat (veterinariya va fitosanitariya xulosalari) nusxalarini olish muddatini kechiktirgan holda boshlashi mumkin.

Bu holda sertifikatlashtirish organi muvofiqlik sertifikatini faqat ariza beruvchi tomonidan ijobiy natijalarga ega bo'lgan hujjatlarning barcha zarur nusxalari taqdim etilgandan keyin berishga haqlidir.

Sertifikatlashtirish organi ariza berilgan kundan boshlab ikki kun muddatda joyiga borib sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun mahsulot namunalarini tanlab oladi va identifikatsiya qiladi.

Namunalar soni, tanlab olish tartibi, identifikatsiya qilish va saqlash qoidalari mahsulotga me'yoriy hujjatlarda belgilanadi.

Ariza beruvchi o'z mahsulotining tanlab olinishida va sinovlarida qatnashish huquqiga ega. Bunda laboratoriyada maxfiylikni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilishi kerak.

Namunalarning saqlanishi, sifati va sinovlarining ishonchliligi uchun "O'zstandart" agentligi tomonidan akkreditatsiya qilingan laboratoriya (markaz) javob beradi. Sinovlar protokollarini mas'ul mutaxassislar imzolaydi va laboratoriya rahbari tasdiqlaydi.

Ariza beruvchi sertifikatlashtirish organiga akkreditatsiya qilingan laboratoriyalardagi mahsulot sinovlari bo'yicha qo'shimcha hujjatlarni taqdim etishi mumkin. Agar mahsulotni alohida parametrlari bo'yicha sinovlar turli sinov laboratoriyalarida o'tkazilgan bo'lsa, u holda sinovlarning ijobiy natijalari bilan birga barcha zarur protokollarning mavjudligi mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligining ijobiy bahosi hisoblanadi.

Respublikada chetdan keltiriladigan, majburiy tartibda sertifikatlanishi kerak bo'lgan mahsulotga me'yoriy hujjat mavjud bo'lmaganda, sifat va xavfsizlik

bo'yicha sertifikatni sinovlari mahsulotning ana shunday turlari talablariga muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladi.

Arizachi tomonidan chetdan olib kelinayotgan mahsulotga zarur me'yoriy hujjat yoki texnik tasnifnomalar taqdim etilmagan taqdirda, mazkur mahsulotni sertifikatlash mahsulotning ana shunday turlariga hujjatlar bo'yicha yoki gigienik sertifikat asosida, uni identifikatsiya qilgan holda amalga oshiriladi (oziq-ovqat mahsulotiga va oziq-ovqatga qo'shiladigan mahsulot uchun).

Laboratoriya sinovlarining salbiy natijalari, shuningdek hujjatlarning to'liq bo'lmagan komplektini taqdim etish muvofiqlik sertifikati berishni rad etish uchun asos hisoblanadi, bu to'g'rida sertifikatlashtirish organi ariza beruvchiga aniq qonunchilik me'yorlarini ko'rsatgan holda yozma ravishda xabar qiladi.

Xulosa berishni rad etganlik yuzasidan ariza beruvchi belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Sertifikatlashtirish organi taqdim etilgan hujjatlar va sinovlarning ijobiy natijalari asosida ikki ish kuni mobaynida muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtiradi.

CHetdan olib kelinayotgan mahsulotlarga muvofiqlik sertifikati ularning yaroqlilik muddatiga (mahsulot yaroqliligining kafolatli muddatiga) ega bo'lmagan mahsulotlarga esa amal qilish muddati ko'rsatilmasdan, ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun - 3 yilga beriladi. Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun berilgan muvofiqlik sertifikatining amal qilish davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar sertifikatlangan deb hisoblanadi.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulotga muvofiqlik sertifikati berish uchun sertifikatlashtirish organi ariza beruvchida mahsulotni ko'plab ishlab chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjudligini aniqlash maqsadida, mahsulot ishlab chiqariladigan ob'ektlarni belgilangan tartibda tekshiradi. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi, undan muvofiqlik sertifikati berish to'g'risida qaror qabul qilishda foydalaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlik sertifikatida keltiriladi.

Tekshirishni o'tkazish muddati, ishlab chiqarishning shakli va toifalariga ko'ra, sinovlar uchun namunalar tanlab olingan vaqtdan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak. Tekshirish o'tkazilganligi uchun to'lov amalda sarflangan vaqt bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan harajatlar kalkulyatsiyasiga binoan undiriladi.

Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berish muddati sertifikatlashtirish organi tomonidan sinovlar natijalari olingan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan oshmasligi kerak.

Ko'plab ishlab chiqariladigan mahsulot uchun muvofiqlik sertifikati bergan sertifikatlashtirish organi har yili kamida bir marta, mahsulotning sertifikatlashtirishda belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida, sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksiya nazorati tekshiruvini o'tkazadi.

Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatining amal qilishi tasdiqlanishi yoki to'xtatib turilishi yoxud belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

Laboratoriya sinovlarini o'tkazganlik, sertifikatni rasmiylashtirganlik va berganlik uchun to'lov tartibi, litsenziya ajratmalari miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda "O'zstandart" agentligining yo'l-yo'riq hujjatlarida belgilanadi.

Sertifikatlashtirish organi e'tirof etish to'g'risida bitim tuzilgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlaridan va uzoq xorijiy mamlakatlardan olib kelinadigan mahsulotlarga sertifikatlarni e'tirof etish huquqiga ega.

E'tirof etish tartiboti sertifikatlashtirish organining bir turdagi mahsulotni sertifikatlashtirish tartibida, "O'zstandart" agentligining me'yoriy hujjatlariga muvofiq belgilangan bo'lishi kerak.

Xalqaro tizimlar va bitimlar doirasida amalga oshiriladigan sertifikatlarni e'tirof etish ushbu tizimlar va bitimlarda belgilangan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Sertifikat talablarga muvofiq bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida belgilangan ana shunday talablardan qolishmaydigan mahsulot uchun e'tirof etiladi.

Me'yoriy hujjatlarda sertifikatlashtirish uchun shart bo'lgan yoki kontraktda belgilangan qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot ushbu talablarga muvofiqlik yuzasidan sinab ko'rilishi kerak.

Olingan hujjatlar va materiallarni tahlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish organi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi.

Eksport qiluvchi mamlakatning Milliy sertifikatlashtirish tizimiga berilgan muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish, uni import qiluvchi mamlakatning muvofiqlik sertifikatiga qayta rasmiylashtirish va Yagona davlat reestriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.7. O'zbekistonda mahsulotlarni shtrixli kodlashtirish

O'zbekiston Respublikasida shtrix-kodlar tobora keng tadbiq etilib bormoqda. 1999 yili "O'zstandart" agentligi qoshidagi metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi mutaxasislarni tayyorlash va malaka oshirish institutida SHtrix-kodlar masalari bilan shug'ullanuvchi markaz tashkil etildi. Ushbu markazning ta'sis etilishidan maqsad — mahsulotlarni avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiyalash borasidagi muammolarni hal etish va bu faoliyatni keng ravishda targ'ib etishdir. Albatta, bunda xalqaro me'yoriy xujjatlarni hisobga olgan holda kodlashning standartlashtirilishi alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida shtrixli kodlash eng avvalo, 1996 yilning 26 aprelida qabul qilingan "Iste'molchilarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida ko'rsatilgan iste'molchining harid qilinayotgan mahsulot haqida zarur va ishonchli ma'lumot olish huquqini amalga oshirishda yangi zamin yaratadi.

SHtrixli kodlash ishlab chiqarish korxonalari uchun quyidagi:

– avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining tadbiq etilishini osonlashtirish;

– ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash va realizatsiya qilish kabi faoliyatlardagi hisob-kitob ishlarining samaradorligini oshirish;

– resurslarni chuqur tahlil qilish imkoniyatini berish;

– xujjatlar aylanishini qisqartirish;

– mahsulotni realizatsiya qilish va uning harakati haqidagi ishonchli ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ish imkoniyatini yaratish;

– boshqaruv va nazorat organlariga tezkor ravishda mahsulot xususidagi ma'lumotlarni tavsiya etish imkoniyatlarini yaratadi.

Xaridor sotib olayotgan mahsulotining faqat tayyorlangan davlati borasidagi ma'lumotnigina emas, balki tegishli barcha ma'lumotlarni ham bilishni istaydi. Bu muammo ham vaqti kelib standartlashtirish vositasida hal etilishi mumkin. Biroq buning uchun sertifikatlashtirish yo'li bilan tasdiqlanuvchi, standartlarning majburiy talablarining ro'yhatini kengaytirish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi shtrixli kodlash tizimi EAN xalqaro tovar raqamlash tizimi doirasida ishlab chiqilgan va u asosida faoliyat yuritadi, milliy va xalqaro kodlash tizimining mos kelishini hamda axborot almashish uchun yagona tilni ta'minlaydi.

EAN shtrixli kodlaridan foydalanish ustidan nazorat GS1 O'zbekistan (EAN O'zbekistan) assotsiatsiyasi va "O'zstandart" agentligi "SHtrixli kodlash markazi" DK tomonidan birgalikda amalga oshiriladi.

SHtrixli kodlash sohasida:

- turli tashuvchilar va firmaga oid o'zi yopishadigan etiketka va yorliqlarda shtrixli kodlarning original-maketlarini tayyorlash;

- original-maket va upakovkalarda shtrixli kodlar verifikatsiyasi;

- etiketka, upakovka va tovarda shtrixli kodlar bosilishining sifatini tekshirish;

- O'zbekiston Respublikasida chiqarilgan mahsulotning shtrixli kodlarini

Davlat reestriga kiritish;

- avtomatik tarzda identifikatsiyalash va shtrixli kodlash sohasidagi masalalar bo'yicha seminar, yig'ilishlar o'tkazish;

- shtrixli kodlash texnologiyalarini qo'llagan holda avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalashtirish va joriy qilish ishlari amalga oshiriladi.

Firmaning o'zi yopishadigan etiketka, yorliqlar va turli tashuvchilarda shtrix kodlarning original-maketlarini tayyorlashga talabnoma Davlat interaktiv xizmatlarining yagona portali va "SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" DK sayti orqali interaktiv shaklda berilishi mumkin.

GS1 O'zbekistan (EAN O'zbekistan) (Belgiya, Bryussel) Xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan mamlakatimizga 478 raqamli identifikatsion kod berilgan.

GS1 O'zbekistan assotsiatsiyasi korxonaga unga ro'yxatga olish raqami berilgani to'g'risida guvohnoma va EAN tizimiga ko'ra tovar kod tuzilmasini beradi.

"O'zstandart" agentligi "SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" DK tomonidan o'rnatilgan tartibga muvofiq shtrixli kod original-maketi tayyorlanadi va beriladi.

Original-maketning yuqori qismida albatta Davlat reestridagi ro'yxatga olish raqami ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu raqamsiz shtrixli kod haqiqiy deb hisoblanmaydi va foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

"GS1" (Evropa tovar raqamlanishi uyushmasi) shtrixli kodi tovar birliklarini identifikatlashtirish va ularni tamg'alash uchun "GS1" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasi qoidalarida belgilangan o'lchamlar bilan joylashtirilgan holda izchil joylashtirilgan parallel shtrixlar va ular o'rtasidagi oraliqdagi kombinatsiyalar bilan ifodalangan raqamli koddir.

Tovarlarni "GS1" shtrixli kodlari bilan tamg'alash "O'zstandart" agentligi, "GS1" tovarlarni raqamlash Xalqaro Uyushmasining standartlari va me'yoriy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'z tovarlarini "GS1" shtrix kodlari bilan tamg'alanishi istagini bildirgan O'zbekiston Respublikasining tadbirkorlik sub'ektlari, O'zbekiston Respublikasi

davlat standartlariga muvofiq ishlab chiqariladigan mahsulotning shtrixli kodida foydalaniladigan tovar kodini olish uchun “GS1 O‘zbekistan” uyushmasida ro‘yxatdan o‘tadilar.

Ishlab chiqarayotgan tovarlari “GS1” shtrixli kodlari bilan tamg‘alanishi istagini bildirgan tadbirkorlik sub‘ektlari “O‘zstandart” agentligiga O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni Davlat reestriga kiritish va shtrixli kodlarning original-maketlarini olish uchun davlat standartlari talablariga muvofiq mahsulotlar haqidagi axborotni taqdim etadilar.

Tadbirkorlik sub‘ekti shtrixli kod qo‘yilgan mahsulotlar (tovarlar)ni tayyorlovchi buyurtmachining talabiga ko‘ra, uni yetkazib berish boshlangunga qadar ma‘lumotlar bazasini shakllantirish uchun buyurtmachiga mahsulotlar (tovarlar)ning asosiy iste‘mol tafsivnomalari to‘g‘risida axborot beradi.

“GS1 O‘zbekistan” uyushmasida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan tadbirkorlik sub‘ektlari ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan mahsulotlar (tovarlar)ni “GS1” shtrixli kodlari bilan tamg‘alash huquqiga ega bo‘lmaydilar.

Tadbirkorlik sub‘ektlari shtrixli kodlash bo‘yicha standartlar va Nizom talablarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan mahsulotlar (tovarlar)ni “GS1” shtrixli kodlari bilan tamg‘alash tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan tegishli qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Mahsulot (tovar)larni “GS1” shtrix kodlari bilan tamg‘alash, tadbirkorlik faoliyati sub‘ekti tomonidan “GS1” tasniflash va kodlash sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish tartib raqami, ishlab chiqarilayotgan tovarning raqamli kodi va shtrixli kodning original-maketi olingandan keyin ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi.

Mahsulotlarga (tovarlar)ga qo‘shimcha ishlov beradigan (qadoqlash, idishga qayta joylash va boshqalar) tadbirkorlik sub‘ektlari ularni shuningdek “GS1” shtrixli kodi bilan tamg‘alashlari mumkin.

9.8. O'zbekistonda sertifikatlashtirish ishlarini amalga oshiruvchi korxonalar

– O'zbekiston respublikasida sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish organi "O'zstandart" agentligi va uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiradi:

Milliy sertifikatlashtirish organi O'zbekiston qonunchiligiga binoan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlash tizimining yagona qoidalarini va protseduralarini, ularga rioya qilishni nazoratini, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha xujjatlarni ro'yxatga olish, respublika va xorijiy iste'molchilarni axborot ta'minotini joriy qiladi;

– muvafiqlik belgisini va uni qo'llash qoidalarini joriy qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlash tizimini takomillashtirish dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun xukumatga taqdim etadi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shilish haqida qarorlar qabul qiladi hamda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;

– sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston nomidan ish yuritadi;

– Majburiy sertifikatlashtiriladigan mahsulot hamda xizmatlar ro'yxatini shakllantiradi va yuritadi;

– respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi hamda ularning to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi;

– bir jinsli mahsulot, sifat tizimlari, ishlab chiqarish va sinov laboratoriyalari (markazlarini)ni akkreditlaydi;

– epspert-auditorlari attestatsiyalaydi va ularni faoliyati ustidan nazorat qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlash tizimi Davlat reestrini

yuritadi;

- mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar va sertifikatlashtirish organlari hamda sinov laboratoriya (markaz)larni akkreditash uchun to'lov shakli va tartibini belgilaydi;

- ishlab chiqaruvchi va mahsulot yetkazib beruvchilarga sertifikatlashtirish qoidalarini haqida axborot beradi;

- sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish davlat nazoratini amalga oshiradi va ular sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazoratini o'rnatadi va boshqalar.

Akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari (markazlari) O'zbekiston Respublikasi milliy sertifikatlash tizimida quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- mahsulotning sertifikatlash sinovlarini o'tkazish va sinovlar bayonlarini berish;

- sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini inspeksiya (nazorat) sinovlarini o'tkazish;

- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (o'tkazilgan sinovlar to'g'riligi qismida) qatnashishi.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan organlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- sifat tizimlarini dastlabki baxolashni o'tkazadi va sertifikatlash o'tkazish uchun shartnomalar tuzadi;

- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usullari va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadi;

- sifat tizimlari yoki ishlab chiqarish auditini o'tkazadi;

- sifat tizimlari yoki ishlab chiqarishlarga sertifikatlarni rasmiylashtiradi, beradi yoki tan oladi;

- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi;

- sertifikatlashtirish natijlari haqida ma'lumot beradi.

2018 yil 10 dekabrda "Texnik jihatidan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan bugungi kunda sohada mavjud muammoli masalalarni hal etish va tadbirkorlik sub'ektlariga qulayliklar yaratish belgilab berildi.

Jumladan: – xususiy biznesni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan, texnika va texnologik uskunalarni, butlovchi va ehtiyot qismlarni, shuningdek ishlab chiqarishda foydalaniladigan nooziq-ovqat tovarlarni majburiy sertifikatlashtirishdan ozod etildi (xorijiy muvofiqlik sertifikatlari yoki sinov bayonnomalari taqdim etilganda);

– o'lchash vositalarini xorijiy davlatlarning sertifikatlari asosida respublikaga olib kirishga ruxsat berildi;

– aynan bir turdagi mahsulotni ijobiy sinov natijalarini qabul qilgan holda, takrorlovchi sinovlardan o'tkazilishi ta'qiqlandi. Bu o'z navbatida tadbirkorlik sub'ektlari uchun bojxona rasmiylashtiruvda sertifikatlashtirish uchun talab etiladigan muddat o'rtacha 20 kundan 2 kungacha qisqartiradi.

Milliy standartlarning uyg'unlashuv darajasini keskin oshirishni nazarda tutuvchi maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlanib, 2021 yilga qadar 47 foizga yetkazish belgilandi. Bu degani 2 yil ichida qariyb 7 mingta xujjat qayta ko'rib chiqilishi lozim. Taqqoslash uchun, so'nggi o'n yil ichida 3,5 mingta standart qabul qilingan. Sohalar kesimida qaraydigan bo'lsak, 2021 yil yakuniga qadar xalqaro standartlar ulushini oziq-ovqat sanoatida 82,5 foizga, to'qimachilik va charm-poyabzal sanoatida 67,3 foizga, qurilishda ikki barobardan ortiq yetkazish ko'zda tutilgan. Qo'yilgan vazifalarni tizimli tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlarining standartlarni ishlab chiqish jarayonini muvofiqlashtirish maqsadida, qaror bilan Agentlik qoshida maxsus institut tashkil etildi.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Texnik jihatidan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida". Xalq so'zi. 2018 yil. 10 dekabr.

X BOB. O'ZBEKISTONDA CERTIFIKATLASHTIRISHNING TASHKILIY TUZILMASI VA UNING ASOSIY BOSQICHLARI

Ushbu bob mavzusini o'rganishdan maqsad quyidagi savollarga javob topish ekanligini yodingizdan chiqarmang:

- *“O'zstandart” agentligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
- *“O'zstandart” agentligi o'z faoliyatini qanday amalga oshiradi?*
- *Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifasi va funktsiyalari nimalarni o'z ichiga oladi?*
- *Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi soha mutaxassislarini qaysi yo'nalishlar bo'yicha malakasini oshiradi va qayta tayyorlovdan o'tkazadi?*
- *Akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlarini tushuntiring?*
- *SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi davlat korxonasining asosiy faoliyat turlariga nimalar kiradi?*
- *“UzTest” davlat korxonasining asosiy vazifasini nimalardan iborat?*
- *Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar qanday vazifalarni bajaradi?*
- *Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralarning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?*

10.1. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimining tashkiliy tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019 yil 24 apreldagi 348-sonli qaroriga asosan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish “O'zstandart” agentligi texnik jihatdan tartibga solish,

standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi vazifalarni hal etish uchun maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

“O‘zstandart” agentligi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga va boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va farmoyishlariga shuningdek, Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 24 apreldagi 348-sonli qaroriga asosan “O‘zstandart” agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi, “Metrologiya to‘g‘risida”gi, “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari hamda texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni amaliy jihatdan amalga oshirilishini ta’minlash;

- standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va akkreditatsiyadan o‘tkazish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash asosida mahsulotlar sifatini va raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

- standartlashtirish, o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya tizimlarining faoliyatini va rivojlanishini hamda mazkur sohalarda ilmiy-texnik axborotni tarqatish, shuningdek, ularning xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg‘unlashtirilishini ta’minlash;

- mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning sifati va xavfsizlik talablariga rioya qilinishi va iste'molchilar huquqlarini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya sertifikatlashtirish va akkreditatsiya sohalarida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

- mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda xalqaro standartlar va texnik reglamentlarni jadal joriy etish orqali, ularning zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

- mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini, birinchi navbatda, eksport qiluvchi korxonalarda keng joriy etish va mahsulotlarni texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiq sertifikatlashtirishni amalga oshirish;

- eksport qiluvchi korxonalarga mahsulotlarni sertifikatlashtirish masalalarida qulay sharoitlarni yaratish, xalqaro tashkilotlar bilan milliy sertifikatlar va muvofiqlikni baholash ishlari natijalari asosiy eksport bozorlarida tan olinishiga yo'naltirilgan hamkorlikni faollashtirish;

- texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish, sotiladigan mahsulotlar xavfsizligini tizimli nazorat qilishni ta'minlashda ularning samaradorligini oshirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlari turlarini kengaytirish;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya masalalarida tadbirkorlik sub'ektlariga har tomonlama ko'maklashish;

- texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning talablariga, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi ta'minlanishi,

majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish;

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari huzurida tashkil etiladigan standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar bilan belgilangan tartibda ta'minlash;
- standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning xalqaro talablar bilan zarur uyg'unlashtirish darajasiga erishish.

“O'zstandart” agentligi o'z faoliyatini amaldagi Qonunchilikka ko'ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi. Uning quyi tizim tashkilotlariga quyidagilar kiradi: “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti), “O'zbekiston milliy metrologiya instituti” DK, Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash departamenti, “Akkreditatsiya markazi” DUK, SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi, “O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat korxonasi (“UzTest” DK).

10.2. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifasi va funktsiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda “Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2935-sonli qaroriga muvofiq, mavjud Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti va “Axborot-ma'lumot markazi” davlat korxonasi negizida “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti” davlat muassasasi (Standartlar instituti) tashkil etildi.

Ushbu qarorga asosan “Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti” davlat muassasasi standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish,

standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan, shartnoma asosida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa tashkilotlarning arizalari bo'yicha ishlab chiqish va realizatsiya qilish, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha bazaviy tashkilot etib belgilandi.

Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti davlat muassasasining asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;

standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa tashkilotlarning buyurtmalari bo'yicha shartnoma asosida ishlab chiqish va realizatsiya qilish;

standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlarining ishlashini va rivojlanishini ta'minlashda ishtirok etish va mazkur sohalarda ilmiy texnik axborotni tarqatish, shuningdek, ularni xalqaro, davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirish.

Institut o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

a) standartlashtirish bo'yicha tarmoq texnik qo'mitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar faoliyatini muvofiqlashtiradi, faoliyatini tashkil etish, tugatishda ishtirok etadi;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar xamkorligini rivojlantirishni va o'zaro xamkorlikni ta'minlaydi;

standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalarni tashkil etadi va standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mitalar kotibiyati faoliyatini boshqaradi;

standartlashtirish bo'yicha xalqaro texnik qo'mitalar va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida xamda davlat standartlarini xalqaro darajada tarqatishda faol ishtirok etadi;

b) standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasida:

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida kadrlar malakasini davriy oshirish va qayta tayyorlashni, shuningdek, tasniflashtirish va kodlashtirishni amalga oshiradi;

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash, tasniflashtirish va kodlashtirish sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash reja jadvali tasdiqlanishini ta'minlaydi;

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash, tasniflashtirish va kodlashtirish masalalari bo'yicha kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan o'tgan kadrlarni yagona axborot ma'lumot bazasini yaratadi va kuzatib boradi;

oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar, shuningdek xususiy sektor bilan standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida innovatsiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan o'zaro xamkorlik qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari uchun tegishli ta'lim yo'nalishlarida yangi o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratishga ko'maklashish orqali o'quv metodik ishlarning sifati va darajasini oshiradi;

bakalavriat va magistrnlarni tayyorlashda ilmiy-metodik ko'maklashadi, shuningdek, Institut bazasida standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholashning tegishli mutaxassisliklari bo'yicha oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni tashkil etish yo'li bilan, oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashni amalga oshiradi;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlariga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini joriy etadi;

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohasida mutaxassislar tayyorlovchi ta'lim muassasalari uchun ilmiy, o'quv, o'quv metodik adabiyotlarning yangi avlodini nashr etishga tayyorlash ishlarida ishtirok etadi;

v) standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish sohasida:

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa tashkilotlarning buyurtmalari asosan standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarni shartnoma asosida ishlab chiqadi, ekspertizadan o'tkazadi va realizatsiya qiladi;

“O'zstandart” agentligiga standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarni davlat ruyxatidan o'tkazish uchun kiritadi;

standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarni ishlab chiqishda ilmiy-metodik ko'rsatmalar berishda ko'maklashadi;

mahsulotlar va texnologiyalarning tubdan yangi turlarini ishlab chiqishni o'zlashtirishga ko'maklashadigan, shu asosda maxalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlaydigan ilg'or standartlarni ishlab chiqadi;

“O'zstandart” agentligiga standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarning yangisini ishlab chiqish, amaldagilarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan takliflar kiritadi;

umumiy va maxsus texnik reglamentlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

standartlashtirish bo'yicha davlat normativ xujjatlar fondini xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish darajasini oshirish choralarini ko'radi;

standartlashtirish bo'yicha davlat normativ xujjatlar fondini yaratadi, yuritadi va dolzarblashtiradi, shuningdek nazorat nusxalari saqlanishini ta'minlaydi;

standartlashtirish bo'yicha davlat normativ xujjatlarning yillik ko'rsatkichi (katalog)ni tayyorlaydi;

standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarning yagona axborot-ma'lumot bazasini yaratadi va kuzatib boradi, undan barcha manfaatdor tomonlarning shartnoma asosida foydalanishi imkoniyatini beradi;

standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlar axborot resurslari ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, saqlash va foydalanishning yagona tizimini yaratadi;

standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarni ishlab chiquvchilar bilan o'zaro xamkorlik qiladi;

mahsulotga standartlashtirish bo'yicha normativ xujjatlarga muvofiq katologlashtirilgan ro'yxat asosida mahsulotlarni katologlashtiradi;

g) standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazishda standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash tizimlarining ishlashini va rivojlanishini tarqatish, shuningdek ularni xaqaro davlatlararo va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirish sohasida:

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida ustivor yo'nalishlarni shakllantirishda, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borishda, innovatsion loyixalarni amalga oshirishda, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining zamonaviy jaxon tendentsiyalarini tahlil qilishda ishtirok etadi;

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida ilmiy materiallarni nashr etadi;

“O'zstandart” agentligi standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida yangi qonun xujjatlarini ishlab chiqish va amaldagilarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida xalqaro amaliyotni doimiy ravishda o'rganadi, uning natijalari bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy qilish bo'yicha takliflar kiritadi;

standartlashtirish, texnik jixatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida erishilgan yutuqlarning ilmiy-texnik targ'ibotini yuritadi;

standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida, shu jumladan, manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, oliy ta'lim muassasalari va vazirliklar va idoralarning tasarrufida bo'lgan boshqa ilmiy muassasalari bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi;

xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo'yicha milliy institutlari bilan yaqin va faol hamkorlikni amalga oshiradi;

xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo ilmiy-texnik xamkorlikni rivojlantiradi;

muvofiqlikni baholash, shu jumladan, mahsulotlarni putur yetkazmasdan tekshirish, shuningdek, xorijiy davlatlarning sertifikatlashtirish bo'yicha ishlari natijalarini O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda e'tirof etish ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zstandart" agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2018 yil 14 martdagi 220-sonli qaroriga asosan, Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti (Standartlar instituti) - standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash sohasida davlat ilmiy muassasasi hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligi huzuridagi Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutining Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi standartlashtirish, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, metrologiya va sifatni boshqarish bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlashni olib boradi. Ta'lim berish yakunlangandan so'ng mutaxassislarga standartlashtirish, sertifikatlashtirish, metrologiya sohasida kasb faoliyatini olib borish huquqini tasdiqlaydigan, kasbiy qayta tayyorlash sohasida belgilangan namunadagi guvohnoma tag'dim etiladi.

Quyidagi mutahassisliklar bo'yicha mutahassislar malakasini oshiradi:

- ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar bazasida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va mahsulot sifatini boshqarish asoslari (oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari o'quvchilari uchun);

- standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish (ISO 9000 seriyali XS bazasida sifat tizimini o'z ichiga olgan xolda) va mahsulotni raqobatbardoshligini oshirish (vazirliklar, idoralar, kontsernlar, assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, tashkilotlar va boshqa. Rahbarlik qiluvchi tarkib uchun);

- standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- standartlar va o'lchash vositalarining davlat nazorati;

- sanoat mahsulotlarini sinash (sinov laboratoriyalari mutahassislari uchun);

- ISO 9000 seriali XS bazasida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish;

- ISO 9000 seriali XS bazasida sifat tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish (sanoat MTX uchun);

- mashinasozlik, yengil sanoat, agro sanoat kompleksi, qurilish industriyasida sifatni texnikaviy tekshirishni tashkil qilish;

- ISO 9000 seriali XS bazasida sifat tizimlari bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish (sifat tizimlari ishlab chiqaruvchilari uchun);

- sertifikatlashtirish va akkreditlashtirish qoidalari, sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalari faoliyatini tekshirish (sertifikatlashtirish idoralari rahbarlari uchun);

- issiqlik texnikasi o'lchash vositalarini, elektr o'lchash vositalarini, radiotexnik o'lchash vositalari, uzunlik – burchak o'lchash vositasi, xajmni o'lchash vositasi, og'irlikni (massani o'lchash vositasi, kuchni o'lchash vositasi va mexanik tavsiflar, vaqtni o'lchash vositasi va harakat parametrlarini, fizik-kimyoviy o'lchash vositasi, tebranish va shovqinni o'lchash vositasi, suyuqliklar, gaz va bug'ning sarfi va miqdorini o'lchash vositasi, ion hosil qiluvchi nurlanishlarni (radiometrik, radioizotop) qiyoslash va kalibrlash;

- analitik tekshirishning metrologik ta'minoti;

- miqdoriy kimyoviy tahlilni o'lchashlarni bajarish metodikasi va ularni metrologik attestatlashtirish;

- ishlab chiqarishning metrologik ta'minoti;
- hujjatlashtirishning metrologik ekspertizasi;
- shtrixli kodlash, tasniflash va texnik-iqtisodiy va ijtimoiy ahborotlarni kodlash bo'yicha ishlarni tashkil qilish;
- oliy va o'rta zveno (bo'g'in) rahbarlari uchun menejment, marketing va tashkiliy psixologiya;
- me'yoriy hujjatlar ilmiy-texnikaviy darajasining ilmiy-texnikaviy ekspertizasi, uyg'unlashtirilishi va baholanishi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi o'quv guruhlarida ishdan ajralgan holda bir haftadan olti haftagacha bo'lgan muddatda olib boriladi.

10.3. Akkreditatsiya markazi davlat unitar korxonasining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazish sohasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 24 apreldagi 349-sonli qaroriga asosan akkreditatsiya bo'yicha ishlarni olib borish "Akkreditatsiya markazi" DUKga (keyingi o'rinlarda Akkreditatsiya markazi deb ataladi) yuklatilgan.

Akkreditatsiya markazining ustuvor vazifalari va faoliyat yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan o'tkazishda akkreditatsiya jarayonining betarafligi va xolisligini ta'minlagan holda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- Akkreditatsiya bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligiga (ARAS), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilotga (ILAC) va Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forumga (IAF) to'laqonli a'zo sifatida kirish;
- akkreditatsiya milliy tizimini xalqaro normalar va mezonlarga muvofiq doimiy ravishda rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, ISO/IEC 17011 xalqaro standarti talablariga rioya qilish;

- akkreditatsiya tartib-taomillariga taalluqli zarur axborotni, shu jumladan, o'zining rasmiy veb-sayti orqali erkin olish imkoniyatini yaratish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida akkreditatsiya bo'yicha ishlar natijalarining xorijiy mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralar ko'rish;

- akkreditatsiyadan o'tkazilgan tashkilotlar va ularning akkreditatsiya sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi va dolzarb holatda saqlanishini, shuningdek, tegishli axborotning maxfiylikiga rioya qilgan holda jamoatchilikning ulardan foydalanishini ta'minlash.

Akkreditatsiya markaziga quyidagi xuquqlar berilgan:

- akkreditatsiya sohasida idoralararo xususiyatga ega, shu jumladan, xorijda akkreditatsiya ishlari natijalari e'tirof etilishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalarni belgilangan tartibda tuzish;

- ISO/IEC 17000 xalqaro standartlariga, shuningdek, Akkreditatsiya bo'yicha Osiyo-Tinch okeani hamkorligi (ARAS), Laboratoriyalar akkreditatsiyasi bo'yicha xalqaro tashkilot (ILAC) va Akkreditatsiya bo'yicha xalqaro forum (IAF) talablari va tavsiyalariga muvofiq akkreditatsiya tartibotlari bo'yicha qoidalar, yo'riqnomalar va nizomlar ishlab chiqish va tasdiqlash;

- treninglar, seminarlar o'tkazish va baholovchilar, texnik ekspertlar, shuningdek, muvofiqlikni baholash sohasida ishtirok etuvchi mutaxassislar malakasini baholash;

- o'z xizmat vazifalarini vijdonan va samarali bajaryotgan xodimlarga o'z mablag'lari hisobidan lavozim maoshining ikki baravari miqdorigacha bo'lgan miqdorda har oylik ustamalar to'lash;

- eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq vazifalarni sifatli bajarish maqsadida mustaqil maslahatchilar va ekspertlarni, shu jumladan xorijiy maslahatchilar va ekspertlarni shartnoma asosida jalb qilish;

- Akkreditatsiya markazining tuzilmasini, xodimlarining shtatdagi soni va ish haqi miqdorlarini mustaqil tasdiqlash.

Akkreditatsiya milliy tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berishi va Akkreditatsiya markazi ushbu yo'nalishlarga erishishi yuzasidan monitoring olib borishi uchun Akkreditatsiya markazi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar, nodavlat tashkilotlar vakillari, tadbirkorlik sub'ektlari va jismoniy shaxslar ishtirokida Akkreditatsiya bo'yicha kengash tashkil etilgan.

10.4. SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi davlat korxonasining asosiy faoliyat turlari

SHtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi davlat korxonasining asosiy faoliyat turlari qo'yidagilardan iborat:

SHtrixli kodlash sohasida:

- turli tashuvchilar va firmaga oid o'zi yopishadigan etiketka va yorliqlarda shtrixli kodlarning original-maketlarini tayyorlash;
- original-maket va upakovkalarda shtrixli kodlar verifikatsiyasi;
- etiketka, upakovka va tovarlarda shtrixli kodlar bosilishining sifatini tekshirish;
- O'zbekiston Respublikasida chiqarilgan mahsulotning shtrixli kodlarini Davlat reestriga kiritish;

• avtomatik tarzda identifikatsiyalash va shtrixli kodlash sohasidagi masalalar bo'yicha seminar, yig'ilishlar o'tkazish;

• shtrixli kodlash texnologiyalarini qo'llagan holda avtomatlashtirilgan tizimlarni loyihalashtirish va joriy qilish.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish sohasida

• idorada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, axborotni saqlash va ishlash, axborotlashtirish sohasida avtomatlashtirish bo'yicha kompleks dasturlarini olib borish;

• axborot tizimlari va manbalari bo'yicha o'zaro munosabatlarni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlari va aholiga interaktiv davlat xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek ma'lumotlarsiz ishlab chiqishni ta'minlaydigan idora infrastrukturasi shakllantirish va rivojlantirish;

- idoraning hamma bo'limlarini rivojlantirish jarayonining me'yoriy-huquqiy, texnologik va axborot – tahlil materiallari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash;

- idoraning rasmiy veb-saytini takomillashtirish va uning ishlashini doimiy ta'minlash;

- idora axborot manbalarini va axborot tizimlarini himoya qilish bo'yicha texnik infrastrukturani joriy qilish va rivojlantirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini, dasturli mahsulotlarni, ma'lumotlarni ishlash apparat vositalarini, aloqa vositalari va ma'lumotlarni uzatishni rivojlantirish va ularni qo'llash masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, axborot havfsizligini ta'minlash va ularni idora rahbariga taqdim qilish;

- ishlab chiqarish jarayonini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini avtomatlashtirish tizimini joriy qilish va rivojlantirish bo'yicha biznes reja va harajatlar smetasining alohida bandlariga tegishli takliflarni ishlab chiqish va hodimlar malakasini oshirish;

- korporativ tarmoq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy–apparat vositalari, almashish vositalarini ishlab chiqish va ma'lumotni saqlash bo'yicha loyihalarni ishlab chiqish va yuritish.

10.5. O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi ("UzTest") davlat korxonasining asosiy vazifalari

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini va eksporti hajmlarini oshirish, ularning xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqarilishini ta'minlash hamda mavjud sinov va kalibrlash laboratoriyalarini modernizatsiya qilish, shuningdek aholiga sifatli va xavfsiz mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Muvofiqlikni baholash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish, idoralararo va innovatsion sinov va kalibrlash laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish, sohaga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish va mahalliy

mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq baholash orqali savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 avgustdagi PQ-4419-sonli "O'zbekiston respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to'g'risida"gi qaroriga asosan "O'zstandart" agentligining "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasini 2020 yil 1 yanvardan "O'zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi" davlat korxonasiga (keyingi o'rinlarda - "UzTest" davlat korxonasi) aylantirildi, hamda uning muassisi etib Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot institutini belgilandi.

"O'zstandart" agentligining "Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi" davlat korxonasi vorisi etib "UzTest" davlat korxonasini belgilandi.

"O'zstandart" agentligining hududiy sinov va sertifikatlashtirish markazlari davlat korxonalarini tugatilib ular negizida "UzTest" davlat korxonasining hududiy filiallari va "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi hududiy filiallari tashkil etildi.

Korxonaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

iste'molchini sifatsiz, shu jumladan fuqarolarning xayoti, sog'ligi va mulkiga xavf tug'diruvchi, atrof muxitga zarar yetkazuvchi o'zaroalmashinuvchanlik va moslashuvchanlik talablarini o'lchash uslublari va yorliqlash qoidalari birliligini ta'minlamaydigan maxsulotlardan ximoyalash;

mahsulotlarni va xizmatlarni sertifikatlashtirilishini tashkil etish va uni o'tkazishda respublika standartlari va xalqaro standartlarni qo'llash asosida mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarni uyg'unlashtirish, sifat tizimlarini joriy qilish va ularni muvofiqlashtirish;

xalqaro bozorda maxsulotlarning raqobatbardoshligiga ko'maklashish;

bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tizimlarini yaratishda qatnashish, shu xisobda Sertifikatlashtirish Milliy Tizimi doirasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish natijalarini chet elda tan olinishi uchun sharoitlar yaratish;

mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda va xizmatlar ko'rsatadigan idora va tashkilotlarda xalqaro standartlar talablari asosida sifat tizimlarini joriy qilish;

xalqaro standartlar talablari asosida sifat tizimini ishlab chiqish va yo'nalish bo'yicha o'quv kurslarini tashkillashtirish, o'tkazish, respublika va xalqaro miqyosida seminarlar, konferentsiyalar tashkillashtirish xizmatlarini ko'rsatish;

xududiy sinov va sertifikatlashtirish korxonalarida sifat menejmenti tizimi xujjatlari asosida ichki auditni tashkillashtirish va o'tkazish bo'yicha o'quv kurslarini olib borish;

xududiy sinov va sertifikatlashtirish korxonalarining faoliyatiga raxbarlik qilish va uni muvofiqlashtirish;

Korxonaning laboratoriyalarida sinash tizimini rivojlantirish xamda ularning Sertifikatlashtirish Milliy Tizimida akkreditatsiyalanishiga tayyorlanishini ta'minlash, ayrim funktsiyalarni bajarish uchun shartnoma tuzish asosida mutaxassislarni jalb qilish;

me'yoriy xujjatlar talablariga muvofiq maxsulotlarni sinash protseduralarini takomillashtirish va o'tkazish;

standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sinash masalalari bo'yicha korxonaning kadrlar tarkibini doimiy, tizimli tayyorgarligi va malakasini oshirish chorasini ta'minlash;

Sertifikatlashtirish Milliy Idorasi topshirig'i bo'yicha yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarini akkreditatsiyalashda qatnashish;

sinash va sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar jarayonida olinadigan axborotni sir saqlanishini ta'minlash;

sinash va sertifikatlashtirish bo'yicha xujjatlar va ishchi materiallarning xisobi va saqlanishini ta'minlash;

Asosiy vazifalariga muvofiq korxona quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi:

sinash va sertifikatlashtirishni tashkil etadi va o'tkazadi, muvofiqlik belgisini qo'llash xuquqini berish uchun kelishuvlarni rasmiylashtiradi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar reestrini yuritadi, muvofiqlik sertifikatlarini ruyxatga oladi;

“O‘zstandart” agentligiga taqdim etish uchun sinash va sertifikatlashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan ishlar xaqida xisobotlarni tayyorlaydi;

sertifikatlashtirilgan mahsulotlar va xizmatlar ustidan inspeksiya nazoratini o‘tkazadi;

mahsulotlarni sertifikatlashtirish va sinash masalalari bo‘yicha respublika korxonalari va tashkilotlariga uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;

Korxonaning tarkibiga kiruvchi sertifikatlashtirish idoralarining va akkreditatsiyalangan laboratoriyalarning ichki auditini tashkil etadi;

sertifikatlashtirish tashkil etilganida uning sxemalarini tanlaydi;

Sertifikatlashtirish Milliy Idorasi topshirig‘i bo‘yicha akkreditatsiyalangan sertifikatlashtirish idoralari va laboratoriyalarining faoliyatini inspeksiya nazoratidan o‘tkazishda qatnashadi;

Korxonaning akkreditatsiyalangan laboratoriyalarida o‘lchash vositalarini xisobini olib boradi;

sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi va natijalarini rasmiylashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

O‘zbekiston xududida realizatsiya qilinadigan iste‘mol tovarlarning davlat tilidagi markilovkalarini tayyorlash xizmatlarini ko‘rsatadi;

yuklarni ortishdan va tushirishdan avvalgi inspeksiyaning xamda import kontraktlari bo‘yicha respublikaga olib kiriladigan tovarlarning baxosi yuzasidan ekspertiza xizmatlarini bajaradi;

ekspert xulosalar berish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlarni tasniflash TIF TN bo‘yicha tovar kodlarini aniqlaydi hamda mahsulotlarning majburiy sertifikatlashtirish ruyxatiga kirish yoki kirmasligi to‘g‘risida xulosalar rasmiylashtiradi;

tashqi savdo, texnik va boshqa ish yuritish xujjatlar tarjimasini amalga oshiradi;

marketing tadqiqotlar o‘tkazadi;

faoliyatiga oid adabiyotlarni nashr etishda va tarqatishda qatnashadi;

fors-major xolatlarni aniqlaydi va ekspert xulosalarini taqdim etadi;

me'yoriy xujjatlar fondini tashkil etish va shakllantirish, uni yuritish va aktuallashtirish ishlarida qatnashadi, shu jumladan ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlaydi, ularga bo'lgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar loyixalarini tayyorlash, shuningdek xalqaro standartlarining talablarini xisobga olgan holda yangi xujjatlarni ekspertizasini o'tkazish va ularni kelishish ishlarida qatnashadi;

korxona va tashkilotlarga xalqaro standartlarga muvofiq sifat tizimlarini joriy etish bo'yicha metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

korxona va tashkilotlar bilan birgalikda majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar ruyxati bo'yicha takliflar tayyorlaydi va "O'zstandart" agentligiga taqdim etadi;

xujjatlarni nusxa ko'chirish yo'li bilan ko'paytirish xizmatini amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiradi.

10.6. Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish idoralari va akkreditlangan sinash laboratoriyalari

Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlagan idoralar quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

- muayyan turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqadi;

- Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish (BMS) tizimida sertifikatlashtirilishi kerak bo'lgan muayyan turdagi mahsulotlarni aniqlashda ishtirok etish;

- muayyan turdagi mahsulotni sertifikatlashtirishi o'tkaziladigan MH fondini aniqlash va yuritish;

- sertifikatlashtirishni tashkil qilish va o'tkazish;

- muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, berish va tan olish;

- sertifikatlashtirilgan mahsulotlarning reestrini yuritish;

- berilgan mahsulotni sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot berish;
- O'zDSt 51-032 standartida o'rnatilgan tartib asosida sertifikatlashtirish ishlarining mehnat sarfi va qiymatining hisob-kitob me'yorlarini aniqlash;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksion nazorat o'tkazish.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, O'z SMT qoidalarini bajarayotgan va O'zDSt 5.2 standarti talablariga javob beruvchi tashkilotlar sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida akkreditlanishi mumkin.

Akkreditlangan sinash laboratoriyalari (markazlari) O'z SMTda quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishadi:

- mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha sinovlarni o'tkazish va sinov dalolatnomalari berish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini, agar bu sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo'lsa, inspeksion (tekshirish) sinovlarini o'tkazish;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (sinovlarni o'tkazishning to'g'riligi borasida) ishtirok etish.

Sinash laboratoriyalari (markazlari) sifatida "O'zstandart" agentligi va uni hududiy idoralarining laboratoriyalari, ilmiy-tekshirish va konstruktorlik tashkilotlarining sinov markazlari, boshqa laboratoriyalar va mulkchilik ixtiyoriy shaklidagi markazlar akkreditlanishi mumkin.

10.7. Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish idoralari

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan idoralar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshiradi:

- sifat tizimlarini dastlabki baholashni o'tkazadi va sertifikatlashtirishni o'tkazish uchun kontraktlar tuzadi;
- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usullarini va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarishning auditini o'tkazadi;
- sifat tizimi yoki ishlab chiqarish sertifikatlarini rasmiylashtiradi, sertifikatni beradi va tan oladi;

- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarishlar ustidan inspeksion nazoratni amalga oshiradi;

- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradi.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar sifatida "O'zstandart" agentligining hududiy idoralari, bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha idoralar va boshqa ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga tobe bo'lmagan va belgilangan talablarga javob beradigan boshqa tashkilotlar akkreditlanishi mumkin.

Mahsulot yoki buyum ma'lum tekshiruvdan o'tganligini, tekshiruvning xaqqoniyligi yoki sertifikatlashtirish idorasi tomonidan tekshirilganligini isbotlaydigan dalil - tamg'a, etiketka, sertifikat, ilova qilib yuboriladigan ro'yxat, sertifikatlashtirilgan mahsulotlar ro'yxati yoki korxona tayyorlovchilarning ro'yxati hisoblanadi.

Muvofiqlik sertifikatini sertifikatlashtirish idorasi yoki uning nomidan akkreditlangan idora tomonidan berilishi mumkin.

Sertifikatda qayd etiladigan ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

- sertifikatlashtirish idorasining nomi va manzili;

- tayyorlovchining nomi va manzili;

- mahsulotni va uning to'dasini belgilanishi, seriya raqami, sertifikatlashtirishga tegishli bo'lgan model yoki mahsulot turi;

- tegishli standartga havola;

- vakil-shaxsning imzosi va lavozimi.

Quyidagi keltirilgan hollarda sertifikat bekor qilinishi mumkin:

- agar mahsulot (buyum, mol) ning tarkibiga yoki uni ishlab chiqarish texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritilsa, bu esa o'z navbatida sertifikatlashtirish bo'yicha qilinayotgan tekshiruvda uning tavsiflarida o'zgarishlarga olib kelsa, hamda shu mahsulot namunalarining sinovlari qo'shimcha bayonnomadagi standart talablariga mosligi tasdiqlanmasa;

- ishlab chiqarish texnologiyasining buzilishi va korxona-tayyorlovchi mahsulotining sifati pasaysa yoki material bilan ta'minlovchi tomonidan

komplektlash detallari, yig'ish qismi tegishli standartlar talablarini buzilishiga olib kelsa.

Sertifikatlashtirish natijalarini, tizim idorasi tomonidan sertifikatlashtirish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni har doim chop etilishi lozim. Bu ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- akkreditlangan sinov tashkilotlarining ro'yxati;
- attestatlangan korxonalardagi sertifikatlashtirilgan mahsulot ro'yxati;
- sertifikatlashtirish hujjatlarining ro'yxati.

Bu ro'yxatlarni sertifikatlashtirish milliy idorasi bo'yicha qilinadigan ishlarda qatnashuvchi vazirliklarga yuboriladi.

XI BOB. METROLOGIYA XIZMATI

SHu narsani yodingizdan chiqarmang, ushbu bob mavzusini o'rganishdan ko'zlangan maqsad- quyidagi savollarga javob topishdir:

- *O'lchovlarga bo'lgan extiyojni paydo bo'lishini tushintirib bering?*
- *O'lchov ob'ektlari va vositalari haqida nimalarni bilasiz?*
- *“O'zstandart” agentligining metrologiya sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?*
- *O'zbekiston milliy metrologiya instituti davlat korxonasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari to'g'risida nimalarni bilasiz?*
- *O'zbekiston Respublikasida metrologiya xizmati va nazorati to'g'risida gapirib bering?*

11.1. O'lchovlarga bo'lgan extiyojni paydo bo'lishi

Metrologiya o'lchash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi. Metrologiya so'zi - grek tilidan olingan bulib, “metro” - o'lchov /mera/, “logos” - so'z, ilm, fan ya'ni ta'limot degan ma'noni anglatadi. Metrologiya - bu o'lchovlar uni ta'minlash usullari va vositalari hamda talab etilgan aniqlikka erishish yo'llari xaqidagi fandir. O'lchov deganda keng tarqalgan o'lchov birligi tushuniladi. Ming yillar davomida faqat uzunlik, maydon, xajm, og'irlik va vaqt o'lchovlari qabul qilingan. Metrologiya tarixi xaqidagi asarlar ana shu o'lchovlarni, shuningdek, narx-navoga oid tavsifnomalarni ko'rib chiqish bilan cheklanadi.

O'lchovlarga bo'lgan ehtiyoj juda qadim zamonlardan paydo bo'lgan. Qimmatbaho toshlar og'irligi o'lchangan karat birligi xozirgi kunga xam yetib kelgan. Uning ma'nosi janubiy sharqiy tillarda dukkakli don urug'i, nuxat degan ma'noni bildiradi.

Kiev rusida uzunlik birligi sifatida xalq orasida vershok ishlatilgan bo'lib, u ko'rsatkich barmoqning oxirgi bug'in uzunligiga teng bo'lgan.

Pyadъ uzunlik birligi, “pyaternya”, “pyatъ” so'zlaridan olingan bo'lib, kerilgan bosh va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofaga teng bo'lgan. SHu

bilan birga tabiiy o'lchovlar ham o'zining kelib chiqish tarixiga ega. Ular hozirgi vaqtda keng tarqalgan vaqt o'lchov birliklaridir. Astronomik kuzatishlar asosida qadimgi vavilonliklar yil, soat, oy birliklarini topishgan.

Er sharining o'z o'qi atrofida aylanish davri ulushining $1/86400$ qismiga teng kattalik sekund deb nom olgan.

Eramizdan oldingi II asrda Vavilonda vaqt mina birligida o'lchangan. Mina bu suv soatidan oqib tushgan vaqtga teng bo'lgan, suvning og'irligi 500gr. bo'lgan.

SHundan so'ng minut so'zi kelib chiqqan. 1824 yilda uzunlik birligi sifatida yard qabul qilingan.

Savdo sotiqning rivojlanishi nafaqat o'lchovlarni aniqlashtirishni, balki ularni dengiz orti o'lchovlari bilan moslashtirish, nazorat tekshiruv faoliyatini kuchaytirishni ham taqozo etadi.

XVII asrda Frantsiyada yashab o'tgan astronom Mutan 10 lik asosda o'lchov tizimini qurish g'oyasini taklif qilgan. O'sha davrda feodallar o'zlarining o'lchov birliklaridan foydalanish huquqiga ega bo'lgan. Frantsiyada soliqlar yig'ish va boj to'lovlarini undirishda yakdillikka erishish dolzarb masalalardan biri bo'lgan. 1790 yil 8 mayda Frantsiya Ta'sis yig'ini o'lchov tizimini isloh qilish haqida dekret qabul qiladi va Parij fanlar akademiyasiga mos takliflar ishlab chiqishni topshiradi.

Lagranj rahbarlik qilgan akademiya komissiyasi o'lchov birliklarining o'nlik tizimini taklif qiladi, tarkibiga Laplas kirgan boshqa bir komissiya uzunlik o'lchovi birligi sifatida yer meridianining milliondan bir qismini qabul qilishni taklif qiladi. Ana shu yagona birlik metr asosida metrik sistema shakllandi.

Maydon - m^2 , hajm - m^3 , massa - kg ($4^{\circ}S$ temperaturada toza suvning 1 dm^3 dagi massasi) ushbu metrik tizim asosida qabul qilingan.

1799 yil bu ish xalqaro komissiya nazorati ostida kuzatilib Frantsiya arxiviga topshirilgan.

O'zining afzalliklariga qaramasdan metrik sistema qiyinchilik bilan joriy qilinadi.

Metrologiyaning rivojisiz zamonaviy o'lchov texnikasini yaratish va undan samarali foydalanish imkoniyati yo'q. XIX asr boshida uzunlik, yuza, xajm va massa o'lchangan bo'lsa, xozirgi paytda texnika va texnologiyalarda o'lchanadigan fizik kattaliklarning turlari ortib, ularning o'lchov diapazoni chegaralari kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida o'lchash uslublari va texnikasining bir xilligini ta'minlash, o'lchash natijalarining aniqligi yuqori bo'lishiga erishish va jarayonni tezkor usulda amalga oshirishni talab etadi.

Xozirgi kundagi murakkab jarayonlarni va zamonaviy texnikani aniq va tez ishlovchi o'lchash komplekslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, kosmik ob'ektlarni boshqarish, atom reaktorlarining ishini tashkil etish, yuqori bosim va harorat ostida ishlovchi texnologik ob'ektlardan masofada turib ma'lumot olish va shu asosda ularni samarali ishlatish va boshqalar.

1993 yilning 28 dekabrda ketma-ket uchta, ya'ni "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Metrologiya to'g'risida"gi va "Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. Bu qonunlarning xayotga tadbiq etilishi respublikamizdagi mavjud metrologiya xizmatini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi "Metrologiya to'g'risida"gi qonuni respublikamizda metrologiyaning rivojlanishiga va metrologik ta'minot masalalarini xal etishning mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

11.2. O'lchov ob'ektlari va vositalari

O'lchashning asosini o'lchash uslublari va o'lchov texnikalari tashkil etadi. O'lchash jarayonida o'lchanayotgan kattalik, unga o'xshash bo'lgan kattalik u etalon, namuna va boshqalar bilan tajriba asosida taqqoslanadi, ya'ni namunaga nisbatan qiymati aniqlanadi.

"O'lchash" tushunchasining zamonaviy talqini - maxsus texnika vositalari yordamida fizik kattaliklarni aniqlashning tajribaviy usuli. Misol uchun, xavo haroratini termometr yordamida o'lchash yoki metall o'qlar diametrini shtangentsirkul'y yordamida o'lchash va boshqalar.

O'lchanadigan o'lchov kattaligi deb ob'ekt yoki jarayonning ma'lum xossasi tushuniladi va bu xossa sifat jihatdan ajratilgan va miqdor jihatdan aniqlangan bo'lishi kerak.

Zamonaviy nuqtai nazardan predmetlarning o'lchamlarini o'lchashda ularning xossalari tabiiy yaratilishi mumkin. Masalan atrofimizdagi fazo ob'ekt, uning xossasi esa cho'zilganligidir. Bu xossa uzunlik kattaligi yordamida o'lchanadi. Faqatgina uzunlik fazo kattaligini belgilab berolmaydi. Fazo kattaligini to'liq belgilash uchun burchak, maydon, hajm birliklarini ham ishlatish kerak.

Real dunyoda har qanday voqea va hodisalar ma'lum vaqt davomida sodir bo'ladi. Muddat bir ob'ekt deb olinsa, uning xossasi vaqt kattaligi bilan o'lchanadi.

Jismlarning tashqi ta'sir bo'lmaganida tinch holatini saqlashi yoki tekis to'g'ri harakat qilishi jismning inertligi deb ataladi. Jismning inertligi uning xossasi bilan belgilanadi. Inertlik o'lchov birligi massa.

Ma'lum holatgacha qizdirilgan jismlar oldingi holatidan sifati bilan farq qiladi. Temperatura degan kattalik yordamida jismning qay darajada qizdirilganligi tushuntiriladi. Yuqoridagilarning barchasi fizik kattaliklarga kiradi. SHu guruhga tekislik va fazoviy burchak, kuch, bosim, tezlik, tezlanish, elektr kuchi, induktivlik, yorug'lik kuchi va boshqa kattaliklarni kiritish mumkin.

Metrologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik standartlashtirish sohasidagi hamkorlikdek xalqaro savdoga ko'maklashadi. Hamkorlik natijasida o'zaro hamjihatlikni kafolatlaydigan o'lchashlarga yagona yondashish paydo bo'ladi, o'lchash usullari va vositalarini bir xillashtirish va standartlashtirish amalga oshiriladi, mahsulotni o'lchash, sinash va nazorat qilish natijalarini o'zaro tan olish imkoni paydo bo'ladi.

Zamonaviy etalon majmualarini yaratish va ularni saqlash texnikaviy murakkab va iqtisodiy jihatdan qimmat masala bo'lganligi ham metrologiya sohasidagi keng xalqaro kooperatsiyani talab qiladi. SHunig uchun bu masalani xalqaro hamkorlik asosida yechish maqsadga muvofiqdir.

Yagona o'lchov tizimi – bu o'lchovning shunday holatiki, birliklar albatta qonunlashtirilgan va xalqaro birliklarda o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Har bir

o'lchov etalon namunalarida ko'rsatilgan birliklarda va o'lchov orasidagi xatolik ko'rsatilgan darajadan oshmasligi lozim bo'ladi.

Yagona o'lchov tizimi to'rt asosiy tamoyilga asoslangan bo'ladi:

1. Natija ko'rsatilgan birlikda bo'lishi;
2. O'lchov birligi, o'lchov vositasi, uning ko'rsatkichlari etalon ko'rsatkichlari bilan bir xil bo'lishi lozim;
3. O'lchashdan o'rtacha xatolik aniq bo'lishi lozim;
4. O'lchashdagi xatolik o'rnatilgan darajadan ortmasligi zarur.

Yuqorida keltirilgan asosiy tamoyillarga amal qilmay yagona o'lchov shartlarini bajarib bo'lmaydi.


Yagona o'lchov tizimini joriy etishda xalqaro ISO – tizimi bo'yicha 9000 – seriyalari talabiga javob berishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida yagona o'lchov tizimini joriy etish bo'yicha xalqaro o'lchov tizimi (SI) joriy etilgan.

Xalqaro meqiyosda yagona o'lchov tizimi "tosh-torozi va o'lchovlar"ga bag'ishlangan 1961 oktyabr oyidagi XI – xalqaro konferentsiyada qabul qilinadi. Xalqaro SI tizimi yettita asosiy birlikni qabul qilgan. Ular: metr, kilogram, sekund, amper, kelvin, mol, kandela.

Barcha o'lchov vositalari unifikatsiyalangan birlikda bo'lib, kerakli standart talablariga javob beradi. Har bir o'lchov natijasi yuqori aniqlikda bo'lishi talab qilinadi va ular etalonga mos ravishda ko'rsatkichlar ketma-ketligini aniq qaytara olishi lozim.

11.2.1 - rasmda etalonlar klassifikatsiyasi keltirilgan bo'lib, barcha etalonlar faqat davlat etalonlari bo'lib xizmat qiladi. Birlamchi etalon davlat etaloni bo'lib xisoblanadi va u yuqori aniqlikdagi natijalarga asoslanadi. Ikkilamchi etalon tashkilot va korxonalar uchun nazorat etaloni bo'lib xizmat qiladi. Taqqoslash etalonlari mahsulotlarni etalon bilan taqqoslash lozim bo'lsa, dastlabki etalonni keltirish, tashish kabi muammolari bo'lgan vaqtda ishlatiladi.



11.2.1-rasm. Etalonlar klassifikatsiyasi

Ishchi etalonlar zaruriyat tug'ilgan xolda 1 – 2 – 3 – 4 – razryadlarga ajratiladi. Ishchi etalonlar bevosita ishlab chiqarish korxonalarida va maxsus laboratoriyalarda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. O'lchovning aniqlik darajasi dastlabki etalondan farq qilmasligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ning fizik o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. Fizik o'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari "O'zstandart" agentligining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga ruxsat berishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida shartnoma shartlariga muvofiq fizik o'lchamlarning o'zga birliklari ham ishlatilishi mumkin.

Fizik o'lchamlarning birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta tayyorlanadi.

Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Foydalanishda bo'lgan o'lchov vositalari o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashi va qo'llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o'lchov vositalariga mansub deb topish mezonini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

O'lchovlarni bajarish uslublari o'lchov natijalarining xatoliklarini baholashni o'z ichiga olishi va o'lchov o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan

aniqlikni ta'minlashi lozim. O'lchovlar belgilangan tartibda attestatsiya qilingan o'lchovlarning bajarilish uslublariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim.

O'lchovlarni bajarish uslublarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiya qilish tartibini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

11.3. O'zbekiston milliy metrologiya instituti davlat korxonasining vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 apreldagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2935-sonli qaroriga muvofiq mavjud "Milliy etalonlar markazi" davlat muassasasi, "Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazi" davlat korxonasi va "Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti" davlat muassasasining metrologik bo'linmalari negizida "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi ("O'zMMI" DK) tashkil etildi.

Yuqoridagi qarorga asosan "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasining faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy etalonlar bazasini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha choralarni amalga oshirish;
- etalonlar, eng yuqori aniqlikdagi o'lchov vositalarini saqlab turishi, ularni xalqaro darajada solishtirishi, shuningdek, o'lchov birliklarini saqlashi va uzatishi;
- o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha normativ xujjatlarni ishlab chiqishi, metrologik nazorat natijalarini o'zaro tan olish bo'yicha xalqaro shartnomalarni amalga oshirishi;
- metrologik tekshiruvni va metrologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishi.

"O'zbekiston milliy metrologiya instituti" DK ga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, biriktirilgan hududlarda va o'lchash turlari bo'yicha o'lchashlar birligi va ishonchliligini ta'minlash;

- yuqori aniqlikdagi chiquvchi va namunaviy o'lchash vositalarini saqlash va tegishli darajada saqlab turish;

- davlat metrologiya xizmatini rivojlantirish;

- mavjud yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalari va usullarini takomillashtirish, yangilarini yaratish, o'lchash, nazorat va sinash vositalarini standartlashtirish;

- o'lchash vositalari turini tasdiqlash maqsadida davlat sinovlari bo'yicha ishlarni tashkil qilish;

- o'lchash vositalarini metrologik attestatsiyalash, qiyoslash va kalibrlash ishlarini tashkil qilish;

- yuridik shaxslarning metrologik xizmatlarini o'lchash vositalarini kalibrlash va ta'mirlash huquqiga akkreditlash.

Ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun Metrologiya xizmatlari ko'rsatish markazining qiyoslash laboratoriyalari yuqori aniqlikdagi qiyoslash asbob-uskunalarini hamda namunaviy o'lchash vositalariga ega.

11.4. Metrologik nazorat va xizmatlar

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat va yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tashkil topadi.

“O'zstandart” agentligi boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi.

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruvini va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari zarurat bo'lgan hollarda o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish va metrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

Yuridik shaxslar metrologiya xizmatlarining huquq va burchlari davlat metrologiya xizmati organlari bilan kelishib olingan nizomlar bilan belgilanadi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati metrologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagilar davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining ob'ektlari hisoblanadi:

- etalonlar;
- o'lchov vositalari;
- moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari;
- axborot-o'lchov tizimlari;
- o'lchovlarni bajarish uslubiyotlari;
- metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga ob'ektlar.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati quyidagilarga nisbatan tadbir etiladi:

- sog'liqni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;
- moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish;
- savdo-tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish, telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish;
- zaharli, yengil alanganuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish hamda yo'q qilib tashlash;
- davlat mudofaasini ta'minlash;
- mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash;
- sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;

- geodezik va gidrometeorologik ishlar;
- o'lchov vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrlashdan, ta'mirlash va metrologik attestatsiyadan o'tkazish;
- foydali qazilmalarni qazib olish;
- milliy va xalqaro sport rekordlarini ro'yxatga olish.

O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlariga binoan davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati faoliyatning o'zga doiralariga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin.

Davlat metrologiya tekshiruvi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

- o'lchov vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;
- o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish;
- o'lchov vositalarini, shu jumladan, etalonlarni tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash;
- o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, metrologik attestatsiya qilish, o'lchov vositalarini va metrologiya faoliyatning boshqa muayyan turlarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarning o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish, ularning ijarasi bilan shug'ullanishga doir faoliyati litsenziyalanayotganda mazkur shaxslarning belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etishlarini baholash hamda tasdiqlash;
- o'lchovlarning bajarilish sifatini va metrologiya faoliyatining boshqa turlarini baholash.

Davlat metrologiya nazorati quyidagilar ustidan amalga oshiriladi:

- o'lchov vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, ularning ijarasi bilan shug'ullanish, ularni realizatsiya qilish, ularning holati va qo'llanilishi (fizik

o'lchamlar birliklari etalonlarini, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalarini, o'lchov tizimlarini qo'shgan holda);

- o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarining qo'llanilishi;
- belgilangan metrologiya me'yorlari va qoidalariga rioya etilishi hamda akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari.

Ko'rsatilgan doiralarda foydalaniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo'yicha chetdan olib kelinishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari davlat sinovlaridan (keyinchalik ularning turini tasdiqlash sharti bilan) yoki metrologik attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

O'lchov vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, turini tasdiqlash va Davlat reestriga kiritishni "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi.

Tasdiqlangan o'lchov vositalariga yoki ularning foydalanish hujjatlariga ishlab chiqaruvchi Davlat reestri belgisini qo'yishi shart.

Boshqa davlatlarning o'lchov vositalarini sinash va metrologik attestatsiyalash natijalari tuzilgan shartnomalar hamda bitimlarga muvofiq e'tirof etiladi.

Tekshiruvdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari turkumlarining ro'yxati "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologik xizmatlariga o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish huquqi berilishi mumkin.

Boshqa davlatlarda amalga oshirilgan o'lchov vositalarini tekshirish natijalari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida e'tirof etiladi.

Boshqa sohalarda qo'llaniladigan va majburiy tekshiruvdan o'tkazilmaydigan o'lchov vositalari ularni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ishlatish, ijaraga berish, ta'mirlashda va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda kalibrlashdan o'tkazilishi mumkin.

O'lchov vositalarini kalibrlash huquqi yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlariga berilishi mumkin.

Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini o'lchov vositalarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun akkreditatsiya qilish tartibi va kalibrlashni o'tkazish tartibi "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijarasi bilan shug'ullanish qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan litsenziya asosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi

Me'yoriy va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish, ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash, ta'mirlash, sinash, metrologik attestatsiya qilishni amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu qoidalar, shuningdek metrologiya normalari va qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari, davlat boshqaruv organlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Davlat tomonidan quyidagilar moliyaviy ta'minlanishi shart:

- metrologiyani rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish;
- metrologiya sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;
- metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida qatnashish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;
- metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishda qatnashish;
- metrologiya sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;
- metrologiya bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni o'tkazish;
- o'lchovlarning yagona birligini ta'minlashga doir "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadigan me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

- fizik o'lcham birliklarining etalonlarini va o'ta aniq namunaviy o'lchov vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, sotib olish va asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash;

- moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalarini, shuningdek moddalar va materiallarning fizik konstantalari hamda xossalariga oid standart spravka ma'lumotlari ishlab chiqish va joriy etish davlat tizimlarini rivojlantirishga doir ishlar.

O'lchov vositalarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini attestatsiya qilish, me'yoriy va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, texnik jihatdan asosiligi hamda belgilangan metrologiya me'yorlari va qoidalariga muvofiqligini, o'lchovlarning bajarilish sifatini baholash bo'yicha yuridik hamda jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan metrologiya ishlari va xizmatlari uchun, shuningdek metrologiya faoliyatining davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan turlari uchun manfaatdor shaxslar tomonidan haq ular bilan tuziladigan shartnomalarning shartlariga muvofiq to'lanadi.

XII BOB. ISTE'MOLCHILAR XUQUQLARINI DAVLAT TOMONIDAN XIMOYALANISHI

Siz uchun eng qiziqarli va dolzarb mavzulardan birini yorituvchi ushbu bobni o'qiganda, quyidagi savollarga javob topishga harakat qiling:

•O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan iste'molchilarning asosiy xuquqlari nimalardan iborat?

•Ishlab chiqaruvchi va sotuvchining iste'molchi oldidagi majburiyatlarini bilasizmi?

•Iste'molchilar xuquqlarini ximoyalashda sud, xuquq-targ'ibot organlarining vazifalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

•Mamlakatimizda iste'molchilar huquq va manfaatlarini kafolatlaydigan qonunchilik bazasini tushuntirib bering?

•Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Agentligining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

• Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Agentligiga qanday xuquqlar berilgan?

12.1. Iste'molchilar xuquqlari va ishlab chiqaruvchi korxona to'g'risidagi axborot turlari

Asosiy qomusimiz-Konstitutsiyaning 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning xayoti, erkinligi, sha'ni, qadr qiymati va boshqa daxlsiz xuquqlari oliy qadriyat xisoblanadi" deb qat'iy belgilangan. Mazkur normada xuquqiy demokratik davlat, odil fuqorolik jamiyati qurishdek umume'tirof etilgan yo'lni tanlagan mamlakatimizda inson, uning shaxsi yuqori darajada ulug'langanligini ko'rish mumkin.

Xozirgi kunga qadar mamlakatimizda faqat axoli salomatligi va xayoti xavfsizligini muxofaza qilish hamda ta'minlash maqsadida xuquqiy tartibga soluvchi, himoya qiluvchi, kafolatlovchi, javobgarlikni belgilovchi bir necha

qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Maxkamasi qarorlari, tegishli vazirlik va idoralarning me'yoriy xujjatlari qabul qilingan va amalda qo'llanilmoqda.

Yaratilgan xuquqiy baza va erkin shart-sharoit hamda imkoniyatlar mavjudligiga qaramay, ayrim shaxslar tomonidan normativ-xuquqiy xujjatlarni buzib faoliyat ko'rsatish holatlari ko'plab uchrab turibdi. Bunday shaxslarning noqonuniy xatti xarakatlariga chek qo'yish va boshqa shaxslarning ham xuquqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan faoliyat bilan shug'ullanishlarini oldini olishda, O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuni katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan iste'molchilarning asosiy xuquqlari quyidagilardan iborat:

Tovar (ish, xizmat) xaqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi(ijrochi, sotuvchi) xaqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi;

xayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli no'qsoni bo'lgan tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararining to'liq xajmda qoplanishi;

buzilgan xuquqlari yoki qonun bilan muxofaza etiladigan manfaatlari ximoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy ximoyaga muxtojlar toifalariga kiritilgan ayrim guruxlari uchun qonun xujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (yuridik) manzili xaqida iste'molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko'rsatilgan bo'lishi, yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) o'z tashkiloti, firmaning nomi, uning joylashgan (yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchiga ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot lavxada aks ettirilishi lozim.

Yuqoridagi ma'lumot savdo va xizmat ko'rsatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko'chma do'konchalar orqali amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko'rsatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa xollarda ham iste'molchilar e'tiboriga yetkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdagi xizmat ko'rsatishning qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumot berishi shart.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar xaqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat)lar xaqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ xujjatning nomi;

tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlari ruyxati;

baxosi va sotib olish shartlari;

ayrim turdagi tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatlari;

tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari va shartlari;

tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarning bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergan, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarning manzillari;

tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari.

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar xaqida iste'molchiga uning sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) xaqidagi zarur axborotni yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatilib turilishiga sabab bo'ladi.

Agar tovar (ish, xizmat) xaqida noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot berilganligi:

zarur iste'mol xossalariga ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olishga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilishga xaqlidir;

sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga xaqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararining qoplanishini talab qilishga xaqlidir;

iste'molchining xayotiga, sog'lig'iga, yoxud mol-mulkiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun xujjatlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga xaqlidir.

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) xaqidagi noto'g'ri yoki yetarli darajada to'liq bo'lmagan ma'lumot tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jixatlari xaqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq xajmda qoplanishi lozim.

12.2. Ishlab chiqaruvchi va sotuvchining iste'molchi oldidagi majburiyatlari

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib olish xuquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Narxnoma bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar xaqida iste'molchilar e'tiboriga xavola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb xisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnoma, miqdor, narx va boshqa muxim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnoma tuzilgan deb xisoblanadi.

Tuzilgan xaxoti bajariladigan shartnoma, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun xujjatlarida belgilab qo'yilgan xollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan buyurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa xollarda) bajariladigan shartnoma yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish xuquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o'lchov asboblarini, narxga doir xujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga yuborishi shart.

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdagi tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab xisoblanadi. Agar tovar sotilgan kunni aniqlashni imkoni bo'lmasa, bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab xisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati davomida tovar (xizmat)ning, shu jumladan butlovchi buyumlarning normal ishlashini (qo'llanilishini) ta'minlashi shart.

Butlovchi buyumlarning kafolat muddati agar qonun xujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, asosiy buyumning kafolat muddatidan kam bo'lmasligi lozim.

Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, tovarning ta'mirlanishini va unga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etishi, tovarni ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovarning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo'lmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishdan olib tashlangan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida yetarli xajmda va turda extiyot qismlar ishlab chiqarishi hamda savdo va ta'mirlash tashkilotlariga yetkazib berishi shart.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ular ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Sotuvchining yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan yoki bu muddati o'tib ketgan tovarlarni qabul qilishi va realizatsiya qilishi man etiladi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar iste'molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e'tiboran o'n yil mobaynida uning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi shart.

Iste'molchining xayoti, sog'lig'i, mol-mulki hamda atrof muxit uchun xavf tug'diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko'rsatilganlik) uchun qonun xujjatlariga muvofiq:

ishlab chiqaruvchi (ijrochi);

normativ xujjatlarni tasdiqlagan organ;

muvofiqlik sertifikati bergan organ;

sog'liqni saqlash, tabiatni muxofaza qilish, veterinariya xizmati ko'rsatish organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergan organlar javobgar bo'ladilar.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste'molchining xayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga yoki atrof

muxitga zarar yetkazayotganligi, yoxud zarar yetkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darxol to'xtatishi, muomiladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish choralarini ko'rishi shart.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni taqiqlab qo'yish munosabati bilan iste'molchiga yetkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq xajmda qoplanishi lozim.

No'qsonli tovar sotilgan xolda iste'molchi, agar bu xol shartnoma tuzish paytida aytib o'tilmagan bo'lsa, o'z xoxishiga qarab quyidagilarni birini talab qilishga xaqli:

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish:

tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning harid narxini qayta xisob-kitob qilish;

tovarning no'qsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsning no'qsonlarni bartaraf etishga qilgan harajatlarini qoplash;

harid narxini no'qsonga mutanosib rivishda kamaytirish;

shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa no'qsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni aynan shunday markali (modelli, artikulli) tovarga yetti kunlik muddatda, tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lmagan taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. CHo'l va olis joylarda, tovarlar vaqti-vaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga

navbatdagi tovar yetkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtda tovar baxosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi no'qsonli tovarni boshqa markali(modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, harid narxini tegishlicha qayta xisob-kitob qiladi.

Tovarda kafolat muddatida topilgan no'qsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o'n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning no'qsonlarini bepul bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga xaqli. Bunday talab, basharti tovarida ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'l qo'yilgan jiddiy no'qsonlar aniqlangan bo'lsa, belgilangan xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati belgilanmagan bo'lsa, o'n yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish xaqidagi talabini bajarilish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek no'qsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste'molchiga neustoyka (penya)to'laydi.

12.3. Iste'molchilar xuquqlarini ximoyalashda sud, xuquq-targ'ibot organlarining vazifalari

Davlat iste'molchilarni tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi xuquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari ximoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarning xuquqlari davlat tomonidan ximoya qilinishini davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

Quyidagilar iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlari xisoblanadi; Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshirishga vakil qilingan organ, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi), O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi, iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

Iste'molchilar xuquqlari ximoya qilinishi uchun maxalliy xokimiyat organlari:

iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish sohasidagi qonun xujjalari bajarilishini tashkil etadilar;

iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar;

iste'molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar;

iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) xuquqlarini ximoya qilib sudlarga murojaat etadilar;

o'z xuquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi organ va uning maxalliy organlari iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish maqsadida:

iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risidagi qonun xujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risidagi qonun xujjatlarini qo'llanish masalalari yuzasidan rasmiy tushuntirishlar beradilar;

iste'molchilarning xuquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko'rsatmalar yo'llaydilar;

iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) xuquqlarini ximoya qilib, sudga murojaat etishga xaqlidir;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishini va ularning sifatini ta'minlash maqsadida O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi), O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qumitasi hamda tovar (ish, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida:

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishiga va ularning sifatiga doir majburiy talablarni belgilaydilar hamda bu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishiga va ularning sifatiga doir talablar buzilishini bartaraf etish, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, chiqarish va realizatsiya qilishni to'xtatish (ishlar bajarilishini, xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatish), ularni iste'molchilardan qaytarib olish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko'rsatmalar yo'llaydilar va bu xaqda iste'molchilarni xabardor qiladilar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifatiga doir talablarni buzganlari taqdirda ularning ustidan sudlarda da'vo qo'zg'atadilar.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organlari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Xukumati muvofiqlashtirib boradi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilarning xuquqlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshirishga vakolatli organ va uning maxalliy organlari, agar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilar xuquqlarining buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarni bajarishdan buyin tovlasa yoki o'z vaqtida bajarmasa, unga jarima solishga xaqli.

O'zstandart agentligi va iste'molchilar xuquqlarini ximoya qilish bo'yicha davlat boshqaruvining boshqa organlari:

tovarlarni(ishlarni, xizmatlarni) majburiy sertifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

o'zlarining ko'rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo'yin tovlasa, o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

normativ xujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, jarimalar solishga xaqlidir.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasini to'liq yoki qisman xaqiqiy emas deb topish yoxud jarima solish xaqidagi qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga xaqlidir.

Ariza berish, agar sud ko'rsatmalarning yoki jarima solish xaqidagi qarorning ijro etilishini to'xtatib turish to'g'risida ajrim chiqarmagan bo'lsa, uni sudda ko'rib chiqish davrida bu xujjatlarning bajarilishini to'xtatib qo'ymaydi.

Tovar (ish, xizmat)lar xafsiz bo'lishi xaqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste'molchilarga zarar yetkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xafsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan ijrochi o'zining tugatilishi yoki bankrot bo'lishi extimolini nazarda tutgan xolda iste'molchilarning talablarini sug'urta qildirishi shart. Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun o'zining javobgarligi to'g'risida sug'urta shartnomasi borligi xaqida iste'molchiga axborot berishi shart.

Iste'molchilar o'z xuquqlarini buzilishi bilan bog'liq davolar bo'yicha, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar xafsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarning jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atilgan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

12.4. Iste'molchilar xuquqlarini ximoya qilish

Davlat iste'molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasiga asosan, o'z vakolatlari doirasida mahsulot xavfsizligi, aholining sog'lig'i va mol-mulki, atrof-muhit, resurslarni saqlash yoki standartlashtirish bo'yicha iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qonunchiligiga rioya etilishini quyidagilar nazorat qiladilar

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi;

"O'zstandart" agentligi;

Sog'liqni saqlash vazirligi;

Qurilish vazirligi;

Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi.

Mazkur qonun moddasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida e'tirof etilgan norma bilan himoyalangan. Ya'ni, Konstitutsiyaning yuqorida zikr etilgan moddasida, davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi, deb ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) manfaatlari teng kelib qolganda ustuvorlik iste'molchi tomonidan bo'ladi.

Ma'lumki, davlat vazifalari va funktsiyalarini davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari amalga oshiradilar. SHu ma'noda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish yuzasidan davlatning funktsiyalari davlat hokimiyati boshqaruvi organlari, sudlar tomonidan amalga oshiriladi va iste'molchilar huquqlari himoyasi aynan shu organlar orqali ta'minlanadi.

SHuningdek, mahalliy hokimiyat organlariga mazkur qonunning 24-moddasi orqali iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etish, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarning jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qilish, iste'molchilarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqish, iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etish kabi vakolatlar berilgan.

Mamlakatimizda iste'molchilar huquq va manfaatlarini kafolatlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida", "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi to'g'risida", "Tovar belgilari, xizmat belgilari va tovarni kelib chiqish joyi, nomi to'g'risida", "Standartlashtirish to'g'risida" va "Metrologiya to'g'risida"gi qonunlar hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan bir qator me'yoriy hujjatlar iste'molchi himoyasining huquqiy asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonun – Respublikamizda ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan olib kiriladigan, mahsulotlarning aholiga realizatsiya qilinishi va ko'rsatilayotgan ish va xizmatlarning inson sog'lig'iga xavfsiz hamda sifati lozim darajada bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni – fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlab, insonning toza va sog'lom atrof-muhitda yashashga bo'lgan sharoitini ta'minlashga asosiy e'tiborni qaratadi.

"Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni – oziq-ovqat mahsulotlarini sifati va xavfsizligi bo'yicha, ularni ishlab chiqarish materiallari, qadoqlash, o'rash, markirovka qilish, saqlash, tashish hamda realizatsiya qilishga oid talablarni belgilaydi. SHuningdek, mazkur qonun oziq-ovqat mahsulotlarining sifati hamda xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat nazorati va tekshiruv tartibini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuniga binoan fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash, fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solinadi. SHuningdek, ushbu qonunda asosan fuqarolarning sog'ligiga ta'sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan, yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to'g'risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiqligi to'g'risida o'z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga oid normalar aks ettirilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda iste'molchilar o'zining qonuniy manfaatlarini himoya qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada ularga iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari yaqindan yordam bermoqda.

12.5. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining asosiy vazifasi

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-sentyabrdagi 5817-sonli "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy va institutsional tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasining iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohasida yagona davlat siyosatini hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organi hisoblanuvchi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Agentligi tashkil etildi.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amaliy ijrosini ta'minlash;

- iste'molchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar), ularning ishlab chiqaruvchisi, ijrochisi va sotuvchisi to'g'risidagi haqqoniy va to'liq ma'lumotlarni, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda olish imkoniyatlarini ta'minlash;

- aholining iste'molchilik bilimi va savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- iste'molchilarga ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishda yordam ko'rsatish;

- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsizligi va ularning sifatini nazorat qilish sohasida hamkorlik qilish;

- iste'molchilar huquqi buzilishi sabablarini tahlil qilish, ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda iste'molchilar huquqi buzilishi holatlarining oldini olish;

- tadbirkorlik va iste'molchilik madaniyatini takomillashtirish, reklama sohasida nohalol raqobatga va noto'g'ri reklamaning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida reklama bozorini tartibga solish;

- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohasida fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilish;

- iste'mol bozorini, davlat tomonidan narx-navosi tartibga solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining dinamikasi va shakllanishi mexanizmlarini o'rganish;

- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish.

Agentlikka quyidagi huquqlar berilgan:

a) chakana savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida tovarlar va xizmatlarning nazorat xaridini o'tkazish, ularni iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga mosligi jihatidan ekspertizadan (testdan) o'tkazilishini tashkil qilish;

b) iste'molchilardan ariza va shikoyatlar tushgan hollarda iste'molchilar huquqlariga rioya qilinishini o'rganish;

v) iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi holatlari mavjud bo'lganda, tadbirkorlik sub'ektlarida (moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda) tekshirishlar o'tkazish;

g) iste'molchilarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaroqlilik muddati, saqlash va xizmat ko'rsatish muddatini buzgan holda realizatsiya qilish holati aniqlanganda:

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishi alomatlari aniqlanganda materiallarni vakolatli organlarga, shuningdek, tegishli faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning (ruxsat beruvchi hujjatlarning) amal qilishini to'xtatib turish, tugatish (bekor qilish) to'g'risidagi masalasini hal etish uchun tegishli organlar va tashkilotlarga yuborish;

iste'molchilarning nomuayyan doirasi huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini buzgan shaxslarga nisbatan huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini qo'llash uchun sudlarga arizalar bilan murojaat qilish;

d) davriy bosma nashrlar, kitob mahsulotlari nazorat nusxalari, tele va radiodasturlar efirlarida joylashtirilgan hujjatli materiallar, reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatishga oid materiallarni bepul olish.

Agentlik va Qo'mitaning hududiy boshqarmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq sudlarga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Basovskiy L. Ye., Protashev V. B. Upravlenie kachestvom: Uchebnik. – M.: INFRA – M, 2001. –212 s.
2. Ilenkova S.D. i dr. upravlenie kachestvom. –M.: izdatelskoe ob'edinenie «YuNITI», 1999.
3. ISO 9001 Razrabotka, vnedrenie, sertifikatsiya, uluchshenie sistemy menedjmenta kachestva. Prakticheskoe rukovodstvo dlya spetsialistov po kachestvu. S-Peterburg. OOO “Izdatel'stvo Forum Media”, avgust 2006 g.
4. Kanji J.K. An innovative approach to make ISO 9000 standards more effective // Total Quality Management. Vol.9. №1. 1998. pp. 67-78.
5. Lee-Peng Tan. ISO 9000: The answer for total quality management implementation? The Malaysian case. // Total Quality Management. Vol.12. №2. 2001. pp. 223-229
6. Mazur I.I. Upravlenie kachestvom: Ucheb. posob. - M.: Omega-L, 2005. - 400 s.
7. Mezher T., Ramadan H. The costs and benefits of getting ISO 9000 certification in the manufacturing sector in Saudi Arabia. Quality Assurance. №6 1999. pp. 107-122.
8. Peregudov V.L va boshq. Maxsulot sifati va raqobatbardoshligini boshqarish. T.: “Moliya”, 2002.
9. Poksinska B. The state of ISO 9000 certification: a study of Swedish organizations // The TQM Magazine Vol. 14. №5. 2002. pp. 297-306.
10. Rebrin Yu. I. Upravlenie kachestvom. Uchebnoe posobie. Taganrog: Izd-vo TRGU, 2004
11. Xarrington D. X. Upravlenie kachestvom v amerikanskix korporatsiyax: Sokr. per. s angl. / Pod. red. L. A. Konareva. M.: Ekonomika. 1990.
12. SHarifxo'jaev M, Abdullaev Yo. Menejment. T.: O'qituvchi. 2002.
13. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
14. <http://www.ziyonet.o'z> – Axborot ta'lim tarmog'i.